

**BAXROMJON XAYNAZAROV**

**TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGIDAGI TUB  
BO‘LMAGAN AHOLINING IJTIMOIY-IQTISODIY**

**TOSHKENT – 2023**

**XAYNAZAROV BAXROMJON BAXTIYOROVICH**

Turkiston general-gubernatorligidagi tub bo‘limgan aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti [Matn]: Monografiya / B.B.Xaynazarov – Toshkent: “LESSON PRESS”, 2023. – 270 b.

**Mas’ul muharrir:**

Rahbarxon Murtzayeva – tarix fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

Shokir Gofforov – tarix fanlari doktori, professor

Kamola Saipova – tarix fanlari doktori, dotsent

Keng jamoatchilik e’tiboriga havola etilayotgan ushbu monografiya Turkiston general-gubernatorligidagi tub bo‘limgan aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tarixiga bag‘ishlangan. Bunda Turkiston general-gubernatorligidagi migrantsion jarayonlar va aholi milliy tarkibidagi o‘zgarishlar, tub joyli bo‘limgan aholining moslashuv masalalari va integratsiya jarayonlarini va uning o‘lka hayotiga ta’siri tadqiq etilgan. Shuningdek, tub joyli bo‘limgan aholi sonining ko‘payishini agrar masalaga ta’siri, o‘lkadagi turli xalqlarning iqtisodiy faoliyati hamda tub joyli bo‘limgan aholining ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlarning Turkistondagi tub joyli aholiga ta’sirini kabi masalalar arxiv xujjatlari, davriy matbuot materiallari, xorijiy hamda mahalliy adabiyotlar orqali yoritib berilgan.

Monografiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU Ilmiy-texnik kengashining 2023 yil 27 oktabrdagi 11-sonli bayonnomasi qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH SO‘ZI.....</b>	<b>4</b>
<b>I BOB TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGIDAGI TUB BO‘LMAGAN AHOLINING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTINI O‘RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI .....</b>	<b>6</b>
<b>    1.1 Tub bo‘lmaq aholi tarixini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari</b>	<b>6</b>
<b>    1.2 Mavzu bo‘yicha manbalar tahlili va tarixshunosligi .....</b>	<b>24</b>
<b>    I bob bo‘yicha xulosalar .....</b>	<b>48</b>
<b>II BOB TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGIDA TUB JOYLI BO‘LMAGAN AHOLINING JOYLASHUVI .....</b>	<b>50</b>
<b>    2.1 Turkiston o‘lkasidagi migratsiya jarayonlari va aholi milliy tarkibidagi o‘zgarishlar .....</b>	<b>50</b>
<b>    2.2 Tub bo‘lmaq aholining moslashuvi masalalari va integratsiya jarayonlari .....</b>	<b>75</b>
<b>    II bob bo‘yicha xulosalar .....</b>	<b>94</b>
<b>III BOB TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGIDAGI XALQLAR IQTISODIY HAYOTIDAGI O‘ZGARISHLAR .....</b>	<b>95</b>
<b>    3.1 Turkistonda agrar masalalarning keskinlashuvi va uning mintaqalari hayotiga ta’siri .....</b>	<b>95</b>
<b>    3.2 Tub bo‘lmaq aholining o‘lka iqtisodiy hayotidagi ishtiroki .....</b>	<b>120</b>
<b>    III bob bo‘yicha xulosalar .....</b>	<b>146</b>
<b>IV BOB. TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGIDAGI TUB BO‘LMAGAN AHOLI IJTIMOIY HAYOTIDAGI O‘ZGARISHLAR.....</b>	<b>149</b>
<b>    4.1 Ta’lim va maorif sohalardagi o‘zgarishlarda tub bo‘lmaq aholining tutgan o‘rni va ishtiroki masalalari.....</b>	<b>149</b>
<b>    4.2 Tibbiyat sohasidagi o‘zgarishlarga tub bo‘lmaq aholining ta’siri va faoliyati .....</b>	<b>165</b>
<b>    4.3 Tub bo‘lmaq aholining ijtimoiy hayotida diniy e’tiqodlar .....</b>	<b>181</b>
<b>    IV bob bo‘yicha xulosalar .....</b>	<b>202</b>
<b>XULOSA .....</b>	<b>204</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>207</b>

## KIRISH SO‘ZI

Hozirgi vaqtida dunyo miqyosida sodir bo‘layotgan siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar aholining etnik mavjudligi bilan bog‘liq ko‘plab muammolarni yuzaga chiqarmoqda. Millatlararo munosabatlarning keskinlashuvi va ziddiyatlar, etnik kamsitishlar, mintaqalararo moliyaviy, iqtisodiy, mulkiy tabaqlananishning kuchayishi, bir qator etnik guruhlarning turmush darajasining pasayishi kabi holatlar ularning asrlar davomida shakllangan madaniyatini yo‘qolish xavfini kuchaytirmoqda. Iqtisodiy, axborot va madaniy aloqalarning mustahkamlanishi xalqlar taqdirini yagona global taqdirga bog‘lasa-da, insoniyatning birlashishi sodir bo‘lmayapti. Bularning barchasi ijtimoiy fanlar oldiga barqaror rivojlanish konsepsiyasini yaratish va jamiyatni o‘zgartirishning muqobil modellarini yaratish kabi murakkab vazifalarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, sivilizatsiyalarning asrab qolish uchun ustuvor yo‘nalishlarni asoslash, ko‘p qirrali etnik madaniyatlarning o‘zaro uyg‘unligini saqlash dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Dunyo miqyosida Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyodagi mustamlakachilik siyosati va uning oqibatlari, metropoliyalardan koloniyalarga aholi migratsiyalari va uning natijalari, tub joyli bo‘lмаган aholi bilan tub joyli aholi o‘rtasidagi munosabatlar, integratsiya va assimilyatsiya jarayonlari, aholi ko‘chishlarining mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta’siri hamda ularning oqibatlarini o‘rganish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga sobiq mustamlaka hududlarda mahalliy aholiga nisbatan olib borilgan mustamlakachilik siyosati oqibatlarini yumshatish, tub joyli bo‘lмаган aholi va tub joyli aholi o‘rtasidagi o‘zaro turli irqiy, milliy ayirmachilikni oldini olish, jamiyatdagи turli etnik guruhlarning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash, shu asosda jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida barqarorlikka erishish hamda ularni ko‘zlangan ezgu maqsadlar yo‘lida safarbar qilishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda.

So‘nggi yillarda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik g‘oyalarini yanada kuchaytirish, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millatga mansub xalqlarning etnomadaniy o‘ziga xosligini saqlab qolish, jinsi, irqi, millati, tili yoki diniy mansubligi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar kamsitishlarga yo‘l

qo‘ymaslikka qaratilgan samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Zero, bizning qadimiy va qutlug‘ zaminimiz ko‘p asrlar davomida Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashib, turli sivilizatsiya va madaniyatlar o‘zaro munosabatga kirishgan, nafaqat savdo, balki gumanitar aloqalar amalga oshirilgan markaz bo‘lib kelgan. Bu yerda yonma-yon yashagan turli xalqlar, madaniyat va dinlar vakillarining aynan do‘silik, yaxshi qo‘shtichilik munosabatlari mintaqamizning madaniy rivoji uchun qudratli omil bo‘lgan<sup>1</sup>. Darhaqiat, bu borada o‘tmish xatolardan xulosalar chiqarish, xususan, Turkistonda migratsiyalar natijasida shakllangan aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va uning tub joyli aholi hayotiga ta’sirini tadqiq etish hamda o‘sha davrdagi milliy siyosat oqibatlarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон халқига Ҳалқлар дўстлиги куни муносабати билан байрам табриги // <https://president.uz/uz/lists/view/4522>

# **I BOB TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGIDAGI TUB**

## **BO‘LMAGAN AHOLINING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTINI**

### **O‘RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI**

#### **1.1 Tub bo‘lmaidan aholi tarixini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari**

Turli mintaqalarda aholimigratsiyasi mamlakatlar tarixida muhim o‘rin tutadi. Mazkur holat ushbu jarayonlarning mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va demografik rivojlanishiga sezilarli ta’siri bilan izohlanadi. Aholi migratsiyasi deganda yashash joyini o‘zgartirish bilan bog‘liq har qanday harakat tushuniladi. Migratsiya jarayonlari tarixiy demografiya predmeti tomonidan maxsus o‘rganiladi. Shu bilan birga, aholining soni va milliy tarkibi haqidagi ilmiy asoslangan ma’lumotlarsiz xalqlarning hududiy taqsimoti, ijtimoiy guruhlar va qatlamlarning joylashishi to‘g‘risida yetarlicha to‘liq tasavvurni yaratish, uning rivojlanishini asosiy tendensiyalarini ochib berish mumkin emas. Jamiyat hayotidagi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va demografik jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi, migratsiya va aholining ko‘chishi masalalarini o‘rganish ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlarning zaruriy tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ushbu jarayonni tadqiq etish aholi migratsiyasining xususiyatlari, ularning mintaqada sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy va demografik o‘zgarishlarga ta’sirini aniqlash imkonini beradi.

Darhaqiqat, XIX asrga kelib Yevropadagi bir qator mamlakatlar aholisining turli qatlamlarini ko‘chirish va yangi hududlarga joylashtirish bilan yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar shakllandi. Natijada yangi o‘zlashtirilgan hududlarda aholining etnik tarkibida o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu turli hududlar o‘rtasidagi savdo va sanoatning o‘sishi, kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi, madaniy va ilmiy yuksalish davlatlarning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi. Biroq hududlardagi mahalliy aholining irqiy, etnik yoki boshqa farqlarga ko‘ra kamsitilishi ularni turli darajadagi diskriminatsiyaga uchrashlariga olib kelgan. Ayniqsa, AQSH, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Janubiy Afrika Respublikasi va boshqa hududlarga ko‘chib borgan aholining mahalliy aholi ustidan to‘la hukmronligi, ayrim hollarda irqiy

segregatsiyaga olib keldi. Bu kabi salbiy illatlar uzoq vaqtlar inkor qilinib kelingan bo‘lsa ham XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy jamoatchilik, nodavlat-notijorat tashkilotlar va demokratik faollar tomonidan bu masalani obyektiv o‘rganish boshlandi. Natijada ularning oqibatlarini yumshatish, xatolardan xulosalar chiqarish hamda kelajakda jamiyatdagi bu kabi salbiy illatlarni takrorlanmasligi uchun harakat qilishga chaqiriqlar boshlandi. Mahalliy aholi huquqlarini kamsitilishi bilan bog‘liq jinoyatlar, huquqbuzarliklar va boshqa salbiy jihatlar garchi ajdodlar tomonidan amalga oshirilganligi ta’kidlansa ham o‘tmishdagi holatlar qayta ko‘rib chiqila boshlandi. Bu aksariyat hollarda aholining hududlarga ko‘chib kelishi natijasi ekanligi hamda mahalliy aholi huquq va erkinliklarini tan olish nuqtai nazaridan ularning tarixiy e’tirof etilishi bilan bog‘liq edi.

Shu ma’noda tarixiy tadqiqotlarda tub joylik bo‘lmagan aholi va tub aholi(yoki mahalliy aholi) kabi ilmiy tushunchalar shakllandi. Mazkur tushunchalar dastlab tarix, etnografiya, demografiya, keyinchalik, sotsiologiya, psixologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning asosiy tadqiqt obyektlaridan biriga aylandi. Shu o‘rinda, ayniqsa, “tub joylik bo‘lmagan aholi” yoki “tub joylik bo‘lmagan xalqlar” kabi tushunchalarga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Non-Indigenous atamasi Kembridj lug‘atida (Cambridge Dictionary) “dastlab u yerda yashagan odamlar uchun emas, balki bir joydan boshqa joyga ko‘chib o‘tgan odamlarga murojaat qilish uchun ishlataladi”, deb ta’rif beriladi<sup>2</sup>.

Yana bir nufuzli sayt - Merriam-webster lug‘atida esa “mahalliy bo‘lmagan odam bilan bog‘liq, biron bir joyning eng qadimgi aholisiga tegishli bo‘lmagan yoki undan kelib chiqqan emas” deb ta’riflanadi<sup>3</sup>.

Kanada statistika qo‘mitasi aholini ikki toifa: 1. Indigenous peoples (tub aholi), 2. Non-Indigenous people (tub bo‘lmagan) aholiga bo‘ladi. Birinchi guruh toifasiga o‘zlarini mahalliy xalq vakillari (Shimoliy Amerika hindulari), Metis va/yoki Inuk (Inuit) sifatida tanishtiradigan shaxslar kiradi. Bu 1982 yil Konstitusiya

<sup>2</sup> [NON-INDIGENOUS | English meaning -// https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/non-indigenous](https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/non-indigenous)

<sup>3</sup> Nonindigenous // [Nonindigenous Definition & Meaning - Merriam-Webster](https://www.merriam-webster.com/dictionary/nonindigenous)

to‘g‘risidagi qonunning 35 (2) bo‘limida Kanadaning tub aholisi deb belgilangan uchta guruh hisoblanadi<sup>4</sup>.

Tub bo‘lмаган xalqlar bo‘yicha izlanishlar olib borgan kanadalik tadqiqotchi Uotson Keytlin (Watson, Kaitlyn) “Men ko‘chmanchi(yangi joyga ko‘chib borib o‘rnashgan kishi), tub joy bo‘lмаган yoki aborigen bo‘lмаган atamalarini otababolari bu yerdan (ya’ni Kanada) bo‘lмаган har qanday shaxsga nisbatan ishlataman. Bunga Kanadada tug‘ilganlar va bu yerga ko‘chib kelganlar kiradi”, deb ta’kidlaydi<sup>5</sup>.

Tub bo‘lмаган (non-indigenous) atamasi biologiya fani doirasida ham keng qo‘llanilib, begona joyga kelib qolib joylashgan biror bir jonzot yoki o‘simlik turiga ham ishlatiladi. Bunda o‘sha mavjudotning begona joyga kelib moslashuvi jarayoni, o‘zini tutishi, atrof-muhit va o‘zini o‘rab turgan dunyo bilan munosabati, yangi muhitga o‘rnashib qolishiga e’tibor qaratiladi. Buning boisi so‘nggi yillarda invaziv mahalliy bo‘lмаган turlarning yangi yashash joylarida faoliyat yuritadigan ekotizim bilan o‘zaro ta’siri, ularning chuqur ta’sir ko‘rsatishi va shuning uchun ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib kelishi haqida tashvish ortib bormoqda. Masalan, Kembridj universiteti nashriyotida Mayers Djudit va Don Beyzli(Mers, Judith H., and Dawn Bazely)lar tomonidan e’lon qilingan tadqiqotda sof ekologik, mahalliy bo‘lмаган turlar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, unda introduksiya<sup>6</sup> qilingan o‘simlik turlarining qabul qilingan afzallikkari, shuningdek, yirik va kichik miqyosdagi invaziv turlarni yo‘q qilish dasturlarining xarajatlari, foydalari va natijalari ko‘rib chiqilgan<sup>7</sup>.

Shu bilan birga “tub bo‘lмаган” (non-indigenous) tushunchasi iqtisod, sotsiologiya, psixologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning ham tadqiqot obyektlaridan hisoblanadi. Ushbu fan yo‘nalishi vakillari o‘zlarining fan sohalaridan

---

<sup>4</sup> Classification of Indigenous group // [Classification of Indigenous group \(statcan.gc.ca\)](https://www.statcan.gc.ca)

<sup>5</sup> Watson, Kaitlyn, "Understanding Indigenous and non-Indigenous Perspectives of Reconciliation: A Case Study" (2020). Electronic Thesis and Dissertation Repository . 7053. <https://ir.lib.uwo.ca/etd/7053>

<sup>6</sup> Интродукция – бирор бир иклим шароитида яшайдиган ўсимлик ёки ҳайвонни иклими бошқа жойга кўчириш, иклимлаштиришнинг дастлабки босқичи.

<sup>7</sup> Myers, Judith H., and Dawn Bazely. "Action against Non-indigenous Species." Ecology and Control of Introduced Plants. Cambridge: Cambridge UP, 2003. 224-43. Print. Ecology, Biodiversity and Conservation.

kelib chiqqan holda tub bo‘lмаган аholining o‘ziga xos tabiatи, jamiyatдagi o‘rni, ularning mahalliy aholi bilan munosabatларини keng tadqiq qiladi. Bunda ushbu munosabatlarning jamiyat hayoti va davlat taraqqiyotiga ta’siri keng o‘рганилади. Chiqarilgan xulosalar esa odatda jamiyatda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli diskriminatsiyаларни oldini olish, aholi orasida bag‘rikenglik, ahillik va birdamlik tuyg‘ularини yanada rivojlantirishga xizmat qilishi bilan e’tiborlidir.

Ta’kidlash lozimki, ma’lum hududлarda tub joylik bo‘lмаган аholining mahalliy aholi bilan qarama-qarshilikларини yuzaga keltirishini tabiiy jarayon sifatida qaraydiganlar ham mavjud. Ular fikricha, xuddi tabiat qонунларига ko‘ra turli begona hududлarda tub joylik bo‘lмаган аholi vakillari moslashish jarayonларida turli qarshiliklarga duch keladilar. Shu boisdan yashab qolish uchun ular turli to‘sилларни yengib o‘tishi kerak, deb uqtiradilar. Masalan, Nottingem universiteti o‘qituvchisi, iqtisodchi Brayan Deyvi (Brian Davey) esa tub joylik bo‘lмаган аholi ta’rifiga boshqacha nuqtai-nazardan yondashadi. Uning ta’kidlashicha “tub joylik bo‘lмаган xalqlar”, ma’lum joylarda inson va noinsoniy jamoalar (“ekotizimlar”) bilan bog‘liq bo‘lмаган odamlardir. "Yer" - bu "resurs" va obodonlashtirish yoki ishlab chiqarish joyiga aylangan hudud. Yer aniq odamlarga yoki jamoalarga tegishli bo‘lib, yerga egalik qilmaydigan odamlar yashash va ishslash uchun joyga pul to‘lashлари kerak<sup>8</sup>.

Shunday qilib, tub joylik bo‘lмаган xalqlar том ма’nода "ко‘ chirilgan" va "joylashtirilgan" ajdodlarning avlodларидир. Tub bo‘lмаган xalqlarning aksariyati, shubhasiz, ular yashaydigan qishloq yoki shahar landshaftлари haqida yuzaki tushunchaga ega, ammo ular yashaydigan joylardagi ekotizim haqida hech narsa bilishmaydi<sup>9</sup>.

Xo‘jalikning ixtisoslashuvi mulkdan mahrum bo‘lganlarning aksariyatini qulay hududлarga ko‘chib o‘tishga majbur qildi. Ular ko‘chirilgan shaxslarning bir qismi, ya’ni mahalliy bo‘lмаганлarga aylanishadi. Kelgindilar “ish qidirishadi”.

---

<sup>8</sup> What Is a Non-Indigenous Person? By Brian Davey, originally published by Feasta // <https://www.resilience.org/stories/2015-02-10/what-is-a-non-indigenous-person/>

<sup>9</sup> What Is a Non-Indigenous Person? By Brian Davey, originally published by Feasta // <https://www.resilience.org/stories/2015-02-10/what-is-a-non-indigenous-person/>

Endilikda ularning mehnatlari boshqa tovar sifatida taklif etiladi. Ayni paytda, ularga tegishli bo‘lgan yerlardan ayovsiz ravishda foydalanishadi. Ushbu yagona foydalanish boshqa foydalanishni istisno qiladi va bunda ular monokultural ekinlar ekishga yoki tog‘ - kon va qazib olinadigan yoqilg‘idan foydalanish jarayonida boshqa ekinlarni yetishtirishga e’tibor berishmaydi... Ushbu bosqinlarga qarshi odamlar jamoalari ko‘tarilganda, ular ham o‘ldiriladi<sup>10</sup>. Bundan xulosa qilish mumkinki, ko‘chib kelib aholi mahalliy aholiga nisbatan shafqatsiz bo‘lishi tabiiy hol, deb baholashadi.

Olsen Toryer (Olsen Torjer) o‘zi ham tub joylik bo‘lmagan olim sifatida mahalliy aholi muammolarini o‘rganishning o‘ziga xos jihatlariga e’tibor qaratdi. Muallif mahalliy va mahalliy bo‘lmaganlar o‘rtasidagi farqni qabul qilish masalalariga e’tibor qaratadi<sup>11</sup>. Uning fikricha, Avstraliyada aborigenlar va Torres bo‘g‘ozi orollari yer yuzidagi eng qadimgi madaniyatga tegishli bo‘lib, u kamida 65000 yoshga ega. Mustamlakachilik mahalliy xalqlarning urf-odatlari va turmush tarzini buzdi, ba’zi hollarda esa ularni yo‘q qildi. Dunyo bo‘ylab odamlar ijtimoiy tengsizliklarni keltirib chiqaradi. Mustamlakachilik egallangan hududning tub aholisini doimiy nazorat, hukmronlik va marginalizatsiya<sup>12</sup> tizimini o‘rnatadigan chet ellik ko‘chmanchilar bilan almashtirishga intiladi. Ushbu tizim ko‘chmanchilar tomonidan doimiy ishg‘ol qilinishini normallashtiradi va mahalliy xalqlarning oldindan mavjud bo‘lgan munosabatlarini yo‘q qiladi, bu esa ko‘chmanchilarga foya keltiradi, mahalliy aholi esa zulm ostida qoladi. Ko‘chmanchi mustamlakachilik tubjoy xalqlarning o‘z yerlariga bo‘lgan huquqlarini inkor etuvchi, irqchilik va ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni davom ettiradigan siyosiy, iqtisodiy va huquqiy tizimlarda chuqur ildiz otgan. Shu tariqa ko‘chmanchi kolonizatsiya orqali o‘zlariga boylik va imtiyozlar yaratish uchun mahalliy aholi

<sup>10</sup> What Is a Non-Indigenous Person? By Brian Davey, originally published by Feasta // <https://www.resilience.org/stories/2015-02-10/what-is-a-non-indigenous-person/>

<sup>11</sup> Olsen, Torjer A. "Privilege, Decentring and the Challenge of Being (Non-) Indigenous in the Study of Indigenous Issues." The Australian Journal of Indigenous Education 47.2 (2018): 206-15. Print.

<sup>12</sup> маргинализация-бу ижтимоий гурухларнинг парчаланиши, одамлар ўртасидаги анъанавий алоқаларнинг узилиши, маълум бир ижтимоий жамоага тегишли шахсларнинг мақсадларини йўқотишда намоён бўладиган фуқаролик жамиятини бузилиш жараёнидир.

yerlari, foydali qazilma boyliklari, tabiiy resurslarni o‘z ichiga olgan tashqi kolonializm va ko‘chib kelganlar ustidan nazoratni o‘rnatishga yordam beradigan qamoqxona maktab va politsiyani o‘z ichiga olgan ichki kolonizatsiyani yaratadilar.

Avstraliya qit’asi inglizlar tomonidan noqonuniy da’volar asosida joylashtirilgan terra nullius (egasiz yer) va yer ustidan suverenitet hech qachon biron bir Aborigen yoki Torres bo‘g‘ozি orollariga berilmagan. Boshqa ingliz ko‘chmanchi koloniyalardan farqli o‘laroq (Kanada, Aotearoa, yangi Zelandiya va AQSH), tarixiy va zamonaviy hukumatlar Avstraliya Hamdo‘stligi konstitusiyaviy qoidalaridan qochgan va qochishda davom etmoqda. Avstraliya kabi hududlarda Yevrotsentrik fikrlash usullari cherkovlar, ta’lim muassasalari, hukumatlar, qamoqxonalar va sog‘liqni saqlash kabi ko‘chmanchi muassasalarda doimiy ravishda kuch va imtiyozlarni ko‘paytiradi. Shunday qilib, mahalliy bo‘limgan xalqlar hukmronlik qiladigan davlat sektorida ko‘chmanchi mustamlakachilikni ko‘proq tan olish va tushunishga chaqiriqlar mavjud<sup>13</sup>.

Devid Trosbi va Yekaterina Petetskayalarning maqolasida mahalliy va mahalliy bo‘limgan jamiyatlarda barqarorlik konsepsiysi qanday tushunilishi ko‘rib chiqilib, bunda aborigenlar va Torres bo‘g‘ozি orollaridagi avstraliyaliklarning tajribalari va amaliyotlaridan olingan bir qator rasmlarga asoslanadi. Ular barqaror rivojlanishga ikki yondashuv ko‘plab umumiy muammolarga ega ekanligini ta’kidlagan holda sezilarli farqlar mavjud ekanligini ta’kidlashadi. Barqarorlik paradigmasi ijtimoiy, siyosiy yoki madaniy kontekstdan qat’iy nazar, qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan universal konsepsiya sifatida qaralishi mumkin bo‘lsa-da, mahalliy bo‘limgan jamiyatlarda qo‘llash uchun to‘liq amalgamoshirilgan barqarorlik modeli faqat uning ahamiyatini tan olgan taqdirdagina mumkin bo‘ladi, deb ta’kidlanadi. Shu bois madaniyat va avlodlar davomida to‘plangan g‘oyalarni mahalliy bilim tizimlari o‘z ichiga oladi<sup>14</sup>.

---

<sup>13</sup> Julia McCartan, Julie Brimblecombe, Karen Adams. Methodological tensions for non-Indigenous people in Indigenous research: A critique of critical discourse analysis in the Australian context // Social Sciences & Humanities Open Volume 6, Issue 1, 2022, <https://doi.org/10.1016/j.ssaho.2022.100282>

<sup>14</sup> Throsby, D., & Petetskaya, E. Sustainability Concepts in Indigenous and Non-Indigenous Cultures. International Journal of Cultural Property, 2016, 23(2). – P. 119-140. doi:10.1017/S0940739116000084

Shuningdek, “turli jamiyatlarda va turli tarixiy bosqichlarda mahalliy va mahalliy bo‘lmagan xalqlar o‘rtasidagi ijtimoiylashuv muammosi” ham ijtimoiy fanlardagi dolzARB masalalardan biri sifatida ko‘riladi<sup>15</sup>.

Ko‘rish mumkinki AQSH, Kanada va Avstraliyada ushbu hududlarga ko‘chib kelgan tub bo‘lmagan aholi mahalliy aholiga yetkazilgan moddiy va ma’naviy zararlarni juda yaxshi anglaydilar. Va buni mahalliy aholi vakillari hozirda ham his qiladilar.

“The Conversation” ilmiy jurnalining 2023 yil 3 iyuldagI sonida tub bo‘lmagan aholi tarixiga bag‘ishlab e’lon qilingan maqolada<sup>16</sup> kolonial siyosat natijasida mahalliy aholiga yetkazilgan zararlar bugungi kungacha ularning ijtimoiy hayotiga ta’sir qilayotgani qayd qilinadi. Ayniqsa, mahalliy aholining bugungi kungacha ta’lim, sog‘liqni saqlash sohalarida yaratilgan imkoniyatlardan foydalanishida farqlar mavjudligi ta’kidlanadi. Masalan, tub bo‘lmagan kanadalik va amerikaliklarning kolonial siyosatining hind turar-joy maktablaridagi salbiy oqibatlarini tahlil etuvchi tadqiqotlar olib boriladi. Unda mahalliy xalqlar va tub bo‘lmagan kanadaliklar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni mustahkamlash va munosabatlarni o‘zgartirish imkoniyatlariga ishora qiladilar. Xususan, tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy irqchilik qarashlariga qo‘silmaydigan ittifoqchilarni mahalliy xalqlar bilan hamkorlikda ishlashga safarbar qilish ijtimoiy adolatga erishish uchun zarur bo‘lgan muvozanatlashgan hikoyalar va nozik tushunishni osonlashtirishi mumkinligi qayd qilinadi<sup>17</sup>.

Garchi Amerikadagi mahalliy hindularga kelgindilar tomonidan turli nomaqbtl ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa ham bugungi avlodlar bu ishga mas’uliyat bilan yondashayotganligini ko‘rish mumkin. Bugungi kun jamiyatida tarixda bo‘lib

---

<sup>15</sup> "The Socialization Issue Between Indigenous and Non-indigenous People in Different Societies and Historical Stages." StudyCorgi, 10 Mar. 2022, [studycorgi.com/the-socialization-issue-between-indigenous-and-non-indigenous-people-in-different-societies-and-historical-stages/](https://studycorgi.com/the-socialization-issue-between-indigenous-and-non-indigenous-people-in-different-societies-and-historical-stages/).

<sup>16</sup> ‘Why didn’t we know?’ is no excuse. Non-Indigenous Australians must listen to the difficult historical truths told by First Nations people // The Conversation Academic rigour, journalistic flair <https://theconversation.com/why-didnt-we-know-is-no-excuse-non-indigenous-australians-must-listen-to-the-difficult-historical-truths-told-by-first-nations-people-208780>

<sup>17</sup> Doiron MJ, Branscombe N, Matheson K. Non-Indigenous Canadians’ and Americans’ moral expectations of Indigenous peoples in light of the negative impacts of the Indian Residential Schools // PLoS ONE 2021, 16(5): e0252038. <https://doi.org/10.1371/journal.pone.0252038>

o‘tgan voqealarga nisbatan javobgarlik hissidan qochmaslik, avlodlar oldida ularning har taraflama jamiyatning to‘laqonli a’zosiga aylanishlari uchun ko‘maklashishga intilishlar mavjudligi e’tiborga molikdir.

MDH davlatlari, jumladan, Rossiyada tub joylik bo‘limgan aholi (nekorennoye naseleniye) tarixi bo‘yicha ham qator tadqiqotlar olib borilgan. Aslida, “tub bo‘limgan aholi - bu hududda asosiy mahalliy aholidan kechroq paydo bo‘lgan ma’lum bir hududning aholisi”<sup>18</sup>, deb ta’kidlanadi. Rossiyalik olimlar mahalliy aholiga nisbatan olib borilgan siyosat borasidagi g‘arb olimlarining yondashuvlarini ko‘pincha inkor qilishgan.

Xususan, ushbu masalada tadqiqotlar olib borgan Aleksandr Cheremnix tub joylik bo‘lмаган ахоли bo‘yича асосан salbiy fikrlar bildirган. Uning fikricha “xalqlarning buyuk ko‘chishi hamma narsani shunchalik aralashtirib yubordiki, ularning hech birini tubjoylik deb hisoblash mumkin emas. Shunday ekan, xalqlarni “mahalliy” va “mahalliy bo‘lмаган” larga bo‘lish ahmoqning ishidir. Ushbu “ma’lumot doirasi” dan tashqari ular hech qanday ma’noga ega emas. “Mahalliy xalqlar” va “mahalliy bo‘lмаган xalqlar” tushunchalarini ularning soni bilan bog‘lash mutlaqo bema’nilikdir<sup>19</sup>. Afsuski, bunday qarashlar rossiyalik siyosatchilar tomonidan ham targ‘ib qilinmoqda.

Rossiya Federatsiyasi va Dog‘iston Respublikasida o‘tkazilgan aholini ro‘yxatga olish tarixiga bag‘ishlangan tahliliy materialda “Shimoliy Kavkazdagi umuman beqaror vaziyat, iqtisodiy turmush sharoitining past ko‘rsatkichlari Dog‘istonning tubjoy bo‘lmagan aholisining (ruslar, yahudiylar, armanlar va boshqalar) respublikadan chiqib ketishiga zamin yaratdi”, deb aytildi<sup>20</sup>. Umuman olganda mazkur tushuncha ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘yicha tadqiqotlarning

<sup>18</sup> Некоренное население // [https://www.slovnik.ru/html\\_tsot/n/nekorennoe-naselenie.html](https://www.slovnik.ru/html_tsot/n/nekorennoe-naselenie.html)

<sup>19</sup> Александр Черемных. Понятие «коренной народ», его научное содержание и идеологический подтекст // <https://alexsrblivejournal.com/75736.html>

asosiy mavzularidan hisoblansa ham MDH davlatlarida keng ommalashmaganini ko‘rish mumkin. Rossiya imperiyasining kolonialistik siyosati va qo‘sni xalqlarni bo‘ysundirishga urinishi turli migratsiyalar, aholi ko‘chishlarini keltirib chiqargani barchaga ma’lum. Shuningdek, imperiya davrida siyosiy chegaralarni belgilash, qo‘sni davlatlar bilan chegara muammolarini hal qilishiga urinilishi ko‘plab xalqlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga katta ta’sir o‘tkazganligi ma’lum. Ayniqsa, uning turli davlatlarning milliy-hududiy chegaralarini shakllanishiga ta’siri bo‘yicha bugungi kunda ham turli bahs-munozaralar uchrab turadi.

Shu jumladan, O‘rta Osiyo hududini Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi bu yerlardagi migratsiya jarayonilarini avj olishi, turli xalqlar harakatlanishiga katta ta’sir o‘tkazgan. Bu esa Turkiston azaldan yashab kelayotgan o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman, tojik va qoraqalpoq kabi mahalliy xalqlarning hayotida katta o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. O‘lkaning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi ko‘pgina xalqlarning bu yerga ko‘chib kelishlari uchun imkon yaratdi.

Rossiya imperiyasi bosib olishidan oldin ham hozirgi O‘zbekiston hududida tub joy aholisidan tashqari boshqa xalqlar vakillarining guruhlari yashagan. Ularning bir qismi o‘lkaga qadim zamonlarda kelib qolgan arablar, eroniylar, lo‘lilar, afg‘onlar bo‘lsa, boshqalari XX asr boshlarida ko‘chib kelgan etnoslarning vakillari edi. Mazkur xalqlar bir qismining etnogenezi va antropologik turi, moddiy madaniyati, an’analari bu mintaqadan olisda tarkib topgan edi<sup>21</sup>. Shu boisdan azaliy shu hududda yahudiy, tatar, boshqird, hind, afg‘on, eroniylar, Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida ko‘plab migratsiyalar natijasida kelib joylashgan uyg‘ur, dungan, hind, eroniy, kavkaz xalqlari, Rossianing yevropa qismidan ko‘chirilgan dehqonlar, tijorat, sanoat va ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish maqsadida ko‘chib kelgan rus fuqarolari, yevropa yahudiylari, nemis, avstriyalik, itayan va boshqa g‘arbiy yevropaliklar, o‘lkani bosib olishda qatnashib, iste’foga chiqqanida keyin shu yerda doimiy yashab qolishga qaror qilgan sobiq harbiylar, Birinchi jahon urushida asirga olinib, keyinroq Turkistonga jo‘natilganlar kabi rang-barang

<sup>21</sup> Муртазаева Р.Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва толерантлик /5A 120301 – Ўзбекистон тарихи мутахассислиги магистрантлари учун дарсларик. – Тошкент, 2019. - Б.109.

millatlar tub bo‘lmasan aholining asosini tashkil qildilar. Turkiston hududi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinganidan keyin o‘zlarining hududi sifatida qaraganlari bois aholi milliy tarkibidagi o‘zgarishlarga tabiiy jarayon sifatida qaralgan. Asosiy e’tibor Turkiston general-gubernatorligi hududiga ko‘chirilgan yoki ko‘chib borgan rus fuqarolari taqdiriga qaratilgan edi.

Ayniqsa, Turkiston general-gubernatorligiga turli xalqlarning ko‘chib borgandan keyin ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, o‘ziga xos jihatlari va uning mahalliy aholiga ta’siri e’tiborsiz qoldirilgan. Aksincha, sovet davrida sotsialistik tuzum sharoitida Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida Turkiston o‘lkasi tarixini tadqiq qilishga bag‘ishlangan aksariyat ilmiy ishlarda ijobjiy o‘zgarishlar ko‘rsatilgan bo‘lsa, 1991 yildan keyingi aksariyat rus tadqiqotchilari esa Rossiya imperiyasining, xususan, rus fuqarolarining “sivilizatorlik” rolini ko‘rsatib berishga intiladilar<sup>22</sup>.

Ular rus Turkistonida hukumatning ma’muriy, sud va himoya funksiyalari, podsho hukumatining O‘rta Osiyodagi iqtisodiy siyosati, xususan, “Rus Turkistonida sanoat va agrar rivojlanish”, XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Rossiya davlatining Markaziy Osiyodagi ijtimoiy siyosatida Rossiya rasmiylarining mintaqadagi sog‘liqni saqlash sohasidagi faoliyati, podsho hukumatining Rossiya Turkistonida ta’lim sohasidagi siyosati kabilarga e’tibor qaratadi. Jumladan, I.Volkovning Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoga ko‘chirish siyosatiga bag‘ishlangan bobida “Ko‘chirish rus Turkistonida sivilizatsiyalararo o‘zaro ta’sir kanali sifatida” ta’kidlanadi. Xulosalarda esa “Turkistonda o‘rnatalgan ma’muriy-sud modeli o‘zini oqladi, Rossiyaning harbiy-strategik rejalarini mahalliy aholi manfaatlariga mos keldi. O‘rta Osiyoning Rossiyaga

---

<sup>22</sup> Кирильчик Д.В. "ЦИВИЛИЗАТОРСКАЯ ПОЛИТИКА РОССИИ В ТУРКЕСТАНЕ И МЕСТО В НЕЙ РУССКИХ КРЕСТЬЯН-ПЕРЕСЕЛЕНЦЕВ (ВТОРАЯ ПОЛОВИНА XIX-НАЧАЛО XX в.) // Новое прошлое / The New Past, №2, 2021. – С. 84-95. doi:10.18522/2500-3224-2021-2-84-95; Музыкант В.Л., Трофимова Г.Н., Такасов В.Д., Калимольдаев Алмас. Цивилизационная миссия Российской империи в Центральной Азии в XIX веке (на материалах Государственного архива Оренбургской области) // Bylye Gody. Sochi State University for Tourism and Recreation. 2021. №16. – С. 1737-1750. Брежнева С.Н. "Цивилизаторская миссия" как оправдательный нарратив наступления России на Туркестан в трудах русских ориенталистов: конец XIX - начало XX в. // Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. Вопросы теории и практики. Тамбов: Грамота, 2011. № 8. Ч. 3. – С. 44-47.

qo'shilishi savdo-iqtisodiy aloqalar bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlarni yaratdi va ular o'rtasidagi sivilizatsiyaviy o'zaro munosabatlarning konturini shakllantirdi" kabi fikrlarni ta'kidlaydi<sup>23</sup>.

Tarixga nazar tashlansa Markaziy Osiyo bo'yicha rus amaldorlari va nazariyachilarining bahs-munozaralarida "ruslashtirish" va "sivilizatsiya" ko'p jihatdan bir-biriga to'g'ri kelgan. Chunki rus amaldorlari va fuqarolarining aksariyat qismi sivilizatsiya o'lkada rus madaniyatining rivojlanishi deb tushunilgan. "Sivilizatsiya" iborasi orqali mahalliy aholi orasida rus madaniyatini ilgari surish ma'nosida qo'llanilgan. Biroq, bu iboralar musulmonlarning siyosiy sodiqligini ta'minlashdan tortib, Turkistonning rus bo'lмаган aholisini butunlay o'ziga singdirish va shu tariqa ularning alohida etnik guruhlar sifatida yo'q bo'lib ketishiga qadar bo'lgan juda xilma-xil ma'nolarni o'zida yashirgan.

Aslida ushbu siyosat 1898 yilgi Andijon qo'zg'olonidan keyinoq barbod bo'lgan. Boisi aholi o'rtasida norozilik kuchli edi va Islom bayrog'i ostida harakatlanishi mumkin edi. Rus sivilizatsiyasi imperator mafkurachilari o'ylaganchalik jozibador emas va Markaziy Osiyo musulmonlarining o'z mustamlakachi xo'jayinlariga tezda singib ketishiga bo'lgan umidlari esa puchga chiqqan edi. Qo'zg'olondan ko'p o'tmay general-gubernator lavozimini egallagan S.M.Duxovskiy 1899-yildagi hisobotida islam dinini O'rta Osiyoning tub aholisining ruslashishiga to'sqinlik qiluvchi eng muhim omil sifatida belgiladi. U "dinning aholiga ta'sirini cheklash uchun qat'iy choralar ko'rish kerak. Agar kerak bo'lsa, "sivilizatsiya yo'li"ni kuch bilan qo'llab-quvvatlanishi kerak"<sup>24</sup>, deb ta'kidlaydi.

Biroq ongli ravishda atamalarning ikki xil ma'noda qo'llanilishi rus hukmronligining nufuzli mafkurachilari va amaliyotchilarini ataylab talqin qilish uchun keng joy qoldirishganini ko'rsatadi. "Qo'shib ketish", "assimilyatsiya" yoki "ruslashtirish" kabi noaniq iboralar juda ko'p turli pozitsiyalarni yashirgan. Bu

<sup>23</sup> Волков И.В. Исторические аспекты цивилизационной политики царской России в Средней Азии. Диссертация на соискание ученой степени доктора исторических наук. Мытищи, 2020.

<sup>24</sup> Духовский С.М. Ислам в Туркестане: Всеподданнейший доклад Туркестанского генерал-губернатора генерала от инфантерии Духовского. – Ташкент, 1899. – С.114.

noaniq atamalar Kaufman kabi pragmatik siyosatchilar tomonidan qo'llanilgan. Ehtimol, u muvaffaqiyatli va keng qamrovli ruslashtirish umidlari katta bo'lgan imperiya markazidagi o'z boshliqlarini xafa qilishni istamagandir. Shu bilan birga, bunday noaniq tilni uzoq muddatda mahalliy aholini to'liq o'zlashtirishga intilayotgan, lekin O'rta Osiyoning tub elitasining nozik tomonlarini hisobga olishga majbur bo'lgan rus millatchilari ham ishlatgan. Ular o'z madaniyatiga har qanday hujumga juda sezgir edilar<sup>25</sup>.

Turkistonga ko'chirilgan rusiyabon aholi alohida mavqega ega bo'lib, bu ularning ijtimoiy-ma'naviy xususiyatlarini o'zgartirib, shovinistik kayfiyatlarini kuchayishiga ta'sir ko'rsatdi. Bu haqda Y.Siryapkina XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonning rus taraqqiyoti haqidagi turli hujjatli manbalarni tahlil qilib, rus jamoasining quyidagi ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini jumladan: 1) pravoslavlik; 2) Turkiston shaharlarining "Rus qismi"da yoki yangi tashkil etilgan ko'chirilganlar posyolkalarida alohida anklavlarda yashash; 3) ko'chib kelganlarning begonalashishi va birlashmasligi<sup>26</sup>ni ajratib ko'rsatadi.

Tarixchi A.Matveyev "chet ellik muhojirlar" atamasini ancha keng ma'noda ishlatilishi va Markaziy Osiyoning tarixan shakllangan immigrant aholisining muhim qismini qamrab olishini ta'kidlaydi. U "chet ellik muhojirlar" deganda Sharq davlatlaridan qochib yoki o'z ixtiyori bilan kelgan va O'rta Osiyoga jo'natilgan tub aholi (birinchi navbatda, muhojirlar va mavsumiy ishlashga kelganlar) hamda yevropaliklar (ayniqsa, harbiy asirlar) tushunilganligini yozadi. Asardagi "chet ellik muhojirlarning avlodlari" sifatida O'rta Osiyo Rossiya tomonidan egallanganidan keyin ruslarga tobe bo'lgan yerda nisbatan ancha oldin (bir-ikki yoki bir necha asrlar davomida) paydo bo'lgan arablar, eronliklar, qoshg'arlar, taranchilar, dunganlar va boshqalarning avlodlari nazarda tutilgan. Biz shartli ravishda Rossianing milliy hududlarida chet ellik muhojirlar va ularning avlodlari sifatida yashagan nemislar,

<sup>25</sup> Фаттохзода Сарфароз. ДИСКУССИИ О ЦИВИЛИЗАТОРСКОЙ МИССИИ РОССИИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ // Вестник Педагогического университета, № 6 (95), 2021. – С. 288-294.

<sup>26</sup> Цыряпкина Ю.Н. Русские переселенцы в Туркестане в конце XIX - начале XX в : основные социокультурные характеристики // Вестник Томского государственного университета, № 411, 2016. – С. 183-187.

polyaklar, litvalik, latviyaliklar va boshqa xalqlarning vakillarini ham kiritamiz. Aniq emas, faqat solishtirish maqsadida, ularning xorijdan kelgan odamlar bilan aloqalarini ko‘rsatish uchun ba’zi boshqa xalq va millat vakillarini ham tilga olamiz<sup>27</sup>, deyiladi. Garchi A.Matveyev tub bo‘lmagan aholi tarkibini nisbatan to‘g‘ri tavsiflagan bo‘lsa-da, chet ellik muhojirlarga ruslarni qo‘shmagan. Shuningdek, dissertatsiyada chet ellik muhojirlarning hayoti va tarixi mahalliy aholidan ayro holda yoritishga harakat qilingan.

Mavzu yuzasidan tilshunoslikda substrat va superstrat atamalari keng qo‘llaniladi. Bunda ikki tilning o‘zaro chatishuvi natijasida mag‘lub elementlarining g‘olib til strukturasidagi belgilari substrat va superstrat hodisalari deb yuritiladi. Substrat keng etnik aralashuv va ikki tillilik orqali mahalliy xalq tilining kelgindilar tiliga singib ketishidir. Kelgindi etnik guruhalr tilining mahalliy tilda qoldirgan belgilari esa superstratdir. Substrat yuz berganda kelgindilar tili mahalliy tilni siqib chikaradi va ishlatilishdan chiqib ketayotgan til kelgindilar tiliga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Superstrat hodisasida esa, kelgindilar tili mahalliy til bilan kurashib, unga sezilarli darajada ta’sir o‘tkazadi, lekin uni siqib chikarmaydi. Bunga Britaniya orolini normandlar tomonidan bosib olinishi va normand tilining ingliz tiliga o‘tkazgan ta’siri eng yaxshi misol bo‘la oladi<sup>28</sup>.

V.P.Alekseyev va Y.V.Bromleylar tomonidan mazkur tushunchalar etnografiyada “etnik substrat” mahalliy aholi, “etnik superstrat” deganda esa ko‘chib kelgan aholiga nisbatan qo‘llanilgan. Etnik nuqtai nazardan, xalqlarning ko‘chishi bilan bog‘liq bo‘lgan istilolarning oqibatlarini ham uchta asosiy variantga qisqartirish mumkin: 1) bosqinchilar mag‘lub bo‘lganlarni assimilyatsiya qiladilar; 2) g‘oliblar mahalliy aholi orasida deyarli izsiz yo‘qoladi; 3) etnik superstrat va substrat sintezi sodir bo‘ladi, bunda yangi etnos paydo bo‘ladi (albatta, substrat va superstratning o‘zi avvalgi sintezning ko‘p qatlamlı mahsuli bo‘lishi mumkin)<sup>29</sup>.

<sup>27</sup> Матвеев А. М. Зарубежные выходцы в Туркестане на путях в Великому Октябрю. – Ташкент: Фан, 1977. – С.8.

<sup>28</sup> Ирискулов М. Т. Тилшуносликка кириш: Дорилфунун ва педагогика институтлари талабаларига қўлланма./ [Махсус мухаррир Л. Т. Бобохонова]. – Тошкент:Ўқитувчи, 1992. – Б.18-19.

<sup>29</sup> В. П. Алексеев, Ю. В. Бромлей. К изучению роли переселений народов в формировании новых этнических общностей // Советская этнография. – 1968. – № 2. – С. 35–45.

Tarix fanida “Milliy ozchiliklar” atamasi ham qo‘llanilib, quyidagi ta’rif beriladi: “Milliy yoki etnik ozchilik - bu davlat hududida yashovchi va uning fuqarolari bo‘lgan biroq mahalliy millatga mansub bo‘lmagan va o‘zini milliy hamjamiyat sifatida tan olgan, o‘rnatilgan ichki birlik tuyg‘usi bilan ajralib turadi va shu bilan birga uning o‘ziga xos xususiyatlarni – til, madaniyat va an’analarni saqlab qolishga intiluvchi” etnik guruh vakillari hisoblanadi. 1914 yilda V.I. Lenin "Millatlar tengligi va milliy ozchiliklarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqdi. Aynan ushbu qonun loyihasida “milliy ozchilik” yoki “xorijiy ozchilik” atamasi birinchi marta rasmiy ma’noda qo‘llanilgan. Ko‘rinib turibdiki, o‘sha davrda "milliy ozchiliklar" atamasi juda noaniq edi. U amalda nafaqat o‘zlarining asosiy qismidan alohida yashaydigan etnik guruhlarning bir qismini, balki boshqa xalqlar qatori turli nomlarga ega bo‘lgan mamlakatning ko‘pgina kichik mahalliy xalqlarini ham qamrab olgan. "G‘ayri e’tiqodlilar", "chet elliklar", "kichik xalqlar", "milliy ozchiliklar", "etnik guruhlar", "xorijiy ozchiliklar" va boshqalar shular jumlasidan edi<sup>30</sup>.

Tadqiqot doirasida “Diaspora” tushunchasiga e’tiborni qaratish lozim. Mazkur tushuncha qadim zamonlardan beri mavjud. Ilmiy adabiyotlarda, odatda, u ko‘chirilgan xalqlar yoki butun dunyo bo‘ylab majburan tarqalib ketgan odamlarga nisbatan ishlatilganligi qayd etilgan. Biroq, ba’zi tadqiqotchilar faqat yahudiylarning tarqalishi haqida fikr yuritadi, boshqalari afrikalik qullarning ko‘chirilishi, G‘arbiy Osiyo va Afrikadagi yunonlar kabi savdo guruhlari, Janubi-Sharqiy Osiyoga islomni olib kelgan arab savdogarlari haqida to‘xtaladi<sup>31</sup>.

Mazkur tushuncha tarix fani bilan birga siyosatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning asosiy tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan uni turlicha nuqtai-nazardan ta’riflashga urinishlar kuzatiladi. Masalan, rus tadqiqotchisi V.A. Kolosov diasporani "o‘z kelib chiqishi mamlakatidan tashqarida yashovchi va qabul qiluvchi mamlakat uchun zarur

<sup>30</sup> Саипова К.Д. История национальных меньшинств в Узбекистане в 1917-1990 годах. Диссертация на соискание ученой степени доктора исторических наук (DSc). – Ташкент, 2021. – С.25.

<sup>31</sup> Кондратьева Т.С. "К вопросу о понятии «Диаспора»: дискуссия в научном сообществе" Актуальные проблемы Европы. №. 4, 2009. – С.17.

bo‘lgan uzoq vaqtdan beri tashkil etilgan, yuqori darajada tashkil etilgan, birlashgan, barqaror, yaxshi ildiz otgan guruhni tashkil etuvchi xalqning (etnik jamoaning) muhim qismi" deb ta’riflaydi<sup>32</sup>.

Yana bir diasporalar bo‘yicha yetuk mutaxassis olim V.D.Popkov o‘zining "Etnik diasporalar fenomeni" asarida ta’kidlashicha, zamonaviy diasporalar fenomeni hozirgacha kam o‘rganilgan ijtimoiy, etnik va siyosiy makonlarning bir-birining ustiga chiqish hodisasini o‘z ichiga oladi, buning natijasida madaniyatlar va davlatlar chegaralarini kesib o‘tgan global etnik anklavlarning paydo bo‘lishi va mavjudligi mumkin bo‘ldi<sup>33</sup>.

Diaspora hodisasini, birinchi navbatda, etnik organizmning hayotiyligini ta’minlaydigan madaniy o‘ziga xoslik bilan oqlash mumkin. Tarixiy vatandan ajralish o‘ziga xos "etnik rashk", milliy madaniyatni saqlash, uning rivojlanishiga ko‘maklashish va assimilyatsiyaga qarshilik ko‘rsatishga bo‘lgan intilish bilan asoslanadi. Ko‘rinib turibdiki, har bir etnik guruh diaspora vazifasini bajarmaydi va diaspora etnik jamoa rivojlanishining ma’lum bir bosqichi bo‘lib, u quyidagi ko‘rsatkichlar bilan ajralib turadi: yuqori darajadagi uyushish va birlashish; mavjudlikning samarali tashkiliy shakllari; a’zolarini samarali ijtimoiy himoya qilish; faol o‘zini-o‘zi tashkil etish va o‘zini-o‘zi boshqarish; vertikal va gorizontal ichki va millatlararo munosabatlar tizimiga to‘liq kirish; etnoelitalarning bosqichma-bosqich shakllanishi. Diasporaning mavjudligi va rivojlanishining asosi, bir tomondan, jamoaviy etnik-madaniy o‘ziga xoslik, ikkinchi tomondan, xalqaro madaniy jarayonga uyg‘un ravishda qo‘shilishdir<sup>34</sup>.

Diaspora nafaqat dastlab birlashgan ba’zi odamlarning tarqalib ketish jarayoni, balki bu o‘zini ushbu jamoa bilan birlashtiradigan, asl yashash joyidan tashqarida, ya’ni boshqa etnik jamiyatlar yashagan hududda yashaydigan guruhlar to‘plamidir va ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va boshqa ehtiyojlarni qondirish uchun

---

<sup>32</sup> Еханурова И.Р.. "Теоретические подходы к определению понятия «Диаспора»" Вестник Бурятского государственного университета. Философия, №. 6, 2011. – С.105.

<sup>33</sup> Попков В.Д. Феномен этнических диаспор. – Москва: ИСРАН, 2003, – 142.

<sup>34</sup> Еханурова И.Р. "Теоретические подходы к определению понятия «Диаспора»" Вестник Бурятского государственного университета. Философия, №. 6, 2011. – С.105-106.

yaratilgan, shu maqsadda aniq tuzilgan tashkilotlar. Rus tadqiqotchilarining yuqorida keltirilgan ta’riflarida o‘zlari urg‘u berib o‘tganlaridek diaspora til, madaniyatlar, e’tiqod madaniyat va qarashlar umumiyligi asosida birlashgan etnik uyushmadir.

Bir qator tadqiqotchilar, xususan, S.S.Lukashova tadqiqotida Yettisuvga ko‘chib o‘tgan sharqiy slavyan diasporasi haqida quyidagicha yondashuvlarini ko‘rish mumkin: Butun oilalar konglomeratlari Yettisuvga ko‘chib o‘tdilar va ko‘chib o‘tgandan so‘ng odamlar mahalliy hokimiyat tomonidan bevosa rag‘batlantirilgan jamoaviy aloqalarni saqlab qolishga intildilar. Yangi aholi punktlarida yer yakka tartibdagi mulkdorga emas, balki dehqon jamoasiga berilgan. Natijada, Sharqiy slavyan anklavlarida diasporaning xususiyatlari boshidanoq shakllana boshladi: uyushib yashash, ma’muriy o‘zini-o‘zi boshqarish, o‘z tili va madaniyatini saqlab qolish va "o‘z"ligini ijtimoiy qo’llab-quvvatlash. Ko‘chmanchilar nisbatan bir xil ijtimoiy massani ifodalagan: ularning katta qismi o‘rta dehqonlarga tegishli edi<sup>35</sup>. Garchi Yettisuv viloyatida ushbu muallif tomonidan sanab o‘tilgan diasporaga xos xususiyatlar mavjud bo‘lsa-da, Turkistonning qolgan viloyatlari va hududlarida vaziyat boshqacha edi. Sirdaryo viloyati qishloqlaridagi ko‘chirish jarayoniga shaxsan guvoh bo‘lgan hamda o‘zining qaydlarini yozib qoldirgan I.I.Geyer Turkistonda nemislар o‘rtasida o‘zaro yordam mavjudligi, ular 1892 yilda ko‘chib kelgan nemislarga uylar qurish uchun naqd pul ko‘rinishida o‘z yordamlarini bergenini qayd etgan. I.Geyer ayni paytda ruslar esa kuchli milliy birdamlik tuyg‘ulari bilan bog‘lanmaganligi, ularning katta akalari bo‘lgan Toshkent ziyyolilari nemis jamiyatiga o‘xshasligi, ularning taqdiriga nafaqat butunlay befarqlik bilan munosabatda bo‘lishadi, balki har qanday qulay imkoniyat tug‘ilganda ulardan butunlay begonaday voz kechadilar va hatto nafratlanadi", deb yozib qoldirgan<sup>36</sup>. Ushbu holat Turkiston general-gubernatorligi kengashining 1910 yilda bo‘lib o‘tgan

<sup>35</sup> Лукашова С.С. "Особенности формирования восточнославянских диаспор в Семиречье в 60-80-х гг. XIX в" Славянский альманах. № 1-2, 2015. – С. 25-31.

<sup>36</sup> Гейер И. По русским селениям Сыр-Дарьинской области (письма с дороги). Т. I: Чимкентский уезд. Ташкент, 1893 (письмо III) // Цыряпкина Ю.Н. Русские переселенцы в Туркестане в конце XIX - начале XX в.: основные социокультурные характеристики" Вестник Томского государственного университета, № 411, 2016. – С. 184.

kengaytirilgan yig‘ilishida harbiy gubernatorlar va ko‘chirilish ishlariga mas’ul amaldorlar tomonidan ham afsus bilan qayd etib o‘tilgan<sup>37</sup>. Shu bilan birgalikda ushbu yig‘ilishda o‘lkaga ko‘chib kelayotgan ruslarni xristianlikning turli yo‘nalish va sektalariga mansubligi, umumiy pravoslavlik ommasini shakllantirishga qaratilgan say-harakatlar behuda ketayotganligi, o‘lkadagi rus aholisi tarqoq guruh va jamoalardan iborat ekanligi haqidagi fikrlar rus amaldorlarning nolishi bilan bildirilgan<sup>38</sup>. Garchi S.Lukashovaning o‘zi ham “ko‘chib kelgan sharqiy slavyan diasporasi vakillarining mulkiy holati, olgan yer uchastkasining o‘lchami va sinfiy huquqlari bo‘yicha yangi kelganlar Yettisuv kazaklaridan sezilarli darajada farq qilar edi, shuning uchun bu ikki guruh o‘rtasida yaqinlashish yo‘q edi”<sup>39</sup>, deb ta’kidlasa-da, eski ko‘chib kelganlar va yangi ko‘chib kelganlar o‘rtasidagi ijtimoiy farqlar va uning barcha ko‘chib kelganlarning uyushib yashashiga to‘sinqinlik qilayotganligi kabi faktlarga e’tibor qaratmaslikka harakat qilganini ko‘rish mumkin.

Umuman olganda XIX asr oxiri– XX asr boshlarida Turkiston general-gubernatorligi hududlariga ko‘chib kelgan ruslarda bu kabi butun bir yaxlit jamoaga tegishlilik hissi mavjud emas edi. Millatlar, e’tiqod, ijtimoiy guruqlar, turli toifalarga mansub kishilarning (bu kabi holatlar keyingi paragraflarda batafsil ko‘rib chiqiladi) mavjudligi ko‘chib kelgan aholida rang-baranglikni ta’milagan edi. Shulardan kelib chiqqan holda keyingi paragraflarda Turkiston hududlariga ko‘chib kelgan ruslarni ham yaxlit etnik yoki diniy uyushma - diaspora sifatida emas balki tub joylik bo‘lmagan aholi sifatida ko‘rib chiqiladi.

Shu bilan birga sovet tarixshunosligi va mustaqillik yillarida e’lon qilingan nashrlarda Turkiston hududiga ko‘chib kelgan tub bo‘lmagan aholini yaxlit jamoa, tarixiy nuqtai-nazardan ko‘chirilganlar<sup>40</sup> sifatida yoritib kelangan. Arxiv

<sup>37</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат, 5146-иш, 2 -варак.

<sup>38</sup> Ўша жойда

<sup>39</sup> Лукшова С.С. "Особенности формирования восточнославянских диаспор в Семиречье в 60-80-х гг. XIX в" Славянский альманах. № 1-2, 2015. – С. 25-31.

<sup>40</sup> Брежнева С.Н. "Русские переселенцы в Туркестане: проблемы взаимоотношения с местным населением"// Научные ведомости. Серия История. Поволжский государственный университет сервиса. – Тольятти: Политология, 216. №1 (222). Выпуск 37. – С. 113-114; Галузо П.Г. Вооружение русских переселенцев. – М.: 1929. – 87 с.; Фаффоров Ш.С. Тарих ва тақдир: Россия империясидан Туркистанга кўчирилганлар. – Тошкент:

ma'lumotlari, Rossiya imperiyasi davriga oid manbalarda tub aholi va ko'chib kelgan aholiga doir qaydlarining o'zida ham noaniqliklar mavjud. Masalan, 1877 yildagi Farg'onaviyati aholisi milliy tarkibi haqida so'z borganda mahalliy aholi sifatida o'lkada yashagan yahudiylar, lo'lilar, tatarlar va hattoki hindlar ham keltirilgan<sup>41</sup>. Yoki Kaspiyorti viloyatining 1902 yilgi statistik sharhlariga ko'ra bu hududga ko'chib kelgan aholining milliy tarkibi ham kengayib borganligini ko'rish mumkin. Xususan rus, gruzin, nemis, fransuz, polyak, grek, arman, tatar, lezgin, fors, yahudiy, turkman, qirg'iz, xivaliklar, buxoroliklar, sartlar, osetinlar, afg'onlar, taranchilar, ersarilar (qo'shni hududlardan kelgan turkman urug'lari) va xorijliklar qayd qilingan. Xorijliklar sifatida alohida millatga mansubligini aniqlash imkonni bo'limgan shaxslar ko'rsatilgan<sup>42</sup>. Bunda mahalliy aholi bo'lgan turkman, qirg'iz, xivaliklar, buxoroliklar, sartlar va hattoki Kaspiyorti bilan qo'shni Eron hududi bo'ylab ko'chib yurgan turkman ersari urug'lari ham ko'rsatilgan. Shu boisdan ko'chirilgan yoki ko'chib kelgan aholi Turkiston general-gubernatorligi hududida yashagan tub bo'limgan aholi vakillarini to'la qamrab ololmaydi.

Biroq so'nggi yillarda uyg'urlar, afg'onlar, tatarlar, nemislar va boshqa millatlarning Turkiston general-gubernatorligi davridagi hayotiga bag'ishlangan ilmiy ishlarda har bir millatning alohida o'ziga xosligi mavjudligi ko'rsatilmoqda. Garchi ularda turli millatlarning Turkistondagi hayotidagi o'zgarishlar yoritilgan va alohida tarzda ko'rsatib berilgan bo'lsa-da, tub bo'limgan aholining hayoti bilan bog'liq umumiy manzara to'la ochib berilmaganini ko'rish mumkin. Aholi milliy tarkibidagi o'zgarishlarning Turkiston o'lkasi va unda yashagan mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri bilan uzviy holda ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Umuman olganda Rossiya imperiyasi davrida yashagan, ko'chib kelgan, ko'chirilgan xalqlarni xalqlarning milliy va ijtimoiy tarkibi, migratsiyasi sabablari,

---

Фан, 2006. – 108 б.; Равшанов Ш.Т. Туркистонга Россия империяси аҳолиси кўчиб келишининг ижтимоий тарихи.: Тарих фанлари бўйича фалсафа док ... дисс. – Фарғона, 2021. – 134 б.; Жураев Х.П. Туркистонга кўчирилган аҳолининг ижтимоий ва иқтисодий ҳаёти (XIX аср охири – XX аср бошлари).: Тарих фанлари бўйича фалсафа док ... дисс. – Тошкент 2022. – 155 б.

<sup>41</sup> И-19-фонд, 1-рўйхат 10560-иш, 5-8 -вараклар.

<sup>42</sup> Обзоръ Закаспийской области за 1902 годъ. – Асхабадъ: Типография Штаба 2-го Турк. Арм. Корп., 1903. – С.10.

ularning mahalliy aholi bilan munosabatlari, adaptatsiya, integratsiya va assimilyatsiya jarayonlari, tub bo‘lmagan xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, ulardagi e’tiqod masalalari va uning aholi identikligiga ta’siri, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohasidagi o‘zgarishlarda tub bo‘lmagan aholining o‘rni hamda mazkur masalalarning Turkiston o‘lkasidagi mahalliy aholiy hayotiga ta’sirini hamohang tarzda ko‘rib chiqish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

## **1.2 Mavzu bo‘yicha manbalar tahlili va tarixshunosligi**

Mavzuning manbashunosligi. O‘rganilayotgan mavzuga doir manbalarni quyidagi guruhlarga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq: *Birinchi guruh* Rossiya hukumati rasmiy doiralarining yozishma, esdalik, hisobot va statistik ma’lumotlar hamda asarlari; *Ikkinci guruh* mahalliy mualliflar ishlari; *Uchinchi guruh* arxiv ma’lumotlari; *To ‘rtinchi guruh* davriy matbuot materiallari.

*Birinchi guruhga* Rossiya hukumati rasmiy doiralarining yozishma, hisobot va sharhlari<sup>43</sup>, statistik ma'lumotlar<sup>44</sup> hamda esdaliklarini<sup>45</sup> kiritish mumkin. Bu guruh manbalarining mazmun mohiyatiga ko'ra ular millatlar bilan bog'liq masalalarda birinchi navbatda Rossiya imperiyasi manfaatlarini ko'zlaganligini ko'rish mumkin. Shunga qaramay, bu ma'lumotlarni beruvchi hukmron doira vakillari – Turkiston o'lkasi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida o'ziga xos o'rin tutgan hukumat ma'murlari o'sha davr voqeа-hodisalarining bevosita ishtirokchisi yoki guvohi, zamondoshi sifatida baho bergenligini ham e'tiborga olish lozim. Masalan, Turkiston general-gubernatorligidagi viloyatlar bo'yicha

---

<sup>43</sup> Гирс Ф.К. Отчет о состоянии Туркестанского края. – СПб.1883; Вирский М. Поземельно-податные работы Самаркандинского уезда / Справочная книжка Самаркандинской области. Вып.IV. Самарканд, 1896.; Отчет о состоянии Туркестанского края, составленным сенатором тайным советником Гирсом, командированшим для ревизии края по высочайшему повелению. В 2-х частях - Ч. 1. Администрация. Управление краем; Ч. 2. Суд. Финансы - СПб., 1888; Половцев А.А. Отчет чиновника особых поручений при МВД, командированного в 1896-97 гг. для собирания сведений о положении переселенческого дела в Туркестанском крае. – СПб.: Б.и.,1898. – 82 с.; Отчет директора лесного департамента, представленный Министру земледелия и государственных имуществ по поездке в 1900 г. в Туркестанский край. – СПб.: Б.и., 1901. – 35 с. ;Отчет капитана Давлетшина по командировке в Туркестанский край и степные области для ознакомления с деятельностью народных судов. – СПб.: тип. М.М. Стасюлевича, 1901. – 106 с. ; Отчет о служебной поездке военного министра в Туркестанский военный округ в 1901 году. – СПб.: Б.и., 1902. – 15 с.; К вопросу о русской колонизации Туркестанского края. Отчет Члена Ученого Комитета М-ва З. и Г.И. А. А. Кауфмана по командировке летом 1903 г. СПб., 1903. 205 с.; Отчет Туркестанской учительской семинарии за 25 лет ее существования (30 августа 1879;30 августа 1904 гг.), Составитель Н.П.Остроумов. СПб.1905.219 с.; Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенный по высочайшему повелению сенатором гофмейстером графом К. К. Паленом. Выпуск I – XVIII – СПб. 1909 – 1910. Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенныи по вмсочайшему повелению сенатором гофмейстером графом К.К. Паленом. Вшп. 1-18. - СПб, 1909 - 1910; Отчет Переселенческому управлению по командировке летом 1909 г. в Семиречье. – СПб.: Б.и., 1910. – 42 с.; Гаврилов Н.А. Переселенческое дело в Туркестанском крае (области Сыр-Дарьинская, Самаркандинская и Ферганская): Отчет о служебной поездке в Туркестан осенью 1910 г. чиновника особых поручений при переселенч. упр. Н. Гаврилова – СПб.: Тип. Ф. Вайсберга и П. Гершунина, 1911. – 94 с.:ил., карт., табл.; Переселенческое дело в Туркестане. Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенной по Высочайшему повелению Сенатором Гофмейстером графом К.К. Паленом. СПб., 1910. 430 с.; Пален К.К. Материалы к характеристике переселенческого хозяйства в Туркестане. - Приложение к отчету по ревизии Туркестанского края. Ч. 1. Отд. 4. – СПб. 1911; Кривошеин, А.В. Записка главноуправляющего землеустройством и земледелия о поездке в Туркестанский край в 1912 г/А.В.Кривошеин. -Полтава, 1912. - 90 с.

<sup>44</sup> Романовский Д.И. Заметки по среднеазиатскому вопросу. – СПб. 1868; Материалы для статистики Туркестанского края. Ежегодник / Под ред. Н.А. Маева. Издание Туркестанского Статистического Комитета. Вып. III. СПб., 1874.; Северцов Н.А. О русских поселениях к югу и к западу от Иссык-Куля // Материалы для статистики Туркестанского края. Вып. 4. СПб., 1876.; Военный обзор Закаспийской области. – Ахшабад. 1896. – 131 с. ; Первая Всеобщая перепись населения Российской империи, 1897 г. СПб., 1905. Т. LXXXVI: Сыр-Дарьинская область. 207 с.; Всеобщая перепись населения Российской империи 1897 г. Т.LXXXII. Закаспийская область. - СПб., 1904; Т. LXXXIX. Ферганская область. - СПб., 1904; Т.LXXXIII. Самаркандинская область. - СПб., 1905; Т.LXXXV. Семиреченская область. - СПб., 1905; Т.LXXXVI. Сырдарынинская область. СПб., - 1905.; Военно-статистическое описание Туркестанского военного округа. – Ташкент, 1910-1914. – 51 с.

<sup>45</sup> Остроумов Н. П. К истории народного образования в Туркестанском крае. К.П. фон-Кауфман (1867 – 1881). – Т. 1895; Он же. Константин Петрович фон Кауфман, устроитель Туркестанского края. Личные воспоминания. – Т. 1899.;Федоров Г.П. Моя служба в Туркестанском крае./Исторический вестник. Том 133. – 1913, № 9, Том 134, № 10. Мустафин А. Николай Иванович Гродеков (1883 – 1913). Воспоминания, заметки. /Исторический вестник.Том 142 – 1915; Лыкошин Н.С. Полжизни в Туркестане. – Пг. 1916.

tayyorlangan hujjatlarda va Farg‘ona viloyati yilnomalarida (Yejegodnik Ferganskoy oblasti)<sup>46</sup> tegishli hududlarning tavsifi, aholi soni, jinsiy tarkibi, mashg‘ulotiga ko‘ra hududlar bo‘ylab joylashuvi kabi qator muhim ma’lumotlar qayd qilib borilgan. Ushbu ma’lumotlar XX asr boshlarida Farg‘ona viloyatining aholisi va uning holati to‘g‘risida tasavvurlarni kengaytirish imkonini beradi<sup>47</sup>. Shuningdek, rossiyalik amaldorlar tomonidan yozilgan hisobotlardagi Turkistonga ko‘chirib keltirilgan aholining statistik ma’lumotlari<sup>48</sup> ham alohida qimmatga ega.

*Ikkinchi guruhga* mahalliy tarixchilar yozib qoldirgan asarlar<sup>49</sup> kiritilgan bo‘lib, ularda berilgan ma’lumotlar ham muammoni tadqiq etishda alohida qimmatga ega. Jumladan, Ahmad Donish, Mirza Abdusalim Somiy, Muhammad Solih Toshkandiy kabi mualliflarning asarlarida Turkiston o‘lkasidagi tub joylik bo‘limgan aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga doir qimmatli ma’lumotlar ko‘p uchraydi. Masalan, Ahmad Donishning “Tarjimai ahvoli amironi Buxoro” asari O‘zbekiston tarixining XIX asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mirzo Abduazim Somiyning “Tarixi salotini Mang‘itiya” asarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda O‘rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi arafasidagi iqtisodiy va siyosiy holat birmuncha xolis yoritilgan bo‘lib, unda Buxoro va Rossiya o‘rtasidagi munosabatlarga ham birmuncha keng o‘rin ajratilgan.

---

<sup>46</sup> Ежегодник Ферганской области. Т.1-3. Вып. 1902-04. – Новый Маргелан. 1902 – 1904.

<sup>47</sup> Обзор Самаркандинской области за 1887 - 1909 гг., Самарканд-Ташкент, 1888 - 1912; Обзор Сыр-Дарьинской области за 1885 - 1914 гг. - Ташкент, 1886 - 1916; Обзор Ферганской области за 1884 - 1913 гг. - Новый Маргелан (Скобелев), 1889 - 1916. Обзор Закаспийской области за 1912-1914 гг. – Асхабад: Издание областного статистического комитета, 1916. –185 с.

<sup>48</sup> Баранцева Н.А. Переселение в Енисейскую губернию во второй половине XIX – начале XX века: этносоциальные и демографические аспекты // Вестник Челябинского государственного университета. – Челябинск, 2009. № 38 (176). История. Вып. 37. – 3 с.; Григорьев В.Н. Переселение крестьян Рязанской губернии. – М.: Редакция журнала “Русская мысль”. 1885, – 21 с.

<sup>49</sup> Ахмад Дониш. История Мангитской династии. Душанбе, 1967; Ўша муаллиф. Путешествие из Бухары в Петербург. Избранное. Душанбе, 1960; Мирза Шемс-Бухари. О некоторых событиях в Бухаре, Коканде и Кашигаре. Перевод В.В.Григорьева. Казань, 1861; Мирза Абдалазим Сами. Тарих-и Салатин-и Мангитий (История мангитских государей). Издание текста, перевод, предисловие, примечания Л.М.Епифановой. М., 1962; Салих Мухаммад Новая история Ташкента. В переложении Я.Гулямова. Ташкент, 1954; Кенисарин А. Султаны Кенисара и Садык. Ташкент, 1889.

Muhammad Solih Toshkandiyning “Tarixi jadidai Toshkand” (Toshkentning yangi tarixi) asari<sup>50</sup>ning ikkinchi jildida 1863–1890 yillardagi tarixiy voqealar qamrab olingan bo‘lib, muallif o‘zigacha bo‘lgan O‘rta Osiyo va Sharqning musulmon mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy tarixiga doir asarlardan keng foydalangan holda, Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligi bo‘ylab qilgan sayohatlari mobaynida to‘plagan ma’lumotlari asosida yozgan. Ushbu asarning turli joylarida o‘z davrida Toshkentda yashagan 80 ga yaqin taniqli kishilar – davlat amaldorlari (shahar hokimlari, ularning yordamchilari, qozi, a’lam, muftiy va b.), tasavvuf ahli, mudarrislar, qisman qo‘sishiqchi va sozandalar hamda mohir hunarmandlarning qisqacha tarjimai holi bayon qilingan.

Biroq, sovetlar davrida bunday mualliflarning ishlari siyosiy nuqtai nazardan baholanib, tanqid ostiga olindi. Misol uchun, 1924 yilda sovet matbuoti sahifalaridan birida jumladan shunday deyiladi: “Hozirda 1915 yilda o‘z tilimizda yozilg‘on Olim Maxzum bilan Muxtor Bakirning 1918 yilda yozg‘on Turkiston tarixi bor. Bundan boshqa 1922 yilda yozilg‘on N (Nun), I.(Alif-yoy) Baloshev o‘rtoqning “Turkiston qisqacha jo‘g‘rofiya o‘qumlig‘i” degan juda qisqa bir tarixchasi bor. Olim Maxzumning kimligidan qat’iy nazar qolg‘oningizda ham yozg‘on tarixlari tadbihsiz, bilimsiz eski Turkiston xonlarining o‘z oralarida bo‘lg‘on urushlari, Chor hukumatining tutqon siyosatlarini to‘g‘ri deb talqin etmakdan iborat”<sup>51</sup>.

Shu o‘rinda Turkistonning siyosiy va madaniy hayotida o‘ziga xos o‘rin tutgan jadidchilik harakati ayrim vakillarining o‘rganilayotgan davrda Turkiston o‘lkasidagi yashagan mahalliy va ajnabiy xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar bilan bog‘liq qarashlari xususida ham to‘xtalib o‘tish lozim.

Ana shunday taraqqiyparvarlardan biri – tatar ziyolisi N.Yovushevning 1914 yilda nashr qilingan maqolalaridan birida iqtisodiy masalalarga oid qarashlari ham alohida ahamiyatga ega. Misol uchun, uning “Turkistonda tijorat va zirot” nomli

<sup>50</sup><sup>50</sup> Бу ҳақда қаранг: «Тарихи жадидайи Тошканд» бўйича А.Ўринбоев, О.Бўриевларнинг «Тошкент Муҳаммад Солих тавсифида» (Тошкент, Фан, 1983), Ў.А.Султоновнинг «Муҳаммад Солиххўжа ва унинг «Тарихи жадидайи Тошканд» асари» (Тошкент, Ўзбекистон, 2007) каби рисола ва китоблар чоп этилган.

<sup>51</sup><sup>51</sup> Сайд Аҳмад Назир ўғли. Ўзбекистонда илмий тадқиқ ишлари ва унинг инкишофи // Қизил Ўзбекистон. 1924 йил, 5 декабрь

maqolasida so‘nggi yillardagi Turkistonda savdo va tijorat ishlarining holati tahlil qilinadi. Muallifning fikricha, savdo va tijoratdagi muammolarning bir necha sababi mavjud bo‘lib, ular orasida eng muhimlari biri – nasiyadir. U savdogarlarni bir daraxtga, nasiyani esa bu daraxtni qurituvchi kasallikka o‘xshatadi<sup>52</sup>. “Kichik savdogarlardan boshlab Moskva, Varshava firmalariga qadar shu mudhish baloga mubtalo bo‘lmishlar. Nasiyaning unmay qoluvining sababi – xalqning faqirligidan kelur. Xalqning kambag‘al va faqir bo‘lishining sababi – ziroat ishiga ahamiyat berilmasligidur... Ziroat ishlarimiz taraqqiy qilib asta-sekin quvvat olsa ohista-ohista sanoat ishlarini ham o‘z qo‘limizga olurmiz. Maishiy asboblar uchun Moskovlarga borib yururga ehtiyojimiz ham qolmas. Ul chog‘da ajnabiy va yevropalilar o‘zlar Turkiyonga keladurgon bo‘ladurlar”<sup>53</sup>, – deb yozadi va ziroat ishiga alohida ahamiyat qaratish kerakligini uqtiradi. U Turkiston yerlarini muhojirlar qo‘liga o‘tib ketganining eng asosiy sababini ham mahalliy aholining o‘z yerlaridan unumli va samarali foydalansliklari oqibatida kelib chiqqan, o‘z yerlariga ega bo‘lish va ajnabiy kishilarga qaram bo‘lmaslik uchun esa eng avvalo yerli xalq dehqonchilik, savdo va tijorat ilmini yaxshilab o‘zlashtirishlari va zamonga qarab ish ko‘rishlari lozim<sup>54</sup>, deb hisoblaydi.

*Uchinchi guruhga* arxiv ma’lumotlarini kiritish mumkin. Ushbu hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivining (O‘zR MA) «Turkiston general-gubernatori mahkamasi» - (F.I-1), Fond I-7 – Turkiston o‘lkasidagi yer ishlari va davlat mulklari boshqarmasi, «Sirdaryo viloyat boshqarmasi» - (F. I-17), «Samarqand viloyat boshqarmasi» – (F. I-18), «Farg‘ona viloyat boshqarmasi» – (F. I-19), Toshkent shahar boshlig‘i boshqarmasi (Fond I-36), Toshkent shahar boshqarmasi (Tashkentskaya gorodskaya uprava) (Fond I-37), Fond I-47- Turkiston o‘lkasi o‘quv muassasalari boshqarmasi, Fond I-276 – Farg‘ona oblasti harbiy gubernatori devonxonasi, Fond I-717 – Turkiston general-gubernatori Kengashi nomli jamg‘armalarida saqlanadi. Mazkur jamg‘armalarda, shuningdek, uezd va

<sup>52</sup> Туркистонда тижорат ва зироат // Садои Туркистон, 1914, 13 июн.

<sup>53</sup> Ёвушев Н. Туркистонда тижорат ва зироат // Садои Туркистон. 1914, 13 июн.

<sup>54</sup> Ёвушев Н. Саёхат парчалари // Садои Туркистон, 1914, 10 июн.

uchastka boshqaruvchilari axborotlari ham o‘rin olgan. Ularda aholining joylashushi va hududlardagi aholi milliy tarkibiga oid hisobotlar, aholining ko‘chirilishi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar, turli millatlarga yaratilgan imtiyozlar, sharoitlar, ularning ijtimoiy iqtisodiy axvoliga oid bo‘lgan ma’lumotlar aks etgan. Shu bilan birga fuqarolarning murojaatlari, arizalari, shikoyatlari ham ko‘plab saqlanib qolgan bo‘lib, ular haqiqiy manzarani oolib berishga xizmat qiladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivining Turkiston general-gubernatori mahkamasiga tegishli I-1 fondidan Rossiya ma’muriyatining metropoliya harbiy-siyosiy hamda iqtisodiy manfaatlarini aks ettiruvchi qarashlari o‘rin olgan, Turkistonda faoliyat olib borgan Rossiyaning savdo-sanoat firmalari hamda tadbirkorlik bilan shug‘ullanish maqsadida o‘lkaga ko‘chib kelgan turli millat vakillari haqida qiziqarli hujjatlar mavzuni yoritishda o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Ushbu arxivda saqlanayotgan **Farg‘ona viloyat boshqarmasiga** tegishli hujjatlar yig‘indisidan iborat I-19 fondida esa o‘rganilayotgan davrda Farg‘ona viloyatining Namangan, Qo‘qon, Marg‘ilon uezdlariga ko‘chirib keltirilgan aholining mashg‘uloti, milliy tarkibi, turmush darajasini yanada kengroq yoritish imkonini beruvchi ko‘plab statistik ma’lumotlar berilgan.

Senator K.K.Palen tomonidan berilgan hisobot orqali<sup>55</sup> Rossiyadan Turkistonga ko‘chirib keltirilgan rossiyalik aholining ma’lum bir qismini o‘lkaga kelish sabablari, ularning yashash tarzi, tub aholi bilan munosabatlariga oid muhim ma’lumotlarni olish mumkin.

“Turkiston diniy devonxonasi tarixi” (I-961-fondi), “Cherkovlar faoliyati” nomli fondlarida esa rus manzilgohlarida va harbiy qismlar huzurida faoliyat yuritgan cherkov (ibodatxona) va ibodat uylari (“molitvenniy dom”) haqida ma’lumotlar keltirilgan.

*To ‘rtinchi guruh* manbalari hisoblangan davriy matbuotda ham mavzu bilan bog‘liq ma’lumotlar uchraydi. Jumladan, Rossiya imperiyasi davrida matbuot nashrlarida e’lon qilingan maqolalarda Turkistonga ko‘chirib keltirilgan ruslar bilan

---

<sup>55</sup> Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенной графом К.К.Паленом.Т.8, -Тошкент,1910. – С.10.

birga boshqa millatlar hayoti, faoliyati, ularning o‘zaro aloqalari hamda ularning mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta’siriga e’tibor qaratilgan. Misol uchun, P.Skriplev, K.A.Timayev, G.V.Yulin, G.Namor, K.Kazanskiy, N.Dingel’shtedt, A.L.Tregubov, N.A.Bobrovnikov, V.P.Voshinin kabi mualliflarning bir qator maqolalarida<sup>56</sup> Turkistonga ko‘chirilgan aholi, ularning ijtimoiy iqtisodiy holati, kabi masalalar yoritib borilgan.

Mavzuga doir adabiyotlarning mazmun va mohiyati jihatidan quyidagi guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq:

1. Rossiya imperiyasi davrida yaratilgan adabiyotlar.
2. Sovet davri tadqiqotlari.
3. O‘zbekiston mustaqilligi yillarida yaratilgan ishlar.
4. MDH davlatlari va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan tadqiqotlar.

Birinchi guruh adabiyotlari<sup>57</sup> – mustamlaka davriga tegishli bo‘lib, ularning mualliflari o‘rganilayotgan muammoga asosan Rossiya imperiyasi manfaatlaridan kelib chiqqan holda yondoshganligi ko‘zga tashlanadi.

Ushbu mualliflarning aksariyat qismi asosan ma’muriy apparatda xizmat qilgan amaldorlar edi. Ular o‘z asarlarida asosan rus tili va madaniyatining

---

<sup>56</sup> Скрыплев П. Экономические положение переселенцев, водворившихся в Чимкентском уезде, Сыр-Дарьинской области / Вопросы колонизации. [1909], №4; Туркестанец. К вопросу о колонизации Туркестанского края / Новое время. 1910, №12201; Тимаев К.А. Успехи русской медицины среди туземцев / Туркестанский курьер (ТК). 1909, №172-173; Юлин Г. В лечебнице для туземцев / ТК. 1909, № 174; Намор Г. Медицинская помощь в Бухаре / Туркестанские ведомости. 1910, №48; Казанский К. Женщина-врач на Востоке / Новости. 1885, №218; Дингельштедт Н. Наша колонизация Средней Азии. Русские поселки в Средней Азии // Вестник Европы. Т. VI. Кн. 11. 1892.; Трегубов А.Л. Переселенческое дело в Семипалатинской и Семиреченской областях. Впечатления и заметки от поездки летом 1909 г. // Вопросы колонизации. 1910. № 6.; Бобровников Н.А. Русско-туземные училища, мектебы и медресе в Средней Азии. Путевые заметки. СПб., 1913.; Вощинин, В.П.. Очерки нового Туркестана : свет и тени русской колонизации / В. Вощинин. - СПб. : Б. и., 1914. - 86 с. : ил.

<sup>57</sup> Наливкина М.В., Наливкин В.П. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. Казань, 1886.; Остроумов Н.П. Исторический очерк народного образования в городах и укреплениях Сыр-Дарьинской линии и Туркестанской области до учреждения Туркестанского генерал-губернаторства. С 1860 г. по 1867 г. Ташкент, 1881.; Бродовский М.И. Колониальное значение наших среднеазиатских владений для внутренних губерний. М., 1891.; Остроумов Н.П. К истории народного образования в Туркестанском крае. Личные воспоминания. Ташкент, 1895. Ўша муаллиф. Константин Петрович фон Кауфман устроитель Туркестанского края. Личные воспоминания (1877-1881). Ташкент, 1899.; Шкапский О .А. Переселенцы и аграрный вопрос в Семиреченской области // Вопросы колонизации. 1907. № 1.; Гейер И.И. Весь Русский Туркестан. Ташкент, 1908.; Юферев В. Основания наделения землею переселенцев в Туркестанском крае // Вопросы колонизации. 1910. № 7.1. Законодательные акты; Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. Ташкент, 1912.; Гинс Г.К. Вопросы колонизации Азиатской России и «выставка по переселенческому делу». – СПб.: тип. Ф. Вайсберга и П. Гершунина, 1912. – 50 с.; Бобровников Н.А. Русско-туземные училища, мектебы и медресе Средней Азии. Путевые заметки. – СПб., 1913. – 348 с. ва бошк.

sivilizatorlik missiyasi masalalariga e'tibor qaratishgan. Xususan, madaniy assimilyatsiya va mintaqaning tub aholisini rus tili orqali Yevropa ta'limi asoslari bilan tanishtirish g'oyalari mintaqaning ta'lim sohasini rivojlantirish strategiyasini ko'rsatib o'tganlar<sup>58</sup>.

Rossiyalik tadqiqotchilar I.I.Geyer, N.A.Bobrovnikov, N.P.Ostroumovlar o'z asarlarida Turkistonda olib borilayotgan ta'lim jarayonining xususiyatlari, ularning mintaqaning tub aholisiga ta'siri va mintaqadagi ruslarning ta'lim faoliyati borasida ma'lumotlar berib o'tganlar<sup>59</sup>.

Shuningdek K.K.Abaza, M.A.Terentyev, A.Krivoshein, V.Voshinin kabi mualliflar ham Rossiya imperiyasi manfaatlarining ifoda etadilar. Hamda imperiyaning chekka hudulardagi faoliyatini maqtash, ruslashtirish siyosatini ma'qullah, mahalliy aholining tarixiy taraqqiyotida Rossiya imperiyasining "katta roli", "sivilizatorlik missiyasi"ni da'vo qiladilar<sup>60</sup>.

Sovet hokimiyati o'matilgandan so'ng ham sovet davri mualliflari tomonidan o'rganilayotgan muammolarga e'tibor qaratilgan. XX asrning 20-yillaridan mavzuni ilmiy jihatdan o'rganish borasida dastlabki urinishlarni kuzatish mumkin. 1920-yillar adabiyotlarining o'ziga xos xususiyati shunda ediki, ularda Turkistonda sovet hokimiyati tomonidan olib borilayotgan milliy masaladagi siyosatga nisbatan birmuncha xolis yondoshuvlar berilgan. Bu sovet mafkurasining Turkiston jamiyatiga hali chuqur kirib bormaganligi bilan izohlanadi. Ana shunday ishlar qatoriga V.Bartold, G.Safarov, P.Galuzo, A.Demidov, I.Yamzin, V.Voshinin, T.Risqulovlarning ishlarini<sup>61</sup> kiritish mumkin.

---

<sup>58</sup> Граменицкий С.М. К вопросу об инородческом образовании в России. — Ташкент, 1908;; Лыкошин Н.С. Полжизни в Туркестане. Очерки быта туземного населения. — Петроград, 1916.

<sup>59</sup> Гейер И.И. Весь русский Туркестан / Издал С.Р. Конопка. - Ташкент, 1908; Бобровников Н.А. Русско-туземные училища, мектебы и медресе Средней Азии. Путевые заметки. - СПб., 1913; Остроумов Н.П. К истории народного образования в Туркестанском крае. Личные воспоминания. - Ташкент, 1895; Очерк развития народного образования в Туркестанском крае / Сост. Инспектор народных училищ Туркестанского края 1-го района С. Граменицкий. - Ташкент, 1896.

<sup>60</sup> Абаза К.К. Завоевание Туркестана. СПб., 1902, - 310 с.; Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии. -СПб., 1906; Терентьев М.А. Туркестан и туркестанцы. Вестник Европы. - СПб., 1875, кн.IX. - С.65-112; Кривошеин А. Записка главноуправляющего землеустройством и земледелием о поездке в Туркестанский край в 1912 г. // Вопросы колонизации, 1913, № 12, с.297-365. Вощинин В.П. Очерки нового Туркестана. Свет и тени русской колонизации. СПб., 1914. - 86 с.

<sup>61</sup> Сафаров Г.И. Колониальная революция (опыт Туркестана). - М. 1921.; Галузо П.Г. Вооружение русских переселенцев в Средней Азии // Коммунистическая мысль. Кн. 1, 2. М., 1926.; Демидов А.П. Экономические

1930-yillardan boshlab tarixiy tadqiqotlarda markscha-lenincha metodologiyaning qaror topishi mavzu bilan bog'liq adabiyotlarda<sup>62</sup> ham o'z ifodasini topdi.

1950-yillardan boshlab to 80-yillarning o'rtalariga qadar yirik umumlashgan ishlarning yaratilishi mavzu tarixshunosligini yanada boyitdi<sup>63</sup>. Bevosita O'zbekiston tarixi fanida ham ushbu amaliyotning qo'llanilishida B.V.Lunin, M.A.Axunova, R.X.Aminova, R.Radjapova, V.Chebotarevalarning xizmatlari e'tiborga loyiqidir<sup>64</sup>. Bu ishlarda biz tadqiq etayotgan davr madaniyati masalalari tarixshunosligiga ham alohida to'xtab o'tilgan. Biroq ular olib borgan tadqiqotlarda maqolalarning tarixshunoslik tahlili tavsifiy xarakterga ega edi. Shunga qaramay, bu ishlarda tadqiqotlarning yo'nalishlari ko'rsatib berilganligi tufayli o'rganilayotgan

---

очерки хлопководства, хлопковой торговли и цромътиш-ленности Туркестана. - М.; Госиздат. 1926.; Ямзин И. Л., Воцинин В. И. Учение о колонизации и переселениях. — М. ; Л., 1926.; Галузо П. Г. Туркестан - колония (Очерк истории Туркестана от завоевания русскими до революции 1917 г.). М., 1929; Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. – Ленинград: Издательство Академии наук СССР, 1927. – 253 с.; Рыскулов Т.Р. Восстание туземцев Средней Азии в 1916 г. – Кзыл-Орда.: Гос. изд-во КССР, 1927. – 124 с. ва бошқ.

<sup>62</sup> Галузо П.Г. Туркестан – колония. - М.: Изд–во Среднеазиатком. Университета, 1929. – 164 с.; Лаврентьев В. Капитализм в Туркестане (Буржуазия колонизации Средней Азии). - 1930. –160 с.; Ўша муаллиф. Туркестан – колония: (Очерк истории колониальной политики русского царизма в Средней Азии). – 2-е изд., испр. и доп. Ташкент: гос. изд-во УЗССР, 1935. – 222 с.; Лаврентьев В. Капитализм в Туркестане (Буржуазная колонизация Средней Азии). М., 1930; Зелькина Е. Очерки по аграрному вопросу в Средней Азии. М., 1930.; Шарова П. Переселенческая политика царизма в Средней Азии // Исторические записки. 1940. № 8. – С. 3-36.; Дворкина Е. Национально-колониальная политика самодержавия в первые годы царского владычества в Туркестане (1967-1981гг.). Дис. .канд.ист.наук Ташкент, 1943.

<sup>63</sup> Турсунбаев А. Б. Из истории крестьянского переселения в Казахстан. — Алма-Ата, 1950.; Кабиров М.Н. Переселение Илийских уйголов Семиречье, Алма-Ата, Илим; 1951.; Азадаев Ф. Ташкент во второй половине XIX века. Очерки социально-экономической и политической истории. Ташкент, 1959.; Перепелицына Л.А. Влияние русской культуры на культуру народов Средней Азии. Ташкент, 1960.; Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865-1924 гг.). – М., 1960.; Юсупов Х. Переселение дунган на территорию Киргизии и Казахстана. Фрунзе: Киргизиздат, 1961.; Шмидт Р.З. Среднеазиатская железная дорога и ее влияние на социально-экономическую жизнь Туркестанского края. 1880-1914 гг. –Ташкент.1965. – 23 с.; Аминов А.М., Бабаходжаев А.Х. Экономические и политические последствия присоединения Средней Азии к России. Ташкент, 1966.; Верещагин П.Л. Переселенческая политика царизма в Сырдарьинской области (конец XIX–начало XX вв). – Ашхабад, 1973. –148 с.; Аминов Б.Формирование населения голодной степи (конец XIX- 60-е гг. XX в.) -1970; Кубаков К.Этнический состав сельского населения верхний Кашкадарья в конце XIX -начале XX в. -1973; Канода Н.И. Переселенческие посёлки в Закаспийской области (конец XIX– начало XX вв.). –Ашхабад, 1973. –148 с.; Кастьельская З.Д. Из истории Туркестанского края (1865 - 1917 гг.). - М.: Наука, 1980; Колемасова Н.Х. Эволюция христианского сектантства в регионе традиционного распространения ислама. – Ташкент, 1981; Фомченко А. П. Русское население в Туркестанском крае в конце XIX - начале XX вв. Социально-экономический аспект. Ташкент: Фан, 1983.; Губаева С.С. Этнический состав населения Ферганы в конце XIX - начале XX в. : (По данным топонимии) / С. – С. Губаева. - Ташкент : Фан, 1983. - 105 с.

<sup>64</sup> Ахунова М.А., Лунин Б.В. История исторической науки в Узбекистане. Краткий очерк. - Ташкент, 1970. - 200 с; Аминова Р.Х., Ахунова М.А., Лунин Б.В. Историческая Наука в Узбекистане от XXIV к XXVII съезду КПСС. Историографический очерк. – Ташкент: Фан, 1967. -192 с.; Чеботарева В.Г., Раджапова Р.Я. Историко-партийная, каука в Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан, 1982.-248 с.

mavzu doirasi kengayib, ilmiy tadqiqotlar dinamikasini aniqlash imkoniyati vujudga keldi.

Sovetlar davrida xorijlik tadqiqotchilar tomonidan Rossiya imperiyasining Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosatiga azaldan qiziqishlar mavjud bo‘lib, o‘sha davrdayoq mazkur masalaga bag‘ishlangan ilmiy ishlar e’lon qilinganligini ham ta’kidlab o‘tish lozim<sup>65</sup>. Biroq davr mafkurasidan kelib chiqib, sovet hokimiyatining Turkistonda amalga oshirgan siyosatiga munosabat bildirgan xorijiy tadqiqotchilarining ishlariga “burjuacha”, “tarixni soxtalashtirgan” yondoshuvlarni aks ettirgan ishlar sifatida qaralib, ularning aksariyati tanqidiy jihatdan “fosh qilingan”.

Umuman, XX asrning 30-80-yilarida mavzu bilan bog‘liq umumlashgan tadqiqotlar sonini ortib borishiga qaramay, mualliflarning asosiy yondoshuvlari sovet mafkurasining ta’siri yaqqol ko‘zga tashlanib turadi.

XX asrning 80-yillari ikkinchi yarmidan boshlangan Qayta qurish jarayonlari bevosita tarix fani rivojiga ham ta’sir ko‘rsatdi: sovet davrida avval o‘rganilmagan mavzularni tadqiq etishga kirishildi. Bu davrda o‘rganilayotgan mavzuga doir ishlar qatoriga quyidagi ishlarni<sup>66</sup> kiritish mumkin.

*O‘zbekiston mustaqilligi yillarida* ham mahalliy tarixchilar orasida O‘zbekiston tarixinining turli masalalari qatori Rossiya imperiyasining Turkistonda olib borgan milliy siyosati bilan bog‘liq masalalarni tadqiq etishga qiziqish ortdi. Bu davr adabiyotlarida ham asosan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasidan amalga oshirilgan haj safarlari, yo‘llar kabi masalalar mahalliy arxiv hujjatlari va davriy matbuot materiallari asosida yoritilgan.

---

<sup>65</sup> Tillet R. The Great Friendship: Soviet historians on the Non-Russian nationalities. – Chapel Hill, 1969. – 280 p.; Rakovska-Harmstone T. Russian and Nationalism in Central Asia. Baltimore, 1970; Raeff M. Patterns of Russian Imperial Policy Towards the Nationality Problems. N.Y.- Lnd. 1971. – P. 28-30; Carrere Encausse H. Islam and the Russian Empire: Reform and Revolution in Central Asia. – London, 1988. – 300 p.

<sup>66</sup>Христианское сектантство в Узбекистане. – Ташкент, 1986; Вексельман М.И. Российский монополистический и иностранный капитал в Средней Азии (конец XIX-начало XX в.). – Тошкент, Фан, 1987. – 143 с.; Кронгард Т.К. Население Киргизии в последней трети XIX начале XX века. Фрунзе: Илим, 1989; Джон А. А.-Поселение, усадьба и жилище дунган Средней Азии и Казахстана (конец XIX-XX вв.) 1986; Рахматиллаев Х. Динамика этнической структуры населения Узбекской части Ферганской долины (конец XIX-XX в). – Ташкент, 1988; Каримова Р.Б. Художественные ремесла и промыслы уйгуров Средней Азии и Казахстана (конец XIX-XX в.) Автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. ист. наук (07.00.07). – Ленинград, 1989. – 21 с.; Гинзбург А.И. Русское население в Туркестане (конец XIX - начало XX века). – М., 1991. – 192 с.; Махмудов М. Становление и развитие медицины и здравоохранение в Средней Азии (1865–1924 гг.): Диссертация на соискание ученой степени доктора исторических наук. – Ташкент, 1991. – 243 с. ва бошқалар.

1990-yillarda yaratilgan ishlarda, jumladan, B.Ergashev, N.A. Abdurahimova, G.K. Rustamova, A.Xudoyqulov, F. Ishaqov, A.G.Axmedjanov N.U.Musayevlarning tadqiqotlarida<sup>67</sup> ham mavzu bilan bog‘liq masalalar xususida ma’lumotlar berilgan. Masalan, F.Isxakov Rossiya imperiyasining Turkistonda olib borgan milliy siyosatiga bag‘ishlangan tadqiqotida Rossiya imperiyasining Turkistondagi harbiy-ma’muriy boshqaruv tizimining mustamlakachilik mohiyati, Rossiya imperiyasi manfaatlari yo‘lida Turkiston xalqlarini ekspluatatsiya qilinishi, hukumatning ko‘chirish siyosatining bosqichlari va asosiy maqsadlari, metropoliyadan ko‘chiriluvchilarini Turkiston bo‘ylab tarqalish xususiyatlari va usullari, hokimiyatning musulmon konfessiyalari va mahalliy millat an’analarining Turkiston o‘lkasi mahalliy xalqlari bilan munosabati kabilarga e’tibor qaratgan. Shundan ko‘rish mumkinki tadqiqot ishida asosan Rossiya imperiyasi tomonidan olib borilgan milliy siyosatning Turkistondagi mahalliy aholiga ta’sirini ko‘rsatib berishga intilgan<sup>68</sup>.

Bir qator respublika tadqiqotchi olimlari izlanishlari natijasida ilgari ta’qiqlangan yoki u qadar ma’lum bo‘lmagan mavzular o‘rganildi, yangi arxiv manbalarini iste’molga kiritish orqali tarixning noma’lum sahifalari to‘ldirib borildi.

XXI asrda ham O‘zbekiston tarixining dolzarb masalalarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish yanada ortdi, xalqaro ilmiy aloqalar va yangicha metodologik

---

<sup>67</sup> Эргашев Б.Х. Из истории становления и развития общественно-политических идей джадидизма, идеология младобухарцев. – Ташкент, 1993; Абдурахимова Н.А. Колониальная система власти в Туркестане (вторая половина XIX- начало XX вв.): Диссертация на соискания ученой степени доктора исторических наук. - Т.р 1994; Худайкулов А.М. Просветительская деятельность джадидов Туркестана (конец XIX-начало XXв.). Тошкент 1995.; Ахмеджанов Г.А. Российская империя в Центральной Азии. - Т.: Фан, 1995; Мусаев Н.У. Туркистанда капиталистик ишлаб чиқариш муносабатларининг вужудга келиши (XIX асрнинг охири– XX аср бошлари). Тошкент, 1995. –106 б/; Абдурахимова Н, Рустамова Г. Колониальная система власти в Туркестане второй половинье в XIX–первой четверти XX–вв. –Т: Университет, 1999. –162 с.; Ҳақлиев В. Б XIX аср охири–XX аср бошида шимолий Фарғонада қишлоқ жамоаси (тарихий-этнографик тадқиқот). -1998; Салижанова Г. Ф. Туркистанда ўқитиш-маърифатчилик ўчоқлари, уларнинг ижтимоий аҳамияти (XIX аср охири–XX аср бошлари) -1998; Жуманиёзова М. Т. XIX аср охири - XX аср бошларида Хоразм воҳаси аҳолисининг этник таркиби ва унинг моддий маданиятига хос баъзи хусусиятлари (дала тадқиқотлари асосида) -1998; Чориев З. У. XX аср бошида Туркистан ўлкасида мустамлакачилик сиёсати ва миллий зулмнинг кучайиши ҳамда унинг оқибатлари: мардкорликка сафарбарлик мисолида -1999; Рустамова Г.К. Колониальная сущность царской и большевистской власти в Туркестане (1867–1924 гг) Автореф. дисс... канд...ист.наук.–Ташкент, 1999;

<sup>68</sup> Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917). Ташкент, 1997.

yondoshuvlar asosida umumlashgan yirik tadqiqotlar<sup>69</sup> mavzu tarixshunosligini yanada boyitdi.

Shu o‘rinda Turkiston general-gubernatorligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘zgarishlar, xususan, tub joylik bo‘limgan aholining hayotida aks etishiga bag‘ishlangan D.X.Ziyayevaning bir qator ishlarini<sup>70</sup> ta’kidlash joizdir.

Mazkur tadqiqotlarda Turkiston general-gubernatorligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘zgarishlar, xususan, bu o‘zgarishlarni tub bo‘limgan aholining hayotida aks etishiga bag‘ishlangan ilmiy ishlar e’lon qilingan. Ularda Rossiya bosqinidan keyin Turkistondagi diniy vaziyat, islom, xristianlik va yahudiylilik dinlariga munosabat, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkistonda Islom muammosi, rus mustamlakachiligi davridagi urf-odatlar va o‘zgarishlar, Turkiston shaharlaridagi rus ma’naviy, madaniy va xayriya jamiyatları, shu davrda

---

<sup>69</sup>Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми - XX аср бошларида Тошкентнинг «янги шаҳар» қисми тарихи. - Т.: Фан ва технология, 2004.; Бобоматов Т. М.Репрессивные органы как инструмент колониальной политики царской России в Туркестане (1865-1917 гг.) Автореф. дис. .... канд. ист. наук. – Ташкент, 2006.; Кенжав Д. М. Исламские ценности в воззрениях джадидов и их концепция духовного реформирования общества. Автореф. дис. .... канд. ист. наук. – Ташкент, 2009; Тухтабеков К.А. Чор Россиясининг Биринчи жаҳон уруши йилларида Туркистон ўлкасида ўтказган иқтисодий сиёсатининг мустамлакачилик моҳияти Тар. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2011; Қодиров Н. Н. Туркистон ўлкасидаги рус таълим муассасалари тарихи(1867-1917 йй.). Тар. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2011; Жумаев У. Россия империясининг Туркистондаги солиқ сиёсатининг шаклланиши: асосий босқичлари ва тараққиёти. Тар. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2011; Алимова Да.А. Народное образование в Туркестане в конце XIX – начале XX вв: от традиции к модернизации // Центральная Азия. Традиции и современность. – Москва 2011. – С. 154-177; Раджабов Р.А. Ўзбекистондаги араблар тарихи ва этнографияси (XIX аср ўрталари -XXI аср бошлари) Тар. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2012; Асанова С.А. История православной церкви в Средней Азии (вторая половина XIX - начало XXI вв.). Автореф. дис. .... канд. ист. наук. – Тошкент, 2012; Смесова Е.А. Русские духовно-культурные учреждения В Туркестане.(во второй половине XIX -начале XX вв.). Автореф. дис. .... канд. ист. наук. – Ташкент, 2012; Собиров Н., Эгамназаров А. Фарғона водийсининг ижтимоий-иқтисодий ривожланишида немис ишбилармонларининг ҳиссаси (XIX аср охири – XX аср бошлари). – Ташкент: Фалсафа ва хуқук, 2012. – 164 б. ва бошк.

<sup>70</sup> Зияева Д.Х. Ислам в Туркестане: традиции и трансформации в условиях колониализма // Вестник КазНПУ им. Абая, серия «Исторические и социально-политические науки», № 3 (26), 2010. – С. 10-14; Зияева Д.Х. Неисламские религии в Туркестане во второй половине XIX – начале XX в. // [https://www.academia.edu/12448029/Неисламские религии в Туркестане во второй половине XIX начале XX в](https://www.academia.edu/12448029/Неисламские_религии_в_Туркестане_во_второй_половине_XIX_начале_XX_в); Ziyaeva Dono H. The cultural life in the cities of Turkestan (at the end of 19 th and the beginning of 20 th Century) // [https://www.academia.edu/16076347/Education\\_and\\_culture\\_in\\_Turkestan](https://www.academia.edu/16076347/Education_and_culture_in_Turkestan); Зияева Д.Х. Русские духовно-культурные и благотворительные общества в городах Туркестана // [https://www.academia.edu/16259910/Русские духовно культурные и благотворительные общества в городах Туркестана](https://www.academia.edu/16259910/Русские_духовно_культурные_и_благотворительные_общества_в_городах_Туркестана); Зияева Д.Х. Из истории медицины и здравоохранения в Туркестане // [https://www.academia.edu/19056895/Из истории медицины и здравоохранения в Туркестане](https://www.academia.edu/19056895/Из_истории_медицины_и_здравоохранения_в_Туркестане) Зияева Д.Х. Городская культура в Туркестане в конце – начале XX вв.: традиции и трансформация // [https://www.academia.edu/12448081/Городская культура в Туркестане в конце начале XX вв традиции и трансформация](https://www.academia.edu/12448081/Городская_культура_в_Туркестане_в_конце_начале_XX_вв_традиции_и_трансформация)

Зияева Д.Х. Народные театры Туркестана в конце 19-начале 20 вв.: традиции и трансформация // [https://www.academia.edu/19056729/Народные театры Туркестана в конце 19 началье 20вв традиции и трансформация](https://www.academia.edu/19056729/Народные_театры_Туркестана_в_конце_19_начале_20вв_традиции_и_трансформация)

o‘lkada tibbiyot va sog‘liqni saqlash sohasidagi an’analar, modernizatsiya va transformatsiyalar kabi jihatlarga e’tibor qaratilgan. E’tiborlisi ushbu tadqiqotlarda ruslar, yahudiyilar va boshqa tub bo‘lmagan xalqlarning Turkistonga ko‘chib kelganidan keyingi o‘zgarishlar, ularning mahalliy aholi bilan munosabatlari hamda ijtimoiy muhitga ta’siri arxiv hujjatlari va boshqa manbalar asosida chuqur ilmiy tahlilga tortilgani bilan ajralib turadi.

O‘rganilayotgan muammo bilan bog‘liq masalalar SH.G‘afforovning monografiyasida<sup>71</sup> ham ma’lum darajada o‘z aksini topgan. Ushbu tadqiqotda Rossiya imperiyasining Turkistonga aholini ko‘chirish siyosatining mohiyati, xususiyati va uslublari hamda ko‘chirish munosabati bilan o‘lkada yuz bergen o‘zgarishlar ochib berilgan.

O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik masalalariga bag‘ishlangan asarlarda bag‘rikenglik g‘oyasining hozirgi zamonda har bir davlatning ichki va tashqi siyosatidagi o‘rni, O‘zbekiston tarixida ushbu masalaning o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi, bag‘rikenglik – o‘zbek xalqi mentaliteti o‘zagini tashkil etishi, turli tarixiy davrlarda aholi milliy tarkibi o‘zgarishlarining sabab va oqibatlari, o‘zbek xalqining deportatsiya qilingan xalqlarga ko‘rsatgan g‘amxo‘rliги hamda bag‘rikengligi ochib berilgan<sup>72</sup>. Shu bilan birga K.Saipovaning doktorlik dissertatsiyasida ham Rossiya imperiyasi davriga oid bo‘lgan tadqiq etilayotgan mavzuning nazariy jihatlariga oid ma’lumotlar berib o‘tilgan<sup>73</sup>.

Bundan tashqari N.U.Musayev, N.R.Maxkamova, S.B.Shodmanova, YO.R.Tayronov, SH.B.Muxamedov kabi tarixchi olimlar tomonidan yaratilgan ishlarda<sup>74</sup> ham Turkiston general-gubernatorligi davrida o‘lkaga kapitalistik

<sup>71</sup> Фаффоров Ш. Тарих ва тақдир: Россия империясидан Туркистонга кўчирилганлар (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари). – Т.Фан. 2006. – 224 б.

<sup>72</sup> Муртазаева Р. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик. – Тошкент: Университет, 2007. – 184 б.; Муртазаева Р.Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва толерантлик /5А 120301 – Ўзбекистон тарихи мутахассислиги магистрантлари учун дарслик. – Тошкент, 2019. – 294 б.

<sup>73</sup> Саипова К.Д. История национальных меньшинств в Узбекистане в 1917-1990 годах. Диссертация на соискание ученой степени доктора исторических наук (DSc). – Ташкент, 2021. – 242 с.

<sup>74</sup> Мусаев Н.У. Формирование и развитие промышленного производства в Туркистане (конец, XIX–начале XX). Автореф. дисс... на соиск. док. ист. наук. – Ташкент, 2000; Мусаев Н.У. XIX аср II-ярми – XX аср бошларида Туркистонда саноат ишлаб чиқаришнинг шаклланиши. Т.: IQTISODIYOT-MOLIYA, 2008. – 165 б.; Махкамова Н.Р. Социальная структура общества на территории Узбекистана: традиции и трансформации (конец XIX в. – 30-е годы XX в.): дисс. ... док. ист. наук. – Т., 2009. – 323 с.; Шодманова С.Б. Вопросы социально-экономического и культурного положения Туркестана на страницах периодической печати (1870–

munosabatlarning kirib kelishi va uning iqtisodiy hayotga ta'siri, aholining ijtimoiy tarkibidagi o'zgarishlar, ta'lim va ilm-fan sohalaridagi yangiliklar, diniy siyosat, tibbiyat va sog'liqni saqlash tizimining holati hamda undagi o'zgarishlar kabi masalalarga e'tibor qaratilgan. Ushbu tadqiqotlarda aynan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda aholining milliy-etnik tarkibida tub o'zgarishlar yuqorida sanab o'tilgan sohalarga o'z ta'sirini o'tkazganligi, shu davrda vujudga kelgan iqtisodiy-ijtimoiy holat ekanligi ta'kidlab o'tiladi.

M.Jabborov, E.Kuraxmedov, N.Y.Potapova, D.Urakov, O.Pugovkina, U.Suguraliyeva, T.Xamrayevalarning dissertatsiyalarida<sup>75</sup> Turkistonga aholini ko'chirish siyosati mustamlaka siyosati amaliyoti sifatida qaraladi.

A.Rasulov hamda A.Isoqboyev, N.Nasreddinovalar tomonidan esa tatarlar hayotiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar natijasida ham ko'plab tarixning noma'lum sahifalariga oydinlik kiritildi<sup>76</sup>.

Rossiya imperiyasining Turkistonda olib borgan iqtisodiy siyosatiga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyasini<sup>77</sup> himoya qilgan B.Alimdjanov esa XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkistondagi siyosiy va iqtisodiy

---

1917 г.г.). Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора исторических наук. – Ташкент, 2011; Тайронов, Ё.Р. Общественно политическая деятельность туркестанских предпринимателей в начале XX века: автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Т., 2011. – 27 с.; Мухамедов Ш.Б. Политика Российской империи в Туркестане отношении ислама (1864-1917 гг). Диссертация на соискание ученой степени доктора исторических наук (DSc). – Ташкент, 2021. – 262 с.

<sup>75</sup> Жабборов М.Р. Освещение истории Ферганской области в Туркестанском сборнике» (конец XIX - начала XX вв.); Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. - Т., 2000; Курахмедов А.Э. Экономическая и культурная жизнь Самаркандинской области второй половине XIX–начале XX в (по материалам Туркестанского сборника) Автореф. дисс...канд... ист.наук. – Ташкент, 2001; Потапова Н.Ю. История предпринимательства в Туркестане (вторая половина XIX - начала XX вв.): Автореф. дис. ... канд. ист. наук. - Т., 2002; Ураков Д.Ж. Официальные отчеты Российской администрации в Туркестане как исторический источник (конец XIX в.-начало XX в). Автореф. дисс... канд... ист.наук. – Ташкент, 2005; Пуговкина О.Б. История Туркестана в наследии русской историографии середины XIX – начала XX вв. (Политические и экономические аспекты) Автореферат. дисс... канд... ист.наук. - Ташкент, 2006; Сугуралиева Ф.У. История становления, эволюции и деятельности хозяйственных государственный колониального Туркестана (1867–1917 гг.) Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Ташкент, 2006; Хамраева Т.Р. Создание статистической службы в Туркестане и её деятельность конец XIX–начало XX вв. (на примере Ферганской области). Автореф. дисс...канд... ист.наук. – Ташкент, 2012;

<sup>76</sup> Расулов А.Н Туркистон ва Волгабўйи, Уралолди халклари ўртасидаги муносабатлар тарихи (1917 - 1924 й.): Тарих. фан. доктор... дисс-. – Тошкент, 2005; Исокбоев А. А. Туркистон ижтимоий-сиёсий ва маданий хаётида татар- бошқирд маърифатпарварларининг фаолияти (XIX аср охири - XX аср бошлари): Тарих фан. номз... дисс. – Тошкент, 2008; Расулов А., Исокбоев А., Насретдинова Д. Туркистон ижтимоий-сиёсий, маданий хаётида татарлар. – Т.: “TURON-IQBOL”. – 2019. -191 б.; Насретдинова Д.М. Татарские женщины в социальной жизни Туркестана // Историческая этнология. 2020. Т. 5, №3. – С. 460-465; Расулов А.Н., Исокбоев А.А. Татарское просветительство и система национального образования в Туркестане (конец XIX - начало XX вв.) // Историческая этнология. 2020. №1. – С.140-150.

<sup>77</sup> Алимджанов Б.А. Экономическая политика Российской империи в туркестанском генерал-губернаторстве (вторая половина XIX-начало XX вв.): дисс. ... канд. ист. наук. – Санкт-Петербург 2016. – 376 с.

jarayonlar, Rossiya imperiyasining Turkistondagi agrar, sanoat va bojxona siyosati, Turkiston general-gubernatorligidagi Rossiya hokimiyatining moliyaviy va soliq siyosati masalalari ko‘rib chiqilgan. Shu bilan birga dissertatsiyada turli millatlarning iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki, Turkiston o‘lkasidagi iqtisodiy siyosatning millatlar o‘rtasidagi integratsiya va dezintegratsiya jarayonlariga ta’siri, mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy holatidagi o‘rniga ham e’tibor qaratgan.

So‘nggi yillarda A.Bazarbayev, B.Ergashev, A.Tog‘ayeva, N.Maxmudova, J.Xayitov, U.O‘sarov, U.Mattiiev, X.Jo‘rayev, D.Elova, B.Raximovlarning<sup>78</sup> dissertatsion tadqiqotlarida ham o‘rganilayotgan mavzuning ayrim jihatlariga to‘xtalib o‘tilgan. Jumladan, U.Mattiievning ishida XIX asr o‘rtalari – XX asr boshlarida Turkistondagi afg‘on fuqarolarining faoliyati, turmush tarzi va ularning mintaqa siyosiy, ijtimoiy - iqtisodiy hayotidagi o‘rni ochib berilgan<sup>79</sup>.

Respublikada mavzuga doir maxsus umumlashgan ishlar bilan bir qatorda bir qator ilmiy maqolalar<sup>80</sup> ham yaratilganligini ta’kidlash lozim. Ularda masalaning u yoki bu jihatlari ma’lum darajada yoritib berilganligi diqqatga sazovor.

<sup>78</sup> Базарбаев А. XIX аср охири–XX аср бошларида Мирзачўлда аграр муносабатлардаги ўзгаришлар. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. – Тошкент, 2018; Эргашев Б.Э. Туркистон генерал–губернаторлиги маҳкамасининг иш юритиши фаолияти (тарихий–манбавий таҳлил). Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2018; Махмудова Н.Б. XX аср бошида Туркистонда маъмурий бошқарув тизими ва ижтимоий–иктисодий ахвол (сенатор К.К. Палленнинг тафтиш материаллари асосида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. - Тошкент, 2018; Хайитов Ш.Ж. Туркистонда янги экин навларининг тарқалиши ва улардаги ўзгаришлар (XIX аср охири–XX аср бошлари) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Андижон, 2020; Усаров У.А. “Россия империясининг Туркистон ўлкасидаги ер-сув муносабатларига оид сиёсати” мавзусидаги 07.00.01 – Ўзбекистон тарихи тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2021. – 51 б.; Маттиев У.Б. XIX аср ўрталари – XX аср бошларида Туркистонда аффон фуқаролари тарихи. Тарих фанлари бўйича фалсафа фанлари доктори диссертацияси автореферати. - Самарқанд.2022.; Жўраев Х.П. “Туркистонга кўчирилган аҳолининг ижтимоий ва иктиносидий ҳаёти (XIX аср охири – XX аср бошлари)” мавзусидаги 07.00.01 – Ўзбекистон тарихи ихтинослиги бўйича тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Фарғона, 2022; Элова Д.Д. “XIX аср охири -XX аср бошларида Туркистонга янги техникалар тарқалишининг ижтимоий-иктисодий ва маданий-маиший ҳаётга таъсири” мавзусидаги 07.00.01 – Ўзбекистон тарихи тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2022. – 56 б.; Рахимов Б.Э. “Туркистон генерал-губернаторлигига Каспийорти вилоятининг тутган ўрни” мавзусидаги 07.00.01 – Ўзбекистон тарихи тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2022. – 50 б.; Файзиева Ф.И. “Бухоро амирлигига рус манзилгоҳлари даги ижтимоий, иктиносидий ва маданий ҳаёт (1868 – 1920 йй.)” мавзусидаги 07.00.01 – Ўзбекистон тарихи тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2022; Ярматов О.Ш. “Туркистондаги хинд фуқаролари тарихи (XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошлари)” мавзусидаги 07.00.01 – Ўзбекистон тарихи тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2023. – 49 б. ва ҳоказо.

<sup>79</sup> Маттиев У.Б. XIX аср ўрталари – XX аср бошларида Туркистонда аффон фуқаролари тарихи. Тарих фанлари бўйича фалсафа фанлари доктори диссертацияси автореферати. - Самарқанд.2022.

<sup>80</sup> Хайитов Ж.Ш. Россия империясининг кўчириш сиёсати ва немис-меннонитлар тақдирли ( XIX аср охири – XX аср бошлари) // Илмий хабарнома - Научный вестник. 2018, 1. 65-68; Дорошенко Татьяна Ивановна

Mavzuning mustaqillik davri tarixshunosligida yosh tadqiqotchilar SH. Ravshanov hamda X.Jo‘rayevlarning nomzodlik dissertatsiyalari alohida o‘rin tutadi. Masalan, X.Jo‘rayev tadqiqotida Rossiya imperiyasidan Turkistonga aholini ko‘chirish jarayoni, ko‘chirilgan aholining Turkiston o‘lkasi bo‘ylab joylashuvi, xo‘jaligi, moddiy va maishiy turmushi, mahalliy aholi bilan munosabatlari, Turkistonga ko‘chirilgan aholiga agrar tarmoqda ko‘maklashish, jumladan, agronom yordamini ko‘rsatish masalasi, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston xo‘jaligi hayotida va texnika sohasidagi o‘zgarishlarda ko‘chirilgan aholi ishtiroki ko‘rib chiqilgan<sup>81</sup> bo‘lsa, SH.Ravshanov ishida<sup>82</sup> Turkistonga Rossiya imperiyasida ko‘chirish tajribasi va aholining ijtimoiy tarixi, ko‘chirib kelganlarni qabul qilish, Turkiston hududi bo‘ylab taqsimlash va joylashtirish bilan bog‘liq ijtimoiy muammolar, Rossiya imperiyasidan ko‘chib kelgan aholining ijtimoiy holati, ijtimoiy, etnik va diniy munosabatlardagi o‘ziga xosligi, ko‘chib kelgan aholining bandligi, kundalik hayot tarzi, iqtisodiyotdagi o‘rni, madaniy hayot, ta’lim tizimi va mahalliy aholi bilan o‘zaro munosabatlari va ko‘chirilganlarga alohida e’tibor qaratilgan.

Biroq, mazkur tadqiqotchilar keltirgan ilmiy xulosa va ma’lumotlarning ilmiy ahamiyatini e’tirof etish bilan bir qatorda ularning mualliflari asosan Rossiyadan ko‘chirib keltirilgan yevropalik aholi, aniqrog‘i ruslarga, ba’zi hollarda rusiyabzonlarga, juda kam holatlarda yahudiylarga e’tibor qaratganligi, boshqa

---

положение военнопленных в Туркестане в годы Первой мировой войны // Вестник науки и образования. 2021. №10-1 (113); Tursunova G.B. Rossiya Imperiyasining Sirdaryo viloyatiga aholini ko‘chirish siyosati.(XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlari) // Archive of Conferences2020, 9(1), 198-200; Ярматов О.Ш. XIX-XX asr boşlariida Turkistonda яшаган хинд фуқароларининг савдо фаолияти тарихидан // Йомон Бухорий сабоқлари. Самарқанд.2020. №2.-Б.55; Рахимжанова Н.Қ. Туркистон анъанавий табобати тарихидан (XIX asr oxiri – XX asr boishi) // Scientific progress. 2020. №1; Дорошенко Т.И. Формирование польской диаспоры в Туркестане в XIX - нач. Xx вв // Вестник науки и образования. 2020. №10-1 (88); Иноятова Д.М. Опыт развития традиционных народных немецких школ в Туркестане // Вестник науки и образования. 2021. №17-2 (120); Пазлиддинович Ж.Х., Бегалиевич Б.Р., Жўрабек Ю. Чор Россиясининг Туркистонга аҳолини кўчириш сиёсатида ер билан боғлиқ муаммоларнинг ҳал этилиши // Ijtimoiy fanlarda innovasiya Onlayn ilmiy jurnali, 2022 2(11), 54–59; Турсунова Г. Сирдарё вилоятига метрополиядан кўчириб келтирилган аҳолининг миллий таркиби (XIX asrning ikkinchi ярми – XX asr boşlari ) // Марказий Осиё тарихи ва маданияти, 2023 1(1), 400–404.

<sup>81</sup> Жўраев Х.П. “Туркистонга кўчирилган аҳолининг ижтимоий ва иқтисодий хаёти (XIX asr oxiri – XX asr boşlari)” мавзусидаги 07.00.01 – Ўзбекистон тарихи ихтисослиги бўйича тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Фарғона 2022.

<sup>82</sup> Равшанов Ш.Т. Туркистонга Россия империяси аҳолиси кўчуб келишининг ижтимоий тарихи (XIX asr oxiri – 1917 йил) 07.00.01. – “Ўзбекистон тарихи” ихтисослиги Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Тошкент 2022.

millat vakillari: yahudiy, hind, uyg‘ur, dungan, eroniy, afg‘on, arman, nemis va boshqa yevropaliklar ularning e’tiboridan chetda qolganligini ham aytib o‘tish o‘rinli. Qolaversa, Turkistonga kelgan aholining hammasi ko‘chirib keltirilmagan. Ular orasida iste’foga chiqib keyinchalik shu yerda qolib ketgan harbiylar, o‘zi ixtiyoriy ko‘chib kelganlar, siyosiy qochoqlar, sharqiy turkistonlik migrantlar, savdo-sotiq va iqtisodiy faoliyat olib borish uchun kelib, shu yerda qolib ketganlar ham ko‘pchilikni tashkil qilgan.

Mavzuga doir to‘rtinchi guruh adabiyotlarini MDH davlatlarida yaratilgan adabiyotlar hamda xorijiy mualliflar ishlari tashkil etadi.

1991 yildan keyingi davrda MDH davlatlarida ham mustamlaka davrini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlar to‘xtab qolgani yo‘q. Aksincha sobiq sovet davrida sinfiylik nuqtai nazari bilan yoritilgan mavzularni qayta ko‘rib chiqishga intilish kuchayganini ko‘rish mumkin. Ayniqsa, rossiyalik olimlar tomonidan Rossiya davlat tarix arxivi (RGIA), RGVIA kabi arxiv muassasalarida tegishli davrga oid arxiv materiallaridan keng foydalangan holda e’lon qilingan ilmiy ishlarni alohida ta’kidlash lozim. Dolzarb mavzular qatorida Rossiya imperiyasi XIX asrning ikkinchi – XX asr boshlarida davlat boshqaruving shakllanishi va uning mintaqasi xalqlari hayotiga ta’siri<sup>83</sup>, Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasida olib borgan milliy siyosati<sup>84</sup>, Turkiston general-gubernatorligidagi alohida millatlar hayoti va

---

<sup>83</sup> Арапов Д.Ю. «Необходимо... заняться образованием края» (Саттар-хан Абдулгафаров о задачах русской политики в Средней Азии) // Вестник Евразии. 2004. №1; Волков И.В. Деятельность военной администрации по управлению русским Туркестаном // Власть. 2010. №5.; Панченко А.Б., Стafeев О.Н. Инородческий вопрос в дискурсах Российской империи: между потребностями государства и представителями общества // Вестн. Том. гос. ун-та. 2018. №436; Коломейцева Олеся Александровна. "Проект всеподданнейшего отчета К. П. Кауфмана как исторический источник по развитию Туркестанского края конца XIX - начала XX века" Преподаватель XXI век, по. 3-2, 2018, pp. 273-284; Солодова Г.С. Управление Туркестанским краем - некоторые принципы установления российского влияния // Вестн. Том. гос. ун-та. Философия. Социология. Политология. 2019. №51; Волков И.В. Судебная политика царской власти в Русском Туркестане // Власть. 2020. №2.;

<sup>84</sup> Бартенева Ирина Юрьевна Переселенческий Пишипек: от казачьего пикета царской России до городского статуса // Вестник РУДН. История России. 2009. №3; Рагимова П. Ф. Особенности национальной политики Российской империи в конце XIX - начале XX века // Среднерусский вестник общественных наук. 2014. №5 (35); Тарасова Е.В. Население степных окраин Российской империи накануне революций 1917 г // Известия АлтГУ. 2015. №4 (88); Брежнева С.Н. Толерантность по-русски: из истории проведения религиозной политики Российской империей в Туркестане // Народы и религии Евразии. 2015. №8.; Брежнева Светлана Николаевна Народы Туркестана в составе Российской империи // Российские регионы: взгляд в будущее. 2017. №1.

ularning taqdiri<sup>85</sup>, etnodemografik jarayonlar, diniy siyosat va o‘lkadagi diniy konfessiyalarning faoliyati<sup>86</sup>, Turkiston general gubernatorligida sog‘liqni saqlash va tibbiyot sohasidagi o‘zgarishlar<sup>87</sup>, ta’lim sohasi<sup>88</sup> eng asosiy yoritilgan mavzular qatoridan o‘rin olgan.

---

<sup>85</sup> Тумайкина В.В. Вопрос о китайских эмигрантах, пришедших на территорию Семиречья во второй половине XIX в // Известия АлтГУ. 2008. № 4–5 (60). – С. 214-218.; Котюкова Т. В. О вкладе выходцев из стран Западной, Центральной и северной Европы в научное изучение русского Туркестана в конце XIX–начале XX в. // Известия Коми НЦ УрО РАН. 2010. №4 (4). –С.94-97; Галстян М.С., Гайсина Л.Р. Армянская община Русского Туркестана и развитие промыслов в Закаспийской области (последняя треть XIX – начало XX в.) // Исторический журнал: научные исследования. 2017. №4. - С.1-7; Аминов И.И. Коренное население Закаспийской области на государственной и военной службе Российской империи (1881-1917 гг. ) // Lex Russica. 2018. №4 (137). – С.136-151; Галстян М.С. Армянская община Русского Туркестана и становление хлопковой отрасли в Средней Азии // Экономическая история. 2018. №2 (41). – С. 170-178; Аюпов Т.М. Некоторые аспекты формирования башкирской диаспоры Киргизии в дореволюционный период // Известия АлтГУ. 2019. №2 (106). – С.13-17;

<sup>86</sup> Арапов Д.Ю. Русский посол в Турции Н. В. Чарыков и его «Заключение» по «Мусульманскому вопросу» // Вестник Евразии. 2002. №2.; Чвырь Л. Этноконфессиональное сознание у народов Туркестана // Россия и мусульманский мир. 2003. №3; Тихонов А. К. К политике правительства Российской империи в отношении неправославных исповеданий во второй половине XIX - начале XX в. (обзор источников) // Вестник Санкт-Петербургского университета. История. 2004. №3-4; Волков И.В. Конфессиональные особенности интеграционных процессов в Туркестане (1910-1916 гг.) // Власть. 2009. №4.; Волков И.В. Миссионерская деятельность православной Церкви на национальных окраинах Российской империи (на примере Туркестана второй половины XIX - начала XX в.) // Вестник РУДН. История России. 2010. №1.; Волков И.В. Миссионерская деятельность православной Церкви на национальных окраинах Российской империи (на примере Туркестана второй половины XIX - начала XX в. ) // Вестник РУДН. История России. 2010. №1; Волков И.В. Система этноконфессиональных отношений в Русском Туркестане как основа межцивилизационного сотрудничества в Средней Азии // Исламоведение. 2016. №2.; Волков И.В. конфессиональные особенности интеграционных процессов в Туркестане (1910-1916 гг.) // Власть. 2009. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/konfessionalnye-osobennosti-integratsionnyh-protsessov-v-turkestane-1910-1916-gg>; Литвинов В.П. Местное паломничество мусульман Туркестана и Кавказа: опыт сравнительного анализа (вторая половина XIX – начало XX в.) // Исламоведение. 2016. №2.; Лысенко Ю.А., Лысенко М.Ф.Правовое положение мусульман центральноазиатских окраин Российской империи и «Мусульманский вопрос» в системе администрирования региона (вторая половина XIX – начало XX в. ) // Известия АлтГУ. 2016. №2 (90); Литвинов В.П. Местное паломничество мусульман Туркестана и Кавказа: опыт сравнительного анализа (вторая половина XIX – начало XX в.) // Исламоведение. 2016. №2.; Волков И. Система этноконфессиональных отношений в Русском Туркестане как основа межцивилизационного сотрудничества в Средней Азии // Россия и мусульманский мир. 2017. №1 (295).; Мелентьев Д. Роль Главного вакуфного управления в советизации мусульманского образования и становлении советской сети школ в Туркестане // Islamology. 2018. №1.; Солодова Галина Сергеевна Управление Туркестанским краем - некоторые принципы установления российского влияния // Вестн. Том. гос. ун-та. Философия. Социология. Политология. 2019. №51.;

<sup>87</sup> Цыряпкина Ю.Н. Деятельность русских военных врачей в ходе организации медицинского дела в Ташкентском уезде Туркестана во второй половине XIX – начале XX вв // Вестник КемГУ. 2017. №1 (69).; Волков И.В. Социальная политика царской власти в Русском Туркестане: сфера здравоохранения // Власть. 2019. №1.;

<sup>88</sup> Арапов Д.Ю. «Необходимо... заняться образованием края» (Саттар-хан Абдулгафаров о задачах русской политики в Средней Азии) // Вестник Евразии. 2004. №1.; Сумарокова, О.Л. Первые учебники русского языка для русско-туземных школ Туркестанского края / О. Л. Сумарокова // Новая наука: Опыт, традиции, инновации. – 2015. – № 1. – С. 66-71. – EDN TXZLBZ.; Сумарокова О.Л. Туркестанская Учительская Семинария // CETERIS PARIBUS. 2015. №2.; Сумарокова О.Л. К вопросу о лингвистической подготовке административных служащих Туркестанского края // Власть. 2016. №2.; Волков И.В. Власть и мусульманская школа в Русском Туркестане (1867-1881 гг.) // Власть. 2017. №1; Закирова М.Х. Образ имперской россии в просветительской политике Туркестанского края на рубеже XIX-XX вв. (на примере деятельности Туркестанского отдела Русского географического общества) // РСМ. 2021. №2 (111).

Bir qator rossiyalik tadqiqotchilar ishlarida<sup>89</sup> Turkiston o'lkasiga ko'chib kelgan aholining adaptatsiya, assimilyatsiya masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlar ham e'lon qilingan bo'lib, ularda asosan mahalliy aholi bilan o'zaro aloqalar kommunistik mafkura nuqtai-nazarida yaxshi bo'yoqlar bilan yoritishga harakat qilinganini ham ta'kidlash joiz<sup>90</sup>.

Ushbu davrda ayniqsa, Turkiston o'lkasidagi yahudiylar hayoti va undagi o'zgarishlar, yahudiy tadbirkorlar va ishbilarmonlarning Turkiston general-gubernatorligidagi faoliyati, Rossiya imperiyasining Turkistondagi yahudiylar bo'yicha tutgan pozitsiyasi va undagi o'zgarishlar asosiy e'tibor qaratilgan jihatlar bo'lган<sup>91</sup>. Shu bilan birga Turkiston o'lkasidagi tatarlarning faoliyati haqida ham qator ilmiy ishlar<sup>92</sup> e'lon qilingan.

XXI asrning dastlabki o'n yilligida rossiyalik tadqiqotchilar tomonidan yaratilgan yirik tadqiqotlar qatoriga P.P.Litvinov, A.Kappeler, O.I.Brusina,

---

<sup>89</sup> Логашова Б.-Р. Белуджи в Туркменистане / Современное развитие этнических групп Средней Азии и Казахстана. Ч.2. - М., 1992.; Тарасова Елена Владимировна. "Влияние переселенческого движения на земельные отношения в Степном крае и Туркестане в конце XIX начале XX в" Известия Алтайского государственного университета, vol. 2, no. 4 (80), 2013, pp. 203-206.; Брежнева С.Н. "Русские переселенцы в Туркестане: проблемы взаимоотношения с местным населением // Via in tempore. История. Политология, vol. 37, №. 1 (222), 2016. - С. 113-117.; Кузнецов Д.В. "Колонизационная и землеустроительная политика самодержавия в Степном крае в период проведения Столыпинской аграрной реформы (часть 1)" Вестник Омского государственного аграрного университета, no. 1 (25), 2017, pp. 149-158.; Котюкова Т.В. Проблемы российской переселенческой политики в Туркестане в начале XX в. // Военно-исторический журнал. 2010. № 2. – С. 58-64; № 3. – С. 54-57; Цыряпкина Юлия Николаевна. "Русские переселенцы в Туркестане в конце XIX - начале XX в.: основные социокультурные характеристики" Вестник Томского государственного университета, no. 411, 2016, pp. 183-187.; Арсланов Р.А., Климашин А.Л. Периодические издания России рубежа XIX-XX вв. о социокультурной адаптации русских переселенцев в Средней Азии // Вестник Российской университета дружбы народов. Серия: История России. 2017. Т. 16. № 3. – С. 347-364.

<sup>90</sup> Брусина О.И. Восточнославянское население в сельских районах Узбекистана. Проблемы адаптации и межэтнических взаимодействий / Современное развитие этнических групп Средней Азии и Казахстана. Ч.2. М., 1992; Гинзбург А.И. Русское население в Средней Азии Современное развитие этнических групп Средней Азии и Казахстана. Ч.2. М., 1992; Адаптация русских в Узбекистане (некоторые проблемы изучения) Новое в этнографии. Вып. I. М., 1989; Брежнева С.Н. Отражение идеи аккультурации в переселенческой политике Российской империи в Туркестане на рубеже XIX–XX вв. // Вестник РУДН. Серия: История России. 8 Vol. 17 № 3. – С. 608–638.

<sup>91</sup> Гитлин С.И. Европейские евреи в русском Туркестане на рубеже XIX-XX вв // Вестник Российской университета дружбы народов. Серия: История России. - 2018. - Т. 17. - №2. - С. 296-319; Гитлин С.И. Европейские евреи в русском Туркестане на рубеже XIX-XX вв // Вестник РУДН. История России. 2018. №2.; Кальмина Л.В. Евреи в самодержавной России: на пути к статусу «Имперской нации» // Известия Иркутского государственного университета. Серия: История. 2021.; Литвиненко П.В. Переход Евреев в ислам в дореволюционной Центральной Азии // Исламоведение. 2022. №2 (52); Каганович А. Друзья поневоле: Россия и бухарские евреи, 1800-1917 / науч. Ред. Миллер. А. - Москва: новое литературное обозрение, 2016. - 526 с.;

<sup>92</sup> Хамитбаева Н.С. Татарское население Ташкента в конце XIX - начале XX в // ИКНСП. 2017. №7; Гибадуллина Э.М. Татарские городские общины южного Казахстана во второй половине XIX - начале XX в.: социально-экономический аспект // ИКНСП. 2017. №7; Хамитбаева Н.С. Татарское население ташкента в конце XIX - начале XX в // Из истории и культуры народов Среднего Поволжья. №. 7, 2017. – С. 127-140.

S.N.Abashin, I.V.Volkov, S.Gubayevalar ishlarini<sup>93</sup> keltirib o‘tish mumkin. Ularda XIX asr oxiri - XX asr boshlarida bu mintaqada kapitalizm shakllanishi davrida hali ham parchalanuvchi rol o‘ynagan va vodiyya yashagan xalqlarning (o‘zbeklar, tojiklar, qirg‘izlar, uyg‘urlar, Markaziy Osiyo yahudiylari, tatarlar va boshqalar)ning izolyatsiyasiga olib kelgan ko‘plab omillar mavjud edi. Shu bilan birga, madaniyatlarning yanada intensiv o‘zaro ta’siri va ularning elementlarini bosqichma-bosqich xalqarolashtirish uchun yangi sharoitlar yaratildi, ya’ni birlashish (konsolidatsiya, assimilyatsiya, integratsiya) jarayonlari kuzatilganligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish kerakki, O‘rta Osiyo xalqlarining podsho Rossiyasi siyosatiga qarshi milliy-ozodlik kurashlari nafaqat Turkiston general-gubernatorligi hududida, balki butun O‘rta Osiyo va Qozog‘iston miqyosida yoyilgan edi. So‘nggi yigirma yil davomida Markaziy Osiyo, Rossiya va boshqa xorijlik olimlar tomonidan ham mavzu doirasida qator ishlar amalga oshirildi. Bir qancha maqolalar<sup>94</sup> yozildi, dissertatsiyalar himoya qilindi<sup>95</sup>.

Masalan, 2015 yilda Rossianing bir qator yetakchi gumanitar yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqot va oliy ta’lim muassasalari tashabbusi bilan ‘Rossiya va Markaziy

---

<sup>93</sup> Литвинов П.П Государство и ислам в Русском Туркестане (1865-1917): (по архивным материалам). – Елец, 1998. – 319 с.; Литвинов Каппелер А. Россия — многонациональная империя. Возникновение. История. Распад. – Москва, 2000; Брусила О.И. Славяне в Средней Азии. Этнические и социальные процессы. Конец XIX - конец XX века. – Москва: Восточная литература РАН, 2001. – 240 с.; Абашин С.Н. Национализмы в Средней Азии в поисках идентичности. — СПб., 2007; Волков И.В. Религиозные аспекты переселенческой политики царизма в Туркестанском крае: 1867-1917. – Бишкек: Илим, 2007; Губаева С. Ферганская долина. Этнические процессы на рубеже XIX-XX вв. [LAP Lambert Academic Publishing](#), 2012. ва бошқ.

<sup>94</sup> Махмудов О.А. Призраки и страхи колониальных властей Туркестана: мусульманское «духовенство» в восстании 1916 г. // Цивилизационно-культурные аспекты взаимоотношений Махмудов О.А. России и народов Центральной Азии в начале XX столетия (1916 год: уроки общей трагедии) Сборник докладов Международной научно-практической конференции. г. Москва, 18 сентября 2015 г. М., 2016. – С. 93-113.; Участие местного населения в восстании 1916 года: представления и презентации российских колониальных чиновников // Международное научное совещание «Переосмысление восстания 1916 года в Центральной Азии»: сб. статей. — Бишкек: Нео Принт, 2017. – С. 89-96.; The "virtual reality" of colonial Turkestan: how Russian officials viewed and represented the participation of the Local population in the 1916 revolt // The Central Asian Revolt of 1916. A collapsing empire in the age of war and revolution Edited by Alexander Morrison, Cloé Drieu and Aminat Chokobaev. Manchester: Manchester University Press, 2019. P. 95-125.; Мусульманский фактор и «духовенство» в туркестанских событиях 1916 года: роль и значение глазами российских чиновников // Изучение 1916 года: деполитизация и гуманизация знаний о Восстании в Центральной Азии / Ред. Александр Моррисон и Аминат Чокобаева. Бишкек: Maxprint, 2020. – С. 92-116.; Восстание 1916 г. в «коренных областях» Туркестанского генерал-губернаторства: представления и презентации русских колониальных чиновников // O‘zbekiston tarixi. 2020. № 4. – С. 98-115.

<sup>95</sup> Суюнова О. Туркистанда 1916 йилги миллий-озодлик кураши (Сирдарё вилояти мисолида). Тарих фанлари номзоди дисс. автореф. – Тошкент, 1997.; Зиёева Д. Туркистан миллий озодлик ҳаракати: (Мустабид тузмга карши 1916 йил ва 1918-1924 йиллардаги халқ курашлари тарихшунослиги). – Тошкент: F.Фулом., 2000.

Osiyo xalqlarining o‘zaro aloqalarining sivilizatsiyaviy-madaniy jihatlari (1916 yil: umumiy fofia saboqlari)” mavzusida xalqaro konferensiya tashkil etildi. Ushbu konferensiya materiallari to‘plamida Rossiya, Tojikiston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Qozog‘istonning yetakchi tarixchi olimlari tomonidan ilgari surilgan yangicha nazariy metodologik nuqtai-nazarlar va iste’molga kiritilmagan yangi hujjatlar tahlili asosida mavzu bilan bog‘liq ko‘plab masalalar yoritib berilgan.

Jumladan, N.U G‘ofurov 1916 yilgi qo‘zg‘olonni yoritishda uning asosiylaridan biri sifatida Xo‘jand hududida sodir bo‘lgan voqealarga alohida e’tibor qaratgan bo‘lsa<sup>96</sup>, S.N.Abashin qo‘zg‘olonda ishtirok etgan “mahalliy” ma’murlar haqida<sup>97</sup>, B.I. Borubashov Qirg‘iziston hududlarida qo‘zg‘olonning vujudga kelishining shart-sharoitlari borasida<sup>98</sup>, A.Y. Baxturina qo‘zg‘olon arafasi va undan keyingi davrda Turkiston o‘lkasini boshqarilishi<sup>99</sup> to‘g‘risida so‘z yuritgan. A.D.Vasilev esa ushbu tarixiy voqeaga ta’sir ko‘rsatgan tashqi omillar, aniqroq qilib aytganda, 1916 yil qo‘zg‘olonida nemis-turk joususlarining qatnashishi masalasiga to‘xtalib o‘tadi. Muallif sovet davri adabiyotlarini tahlil qilish va Turkiyadagi tarixiy arxiv hujjatlarini o‘rganishlari natijasida Turkiyaning 1916 yilgi voqealarda ishtirok etganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni hali uchratmaganini yozadi<sup>100</sup>.

S.K.Malabayev ham Qirg‘izistondagi ushbu fojeaviy voqealarda eskalatsiyasida tashqi kuchlarning roli<sup>101</sup>, R.Y.Pochekayev qo‘zg‘olon davrida Turkistondagi Rossiya hukumati ma’muriyatining Buxoro va Xiva bilan o‘zaro aloqalarining o‘ziga xos xususiyatlari<sup>102</sup>, Z.G. Saktaganova esa bu davrda Qozog‘istondagi ijtimoiy-iqtisodiy holat va qo‘zg‘olon sabablari<sup>103</sup>, D.I.Amanjolova esa qo‘zg‘olon

<sup>96</sup> Гафаров Н. У. Худжанд (Ходжент) — колыбель среднеазиатского восстания 1916 г. // Цивилизационно-культурные аспекты взаимоотношений России и народов Центральной Азии в начале XX столетия (1916 год: уроки общей трагедии). Сборник докладов Международной научно-практической конференции. Г. Москва, 18 сентября 2015 г. -М., 2016. -б. 50-62.

<sup>97</sup> Абашин С.Н. «Туземные» чиновники и восстание 1916 г. ўша тўпламда б. 84.

<sup>98</sup> Борубашов Б.И. Восстание 1916 г. в Кыргызстане: предпосылки и уроки. ўша тўпламда. б. 63.

<sup>99</sup> Бахтурина А.Ю. Управление в Туркестанском крае накануне и во время восстания 1916 г ўша т. б. 33.

<sup>100</sup> Васильев А.Д. К вопросу о внешнем влиянии на события 1916 г. ўша тўпламда. -108. б.

<sup>101</sup> Малабаев С.К. Роль внешних сил в эскалации трагических событий 1916 г. в Кыргызстане. ўша тўпламда. 119.б.

<sup>102</sup> Почекаев Р.Ю. Особенности взаимоотношений российской администрации Туркестана с Бухарой и Хивой во время восстания 1916 г. (политико-правовые аспекты) – Б.156

<sup>103</sup> Сактаганова З.Г.Грозный 1916 г.: к общей характеристике социально-экономической ситуации в Казахстане и причин восстания ўша тўпламда – Б.179.

davrida qozoq ziyolilarining etnosiyosiy safarbarligi muammolari<sup>104</sup>, SH.D. Batirbayeva esa qo‘zg‘olon vaqtidagi qirg‘izlarning demografik yo‘qotishlari bilan bog‘liq manbalar va ularni o‘rganish usullarining o‘ziga xosligi xususida<sup>105</sup> so‘z yuritadi.

Konferensiyada O‘zbekiston vakili sifatida ishtirok etgan t.f.n. O.Mahmudov 1916 yilgi qo‘zg‘olonda o‘ziga xos o‘rin tutgan Rossiya mustamlaka hukumatining ko‘zga ko‘ringan siyosiy doiralari va turkistonlik musulmon din peshvolari bilan bog‘liq yangi ma’lumotlarni<sup>106</sup> beradi.

Shu o‘rinda rossiyalik mualliflar tomonidan yaratilgan ilmiy tadqiqotlar respublika va boshqa MDH davlatlarida yaratilgan ishlardagi o‘zining ilmiy-nazariy yondoshuvlardan ma’lum darajada farq qilishini ham ta’kidlab o‘tish lozim. Ushbu tadqiqotlarning aksariyatida Rossianing sivilizatorlik roliga, uning Turkistonda olib borgan mustamlakachilik siyosatiga ijobiy baho berish, hamda rossiyaliklarning o‘lkada olib borgan faoliyati, ularning Turkistonning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarga qo‘shgan hissasini ko‘rsatib berishga urinilganligini kuzatish mumkin.

---

<sup>104</sup> Аманжолова Д.А. Восстание 1916 г. и проблемы этнополитической мобилизации казахской интеллигенции ўша тўпламда - Б.137.

<sup>105</sup> Батырбаева Ш.Д. Демографические потери кыргызов во время восстания 1916 г.: источники и методы их изучения ўша тўпламда - Б.171.

<sup>106</sup> Махмудов О.А. Призраки и страхи колониальных властей Туркестана: мусульманское «духовенство» в восстании 1916 г. - Б. 93.

Mavzuning mustaqillik davri tarixshunosligida Qozog‘iston va Qirg‘izistonda yaratilgan ishlar<sup>107</sup> ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. Jumladan, S. Maduanov, YE.I.Xelimskiy, A.A. Belbayeva, T.K.Kenensariyev, S. Atusheva, YE.YE.Ozmitel, N. Isabayeva, I.V.Barteneva, I.Y. Barteneva, SH.D. Batirbayeva, L.S.Dinasheva, F.N.Miymanbayeva, YE.A.Avasov, G.M.Mendikulova, YE.A.Nadejuk, N.K. Marazikovlarning O‘rta Osiyo, shu jumladan, Qozog‘iston va Qirg‘iziston hududida yashagan millatlarning o‘rganilayotgan davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy tarixi bilan bog‘liq yangi ma’lumot va xulosalari o‘rin olgan ishlarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin xorijda e’lon qilingan ishlarda esa mualliflar ko‘proq Turkistondagi Rossiya imperiyasi tomomnidan yuritilgan mustamlakachilik siyosati, uning mintaqaning tub aholisi hayotiga ta’siri, mustamlaka sharoitida o‘lkadagi integratsiya jarayonlari, jadidchilik harakatining vujudga kelishi, Rossiya imperiyasi markaziy hududlaridan aholini ko‘chirish siyosati kabi masalalarga e’tibor qaratganlar<sup>108</sup>. Ular ushbu tadqiqotlarda tub

---

<sup>107</sup> Мадуанов С. Взаимоотношения казахов с другими соседними народами Центральной Азии в XVIII начале XX вв. (политические и социально-экономические аспекты). Алматы: Билим, 1995.; Хелимский Е.И. Массовые источники по истории крестьян-переселенцев в Средней Азии в конце XIX начале XX в. Бишкек, 1996.; Бельбаева А. А. Переселенческая политика царизма в Казахстане в конце XIX начале XX веков // Вестник КазГУ. Серия историческая. 1998. № 10. – С. 78 – 82; Кененсариев Т.К. Переселенческий вопрос в политике царского правительства второй половины XIX начала XX в. (На материалах Киргизии) // Ошол эле китепте. Бишкек, 1999.; Атушева С. Переселенческая политика царской России и, кризис традиционного казахского общества: Мысль. 2000: № 4. – С. 70 -72.; Озмитель Е.Е. Православие в Киргизии. XIX-XX вв. Исторический очерк. Бишкек: КРСУ, 2003.; Исабаева Н. Аграрная политика Российской империи в Северном Кыргызстане во второй половине XIX начале XX в.: Автореф. дисс. .канд. ист. наук. Бишкек, 2006.; Бартенева И.В. Переселенческая политика Российской империи в Туркестане во второй половине XIX века // Вестник Кыргызско-Российского Славянского Университета. 2008. Т. 8. № 7. – С. 64-69; Бартенева И.Ю. Переселенческое движение в Кыргызстан: во второй половине XIX - начале XX века. Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Бишкек, 2010. – 199 с.; Батырбаева Ш. Д. Этнодемографическая ситуация в российской империи в контексте укрепления российской государственности на рубеже XIX - XX вв. (на примере Кыргызстана) // Гуманистарий: актуальные проблемы гуманитарной науки и образования. 2012. №1; Динашева Лазат Сарсенбековна, Юсуп Жахангир Хабиб Народное образование в южных областях Казахстана (вторая половина XIX начало XX вв. ) // Universum: общественные науки. 2015. №4 (14).; Мийманбаева, Ф.Н. Из истории образования старожильческих переселенческих хозяйств [Текст] / Ф.Н. Мийманбаева // Вестник Казахского Национального педагогического университета имени Абая. Серия: Исторические и социально-политические науки. — 2016. — № 3 (50). — С. 79-82.; E. A. Avasov. Immigration policy of tsarism in the Ferghana valley // Bulletin of National Academy of sciences of the republic of Kazakhstan. Volume 2, Number 354 (2015), 269 – 274.; Мендикулова, Г. М., Надежук, Е. А. Архивные документы о европейских военнопленных Первой мировой войны в Семиреченской области Туркестанского генерал-губернаторства (Case study) // Вестник архивиста. – 2018. – № 4. – С. 996–1008.; Маразиков Нурабидин Камчыевич, Садыкова Максатай Токторовна основные факторы особенностей становления строительства жилищ южных киргизов // Бюллетень науки и практики. 2021. №2. ва бошк.

<sup>108</sup> Donne Le J. The Russian Empire and the world, 1700-1917. – New-York, Oxford : Oxford University Press, 1997. –394 p.; Martin V. Barimta. Law and custom in the steppe. The kazakhs of the Middle Horde and Russian colonialism

bo‘limgan xalqlarning o‘lkaga ko‘chib kelishi bilan bog‘liq jarayonning mahalliy aholi hayotiga ta’sirini ko‘rsatib berishga harakat qilgan. Jumladan, Aleksandr Morrisonning maqolalarida<sup>109</sup> yevropalik (asosan rus va ukrain) dehqonlarning XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O‘rta Osiyoning janubiy qismiga o‘rnashib olishi bilan tanishtiradi. Uning fikricha, bu dehqonlarning aholi yashash punktlariga joylashib olishlarining huquqiy asoslari va demografik ta’siri, shuningdek, ularni tashkil etish va rag‘batlantirishda davlat yetakchi rol o‘ynagan. Muallif tomonidan rasmiylarning muhojirlarga bo‘lgan munosabati (ko‘pincha juda salbiy), ularning mahalliy qozoq va qirg‘iz aholisi bilan munosabatlari o‘rganiladi.

Maqolada Turkistonni Jazoir va Janubiy Afrika bilan bir qatorda ko‘rib chiqadigan qiyosiy asosdan foydalaniladi va boshqa ko‘chmanchi jamiyatlarni (masalan, “kambag‘al oqlar”) o‘rganishda ishlab chiqilgan paradigmalarining Turkistondagi slavyan dehqon aholi punktarini tushunish uchun ahamiyati bor-yo‘qligini aniqlashga harakat qilinadi. Ko‘p mahalliy aholi yashaydigan boshqa mintaqalarda Yevropaning joylashishi bilan juda yaqin o‘xshashliklar mavjud, ammo Rossiya misolida irqiy mafkura diniy bo‘linishlar va madaniy chekinish qo‘rquvi bilan solishtirganda ancha kichikroq rol o‘ynagan. Bu 1916 yilda keng ko‘lamli qo‘zg‘olonga olib kelgan Birinchi jahon urushi oldidan ko‘chmanchilar va "mahalliy" aholi o‘rtasidagi munosabatlarning sezilarli darajada yomonlashishiga to‘sinqinlik qilmadi.

---

in the nineteenth century. Ruchmond, Surrey. 2001; Muriel J. Diamond in the rough: The state, entrepreneurs and Turkestan's hidden resources in late imperial Russia // Extending the borders of Russian history. Budapest, 2003. P. 183-196; Brower Daniel. Turkestan and the Fate of the Russian Empire. – London; New York: Routledge Curzon, 2003. – 184 p.; Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1997. – 300 p. **Adeeb Khalid**, «Culture and Power in Colonial Turkestan», *Cahiers d’Asie centrale*, 17/18 | 2009, 413-447; John Whitman. Turkestan Cotton in Imperial Russia // The American Slavic and East European Review. Vol. 15, No. 2 (Apr., 1956), pp. 190-205; Beatrice Penati. Land and Water in Tsarist and Early Soviet Central Asialocked // <https://doi.org/10.1093/acrefore/9780190277727.013.320> Published online: 26 March 2019.

<sup>109</sup> Morrison A. The Pahlen Commission and the restoration of rectitude in colonial Transcaspia, 1908 – 1909// Enqueter dans les societes coloniales, monograph issue of Monde(s). Histoire, Espaces, Relations. – №4. – 2013. – P.45 – 64; Morrison A. Russian Rule in Samarkand 1868-1910: A Comparison with British India. – Oxford and New York: Oxford University Press, 2008. – 395 p.; Alexander Morrison. Peasant Settlers and the ‘Civilising Mission’ in Russian Turkestan, 1865–1917 // The Journal of Imperial and Commonwealth History. December 2014 43(3):1-31.DOI: 10.1080/03086534.2014.941166; Morrison A. Introduction: Killing the Cotton Canard and Getting rid of the Great Game: rewriting the Russian conquest of Central Asia, 1814-1895// Special Issue: The Russian Conquest of Central Asia Central Asian Survey. – №2 – 2014. – P.131–142.

Yuqoridagi manba va adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, mavzuga doir hali ilmiy iste'molga kiritilmagan manbalarni chuqur tahlil etish lozim. Qolaversa, mavjud adabiyotlarning tarixshunoslik tahlili ham bugungi kunga qadar Turkiston general-gubernatorligidagi tub joylik bo'lмаган ахолининг ижтимоий-иқтисолиҳи яхудига билан баг'лиқ масалалар ма'lум даражада о'rғанилган бо'lsa-da, уларда о'rғанилайотган муаммо chuqur va har tomonlama, alohida umumlashgan tadqiqot doirasida yoritib berilmaganligini ko'rsatdi.

### **I bob bo'yicha xulosalar**

Rossiya imperiyasi fuqarolarini Turkistonga ko'chirilishiga doir tadqiqotlarda "ruslar" yoki sharqiy slavyanlar diasporasi" sifatida ilgari surilsa-da, tarqoq guruh va jamoalardan iboratligi, turli millatlar, e'tiqod, ijtimoiy guruhlar, turli toifalarga mansubligi imperiya amaldorlarining o'lkadagi rus aholisini yagona pravoslav jamoasi sifatida uyushtirishga qaratilgan say-harakatlari behuda ketganligi bois Turkiston hududlariga ko'chib kelgan ruslarni yaxlit etnik yoki diniy uyushma – diaspora sifatida emas, balki tub bo'lмаган ахоли сифатида ко'rib чиқилиши мақсадга muvofiqdir.

Turkiston general-gubernatorligidagi tub bo'lмаган ахолининг ижтимоий-иқтисолиҳи яхудига tarixiga doir mustamlaka davriga tegishli adabiyotlarning mualliflari o'rғанилайотган muammoga asosan Rossiya imperiyasi manfaatlaridan kelib chiqqan holda yondoshganligi ko'zga tashlanadi. Sovet davrida o'rғанилайотган mavzuga imperianing turli qismlaridan ko'chirib kelingan yaxlit etnik jamoa sifatida e'tibor qaratilgan. Biroq mazkur davr tadqiqotlarining manbaviy bazasi hamda o'rғaniladigan masalalar doirasining kengligi, yirik va umumlashgan tadqiqotlar yaratilganiga qaramay, ularning mazmun-mohiyati asosan sovet mafkuriasi asosida yoritib berilgan.

O'zbekiston mustaqilligi yillarida ham mahalliy tarixchilar orasida O'zbekiston tarixining turli masalalari qatori Rossiya imperiyasining Turkistonda olib borgan milliy siyosati bilan bog'liq masalalarni tadqiq etishga qiziqish ortdi. Biroq mazkur tadqiqotchilar keltirgan ilmiy xulosa va ma'lumotlarning ilmiy

ahamiyatini e'tirof etish bilan bir qatorda ularning mualliflari asosan Rossiyadan ko'chirib keltirilgan yevropalik aholi (aniqrog'i ruslarga, ba'zi hollarda rusiyzabonlar)ga, juda kam holatlarda yahudiylarga e'tibor qaratib, boshqa millat vakillari: hind, uyg'ur, dungan, eroniy, afg'on, arman, nemis va boshqa yevropaliklar e'tiboridan chetda qolgan.

Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin xorijda e'lon qilingan ishlarda esa mualliflar ko'proq Turkistonidagi Rossiya imperiyasi tomonidan yuritilgan mustamlakachilik siyosati, uning mintaqaning tub aholisi hayotiga ta'siri, mustamlaka sharoitida o'lkadagi integratsiya jarayonlari, jadidchilik harakatining vujudga kelishi, Rossiya imperiyasi markaziy hududlaridan aholini ko'chirish siyosati kabi masalalarga e'tibor qaratganlar. Ular ushbu tadqiqotlarda tub bo'lмаган xalqlarning o'lkaga ko'chib kelishi bilan bog'liq jarayonning mahalliy aholi hayotiga ta'sirini ko'rsatib berishga harakat qilgan.

Umuman olganda mavjud adabiyotlarning tarixshunoslik tahlili ham bugungi kunga qadar Turkiston general-gubernatorligidagi tub bo'lмаган aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bilan bog'liq masalalar alohida umumlashgan tadqiqot doirasida yoritib berilmaganligini ko'rsatdi.

## **II BOB TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGIDA TUB JOYLI BO‘LMAGAN AHOLINING JOYLASHUVI**

### **2.1 Turkiston o‘lkasidagi migratsiya jarayonlari va aholi milliy tarkibidagi o‘zgarishlar**

Turkiston o‘lkasi viloyatlarini rus mustamlakalashtirilishi dastlab harbiy siyosiy maqsadlardan kelib chiqqan edi. Tabiiyki, rus otryadlarining qozoq dashtlariga ko‘chib o‘tishi boshlangan. 1869 yilda Turkiston general-governatorligi tomonidan Yettisuv o‘lkasiga rus kolonistlarini joylashtirishning vaqtinchalik qoidalari ishlab chiqildi. Ularning soni 1881 yilda harbiylarga tegishli 380 ta oilani hisobga olmaganda 3300 kishiga yetgan edi<sup>110</sup>. Darhaqiqat, rus mustamlakachiligining dastlabki davri haqida so‘z ketganda, asosiy manba sifatida K.P. Kaufmanning Turkiston o‘lkasi bo‘yicha tayyorlagan hisobotiga e’tibor qaratish lozim. Uning 3-bobi ko‘chirish siyosatiga bag‘ishlangan.

1867 yilda 24000 taxminan kishi bo‘lgan mintaqaning rus aholisi 1881 yilga kelib, 65000 kishiga yetib, deyarli uch barobar ko‘paydi<sup>111</sup>. K.P.Kaufman bu davrda o‘lkada yashagan rusiyabon xalqlar haqida quyidagi ma’lumotlar keltirgan: doimiy qo‘shinlardan tashqari ruslar 65000 kishini yoki o‘lka aholisining atigi 2% ini tashkil qiladi. Ular asosan Yettisuv viloyatida (har ikkala jins 45.000 kishi) jamlangan bo‘lib, ko‘pchiligi qishloq (kazaklar va dehqonlar) aholisi va viloyatning kamsonli, shaharlar aholisidan iborat bo‘lgan. Shuningdek, rus aholining kattagina qismi Sirdaryo viloyati 10-15 ming nafar yoki 7% ni tashkil qilib, asosan Toshkent (5000 ga yaqin) va Kazalinskda (2000 ga yaqin) yashagan. Shuningdek, viloyatning shahar tipidagi manzilgohlarda uncha katta bo‘lmagan rus koloniyalari bor edi. Zarafshon okrugida esa ruslar 3000 ga yaqin bo‘lgan. Amudaryo bo‘limida asosan

---

<sup>110</sup> И-1-фонд, 27-рўйхат, 276-иш, 4-об варак.

<sup>111</sup> Проект всеподданнейшего отчёта генерал-адъютанта К.П. фон-Кауфмана I по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства. 7 ноября 1867 - 25 марта 1881 г. – Санкт-Петербург: Военная Типография, 1885. – С. 20.

Ural kazak qo'shinlari joylashgan. Farg'ona viloyatidagi rus aholisi xizmatchi, savdogar va ishchi toifasidagi jami 200 kishidan oshmagan<sup>112</sup>.

Gubernator boshqa xalqlar to'g'risidagi statistika ma'lumotlarni ham keltirib o'tgan. Jumladan, taranchilar — o'zlarini sartlar deb atagan, ular G'ulja rayonida qariyb 50000 kishini tashkil qilgan. O'lkaga Volgabo'yи guberniyalaridan kelgan tatarlar 12 ming kishiga yaqin bo'lgan. Lekin ular turli davrlarda savdo-sotiq maqsadida doimiy ravishda kelib turgani, mahalliy aholining ularga nisbatan hayrixohligi tufayli tatarlarning soni ancha ko'paygan. Shu boisdan ularning taxminiy sonini 20000 ming kishiga yaqin deb hisoblash mumkin.

Dunganlar o'sha davrda 15.000 nafarga yaqin bo'lib, Sharqiy Turkistonda Xitoy qo'shinlaridan qochib Yettisuv va Farg'ona viloyatlariga ko'chgan. 1881 yilda ko'chib ketishidan oldin G'ulja viloyatidagi dunganlarning soni 5000 dan oshmagan<sup>113</sup>.

Darhaqiqat, hisobotda vaqtinchalik G'ulja rayonida mavjud va gubernatorlikda oldin yashamagan xalqlar to'g'risida ham to'xtalib o'tilgan. Jumladan, mo'g'ul qabilalariga mansub xalqlar: Sibo, Solonlar (20.000 kishi) va Qora-xitoylarning (3.500 kishi) katta qismi G'ulja rayonida istiqomat qilib, Xitoy hukumati tomonidan Iliga joylashgan harbiylarning avlodlari edi. Hindlar haqida asosli ma'lumotlar yetarli bo'limgan, faqatgina ular asosan savdo-sanoat markazlarida sudxo'rlik bilan shug'ullangani eslatib o'tiladi.

XIII asrda kelib qolgan bosqinchilarning avlodlari bo'lgan arablar Samarqand shahri va Kattaqo'rg'on atroflarida ma'lum bo'lib, ularning soni 5000 kishidan oshmaydi.( Aslida arablar keyinchalik ko'proq ko'chib kelishgan-B.X.) Forslar uncha katta bo'limgan miqdorda Zarafshon okrugida va Farg'ona viloyatiga kelishgan. Ularning o'lkadagi soni har ikki jinsdagilar 5000 kishidan oshmaydi. Shialik e'tiqodiga mansublik sunniylik yo'nalishidagi mahalliy aholidan ularni

---

<sup>112</sup> Проект всеподданнейшего отчёта генерал-адъютанта К.П. фон-Кауфмана I по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства. 7 ноября 1867 - 25 марта 1881 г. – Санкт-Петербург: Военная Типография, 1885. – С. 21

<sup>113</sup> Проект всеподданнейшего отчёта генерал-адъютанта К.П. фон-Кауфмана I по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства. 7 ноября 1867 - 25 марта 1881 г. – Санкт-Петербург: Военная Типография, 1885. – С. 22.

ajratib turgan. Bu yerda ham gubernator xato fikrlarni aytib o‘tgan. Chunki ushbu xalqlar mahalliy aholi orasida Eroniyalar nomi bilan mashhur bo‘lgan va keyinchalik kelib joylashgan qabilalar hisoblangan.

Bu davrda yahudiylar — 15.000 kishiga yaqin bo‘lib, o‘lkaning sanoat markazlari bo‘ylab yoyilgan. Ular hunarmandchilik (asosan kalava qilish, ipak bo‘yash) va savdo-sotiq bilan shug‘ullangan. Siganlar (mahalliy tilda “lo‘li”), Yevropa Rossiyasidagi shu ko‘rinishdagi va turmush tarzidagi ko‘chmanchilari bilan o‘xhash bo‘lib, Zarafshon okrugida 300 kishidan oshmagani<sup>114</sup>.

Mavjud ma’lumotlarni tahlil qilish jarayonida K.P. Kaufman davrida o‘lkaga musulmon bo‘limgan aholini ko‘chirib keltirishda ikkita bosqich mavjud ekanligini ko‘rish mumkin: I-bosqich, Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgunga qadar bo‘lgan davr, ya’ni 1847-1867 yillarni o‘z ichiga oladi. Bu yillarda general-gubernatorlik tomonidan Yettisuv viloyatiga rus armiyasining tayanchi va madad kuchlar sifatida harbiy kazak qo‘shinlari ko‘chirib keltirilgan. 1847 yili Yettisuvda dastlabki kazaklar qishlog‘i vujudga kelib 1867 yilgacha 14 ta kazak qishloqlari (15 000 ta kazak) tashkil etilgan<sup>115</sup>. II-bosqich, K.P. Kaufmanning Turkiston general-gubernatori bo‘lgan davri (1867-1881 yillar)da rus fuqarolarini Yettisuv va Sirdaryo viloyatlariga ko‘chirish olib borildi, 1877 yilga kelib Yetgisuvda 27 ta kazak qishlog‘i mavjud bo‘lib, unda 24 165 ta kazak va 29847 ta rus dehqonlari yashar edi<sup>116</sup>, Sirdaryoda 1874-1876 yillarda Avliyoota uezdida birinchi rus qishloqlari - Qorabolta, Choldevor, Mixaylovskiy vujudga keladi<sup>117</sup>.

Mazkur ko‘chirilish jarayonlari R.Murtazayeva to‘rt bosqichga ajratib ko‘rsatilgan: Rossiya imperiyasining Turkistonga bosqinini dastlabki davrlaridagi aholining ko‘chishlari birinchi bosqich, Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilganidan keyin 1867-1881 yillardagi rus aholisining bir qismi mustamlaka hududiga ko‘chib kelishi va amaliyotidagi ikkinchi hamda

<sup>114</sup> Проект всеподданнейшего отчёта генерал-адъютанта К.П. фон-Кауфмана I по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства. 7 ноября 1867 - 25 марта 1881 г. – Санкт-Петербург: Военная Типография, 1885. – С. 21-29.

<sup>115</sup> Проект отчета К.П. Кауфмана... – С. 250,

<sup>116</sup> Проект отчета К.П. Кауфмада... – С. 293.

<sup>117</sup> Ўша жойда, С. 275.

“rasmiy” birinchi bosqich, 1886-1903 yillarni imperiyaning ko‘chirish siyosatidagi yana uchinchi bosqich, 1903-1917 yillar ko‘chish harakatida navbatdagi to‘rtinchi va so‘nggi bosqich<sup>118</sup>.

Farg‘ona viloyati hududlarida nafaqat Sharqiy Turkistondan kelgan muhojirlar, shuningdek, ruslar hamda boshqa yevropaliklar ham paydo bo‘la boshlagan. Ular viloyat aholisining soniga oid rasmiy ma’lumotlarda ham qayd qilina boshlangan. Xususan, 1882 yilda Yangi Marg‘ilon shahri aholisining milliy tarkibi bo‘yicha har ikki jinsning umumiy soni ruslar (harbiylardan tashqari) 1385 nafar, nemislar 27 nafar, fransuzlar 1 nafar, polyaklar 29 nafar, yahudiylar 57 nafar, tatarlar 60 nafar, mahalliy aholi: sartlar 1321 nafar, qirg‘izlar 123 nafarni tashkil qilgan<sup>119</sup>.

1882 yilda Farg‘ona viloyati boshqarmasi tomonidan qilingan hisobotda mahalliy aholi sifatida sartlar, o‘zbeklar, tojiklar, tatarlar, qipchoqlar, qirg‘izlar, qashqarliklar, xitoyliklar, dunganlar va buxoroliklar, hindlar, lo‘lilar va yahudiylar ko‘rsatilgan<sup>120</sup>. 1882 yildagi Farg‘ona viloyati boshqarmasi tomonidan qilingan boshqa hisobotda mahalliy aholi sifatida afg‘onlar ham ko‘rsatilib, 1882 yilda Yangi Marg‘ilon shahrida aholining harakatlanishi bo‘yicha hisobotda esa ruslar (harbiylardan tashqari) 1632 nafar, sartlar 589 nafar, qirg‘izlar 67 nafar, yahudiylar 25 nafar bo‘lib, ruslarda ko‘payish 29 ta, sartlarda 6 ta, qirg‘izlarda 2 ta, yahudiylarda 1 nafarni tashkil qilgan<sup>121</sup>. Shu yili Yangi Marg‘ilon shahrida o‘limlar soni ruslarda 4 ta mahalliy aholi orasida esa 2 tani tashkil qilgan<sup>122</sup>. Umuman shu yildagi O‘sh, Qo‘qon va Chust uezdida aholining umumiy soni bo‘yicha shunga o‘xhash ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Biroq qayd etilgan barcha fakt va raqamlarni hammasi to‘g‘ri bo‘lmay ko‘p holatlarda taxminiy ma’lumotlar berilgan.

Ta’kidlash lozimki, harbiy gubernatorlar tomonidan yozilgan yillik hisobotlarda ham ko‘chirish siyosati natijalariga alohida e’tibor berilgan.

<sup>118</sup> Ўзбекистонда миллатларро муносабатлар ва толерантлик / 5А 120301 – Ўзбекистон тарихи мутахассислиги магистрантлари учун дарслерик. – Тошкент, 2019. -Б.108-111.

<sup>119</sup> И-19-фонд, 1-рўйхат, 12012-иш, 5-варақ.

<sup>120</sup> И-19-фонд, 1-рўйхат, 908-иш, 29-варақ.

<sup>121</sup> И-19-фонд, 1-рўйхат, 908-иш, 137-варақ.

<sup>122</sup> И-19-фонд, 1-рўйхат, 908-иш, 139-варақ.

Jumladan, Sirdaryo viloyatining 1885 yil uchun hisobotida viloyatda 7 ta rus qishlog‘i borligi ko‘rsatilib, - “rus kolonizatsiyasi yordami bilan o‘lkani etnografik jihatdan bosib olish mumkin”<sup>123</sup> - degan xulosa ta’kidlanadi. Yoki 1888 yilgi Sirdaryo viloyati hisobotida general N.I, Grodekov “Turkistonga ko‘chirib keltirilgan rus kazaklarining ekinlarini to‘ng‘iz va boshqa yovvoyi hayvonlar payhon qilmoqda”, degan bahonani ro‘kach qilib, o‘lkadagi rus qishloqlarini qurollantirish kerak, degan masalani qo‘ygan<sup>124</sup>.

1892 yil 28 noyabrdan bir kunlik ro‘yxatga olish natijalariga ko‘ra Samarqand shahrining rus qismida 10128 nafar kishi yashaganligi aniqlangan. Bunda quyi darajadagi harbiylar oilasi va turmadagi mahbuslar hisobga olinmagan bo‘lib, ularning soni erkaklar 2352 va 2349 ayollar jami 4206 nafarni tashkil qilgan. Ularga a) ruslar 3233 tojik va o‘zbeklar 303, rus yahududiyatlari 177, nemislar 113, tatarlar 85, armanlar 70, eronliklar 66, polyaklar 65, forslar 20, gruzinlar 18, qirg‘izlar 14, litovliklar 8, greklar 7, slovaklar 6, fransuzlar 4, mordvalar 3, finlyandyalyiklar 3, belgiyaliklar 2, rumin, moldovan, kumik, lezgin, estov, xitoy, shveysariyalik, bogemiyalik va afg‘onlar 1 nafardanni tashkil qilgan. B) ular fuqaroligi bo‘yicha esa 4166 rus fuqarolari, avstriyaliklar 4, germaniyaliklar 4, ruminlar 1, turklar 2, belgiyaliklar 2, buxoroliklar 7, xivaliklar 1, xitoyliklar 1 nafar edi<sup>125</sup>.

Bundan ko‘rinib turibdiki o‘lkaga rus aholisini ko‘chirilishi boshqa mansub bo‘lмаган ахоли вакилларининг ham o‘zaro hamohanglikda ko‘payib borganini ko‘rish mumkin. YA’ni garchi ruslar yoki rus fuqarolari ko‘chirib keltirib kelishga intilgan bo‘lsalar ham ular bilan birga boshqa millat vakillari ham kelib joylashgan.

1897 yilgi aholi ro‘yxati ma’lumotlariga ko‘ra Kaspiyorti viloyatidagi ruslarning soni 33.273 kishi, Samarqand viloyatida 14.006 kishi, Yettisuv viloyatida 95.433 kishi, Sirdaryo viloyatida 44.834 kishi, Farg‘ona viloyatida 9.842 kishini tashkil qilgan<sup>126</sup>.

<sup>123</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 11-рўйхат, 1926 иш. 72-варак.

<sup>124</sup> ЎзМА. И-269-фонд, 1-рўйхат, 3-иш, 25-варак,

<sup>125</sup> Справочная книжка Самаркандской области на 1894 год. Выпуск II. Под редакцией и. д. Секретаря областного Статистического Комитета М.Вирского. – Самарканд, Типография Штаба войск Самаркандской области, 1894. –С.5.

<sup>126</sup> ЎзМА. И-18-фонд, 1-рўйхат, 1814-иш, 9-10-вараклар.

Shu bilan birga ushbu aholi ro‘yxati ma’lumotlariga ko‘ra Turkistonda polyaklar, bolgarlar, chexlar, nemislar, litlar, j mudlar, latishlar, estlar, moldovanlar va ruminlar, greklar, armanlar, yahudiylar, finlar va koreyaliklar, votaklar, ziryanlar va permyaklar ham qayd qilinadi. Masalan, polyaklar Kaspiyorti viloyatida 3812 kishi, Samarqand viloyatida 1531 kishi, Yettisuv viloyatida 185 kishi, Sirdaryo viloyatida 2825 kishi, Farg‘ona viloyatida 1535 kishini tashkil qilgan<sup>127</sup>. Yana bir eng ko‘p qayd qilingan millatlardan biri bo‘lgan nemislar Kaspiyorti viloyatida 1026 kishi, Samarqand viloyatida 440 kishi, Yettisuv viloyatida 40 kishi, Sirdaryo viloyatida 1887 kishi, Farg‘ona viloyatida 369 kishini tashkil qilgan<sup>128</sup>.

Turkiston viloyatlari orasida tub aholining soniga nisbatan rus aholisining salmog‘i 1897 yil Yettisuv viloyatida 9,66 foizni (95465 kishi), Kaspiyorti viloyatida 8,7 foizni (44834 kishi), Samarqand viloyatida 1,63 foizni (14006 kishi), Farg‘ona viloyatida atigi 0,63 foizni (9842 kishi) tashkil etgan<sup>129</sup>. Ulardan aholi soni miqdori bo‘yicha yahudiylar, armanlar, litlar bo‘lsa, qolganlarning umumiyligi miqdori 1000 nafardan kam bo‘lgan.

1897 yilgi aholi ro‘yxati ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki Turkistonning boshqa hududlariga qaraganda Farg‘ona vodiysiga rus fuqarolari kamroq ko‘chirib kelingan. Farg‘ona viloyati yillik hisobotlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, imperiya rus aholisini Farg‘ona viloyatiga ko‘chirishda dastlab ancha ehtiyojkorlik bilan ish yuritgan. Farg‘onada ilk rus qishlog‘i - Pokrovskiy 1893 yilda tashkil etildi<sup>130</sup>. 1898 yilgi Andijon qo‘zgolonidan so‘ng viloyatda rus nufusini ko‘paytirishga jiddiy e’tibor beriladi. Andijon qo‘zg‘olonidan keyin 2 yil mobaynida Farg‘ona viloyatiga deyarli 4 ming rus krestyanlari ko‘chirib keltirildi<sup>131</sup>.

1899 yilgi Farg‘ona viloyati yillik hisobotida “200 ta oila Marg‘ilon uezdiga 100 ta oila Andijon uezdiga va 20 ta oila Osh uezdiga keltirildi”<sup>132</sup> - deb ma’lumot berilgan. 1900 yili Kiyev guberniyasidan Farg‘ona viloyati Ko‘gart vodiysiga 40 ta

<sup>127</sup> ЎзМА. И-18-фонд, 1-рўйхат, 1814-иш, 9-варак.

<sup>128</sup> ЎзМА. И-18-фонд, 1-рўйхат, 1814-иш, 9-варак.

<sup>129</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 9-рўйхат, 769-иш, 81-88-вараклар.

<sup>130</sup> ЎзМА. И-19-фонд, 1-рўйхат, 116-иш, 3-н.

<sup>131</sup> Турчанинов Н. Итоги переселенческого движения за время С 1896 по 1909 год. СПб, 1910. – С.3.

<sup>132</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 12-рўйхат, 80-иш, 6-в.

oila ko‘chirib keltirilgan<sup>133</sup>.

1899 yili Farg‘ona viloyati bo‘yicha hisobotlardagi 1 641 000 aholidan shaharlarda 294 877 ta, qishloqlarda 1 256 370 kishi yashagan bo‘lib, undan sartlar - 821 000, qora-qirg‘izlar (*qirg‘izlar* – B.X.) - 300 000, tojiklar – 168000, qashqarlar - 165 000, ruslar - 9 750 kishini tashkil qilgan<sup>134</sup>.

1902 yilgi Kaspiyorti viloyati bo‘yicha 1902 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra ko‘chib kelgan aholining soni 53344 nafarni tashkil qilgan bo‘lsa, 1903 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra 62119 nafarga yetgan. Uezdda tabiiy tug‘ilish 3935 nafar bo‘lsa, o‘limlar soni 2447 nafarni tashkil qilgan. Boshqa hududlardan ko‘chib kelganlar 722 nafar bo‘lsa ko‘chib ketganlar 251 nafarni tashkil qilgan. Umuman viloyatdagi ko‘chib kelgan aholi 1250 nafarga ko‘payib, 326 nafarga kamaygan. Bu yerda yana bir e’tiborli jihatni viloyatda erkaklar o‘limi ko‘p kuzatilib, bir yil ichida erkaklarniki 1523, ayollarniki esa 924 nafarni tashkil qilgan<sup>135</sup>.

O‘rta Osiyoda temiryo‘llar tarmoqlarining ishga tushirilishi aholi migratsiyalarining yanada ko‘payishiga olib kelgan sabablardan biri edi. Temir yo‘l qurilgani sari uning atrofidagi joylarda ko‘chirib keltirilgan ruslarning soni oshib bordi. Ayni mahalda stansiyalar va razezdillardagi temir yo‘l posyolkalariga faqat ruslar joylashtirildi. Tub aholi vakillari 1914 yilga qadar temir yo‘lga ishga qabul qilinmagan. 1882-1900 yillarda Kaspiyorti va Samarcand viloyatlarida temir yo‘l tufayli Rossiyadan ko‘chib kelganlar 40 ming kishidan oshib ketdi<sup>136</sup>. Lekin bu davrda ayniqsa, Farg‘ona va Sirdaryo viloyatlarida ko‘chirib keltirilganlar soni jadal ko‘payib bordi. O‘sha paytda Sirdaryo viloyatida 48 ta rus qishlog‘i barpo bo‘ldi, shundan 17 tasi 1891-1892 yillarga to‘g‘ri keladi<sup>137</sup>. 90-yillarning o‘zida Farg‘ona viloyatida hokimiyat idoralari tomonidan 7 ta rus qishlog‘i tashkil qilingandi<sup>138</sup>. Keyingi 15 yil ichida ularning soni Farg‘ona viloyatida 60 dan oshib ketdi.

<sup>133</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 12-рўйхат, 164-иш, 11-в.

<sup>134</sup> Обзор Ферганской области за 1899 год. - Новый Маргелан. 1901. – С. 72.

<sup>135</sup> Обзоръ Закаспийской области за 1902 годъ. – Асхабадъ: Типография Штаба 2-го Турк. Арм. Корп., 1903. – С.9

<sup>136</sup> Вощинин В.А. Переселение в книге “О земле”, вып 1. . – Москва, 1921. – С.127.

<sup>137</sup> ЎзМА.ф.И-17,1-рўйхат, 32702-иш, 19-20 – варақлар.

<sup>138</sup> Гинзбург А.И. Русское население в Туркестане. – Москва: Наука,1991. – С.53.

Samarqand viloyatida 14 ta qishloq, Sirdaryo viloyatida 147 ta qishloq vujudga kelgandi<sup>139</sup>.

Krasnovodsk – Samarqand temir yo‘lining o‘tkazilishi (1883-1887 yillar) Kaspiyorti va Samarqand viloyatlariga, Amudaryo bo‘limi hududiga va Buxoro amirligidan zo‘rlik bilan tortib olingan yerlarga (Kogon, Chorjo‘y, Karki va h.k.) rus aholini ko‘chirish, joylashtirish ishini ancha osonlashtirdi. Paydo bo‘lgan imkoniyatlardan unumli foydalanishga Rossiya imperatorining Kaspiyorti viloyatining qulay joylariga ruslarni ko‘chirish to‘g‘risidagi 1892 yilgi farmoni ham jiddiy sabab bo‘ldi. Bu farmonga binoan viloyatga ko‘chib kelganlar 10 yil mobaynida barcha soliqlar, har xil majburiy xizmatdan ham ozod etilardi va har oilaga joylashib olish uchun 100 rubl yordam sifatida berilgan<sup>140</sup>. Natijada, 1900 yilgacha Kaspiyorti viloyatida (1882 yildan 1898 yilgacha Kavkaz noibligi tarkibida bo‘lgan) o‘nlab temir yo‘li stansiyalari yonidagi va baliqchilar posyolkalaridan tashqari 20 dan ortiq rus krestyanlarining qishloqlari paydo bo‘ldi, rus, ukrain, belorus aholining umumiyligi esa 35 mingga yetdi<sup>141</sup>.

1902 yilgi statistik sharhlarga ko‘ra hududga ko‘chib kelgan aholining milliy tarkibi ham kengayib borganligini ko‘rish mumkin. Xususan, rus, gruzin, nemis, fransuz, polyak, grek, arman, tatar, lezgin, fors, yahudiy, turkman, qirg‘iz, xivaliklar, buxoroliklar, sartlar, osetinlar, afg‘onlar, taranchilar, ersarinlar (qo‘sni hududlardan kelgan turkman urug‘lari), xorijliklar qayd qilingan. Xorijliklar sifatida alohida millatga mansubligini aniqlash imkon bo‘lmagan shaxslar ko‘rsatilgan<sup>142</sup>.

Umuman 1903 yilgi Kaspiyorti viloyati bo‘yicha ko‘chib kelgan aholi soni 1904 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra 62719 nafarni tashkil qilgan bo‘lsa, 1903 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra 71870 nafarga yetgan. Bunda tabiiy tug‘ilish 2142 nafar bo‘lsa, o‘limlar soni 1476 nafarni tashkil qilgan. Boshqa hududlardan ko‘chib kelganlar 722 nafar bo‘lsa, ko‘chib ketgan 251 nafarni tashkil qilgan. Umuman

<sup>139</sup> ЎзМА.ф.И-18, 2-рўйхат, 118-иш, 114 – варак.

<sup>140</sup> Фомченко А.П. Русские населения в Туркестанском крае XIX – начале XX вв. (Социально экономический аспект). – Т.: Фан, 1983. – С. 45.

<sup>141</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 4-рўйхат, 1026-иш, 11-12-вараклар.

<sup>142</sup> Обзоръ Закаспийской области за 1902 годъ. – Асхабадъ: Типография Штаба 2-го Турк. Арм. Корп., 1903. – С.10.

viloyatdagi ko‘chib kelgan aholi 2290 nafarga ko‘payib, 668 nafarga kamaygan. Qo‘shilgan aholi soni 2544 nafarni tashkil qilgan<sup>143</sup>. Ushbu yilga oid statistik sharhdagi yana bir e’tiborli jihatni ko‘chib kelganlar millatlar qatorida finlyandiyaliklar ham qayd qilinib, Ashxobod uezdida 1 nafari ro‘yxatga olingan<sup>144</sup>.

Ta’kidlash lozimki, yillik ma’lumotlarda mavzuga doir Kaspiyorti viloyatining uezdlari bo‘yicha statistika saqlanib qolgan. Xususan, 1904 yildagi statistik sharhda hisobot yilida Mang‘ishloq uezdidagi aholining soni 542 kishiga ko‘paygan. Bu ko‘payish asosan tabiiy ko‘payish hisobiga bo‘lib, qo‘shni hududlardan ko‘chib kelish ayrim holatlardagina kuzatilgan. Yevropa Rossiyasidan 8 kishidan iborat 2 ta oila ko‘chib kelgan, xolos<sup>145</sup>. Krasnovodsk uezdida ko‘chib kelgan aholining umumiyligi sonini aniqlash esa qiyin. Chunki Eron bilan chegara hudularida yashab turadigan aholining doimiy ravishda ko‘chib kelishi va ko‘chib ketishlari kuzatilgan. Ko‘chib kelgan aholi asosan Krasnovodsk shahri hisobiga to‘g‘ri kelib, uning port shahar sifatidagi ahamiyatining ortishi, shuningdek, temiryo‘llar nuqtalarining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan<sup>146</sup>.

Ashxobod uezdidagi mahalliy aholining soni 1332 kishiga kamayib, bu holat yuqumli kasalliklarning avj olishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Shu bilan birga rus manzilgohlarida esa aholining ko‘payishi kuzatilib, bu tabiiy ko‘payish Kars viloyatidan molokanlarning ko‘chirib keltirishlari bilan bog‘liq edi. Ashxobod va Qizil Arvat shahrida mujassam bo‘lgan Ashxobod uezdining shahar aholisi esa ko‘payib borgan. Bu Ashxobodning savdo markazi sifatidagi rolining ortishi tufayli Yevropa Rossiyasi, Kavkaz va Erondan aholi oqimining ko‘payishi bilan bog‘liq bo‘lgan<sup>147</sup>.

<sup>143</sup> Обзоръ Закаспийской области за 1903 годъ. – Асхабадъ: Типография Штаба 2-го Турк. Арм. Корп., 1904. – С.11.

<sup>144</sup> Обзоръ Закаспийской области за 1903 годъ. – Асхабадъ: Типография Штаба 2-го Турк. Арм. Корп., 1904. – С.13.

<sup>145</sup> Обзоръ Закаспийской области за 1904 годъ. – Асхабадъ: Типография Штаба 2-го Турк. Арм. Корп., 1905. – С.4.

<sup>146</sup> Обзоръ Закаспийской области за 1904 годъ. – Асхабадъ: Типография Штаба 2-го Турк. Арм. Корп., 1905. – С.5.

<sup>147</sup> Обзоръ Закаспийской области за 1904 годъ. – Асхабадъ: Типография Штаба 2-го Турк. Арм. Корп., 1905. – С.6.

Marv uezdida esa 1904 yilda aholining o'sishi 2479 kishini tashkil qilib, uezdga boshqa uezdlardan mahalliy aholining ko'chib kelishi bilan bog'liq bo'lgan. Shu bilan birga shahar aholisining soni ham ko'payib, bu asosan Yevropa Rossiyasi va Kavkazdan ishchi va savdo kishilarining ko'chib kelishi bilan bog'liq edi<sup>148</sup>.

Tajan uezdida hisobot yilida aholining kuchli o'sishi kuzatilib, bu uezd yerlarining hosildorligi, suv serobligi va qulayligi bois qo'shni uezdlardan ko'plab ko'chib kelishlarga sabab bo'lgan. Bu yerda 1902 yilda boshlangan Amerikadagi rus ko'chmanchilarining ko'chib kelishlari 1904 yilga kelib, umuman to'xtaydi. Ko'chib kelganlarning birinchi partiyasi muvaffaqiyatsizlikka uchraganidan keyin butunlay xafa bo'lib, qaytib ketadilar<sup>149</sup>. Ko'chib kelgan uezd aholisining katta qismi boshqa uezdlardagi kabi temiryo'l xizmatchilari va ularning oilasi, savdogarlar (armanlar, forslar, yahudiylar, va qisman xivaliklar) bo'lgan<sup>150</sup>.

1905 yilda Mang'ishloq uezdida ko'chib kelgan aholini ruslar, armanlar, kavkazliklar, tatarlar va forslar tashkil qilgan. Uezdnинг ko'chib kelgan aholisi asosan 3 ta punktda: Fort-Aleksandrovsk va uning slobodasida, Nikolayevskiy qishlog'i va Dolgom orolida uyushgan holda yashaganlar. Uezdnинг qolgan qismlarida esa ular kam sonli va tarqoq holda joylashgan bo'lib, bir yoki 2 ta oiladan iborat bo'lgan. 1906 yil 1 yanvarga kelib uezdning ko'chib kelgan aholisi soni 2083 kishiga yetib, 123 nafarga ko'paygan. Bu chetdan ko'chib kelishlarning natiasi bo'lib, Nikolayevskiy manzilgohiga 31 kishi va Dolgoye qishlog'iga 53 kshi ko'chib kelib joylashgan. Tabiiy ko'payish qizamiq epidemiyasi va oshqozon-ichak kasalliklari tufayli yo'qqa chiqib, ko'chib kelgan aholi orasidan 60 nafar bola vafot etgan<sup>151</sup>.

Krasnovodsk uezdidagi ko'chib kelgan aholi foizlarda quyidagicha taqsimlangan edi:

<sup>148</sup> Обзоръ Закаспийской области за 1904 годъ. – Асхабадъ: Типография Штаба 2-го Турк. Арм. Корп., 1905. – С.6.

<sup>149</sup> Обзоръ Закаспийской области за 1904 годъ. – Асхабадъ: Типография Штаба 2-го Турк. Арм. Корп., 1905. – С.6

<sup>150</sup> Обзоръ Закаспийской области за 1904 годъ. – Асхабадъ: Типография Штаба 2-го Турк. Арм. Корп., 1905. – С.6

<sup>151</sup> Обзоръ Закаспийской области за 1905 годъ. – Асхабадъ: Типография Штаба 2-го Турк. Арм. Корп., 1906. – С.16

Ruslar – 60% gacha,

Armanlar – 20 % gacha,

Tatarlar – 2.5 % gacha,

Kavkazlik forslar – 15.5 % gacha.

Qolgan 2 %ini gruzinlar, yahudiylar, nemislar, polyaklar, va xivaliklar tashkil qilgan<sup>152</sup>.

Ashxobod uezdida joylashgan rus manzighohlaridagi aholi soni 1906 yilda 1235 nafarni tashkil qilib, 62 kishiga ko‘paygan<sup>153</sup>.

Ko‘chib kelgan aholi o‘tgan yillardagi kabi arman, fors yahudiylari (jedinlar), gruzinlar va xivaliklar savdo bilan, forslar temiryo‘lda yer qazuvchi sifatida, ruslarning katta qismi esa temiryo‘lda ishchi va xizmatchi vazifalarida ishlaganlar. Ko‘chib kelgan aholi orasida qishloq xo‘jaligi bilan faqat Seraxs pristavligidagi Krestoviy va Navro‘z Obod manzilgohlaridagi kishilar shug‘ullanganlar. Krestoviy xo‘jaligidagi aholi yana izvoshlik bilan shug‘ullanib, asosan Tajandan Saraxsga harbiy yuklarni tashiganlar<sup>154</sup>.

Yettisuv viloyati bilan solishtirganda Sirdaryo, Samarqand, Farg‘ona va Kaspiyorti viloyatlariga arzimagan miqdordagi muhojirlar yuborilgan. 1908-1909 yillarda Rossiya markazidan Osiyo Rossiyasiga ko‘chib kelgan chorak millionga yaqin muhojirdan Kaspiyorti mintaqasida atigi 121 oila qoladi. 1906 yilga kelib Turkiston o‘lkasida 124 ta rus qishloqlari va ularda 74000 aholi bor edi<sup>155</sup>.

Shuni ham qayd etish lozimki, Rossiyadan ko‘chib kelayotgan krestyanlarga beriladigan sug‘oriladigan yerlar bo‘limgani va 2 mingdan ortiq oilalar yersiz bo‘lgani uchun Turkiston o‘lkasiga, jumladan, Farg‘ona viloyatiga 1907 yildan aholini ko‘chirish taqiqlandi. Lekin metropoliyadan aholi ko‘chib kelavergan. Masalan, Sirdaryo viloyatining Avliyoota uezdida 1906-1910 yillarda 18 ta,

---

<sup>152</sup> Обзоръ Закаспийской области за 1906 годъ. – Асхабадъ: Типография Штаба 2-го Турк. Арм. Корп., 1907. – С.7.

<sup>153</sup> Обзоръ Закаспийской области за 1906 годъ. – Асхабадъ: Типография Штаба 2-го Турк. Арм. Корп., 1907. – С.9.

<sup>154</sup> Обзоръ Закаспийской области за 1906 годъ. – Асхабадъ: Типография Штаба 2-го Турк. Арм. Корп., 1907. – С.11.

<sup>155</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 27-рўихат, 276-иш. 4-об-варак.

Chernyayev uezdida 19 ta, Toshkent uezdida 19 ta, Perovsk uezdida -3 ta yangi rus posyolkalari, Samarqand viloyatida 5 ta posyolkalar, Kaspiyorti viloyatida 10 ta posyolkalar, Farg‘ona viloyatida 12 posyolkalar paydo bo‘ldi<sup>156</sup>.

Sirdaryo viloyatida rus aholisining tez o‘sib borganligini 1910 yilgi statistik ilovada keltirilgan ma’lumotlar tasdiqlaydi. Agar 1885 yilda viloyatda 7 ta rus qishlog‘i bo‘lgan bo‘lsa, 1910 yilda viloyatda 92 ta rus qishlog‘i bo‘lgan. Rus aholisining soni 42 412 ta, ular yashagan umumiylar maydoni 191 076 desyatinani tashkil etadi<sup>157</sup>.

Samarqand viloyati harbiy gubernatorining yillik hisobotlarida ko‘chirish siyosati yaxshi yoritilmagan. 1900 yilgi yillik hisobotning ilovasida Samarqand viloyatida 9 ta rus qishlog‘i bo‘lib, unda 2126 ta ruslar yashaydi - deb ma’lumot beriladi<sup>158</sup>. 1911 yili viloyatda Mixaylovskiy qishlog‘i tashkil etilgani to‘g‘risida viloyat harbiy gubernatori hisobotida qayd etib o‘tiladi<sup>159</sup>.

Biroq shuni ham ta’kidlash kerakki, Rossiyadan ko‘chib kelganlarning o‘z vatanlariga iqtisodiy sabablarga ko‘ra qaytish holatlari ham bo‘lib turgan. “...O‘rtalik Osiyordan kelgan muhojirlar, — deb yozadi mahalliy gazeta afsus bilan, — Yevropa Rossiyasiga tobora ko‘proq qaytmoqda: 1909 yilning yanvarida 45 ta oila qaytib keldi, fevralda – 55 ta, martda – 65 ta, aprelda – 79 ta va may oyida allaqachon 83 ta oilani tashkil qildi”<sup>160</sup>.

Biroq tub aholidan tortib olingan “ortiqcha” yerkirishlari ham bo‘lib turgan. Yangi yerda kun ko‘rishi qiyin bo‘lganligi sababli, masalan, “1911 yilda 81 foizi, 1913 yilda esa 99 foizi o‘z yurtiga, ilgari yashagan mintaqalarga qaytib ketishdi”<sup>161</sup>.

Shunday vaziyatni hisobga olgan imperiya hukumati tayyorlagan va 1914 yil 28 iyunda podsho tasdiqlagan Qonunga ko‘ra Farg‘ona viloyatiga “moddiy ta’minlangan, eng kami 1000 rub. turadigan mulkka ega xristianlargina ko‘chishi

<sup>156</sup> Обзор состояния Туркестанского края за 1911 года, Ташкент, Пч.1913. – С.75-76.

<sup>157</sup> Обзор Сырдарьинской области за 1910 год. - Т., 1912. – С. 161.

<sup>2</sup> Обзор Самарканской области за 1900 год. - Самарканд, 1901. – С. 24.

<sup>159</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 12-рўйхат, 1730-иш. 4-в.

<sup>160</sup> Алимджанов – С.47

<sup>161</sup> ЎзМА И-16-фонд, 1-рўйхат, 574-иш, 104-107, 124-128,153-156,247-250 – вараклар.

mumkin edi”<sup>162</sup>. Lekin o‘sha yilning 1 avgustida boshlangan birinchi jahon urushi hukumatning aholini ko‘chirish siyosatini keskin o‘zgartirdi.

Masalan, birgina Kaspiyorti viloyatiga 1915 yilda 27027 kishi, 1916 yilda 9826 kishi ko‘chib keldi. Shularning uchdan ikki qismi hech qanday aholining ko‘chiruvchilik hujjatlariga ega bo‘lishmagan<sup>163</sup>. Bunday ko‘rsatkichlar bu mintaqada ilgari mavjud bo‘lmagan. Viloyatda 1917 yilning boshida deyarli 40 ta posyolkalar va Ashxabod, Qizil Arvot, Krasnovodsk shaharlarida harbiy garnizonlar, temir yo‘l stansiyalari atrofida 50 mingga yaqin ruslar, armanlar yashagan<sup>164</sup>.

Ko‘chib kelgan Rossiya krestyanlari shaharlar yaqiniga, shu shaharlarni bog‘lovchi yo‘llar, daryolar bo‘ylariga joylashib oldilar, ko‘chmanchilarning qulay yaylovlarini bosib olib, o‘zlashtirish bilan cheklandilar. Sug‘orma dehqonchilik mintaqalarida mahalliy dehqonlarning bo‘sh yerlarigina emas, balki ozgina bo‘lsada, ortiqcha yerlar ham bo‘limgani holda hukumat minglab rus krestyanlarini joylashtirish uchun tub aholidan o‘zi dehqonchilik qiladigan yerning bir qismini yoki hammasini tortib olish yo‘lini tutdi, ko‘pincha esa bu ishni ko‘chib kelganlarning o‘zları ham amalga oshirar edi.

Farg‘ona viloyatidagi armanlar, boshqa kavakz xalqlari va forslarning soni bo‘yicha ma’lumotlar ham qiziqarlidir. Unga ko‘ra Andijon uezdida 437 nafar arman, 67 ta boshqa kavkaz xalqlari, forslar jami 692 nafar, Qo‘qon uezdida 396 arman, 44 boshqa kavkaz xalqlari, 304 forslar jami 744 nafar, Marg‘ilon uezdida 282 arman, 33 boshqa kavkaz xalqlari, 294 forslar jami 609 nafar, Namangan uezdida 32 arman, 26 boshqa kavkaz xalqlari, 45 forslar jami 103 nafar, O‘sh uezdida 15 arman, 2 ta boshqa kavkaz xalqlari, forslar jami 17 nafar, Jami armanlar shaharlarda 1045 va uezdlarda 117, vildoyat bo‘yicha esa 1162 nafarni, boshqa kavkaz xalqlari shaharlarda 142 va uezdlarda 30, viloyat bo‘yicha esa 172 nafarni,

---

<sup>162</sup> Вощинин В.П. Переселение и землеустройство в Азиатской России. Сборник законов и распоряжений. - Спб. 1915. – С.123.

<sup>163</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 12-рўйхат, 1957-иш, 23-варақ.

<sup>164</sup>ЎзМА. И-1-фонд, 12-рўйхат, 1957-иш, 66-67-вараклар.

forslar shaharlarda 519 va uezdlarda 312, viloyat bo‘yicha esa 831 nafarni, Umumiy shaharlarda 1706, uezdlarda 459 ta viloyat bo‘yicha 2165 nafarni tashkil qilgan<sup>165</sup>.

Sirdaryo viloyati harbiy gubernatorining ma’lumotlariga ko‘ra 260kishi Toshkent shahrida, 16 ta Toshkent uezdida. 85 Chimkent uezdida. 10 Avliyootada. 12 Kazalinskda, 74 Perovskiyda, va 13 ta Amudaryo bo‘limida yashaydi<sup>166</sup>.

1914 yilda Samarqand viloyati shaharlarining aholisining milliy tarkibi bo‘yicha ma’lumotlarga e’tibor qaratilsa, bu yerda tub bo‘lмаган xalqlarni soni ko‘pligiga guvoh bo‘lamiz.

Samarqand viloyatida ruslar erkaklar 12415, ayollar 11878, ikkala jins 24293 nafar, polyaklar va litlar erkaklar 342, ayollar 204, ikkala jins 546 nafar, greklar erkaklar 17, ayollar 12, ikkala jins 29 nafar, gruzinlar erkaklar 123, ayollar 33, ikkala jins 156 nafar, armanlardan erkaklar 589, ayollar 555, ikkala jins 1144 nafar, boshqa kavaz millatlaridan erkaklar 26, ayollar 12, ikkala jins 38 nafar, forslardan erkaklar 639, ayollar 75, ikkala jins 714 nafar, eroniylardan erkaklar 9928, ayollar 8472, ikkala jins 18400 nafar, afg‘onlardan erkaklar 272, ayollar 50, ikkala jins 322 nafar, hindlardan erkaklar 17, ayollar 2, ikkala jins 19 nafar, lo‘lilardan erkaklar 406, ayollar 301, ikkala jins 757 nafar, rus va xorijlik yahudiylardan erkaklar 352, ayollar 215, ikkala jins 567 nafar, mahalliy yahudiylardan erkaklar 7350, ayollar 7085, ikkala jins 14435 nafar, g‘arbiy yevropa millatlari (germanlar, inglizlar, fransuzlar, belgiyaliklar va b.) Kattaqo‘rg‘onda 20 nafar erkak va 12 nafar ayol, Jizzax shahrida 12 nafar erkak va 8 nafar ayol jami 32 nafar erkaklar va 20 nafar ayollar jami 52 kishi ro‘yxatga olingan<sup>167</sup>.

Jahon urushi yillarida nafaqat Turkiston aholisi, balki Buxoro amirligi va Xiva xonligi aholisi uchun hayot kechirish haddan tashqari og‘irlashib ketdi, chunki bu davrda markaziy guberniyalardan ko‘chib kelayotganlarning oqimi bilan Rossiyaning g‘arbiy rayonlardan kelayotgan 70 ming qochoqlarning oqimi qo‘silib ketdi. Bundan tashqari, 1914 yil sentabridayoq Turkistonga, ayniqsa,

<sup>165</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 17-рўйхат, 774-иш, 7-8 об вараклар

<sup>166</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 17-рўйхат, 774-иш, 11 варак

<sup>167</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 27-рўйхат, 1216а-иш, 6 варак.

Samarqand, Sirdaryo va Yettisuv viloyatlariga Avstro-Vengriya, Germaniya, Polsha, Serbiya armiyalari va chexlar, slovaklarning qo'shinlariga mansub asirlar jo'natila boshladi. Turkiya armiyasining Sibir lagerlaridan qochgan harbiy asirlari ham kela boshladi.

O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinganidan keyin hindlarning hayoti yanada erkin bo'ldi. Chunki ular konfessiyaviy asosdagi cheklovlardan xalos bo'ldilar. Bu holat ularning ko'pchiliginini oxir-oqibat Buxoro xonligidan Turkiston o'lkasiga, u yerda shakllangan moliyaviy aloqalarni yo'qotmasdan ko'chib o'tishga undadi. Shunday qilib, viloyatning bir qator shaharlarida — Samarqand, Kattaqo'rg'on, Qo'qon, Ko'hna Marg'ilon va boshqalarda hind jamoalarining birlashishi sodir bo'ldi va "Hind qatorlari" va "Hind kvartallari" deb ataldi. Bu yerda hind Britaniya fuqarolari uyushib yashaganlar. Qoidaga ko'ra, hindlarning ibodat joylari ham bu yerda joylashgan. Siyosiy va iqtisodiy tartiblarni barqarorlashishi, "qat'iy" qonunchilik va boshqalar Britaniya Hindistonidan Turkiston mintaqasiga hindlarning yangi oqimlarini jalb qildi, sudxo'rlik operatsiyalari orqali tez boyitish uchun katta imkoniyatlarga ega bo'ldilar<sup>168</sup>.

Sharqiy Turkiston hududidan ko'chib o'tganlar ham Turkiston general-gubernatorligidagi tub bo'lmanan aholi sonidagi o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Bu yerdan asosan "qashqarliklar", "taranchilar" nomi bilan atalgan uyg'urlar, dunganlar va boshqa qisman turkiy xalqlar ko'chib kelgan. Sharqiy Turkistondan aholi migratsiyalari doimiy ravishda bo'lib turgan bo'lsa ham Yoqubbek davlatining qulashidan keyin sodir bo'lgan siyosiy inqiroz navbatdagi migratsiya to'lqinlariga sabab bo'ladi. Hokimiyat uchun kurashda mag'lub bo'lgan kuchlar Turkiston hudulariga qochib o'tishga harakat qiladilar.

1877 yil 5 avgustda Xakimxon to'ra o'zining 5 ming kishilik tarafdarlari bilan Rossiya imperiyasi chegaralarini kesib o'tadi<sup>169</sup>. Farg'ona viloyatiga Qoshg'ardan

<sup>168</sup> Литвинов П.П. Государственно-религиозные этноконфессиональные отношения в Туркестане (1865-1917гг.) (по архивным материалам) (Часть 1) Специальность 07.00.03 - всеобщая история (новое и новейшее время) Диссертация на соискание учёной степени доктора исторических наук. – Москва, 1997. – С.395.

<sup>169</sup> Камалов А.К. Миграция населения Карагандинской области после падения Карагандинского эмирата // Уйгурология в Казахстане: традиция и новация. Материалы международ. Конф. – Алматы: Наш мир, 2006. – С.91.

eng ko‘p qochoqlar Bekqulibekning mag‘lubiyatidan so‘ng ko‘chib o‘tadilar. 1877 yil 23 dekabr kuni O‘shda 4641 nafar qoshg‘arlik emigrantlar (ulardan 3573 erkak va 968 ayol) ro‘yxatga olingan edi. Shu tariqa Qoshg‘ardan kelgan qochoqlar soni 5 ming nafarga yetgan<sup>170</sup>.

Arxiv ma’lumotlariga ko‘ra 1877 yil 14-29 dekabr kunlari Farg‘ona viloyati chegarasini Sharqiy Turkistondan kelgan 5675 kishi, shu jumladan, 4413 nafar erkak va 1262 ayol kesib o‘tadi. Bundan tashqari 500 kishi Andijon uezdiga Qorasuv orqali keladi. Kelgan emigrantlarning 2081 nafari O‘sh shahrining o‘zida qoladi, 500 nafari O‘shdan turli uezdlarga ketadilar<sup>171</sup>. 1878 yil 14 yanvarda tuzilgan ro‘yxatda ularning etnik kelib chiqishi haqida ham qo‘sishimcha ma’lumotlar keltiriladi. Unga ko‘ra ular orasidan 1070 ta dungan, 1283 nafar qoshg‘arlik, 211 nafar o‘shlik, 573 nafar qo‘qonlik, 129 ta qipchoq Andijon uezdidagi Ikki suv orasidan bo‘lgan<sup>172</sup>. Farg‘ona viloyatining Qorasuv hududlariga esa umumiylisobda 10675 kishi ko‘chib kelgan<sup>173</sup>.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra 1877-1878 yillarda umumiylisobda Xitoy harbiylari tazyiqidan qochgan 3.000 ga yaqin qozoq va 6180 nafar uyg‘ur sobiq Qo‘qon xonligi (Farg‘ona viloyati)ga qochib o‘tib, jon saqlaydilar<sup>174</sup>.

1880 yil 14 iyunda Farg‘ona viloyati O‘sh uezdi boshlig‘ining Farg‘ona viloyati harbiy gubernatoriga yozgan raportida 23 ta erkak, 22 ta ayollar va 19 nafar bolalardan iborat bo‘lgan oilalar ko‘chib kelgani haqida eslatgan. Barcha ushbu Qoshg‘ardan ko‘chib kelganlar O‘sh shahri qimmatligi uchun Farg‘ona viloyatining boshqa shaharlariga otlanishgan. Bunday qarorga kelishlariga ovqatlanish uchun kerakli pul mablag‘larini topa olmaganlarini sabab qilib ko‘rsatishgan<sup>175</sup>.

<sup>170</sup> Камалов А.К. Миграция населения Кашгарии в Ферганскую долину после падения Кашгарского эмирата // Уйгуреведение в Казахстане: традиция и новация. Материалы международ. Конф. – Алматы: Наш мир, 2006. -С.92.

<sup>171</sup> Камалов А.К. Миграция населения Кашгарии в Ферганскую долину после падения Кашгарского эмирата // Уйгуреведение в Казахстане: традиция и новация. Материалы международ. Конф. – Алматы: Наш мир, 2006. -С.92.

<sup>172</sup> ЎзМА, И-276-фонд, 2-рўйхат, 1-иш, 57-варак.

<sup>173</sup> Мамедова Э. Из истории взаимоотношений народов Туркестанского края и Синьцзяна (со второй половины XIX века – до 1917 г.): Дисс. ... канд. истор. наук. – Ташкент, 1963. – С.130.

<sup>174</sup> Валихонова Г.К. Фаргона водийси уйгурларида анъанавий ва замонавий этномаданий жараёнлар. тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2018. – Б. 15.

<sup>175</sup> ЎзМА.И-276-фонд, 1-рўйхат,, 709-иш, 3 варак.

Turkiston harbiy okrugi G‘ulja boshqarmasi harbiy boshlig‘ining 1880 yil 26 martda Farg‘ona viloyati harbiy gubernatoriga 200-sonli raportida menga topshirilgan boshqarma orqali bir qancha vaqtadan beri Farg‘ona viloyatiga Qoshg‘ardan chiqqan emigrantlarning kelishi kuchaydi. Ularning chiqishlariga sabab xitoyliklar Qoshg‘arda ulardan og‘ir soliqlar emas balki har bir kishidan oyiga 5 rubldan ola boshlaganlar. buni sizga bildirishni o‘zimga sharf deb bilaman<sup>176</sup>- degan so‘zlar keltirilgan.

Keyinchalik ham Qoshg‘ar va Ili hududidan chiqqan uyg‘ur qochoqlari oqimi to‘xtamagan edi. 1881 yil 12 fevraldagi Peterburg shartnomasiga ko‘ra G‘ulja (Sharqiy Turkiston) Xitoya topshirildi<sup>177</sup>. Natijada musulmon aholining Xitoy qo‘sishnari bilan to‘qnashuvlari avjiga chiqdi, hamda sharqiy turkistonlik qochoqlarning yanada yirik oqimining paydo bo‘lishiga olib keldi. “Peterburg shartnomasi”ning imzolanishi ko‘chib ketayotganlar sonining ortishiga ta’sir ko‘rsatdi<sup>178</sup>. Turkiston o‘lkasiga 1881 yilgi Rossiya imperiyasi va Xitoy o‘rtasidagi shartnomadagi kelishuv bandlariga ko‘ra chegara hudularida istiqomat qiluvchi dungan va taranchilarni Turkiston general-gubernatorligiga ko‘chib kelishlari uchun qulay shartlar taklif qilingan edi. 1881 yili G‘uljani Xitoya qaytarish uchun rus qo‘sishnari olib chiqib ketildi va ular bilan taranchi va dunganlar Rossiya chegaralariga yo‘l oldilar, ular xitoylarning qasosidan qo‘rqib, Rossiya fuqaroligini afzal ko‘rdilar. Natija ko‘plab dungan oilalari general-gubernatorlik hududlariga oilaviy ko‘chib o‘ta boshlaganlar.

G‘uljadan general Fridening 1881 yil 21 apreldagi telegraammaida taranchi va dunganlar mehnatkash, dehqonchilikka mohir va o‘lkani kolonizatsiya qilishda eng maqbul elementlar sifatida qaralgan<sup>179</sup>. Shu boisdan ko‘plab g‘uljalik dungan va taranchilarga Yettisuv viloyatiga ko‘chib o‘tishlari uchun joy ajratiladi. Shu bilan birga, muhoxirlar Yettisuv o‘lkasidagi juda cheklangan miqdordagi bo‘sh yerlar,

<sup>176</sup> ЎзМА.И-276-фонд, 1-рўйхат,, 709-иш, 4 варак.

<sup>177</sup> Баратова Г.С. География расселения и динамика численности уйголов на территории Казахстана на рубеже XIX – XX вв. – Алматы, 1987. – С.82.

<sup>178</sup> Валихонова Г.К. Фарғона водийси уйғурларида анъанавий ва замонавий этномаданий жараёнлар. Т.ф.б. фалсафа доктори (PhD) дисс.автореф. – Тошкент, 2018. – Б. 15.

<sup>179</sup>ЎзМА. И-1-фонд, 1-рўйхат, 1333-иш, 3-об варак.

ayniqsa, o‘troq aholi punktlari uchun mos, o‘rtacha sifatli va kichik o‘lchamdagisi yer uchastkalari bilan qanoatlanishni o‘z zimmalariga oldilar<sup>180</sup>.

Dunganlar Turkiston general-gubernatorligining Farg‘ona viloyatiga ham ko‘plab o‘rnashganlar. 1880-1883 yillarda Andijonda dungan migrantlari paydo bo‘ldi. Xitoy shimoli-g‘arbiy qismida 1862-1878 yillardagi dungan qo‘zg‘oloni mag‘lubiyatga uchraganidan keyin O‘sh viloyatiga kelib qo‘nim topganlarni hisobga olganda, jami 343 kishini tashkil qildi. Dungan savdogarlari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkentga joylashdilar. 1917 yilgacha yettisuvlik dunganlarning kichik guruahlari Toshkentga ko‘chib kelishda davom etdi.

Sharqiy Turkistondan ko‘chib kelgan muhojirlarning umumiy soni haqidagi zamonaviy tadqiqotchilarning fikrlari turlicha ekanligini ta’kidlash lozim. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Farg‘ona vodiysi aholisi tarixini o‘rgangan rossiyalik olima S.S.Gubayeva (u aftidan CH. Valixonov ma’lumotlarini takrorlaydi) XIX asr o‘rtalarida Farg‘ona viloyatida 300 mingga yaqin qashg‘arliklar yashagan deb hisoblaydi. A.Qaydarov esa 1860 yilga kelib Sharqiy Turkistondan 250 ming muhojir O‘rta Osiyoga ko‘chib kelganligini ta’kidlaydi. I.V.Zaxarovaning fikriga ko‘ra 1860 yilgacha Qo‘qon xonligida 200-250 minggacha uyg‘urlar yashagan. G.M. Isxaqov, A.M. Reshetov va A.N. Sedlovskayalar umumiy hisobda XVIII-XIX asrlarda O‘rta Osiyoga Sharqiy Turkistondan 85 mingdan 160 minggacha muhojir ko‘chib kelganligini qayd etishgan. Sharqiy Turkistondan aholi migratsiyalari tarixini o‘rgangan etnolog G.B.Nikolskaya esa XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmidan boshlab Farg‘onaga 85-165 ming qoshg‘arlik ko‘chib kelgan deb hisoblaydi<sup>181</sup>. Albatta, bunday turli faktlarning keltirilishi, tadqiqotchilarda aniq statistik faktlarning mavjud emasligi bilan izohlanadi.

---

<sup>180</sup> Атантанова, Б. Ж., 2011. Приграничные факторы миграций в Центрально-азиатском регионе в конце XIX в / Б. Ж. Атантанова // Мир науки, культуры, образования. — № 5(30). — С. 287.

<sup>181</sup> Абашин С. Чай в Средней Азии: история напитка в XVIII-XIX веках // Традиционная пища как выражение этнического самосознания. М., 2001 [[https://www.academia.edu/41389789/\\_2001](https://www.academia.edu/41389789/_2001)]

Agar 1896 yildan 1900 yilgacha Qashqardagi Rossiya konsulxonasiga 14 mingga yaqin odam Turkistonga borish uchun viza olgan bo'lsa, 1901-1905 yillar oraligida konsulxona tomonidan shunday ruxsatnomalardan 42,964 tasi berilgan<sup>182</sup>.

1899 yildagi ma'lumotlarga ko'ra Farg'ona viloyatining Eski Marg'ilon shahrining aholisi jami 40 ming kishini tashkil qilib, ulardan 3036 nafari qoshg'arliklar, 43 nafari esa dunganlardan iborat bo'lgan<sup>183</sup>. Farg'ona viloyati statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra esa Eski Marg'ilonda 3040 nafar qoshg'arlik, Marg'ilon uezdida 30.500 nafar qoshg'arlik bo'lib, jami 33.540 nafar, umumiyligi aholining 10.07 foizini tashkil qilgan. Dunganlar soni esa Eski Marg'ilonda 40 nafar, Marg'ilon uezdida 12 nafar, umumiyligi 52 nafarni tashkil qilib, jami aholining 0.02 foizini tashkil qilgan<sup>184</sup>.

XIX asrning so'nggi yillarida Xitoy va Rossiya imperiyasi hukumatlari o'rtaida chegaralar aniqlab olingach, Rossiyaga qarashli bo'lgan hududlarga ko'chib o'tayotganlarni chegarada ro'yxatga olish boshlandi. Shu davrlarda Sharqiy turkistonliklar orasida ko'chib ketish xohishini bildirib, Rossiya hukumati vakillariga rasmiy murojaat qiluvchilar soni sezilarli darajada ko'paygani O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi ma'lumotlarida o'z isbotini topgan. Bunday ma'lumotlar tadqiqotchi G.B.Nikolskaya tomonidan ham keltirilgan. Masalan, 1900 yili ko'chib ketish xohishini bildirib, 14.000 kishi; 1901–1905 yillarda 42.964 nafar aholi Rossiya konsulligidan maxsus ruxsatnomalar olgan<sup>185</sup>.

Xulosa qilib aytganda XIX asr oxirlarida Sharqiy Turkiston tomonidan, ayniqsa, Farg'ona viloyatiga aholining ko'chib kelish jarayonlari yuqori nuqtasiga chiqdi. Buning asosiy sababi Xitoy tomonidan hududning qaytadan bosib olinishi bilan mahalliy xalqlarga nisbatan zulmning kuchayishi va aholining vodiyya majburan ko'chib ketishi hisoblanadi. Albatta, muhojirlar Farg'onada tub xalqlar

<sup>182</sup> Никольская Г.Б. Выходцы из Синьцзяна в Туркестане в конце XIX - начале XX вв. (Материалы к истории народов Сред. Азии) Автореф. дис. на соискание учен. степени канд. ист. наук. – Ташкент, 1969. – С.113.

<sup>183</sup> Обзор Ферганской области за 1889 год. Новый Маргелан.1901. – С.31.

<sup>184</sup> Обзор Ферганской области за 1889 год. Новый Маргелан.1901. – С.73.

<sup>185</sup> Валихонова, Г. . Влияние политической ситуации в Восточном Туркестане на этнокультурные отношения народов региона. Общество и инновации. 2, 10/S (дек. 2021), 311–316. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss10/S-pp311-316>.

bilan o‘zaro yaqinlikda bo‘lib, keyingi taraqqiyotida ham o‘zaro umumiylilik hosil qildi.

Rossiya imperiyasi doirasida Uzoq Sharqda yashovchi koreyslarni Markaziy Osiyoga ko‘chirish unchalik ahamiyatga ega bo‘lmagan. Shunga qaramay, u XIX asrning ikkinchi yarmini qamrab olgan birinchi bosqichda, bu daromad va yashash sharoitlarini qidirishda Rossiya ichidagi koreyslarning tabiiy va o‘zboshimchaligi bilan bog‘liq edi.

Uzoq Sharq hududini tark etgan oz sonli koreyslar Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyo mintaqasi - Dasht o‘lkasi va Turkistonda to‘xtadi. Koreyslar bu yerga Rossianing turli mintaqalaridan kelishgan. Koreyslarni O‘rta Osiyoga ko‘chirishning ikkinchi bosqichi Rossiya imperiyasining urushga olib kelgan Yaponiya bilan munosabatlari bilan bog‘liq edi. Rossiya hukumati rus-yapon urushi davrida chegara hududlaridan boshqa "sariq yuzli" bilan birga koreyslarni G‘arbiy Sibir va Ural, xususan, bevosita Qozog‘iston bilan chegaradosh hududlarga ko‘chirish uchun chora-tadbirlar o‘tkazdi. Ichki ishlar vazirligi politsiya boshqarmasi direktorining 1904 yil 16 sentabrdagi maxfiy sirkulyarida "Yaponiya tomonidan pora olgan ba’zi koreyslar va koreys libosida kiyingan yaponlar Uzoq Sharqdagi qo‘shinlarimiz joylashgan joylarda razvedka bilan shug‘ullanayotgani haqida ma’lumot bor...."-deb ta’kidlanadi. Bu sirkulyar natijasida, 140 nafar "sariq yuzlilar" – 5 nafar xitoy, 35 nafar yapon va 100 nafar koreyslar - shu oyda Rossiya ichki viloyatlaridan dasht gubernatorligi- chegara hududlariga ko‘chiriladi<sup>186</sup>.

Turkiston o‘lkasi hududida O‘rta Osiyo xonliklari, Eron, Afg‘oniston va boshqalarning fuqarolari hisoblangan ko‘plab O‘rta Osiyo yahudiylari yashagan. Shunga ko‘ra, hujatlarda ular "Buxoro", "fors", "afg‘on" va hokazo deb nomlangan. Biroq, ko‘pincha barcha O‘rta Osiyo yahudiylari, millatidan qat’iy nazar, shu jumladan, ruslar ham "Buxoro" deb nomlangan va shu tariqa mintaqa aholisining ma’lum bir mustaqil etnik toifasini ajratib ko‘rsatgan. Hujatlarni tahlili davomida shunday to‘xtamga kelish mumkinki Buxoro amirining yahudiy fuqarolarini

<sup>186</sup> Хан В.С. Корейцы в Туркестане и Степном крае в конце XIX первой четверти - первой четверти XX вв. социальная жизнь народов Центральной Азии в первой четверти XX века: материалы международной конференции (Ташкент, 12—13 сентября 2008 г.). – Ташкент, 2009. –С.26

umuman Turkiston viloyatining "mahalliy" yahudiylari bilan, shu jumladan, haqiqiy "chet elliklar" bilan aralashtirib yubormaslik kerak. XIX asr oxirida rasmiy rus hujjatlarida "Buxoro yahudiylari" atamasi paydo bo'ldi. Bu Buxoro amirligida bo'lgan yahudiylarga shunday nom berilgan bo'lsa, Turkiston hududida yashovchi yahudiylar esa "mahalliy yahudiylar" deb atalgan. 1917 yil oktabr voqealari va u bilan bog'liq O'rta Osiyodagi siyosiy o'zgarishlardan so'ng "Buxoro yahudiylari" atamasi barcha mahalliy yahudiylar uchun umumiyl bo'lib qoldi.

"Yevropalik" yahudiylar Markaziy Osiyoda allaqachon mintaqani Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olish jarayonida paydo bo'lgan. Turkistonning "rus" yahudiylarining bosh ravvini A.Kirsnerning ta'kidlashicha, O'rta Osiyoni bosib olishda halok bo'lgan rus askarlarining ommaviy qabrlarida "Ivan va Stepan" ismlari yonida yahudiylarning "Xaim va Yankel" ismlarini ham uchratish mumkin edi<sup>187</sup>. Hujjatlar shuni ko'rsatadiki, "yevropalik" yahudiylarning Turkistonga ko'chirilishi ham dastlab, asosan, nafaqadagi "pastki mansabdorlar" hisobidan, 1867 yil 25 iyuldag qonundagi "Qayerda istasa, qonuniy shartlarga muvofiq yashash" qoidasiga asosan rezervga o'tkazilgandan so'ng ruxsat etilgan. Turkistonning birinchi general-gubernatori Kaufman Turkistonda nafaqadagi rossiyalik yahudiy askarlarga mintaqaning musulmon aholisi bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'qnashuvning og'ir paytlarida bemalol suyanish mumkinligiga ishonib, bunday ko'chirishni mammuniyat bilan qabul qildi. Keyinchalik "Pasportlar to'g'risida"gi Nizomning 68-moddasi asosida Turkiston o'lkasiga Rossianing "ichki" viloyatlaridan yahudiylar – amaldorlar, tabiblar, savdogarlar, hunarmandlar va boshqalar joylasha boshladilar<sup>188</sup>. 1897 yilgi umumiyl aholi ro'yxatiga ko'ra, Qo'qonda 275 nafar, Marg'ilonda 186 nafar, Namanganda 110 nafar, Andijonda 97 nafar<sup>189</sup>, Toshkentda -1719 nafar, Turkistonda – 498 nafar, Chimkentda - 202 nafar yahudiy yashagan<sup>190</sup>.

<sup>187</sup> Каганович А. Друзья поневоле: Россия и бухарские евреи, 1800-1917 / науч. Ред. Миллер. А. – Москва: новое литературное обозрение, 2016. – С.26.

<sup>188</sup>

<sup>189</sup> Первая всеобщая перепись населения Российской империи, 1897 г. LXXXIX. Ферганская область / под ред. Н.А. Тройницкого. Изд. центр.стат. комитета Министерства внутренних дел, 1904. С. 2-3

<sup>190</sup> Первая всеобщая перепись населения Российской империи, 1897 г. LXXXVI. Сыр-Дарьинская область / под ред. Н.А. Тройницкого. Изд.центр. стат. комитета Министерства внутренних дел, 1905. С. 2-3

Tatar diasporasi ham juda katta edi. “Yangi” Toshkentda Beshyog‘och darvozasi yaqinida tatar aholi punkti vujudga kelgan. Anhor arig‘i bo‘yidagi ko‘chaga Tatar (hozirgi Turob To‘la ko‘chasi) nomi berildi. Ko‘chmanchi tatarlar soni yildan-yilga ortib bordi. Agar 1871-yilda “Yangi” Toshkentda atigi 98 nafar tatar yashagan bo‘lsa, 1897-yilda ularning soni 2313 taga yetdi. XIX asr oxiriga kelib Namanganda eng yirik tatar diasporasi – 6670 kishi yashagan<sup>191</sup>. Ashxobodda ham tatarlar yashagan (1161 kishi)<sup>192</sup>, Turkiston (513), Avliyoota (266), Chimkent (120)<sup>193</sup>. Qo‘qon, Marg‘ilon va Andijonda kichik tatar jamoalari bo‘lgan.

Kavkaz xalqlarining O‘rtta Osiyodagi birinchi vakillari mintaqani zabit etishda qatnashgan armanlar edi. Ular Zangezur, Qorabog‘ va G‘arbiy Armanistondan ko‘chib kelishdi. XX asrning dastlabki yillarda Kaspiyortida arman aholisining soni o‘sishda davom etgan. 1902 yilda mintaqada allaqachon 7658 nafar arman yashagan, bu Kaspiyorti mintaqasida yangi kelganlarning 12,6% ni tashkil qilgan. 1903 yilda mintaqadagi armanlar soni yanada ortib, 8414 kishiga yetdi. Ma’muriyatning ma’lumotlariga ko‘ra, 1902-1903 yillarda yangi kelgan aholining sezilarli darajada ko‘payishi Sharqiy Kavkazda, xususan, Bokudagi ishsizlik, Xurosondagi ocharchilik oqibati edi. Viloyatning yirik shaharlarida yashovchi armanlar soni ortdi. 1902-yilda Ashxobodda 4690, Krasnovodskda 922, Qizil-Arvatda 782 va Marvda 642 armanlar bo‘lib, ular aholining mos ravishda 22,0%, 13,4%, 22,8% va 10,0%ni tashkil etgan. Mintaqada arman aholisi sonining ko‘payishi yangi kelganlarning umumiy sonidagi ulushining barqaror kamayishi bilan birga kechdi. Bu rus va fors millatlari aholisining juda yuqori o‘sishi bilan bog‘liq. Shunday qilib, 1902 yil uchun mintaqadagi ruslar soni 31,425 kishi, forslar soni esa 12,717 kishi deb belgilandi, bu mintaqaning yangi kelgan jami aholisining 51,9% va 21,0% ni tashkil etdi<sup>194</sup>

<sup>191</sup> Первая всеобщая перепись населения Российской империи, 1897 г. LXXXIX. Ферганская область / под ред. Н.А. Тройницкого. Изд. центр.стат. комитета Министерства внутренних дел, 1904. С. 2-3

<sup>192</sup> Первая всеобщая перепись населения Российской империи, 1897 г. LXXXII. Закаспийская область / под ред. Н.А. Тройницкого. Изд. центр.стат. комитета Министерства внутренних дел, 1904. – С . 2-3.

<sup>193</sup> Первая всеобщая перепись населения Российской империи, 1897 г. LXXXVI. Сыр-Дарынская область / под ред. Н.А. Тройницкого. Изд.центр. стат. комитета Министерства внутренних дел, 1905. С. 2-3

<sup>194</sup> ВЛАДИМИР ГРИГОРЯНЦ Переселение армян в Закаспийскую область (конец XIX — начало XX вв.) // <https://nashasreda.ru/pereselenie-armyan-v-zakaspijskuyu-oblast-konec-xix-nachalo-xx-vv/>

1905-1906 yillarda esa Kaspiyorti yashovchi armanlar soni o‘rtacha 6500 nafarga kamayadi. Arman aholisi sonining bunday keskin kamayishi sabablari hali ham yetarlicha aniq emas. Hokimiyat inqilobiy harakatni zaiflashtirishga urinib, Kaspiyorti aholisi o‘rtasida milliy adovatni qo‘zg‘atmoqchi bo‘ldi va milliy masala keskinlashgani sababli armanlarning bir qismi Kaspiyorti viloyatini tark etgan bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, “Asxobod” gazetasining xabariga ko‘ra, 1905-yil aprel oyida Ashxobodda bir militsiya xodimi musulmonlar va armanlarni o‘rtaga tashlagani uchun javobgarlikka tortilgan. 1905 yil iyul oyida Ashxobodda arman va musulmon aholini tinchlantirish bo‘yicha maxsus “Komitet”, o‘sha yilning noyabr oyida Krasnovodskda “shahar politsiyasi” tuzildi, uning tarkibiga ma’muriy qo‘mita vakillari kirgan. Keyingi yillarda Kaspiyorti mintaqasida arman aholisining o‘sishi yana sodir bo‘ldi. XX asrning ikkinchi o‘n yilligi boshlarida. mintaqada yashovchi armanlar soni 11 ming kishidan oshdi va mintaqaga yangi kelgan aholining 9,9 foizini va mahalliy turkmanlar (40) bilan birga umumiyligi aholining 2,4 foizini tashkil etdi. Ayni paytda Ashxobodda 6667, Krasnovodskda 682, Marvda 2140 nafar arman yashagan<sup>195</sup>.

Turkiston o‘lkasidagi shahar va qishloqlarda yashaydigan armanlar haqida ma’lumotlar talaygina uchraydi. Ular qaydnomalarda asosan Kavkazorti hududlari va Rossiya imperiyasining boshqa hududlaridan kelganligi ko‘rsatilgan. 1908 yilda Samarqand viloyatida jami 774 ta armanlar yashar edi<sup>196</sup>.

Kaspiyorti viloyatidagi armanlar to‘g‘risida ma’lumotlarga ko‘ra Mang‘ishloq uezdida 40, Krasnovodsk uezdida 1322, Ashxobod uezdida 7223, Tajan uezdida 223, Marv uezdida 2123, Bayram Ali pristavligi Murg‘obda 76 jami viloyat bo‘yicha 11007 kishi bo‘lgan<sup>197</sup>.

O‘rta Osiyodagi birinchi polyaklar 1830-1831 va 1863-1864 yillardagi Polsha qo‘zg‘oloni ishtirokchilari bo‘lib, Qozog‘iston chegarasiga surgun qilingan. Biroq Turkistonda polyak diasporasining shakllanishi aynan uni bosib olish davrida sodir

<sup>195</sup> ВЛАДИМИР ГРИГОРЯНЦ Переселение армян в Закаспийскую область (конец XIX — начало XX вв.) // <https://nashasreda.ru/pereselenie-armyan-v-zakaspiskuyu-oblstan-konec-xix-nachalo-xx-vv/>

<sup>196</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 17-рўйхат, 774-иш, 3-3 об вараклар

<sup>197</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 17-рўйхат, 774-иш, 4-6 варклар

bo‘ladi. O.Medvedeva-Natuning ta’kidlashicha, bu vaziyatning tarixiy paradoksi edi, chunki bu yerga birinchi bo‘lib rus armiyasida xizmat qilgan polyaklar - Polsha mustaqilligini tiklashga urinishlarni bostirgan o‘scha armiya kelgan. Endi, tadqiqotchining so‘zlariga ko‘ra, rus xizmatidagi polyaklar "mahalliy"larni mustaqillikdan mahrum qilish uchun ular bilan kurashgan. Biroq, bu polyaklar o‘zlarining Sharqdagi "sivilizatsiya" missiyasiga qat’iy ishonch hosil qilishdi, boshqalar Rossiyaga sodiqlik Polsha uchun foydali deb ishonishgan bo‘lishi mumkin, ammo, ehtimol, ko‘pchilik shunchaki zo‘ravonlarning sharaf tushunchalariga ergashgan, bu esa Harbiy qasamyodni buzilishlarga yo‘l qo‘ymagan<sup>198</sup>. Nafaqaga chiqqandan so‘ng, ko‘plab polshalik harbiy xizmatchilar Markaziy Osiyoda qolishdi. Keyin ularga amaldorlar, o‘qituvchilar, shifokorlar, huquqshunoslar, tadbirkorlar, muhandislar, yuqori malakali ishchilar va hunarmandlar qo‘shildi. XIX asrning oxiriga kelib rus Turkistonining butun hududida 11597 polyak bor edi. Ularning 90% ga yaqini shaharlarda yashagan. Eng yirik diaspora Toshkentda joylashgan edi. 1871 yilda Toshkentda 18 ta polyak bo‘lsa, 1897 yilda ularning soni 2206 taga yetdi<sup>199</sup>. Ashxobodda 1605, Marg‘ilonda 727, Andijonda 194, Qo‘qonda 215, Namanganda 192 nafar polyak yashagan<sup>200</sup>. Shunisi e’tiborga loyiqliki, polyaklar o‘zlarini "Turkiston" ruslaridan ajratmaganlar. Faqat vaqt o‘tishi bilan, polyaklar katolik cherkovlarini tashkil qila boshladilar, ularning parishonlari odatda nemis katoliklarini o‘z ichiga olgan. Polyaklar nemislarga qattiq jalb qilingan, Turkistonda polyak-german nikohlari ancha keng tarqalgan edi.

Eng yirik etnik jamoalardan biri nemislар edi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston va Dasht general-gubernatorliklariga o‘n minglab Volgabo‘yi nemislari ko‘chirildi, Ularning ko‘pchiligi Toshkentda istiqomat qilgan. 1897 yilda uning “yangi qismida” 2299 kishi, Marg‘ilonda 158 kishi, Andijonda 49 kishi,

<sup>198</sup> Медведева-Нату О. Войны и люди: поляки в Средней Азии // Диаспоры. 2006. № 2. –С.114

<sup>199</sup> Первая всеобщая перепись населения Российской империи, 1897 г. LXXXVI. Сыр-Дарынская область / под ред. Н.А. Тройницкого. Изд.центр. стат. комитета Министерства внутренних дел, 1905. – С . 2-3.

<sup>200</sup> Первая всеобщая перепись населения Российской империи, 1897 г. LXXXII. Закаспийская область / под ред. Н.А. Тройницкого. Изд. центр.стат. комитета Министерства внутренних дел, 1904. – С . 2-3.

Qo‘qonda 61 kishi, Namanganda 46 kishi<sup>201</sup>, Ashxobodda - 285 nemis istiqomat qilgan<sup>202</sup>. Turkiston boshqaruvida asosan nemislar xizmat qilgan. Albatta, ularning eng mashhuri "Turkiston o‘lkasi tashkilotchisi", uning birinchi general-gubernatori fon Kaufman edi. Toshkent shahar dumasi deputati M.R.Keller, S.D.Xesket - Samarqand viloyati harbiy gubernatori, davlat maslahatchisi E.G.Brun va boshqalarning nomlari keng tarqalgan. Nemislar orasida ko‘plab muhandislar, shifokorlar va boshqa yuqori malakali mutaxassislar, shuningdek, olimlar bor edi. Shuni ta’kidlash kerakki, O‘zbekistonda diasporani tashkil etgan nemislar asosan Rossiya imperiyasining fuqarolari bo‘lsa-da, ular orasida Germaniya davlatlari vakillari ham bor edi. Masalan, 1869 yilda Toshkentda uchta Prussiya va bitta Sakson fuqarosi, 1877 yilda esa Germaniya davlatlarining 17 nafar fuqarosi, 5 ta Prussiya, 2 ta sakson va 5 nafar avstriyalik bor edi. Ular asosan tadbirdorlik va savdo faoliyati bilan shug‘ullanishgan<sup>203</sup>.

Turkistonda xorijlik fuqarolarning soni kam edi. Masalan, Sirdaryo viloyatida 1897 yildagi umumiy aholi ro‘yxatiga ko‘ra, shaharlarda ularning soni atigi 2% ni tashkil etgan. Chet el fuqarolari orasida Avstriya-Vengriya, Germaniya, Italiya, Prussiya, Fransiya, Shveysariya va Shvetsiyadan, shuningdek, Usmonlilar imperiyasi, Xitoy, Yaponiya, Eron va Hindistondan kelganlar bor edi<sup>204</sup>.

Birinchi jahon urushida boshqa hududlar singari Turkistonga ham nemis va avstriyalik asirlar olib kelib joylashtirilgan. 1914-yil sentabrda Turkistonga Avstriya-Vengriya va Germaniya qo‘sishinlarining harbiy asirlari keltirila boshlandi va 1915-yil iyuniga kelib ularning soni 148 mingdan oshdi. Ular shoshilinch ravishda 37ta maxsus qurilgan lager, kazarma va boshqa binolarga joylashtirildi<sup>205</sup>. Ularni

---

<sup>201</sup> Первая всеобщая перепись населения Российской империи, 1897 г. LXXXIX. Ферганская область / под ред. Н.А. Тройницкого. Изд. центр.стат. комитета Министерства внутренних дел, 1904.- С.2-3.

<sup>202</sup> Первая всеобщая перепись населения Российской империи, 1897 г. LXXXII. Закаспийская область / под ред. Н.А. Тройницкого. Изд. центр.стат. комитета Министерства внутренних дел, 1904. – С.2-3.

<sup>203</sup> Иноярова Д.М. Участие представителей немецкой diáspory в экономике Туркестана // Журнал Фронтирных Исследований. 2023. No 1 | ISSN: 2500-0225. – С.51-52.

<sup>204</sup> Первая всеобщая перепись населения Российской империи, 1897 г. LXXXVI. Сыр-Дарынская область / под ред. Н.А. Тройницкого. Изд.центр. стат. комитета Министерства внутренних дел, 1905. – С.7-8.

<sup>205</sup> И-1-фонд, 32-рўйхат, 19-иш, 161-варак.

moddiy jihatdan ta'minlash Turkiston o'lkasidagi mahalliy aholining zimmasiga tushgandi.

Turkistonda deyarli 150 ming mahbusning jamlanishi, keyin esa qochqinlarning kelishi mahalliy va yevropalik aholining moddiy ahvolini sezilarli darajada yomonlashtirdi, oziq-ovqat, sanoat mollari va uy-joy inqirozining kuchayishiga olib keldi va mintaqaning sanitariya holatini yomonlashtirdi. Turkiston Oliy ma'muriyati harbiy asirlarning ko'p qismini boshqa hududlarga ko'chirish to'g'risida hukumatga murojaat qila boshladi. Shu munosabat bilan, shuningdek, markaziy viloyatlarda ishchi kuchi yetishmovchiligi kuchayib borayotganligi sababli 1915 yil iyul oyidan boshlab O'rta Osiyodan Qozon okrugi va Ukrainaga katta miqdordagi mahbuslar olib ketila boshlandi. 1917 yil boshiga kelib Turkistonda 41 mingdan sal ko'proq mahbus, shu jumladan, 39521 askar (3515 nemis va 36006 avstro-vengriyalik) va 1764 ofitser (60 nemis va 1714 avstro-vengriyalik) qoldi<sup>206</sup>.

## **2.2 Tub bo'lmagan aholining moslashuvi masalalari va integratsiya jarayonlari**

Turkiston o'lkasida mustamlaka qilishning dastlabki yillaridayoq shakllanib ulgurgan, tub aholini iqtisodiy va ijtimoiy ezish, xususan, dehqonchilikda imperiyaga ma'qul o'zgarishlarni amalga oshirish, qishloq, rayonlarda rus qishloqlarini imkonи boricha ko'proq barpo etishga yo'naltirilgan buyuk davlatchilik - shovinistik siyosat tub qishloq aholisini soliqqa tortishni kuchaytirishni oldindan belgilab bergen. To'g'ri mustamlakachilikning boshida Turkiston ma'muriyati xalq ommasining qarshiligining oldini olish va hatto, ularni o'z tomoniga og'dirish maqsadida asosiy soliqlarni jiddiy kamaytirgan, ruhoniylar yoki qishloq, ovul oqsoqollari tomonidan joriy etilgan o'lpon va yig'imlarni bekor qilgan. Masalan, ilgari daromad yoki hosilning uchdan biri miqdorida undirib kelingan yer solig'i

---

<sup>206</sup> Matbeeъ A.. –C.32.

1868 yilga keliboq beshdan bir qismgacha<sup>207</sup> kamaytirilgan va bu miqdor 1871 yilgacha saqlanib qoldi. Keyinchalik, ruslar ommaviy ko‘chirib keltirila boshlangach, tub aholini soliqqa tortish keskin ortdi.

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoga ko‘chirish siyosatini amalga oshirish jarayonida shakllangan Turkistonga ko‘chib kelgan ruslarning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari Turkiston general-gubernatorligiga taftish qilish maqsadida kelgan amaldorlarning ma’ruza va hisobotlarida aniqlangan. Bu xususiyatlar orasida pravoslav ruslarning asosiy diqqatga sazovor joylari, Rossiya ma’muriyatining ko‘chmanchilarni qishloq joylari va shaharlarning "rus qismiga" alohida anklavlarga ko‘chirish istagi, shuningdek, ko‘chirish anklavlari ichida birlashishning zaif darajasi mavjud edi.

Rus tadqiqotchilarining fikriga ko‘ra "Moskva - Uchinchi Rim - Muqaddas Rus" mafkurasi, bir tomondan davlat mafkurasining asosi bo‘lib, hududiy kengayishni nazarda tutgan. Rossiya davlat yurisdiksiyasi hali o‘rnatilmagan yoki mustahkamlanmagan (zabt etilgan hududlardagi kabi) hududlarga ko‘chib o‘tishni ham psixologik jihatdan osonlashtirdi. Shuningdek, u diniy ekspansianing kuchayishini ta’minladi va butun davlat hududini madaniy homogenlashtirish uchun old shartlarni yaratdi. Ushbu bir xillashtirishning asosi, bir tomondan, rus ko‘chmanchilari va pravoslav monastirlariga ergashgan davlat-ma’muriy tuzilma bo‘lsa, ikkinchidan, pravoslav qirolligining esxatologik g‘oyasi, haqiqiy taqvodorlikning yagona tayanchi edi. Monastirlar orqali tarqaladigan va Rossiya imperiyasining qiymat maksimali sifatida ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lgan dunyo - uning markaziy prinsipi edi<sup>208</sup>. Biroq, Turkiston misolida bo‘lgani kabi imperiyaning markaziy tamoyilini ma’lum darajada zaiflashtirish mustamlakachilikning shiddatini avtomatik ravishda pasaytira olmadi. Lekin bu uning xarakteriga, xususan, rus dehqonlarining chekka aholi bilan assimilyatsiyalashish qobiliyatiga salbiy ta’sir qildi.

---

<sup>207</sup> Болтабоев С.Д. Вакфное имущество в Туркестанском крае по второй половине XIX и в начале XX в.- Автореф. дисс. канд. истор. наук.-Тошкент, 1995. – С.15.

<sup>208</sup> Светлана Лурье. Особенности русской колонизации в Средней Азии // <http://kungrad.com/history/st/ruskolon/>

Rossiyadan ko‘chirib keltirilganlarning deyarli hammasi, ba’zi istisnolar bilan, tub aholi, ayniqsa, qishloq aholisiga nisbatan buyuk davlatchilik-shovinistik munosabatda bo‘lgan. Boz ustiga, metropoliyadan ko‘chirib keltirilganlar nemislar va xristian sektantlardan boshqa, hammasi jangovar miltiqlar bilan ta’milangan. Ayniqsa, ikkinchi toifaga kiritilganlarning askariyati o‘zini yovuzlarcha va surbetlarcha tutganligi ma’lum. 1882 yilda Farg‘ona viloyatidagi jinoyatchilik soniga oid hisobotda 87 nafar erkak, 2 nafar ayol jami 89 nafari javobgarlikka tortilgani, ko‘chib kelgan aholidan esa harbiylardan 15 nafar erkaklar, 2 nafar krestyanlar, 3 nafar meshanlargina javobgarlikka tortilganini ko‘rish mumkin<sup>209</sup>.

Ayni mahalda beruxsat ko‘chib kelganlar mahalliy aholi orasida o‘g‘rilik, talonchilik bilan shug‘ullanishi, hatto berilgan yer maydonida mehnat qilishni xohlamaganligiga qarshi tegishli chora ko‘rileyotgan sharoitda Rossiyadan Kaspiyorti viloyatiga ko‘chib keluvchilar oqimi kuchayib bordi. Biroq, rus krestyanlari Kaspiyorti viloyatidan hech qayoqqa ketishmadi. Boz ustiga, K.P.Kaufmanning hisobotida ta’kidlanganidek, 1880-yillar boshida Turkistonga Rossiyadan ko‘chirib keltirilganlar ancha zich joylashtirildi va “bu yerda ruslar yashaydigan joylar orasida hozir yarmini tatarlar band qilgan kichik shaharchalargina va kazaklarning Sibirning yarim daydi aholisi yashaydigan yakka-dukkam stansiyalargina emas, balki barakotli o‘lkaning keng dashtlarida farovon bo‘lib kamol topayotgan krestyanlar qishloqlari va jamoalari ko‘zga tashlanadi”<sup>210</sup>.

Diniy vatandoshlik tashkilotlari yevropalik muhoxirlarni, birinchi navbatda diniy, milliy, madaniy va til birligi asosida birlashtirgan. Odamlarni bolalarga ona tilini o‘rgatish istagi, diniy urf-odatlar, milliy bayramlar, o‘z vatani xotiralarini birgalikda nishonlash va hokazolarni birlashtirgan edi. Diniy va qardosh tashkilotlarning burjua-ruhoniylar elitasi o‘z vatandoshlarini mahalliy va rus aholisi bilan do‘stona aloqalardan ozmi-ko‘pmi chalg‘itishga, millatchilik ideallari va moddiy farovonlikka intilishlari doirasida o‘z qarashlarini yopishga muvaffaq

<sup>209</sup> ЎзМА. И-19-фонд, 1-рўйхат, 908-иш, 101-варак.

<sup>210</sup> Кауфман К.П Проект всеподданнейшего отчета генерал-адъютанта К.П. фон.Кауфман по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства, 7 ноября 1867-25 марта 1881 гг.- Спб., 1885. – С.187.

bo‘ldi. Shu sababli, yevropalik muhojirlarning katta qismi rus va mahalliy aholi manfaatlaridan uzoq, mahalliy ijtimoiy-siyosiy hayotga unchalik qiziqmas edi<sup>211</sup>.

Imperiya hukumati 1881-1885 yillarda Turkiston shaharlarini bog‘laydigan yo‘llar bo‘ylab rus qishloqlari barpo etishga katta ahamiyat bergandi. Bu joyda yer, eng avvalo, iste’fodagi askarlarga ajratilar, ulardan keyingina krestyanlarga berilardi. Tub aholi g‘alayonlari, qo‘zg‘olonlari sodir bo‘lgan holatlarda bunday qishloqlar foyda beradi, deb taxmin qilingan<sup>212</sup>. Ammo ushbu alohida "qal'a" siyosati mintaqani boshqarishning tabiatni muqarrar ravishda ruslarning mahalliy aholi bilan munosabatlariga ta’sir qildi. Bosib olingan xalqlar tomonidan norozilikning har qanday ko‘rinishini qat’iy bostirish zarurati hokimiyat mahalliy aholi vakillari barcha ruslarga, shu jumladan, quyi ijtimoiy qatlamlarga mansub ruslarga ham sodiqlik ko‘rsatganmi yoki yo‘qmi, hushyorlik bilan kuzatilishiga olib keldi. Ilgari, boshqa chekkalarda, bu rus siyosatiga xos emas, jumladan, ko‘chmanchilar faqat qurolli hujumlardan himoyalangan, ammo aks holda hukumat aralashmagan va rus dehqonlarini o‘z qiyinchiliklarini o‘zlari yengishlari uchun qoldirgan. Ammo "qal'a" mintaqasi ham alohida intizomni nazarda tutgan. Natijada Turkistondagi ruslar, birinchidan, mahalliy aholi bilan boshqa chekkalarga qaraganda ancha kamroq bevosita aloqada bo‘ldilar; ikkinchidan, ular Rossiya imperiyasi tarixida birinchi marta “xo‘jayin” lavozimiga joylashtirildi va mahalliy aholi bilan assimilyatsiya bo‘lish qobiliyatini butunlay yo‘qotgandek edi<sup>213</sup>.

Ayni mahalda Turkistonda F.K.Girs (1882y), graf Ignatev (1884y) tomonidan olib borilgan taftishlar Rossiyadan Turkistonga ko‘chirib keltirilganlarning soni ko‘payishi bilan birga tub aholiga nisbatan ularning bedodligi, ijtimoiy va milliy zulmi kuchayganini ham ko‘rsatdi. Biroq hukumat qabul qilgan 1881 yilgi hamda 1883 yilgi aholini ko‘chirish qoidalari o‘zboshimchilik bilan ko‘chib kelishni to‘xtatish u yoqda tursin, hatto qisqartirishga ham yordam bermadi. Imperiya hukumati avvalgi yillarda rus aholisini va umuman

<sup>211</sup> Матвеев А. М. Зарубежные выходцы в Туркестане на путях в Великому Октябрю. – Ташкент: Фан, 1977. – С.26.

<sup>212</sup> ЎзМА, И-1-фонд, 16-рўйхат, 15-иш, 2- варак.

<sup>213</sup> Светлана Лурье. Особенности русской колонизации в Средней Азии // <http://kungrad.com/history/st/ruskolon/>

slavyan aholi sonini ko‘paytirish bo‘yicha tajribasi ko‘chib kelganlarga beriladigan yer maydonlari endi keskin kamayishiga olib kelganini tushunardilar.

Sirdaryo viloyati qishloqlaridagi ko‘chirish jarayoniga oid eslatmalar muallifi I.I.Geyer Turkistonda nemislar o‘rtasida o‘zaro yordam mavjudligi, bu qishloqda nemis aholisining mavjudligida namoyon bo‘lganini qayd etadi. Toshkent uezdining Konstantinovskiy qishlog‘idagi ko‘chib kelgan nemislarga Toshkent nemis jamiyatini timsolida homiy bo‘lib chiqdi. Ular 1892 yilda ko‘chib kelgan nemislarga uylar qurish uchun naqd pul ko‘rinishida o‘z yordamlarini berganlar. Xuddi shu vaqtida esa ruslar kuchli milliy birdamlik tuyg‘ulari bilan bog‘lanmagan edi. I.Geyerning ta’kidlashicha "...ularning katta akalari bo‘lgan Toshkent ziyyolilari nemis jamiyatiga o‘xshamaydilar va ularning taqdiriga nafaqat butunlay befarqlik bilan munosabatda bo‘lishadi, balki har qanday qulay imkoniyat tug‘ilganda ulardan butunlay begonaday voz kechadilar va hatto nafratlanadi"<sup>214</sup>. Sirdaryo viloyatidagi ko‘chirilgan rus aholisining begonalashishi qisman har bir qishloqning bir guberniyadan kelgan odamlarni birlashtira olmagani bilan bog‘liq edi. Rus oilasining an'anaviy turmush tarzi va Yevropa Rossiyasi hududida yashayotgan ko‘chirilganning turli tajribalari Turkistonda rus aholisining jipslashish va o‘zlikni anglash jarayonlarini murakkablashtirdi<sup>215</sup>.

Bu tuzumdagagi pravoslavlikni o‘rnini belgilab bergen yana bir muhim omil uning Turkistondagi mavqeining o‘ziga xosligi edi. Rossiya imperiyasining hech bir joyida u "yolg‘iz" ko‘rinmasdi. Yuqorida ta’kidlanganidek, pravoslav jamoalari, ayniqsa, qishloqlar, mintaqaning ko‘p joylarida musulmonlarning ko‘p millionli "okeanidagi" "Robinzonlar"ga o‘xshardi. Pravoslavlarning begona konfessional muhitda bunday "tarqalishi" muqarrar ravishda pravoslav ongiga salbiy ta’sir

<sup>214</sup> Гейер И. По русским селениям Сыр-Дарьинской области (письма с дороги). Т. I: Чимкентский уезд. Ташкент, 1893 (письмо III) // Цыряпкина Ю.Н. Русские переселенцы в Туркестане в конце XIX - начале XX в.: основные социокультурные характеристики // Вестник Томского государственного университета, № 411, 2016. – С. 183-187.

<sup>215</sup> Цыряпкина Ю.Н. Русские переселенцы в Туркестане в конце XIX - начале XX в.: основные социокультурные характеристики // Вестник Томского государственного университета, № 411, 2016. – С. 183-187.

ko‘rsatishi mumkin edi, hatto eng qat’iy ravishda. Biroq bu undagi funksional o‘zgarishlarning ko‘rinishini anglatmaydi<sup>216</sup>.

Rossiyaning O‘rta Osiyon mustamlaka qilishi islohotdan keyingi davrda Rossiyada pravoslavlilikning chuqurlashib borayotgan inqirozi bilan bir vaqtga to‘g‘ri keldi. Inqirozning muqarrar natijasi odamlar orasida pravoslav dindorlik darajasining umumiy pasayishi, diniy befarqlik hamda mazhabparastlikning kuchayishi va boshqalar edi. Masalan, Shimoliy Amerika hududlarini mustamlaka qilish tajribasi, tarixi shuni ko‘rsatadiki, migratsiya oqimlarida doimo ko‘plab "daxriylar" yoki oddiygina diniy jihatdan beqaror odamlar bo‘lgan. Hujjatlar shuni ko‘rsatadiki, Turkistonning ruslar tomonidan "o‘zlashtirish" davrida ham shunday bo‘lgan. P.P.Litvinovning tadqiqotlariga ko‘ra O‘zbekiston, Qozog‘iston va Markaziy Osiyoning boshqa respublikalari markaziy davlat arxivlari fondlarida, hatto Rossiya Federatsiyasi Markaziy davlat tarix arxivida ham “kufr” va Bosh cherkovni haqorat qilish bilan bog‘liq yuzlab ishlar aniqlangan. Shu yerda Turkiston pravoslavlariga oid ishlar saqlanadi. Jumladan, 1913-yil 15-noyabrda Vernenskiy okrug sudi Prjevalsk shahridan 67 yoshli pravoslav xristian P.Bajenovni “kufr” va “hokimiyatdagi hukmron imperatorning muqaddas shaxsi” ni haqorat qilish uchun bir oylik qamoq jazosiga hukm qilgan<sup>217</sup>.

Shuni ta’kidlash kerakki, ruslarning assimilyatsiya qilishning tabiiy qobiliyati odatda o‘zлari tomonidan ham, tashqi kuzatuvchilar tomonidan ham bo‘rttirilgan. Ushbu xatoning sababi shundaki, assimilyatsiya imperianing ko‘plab hududlarida tez va deyarli og‘riqsiz sodir bo‘lgan. Lekin bu hamma joyda va har doim ham emas edi. Psixologik nuqtai nazardan, rus mustamlakachilari nihoyatda introvert, ular odamovi va odatda xorijiy aholi alohida e’tiborga moyil emas edilar. Rus kishilari o‘zlarining rivojlangan madaniyati va milliy tuyg‘usiga ega bo‘lgan mahalliy xalqlarga duch kelgan joylardagina o‘zlarini noqulay his qilishdi, masalan,

<sup>216</sup> Литвинов П.П. Государственно-религиозные этноконфессиональные отношения в Туркестане (1865-1917гг.) (по архивным материалам) (Часть 1) Специальность 07.00.03 - всеобщая история (новое и новейшее время) Диссертация на соискание учёной степени доктора исторических наук. – Москва, 1997. – С.202.

<sup>217</sup> Литвинов П.П. Государственно-религиозные этноконфессиональные отношения в Туркестане (1865-1917гг.) (по архивным материалам) (Часть 1) Специальность 07.00.03 - всеобщая история (новое и новейшее время) Диссертация на соискание учёной степени доктора исторических наук. – Москва, 1997. – С.207.

Kavkazorti yoki xitoyliklar ruslardan namoyishkorona yashagan Amur viloyatida shunday holatni kuzatish mumkin edi. Ba'zida tadqiqotchilarni ruslarning milliy muammolarga an'anaviy befarqligi va ularning "milliy norozilikni jiddiy qabul qila olmasliklari" hayratda qoldirdi<sup>218</sup>.

Shuni ta'kidlash lozimki, garchi aksariyat pravoslav yo'nalishidagi kishilarda mahalliy boshqa diniy sektalar vakillari orasida mahalliy aholiga hayrixohlik, ular bilan yaqin aloqada bo'lishga intilish holatlari ko'plab uchragan. Masalan, molokanlar pravoslav dinidagi ba'zi muqaddas odatlarni ham rad etishadi. Xususan, cho'chqa go'shti iste'mol qilishni va spirtli ichimliklarni ichishni gunoh deb bilishdi. Bu esa ularni boshqa ko'chib kelgan pravoslavlardan ijobiy ma'noda ajratib turgan. 1906 yilda Turkistonga ko'chirish ishi haqidagi gazeta eslatmalaridan birida quyidagilar qayd etilgan: "Toshkent uezdidagi Alekseyevka qishlog'iga tub rus aholisining 60 ga yaqin oilasi - molokanlar joylashdi. Ular hushyor, ichmaydilar, hatto tamaki chekmaydilar, xudojo'y, kamtarin va halol". Turkiston hukumati, birinchi navbatda, molokanlarning barqaror xo'jalik yuritishi va spirtli ichimliklar ichishdan bosh tortganidan hayratda qoldi. Toshkent uezdida starobryadchiklar, molokanlar, baptistlar, subbotniklar, Iyegova shohidlari, shuningdek, Lev Tolstoy ta'limotining izdoshlari pravoslavlар bilan birga yashagan qishloqlar bor edi<sup>219</sup>. Garchi Turkistondagi noqulay yerlarga joylashtirilgan xristianlar sektalarining izdoshlari - mennonitlar, baptistlar va boshqalar tub aholi bilan ancha chiqishib yashasa-da, harbiy majburiyatdan ozod qilish, e'tiqod erkinligini kafolatlash va hokazo talablar bilan mustamlakachi ma'muriyatga ancha tashvish keltirishgan. Ularning Turkistondagi mahalliy aholi bilan munosabatlariga nisbatan tashvishlanib, bu holat o'lkada rus pravoslavlарining hukmron mavqeini o'rnatishga qaratilgan siyosatga jiddiy xavf-xatar sifatida ko'rilgan. Shu boisdan ularning faoliyatiga nisbatan turli ma'muriy to'siqlar bilan qarshilik qilishga urinish holatlari ko'plab uchragan. Masalan, asosan nemislardan iborat bo'lgan mennonitlar (nemislarning bir diniy ayirmachi oqimi) ommasi Amerikaga jo'nab ketib, keyin

<sup>218</sup> Светлана Лурье. Особенности русской колонизации в Средней Азии // <http://kungrad.com/history/st/ruskolon/>

<sup>219</sup> ЎзМА И.-1-фонд, 17-рўйхат. 858 -иш, 46-варак

Rossiyaga qaytib kelishga majbur bo‘lganligi uchun ularning talablari rad etilgan. Imperiya hukumati mennonitlarga joylashishda ancha yengil sharoit yaratib berilishini va’da qilib, Farg‘ona viloyatiga ko‘chishni taklif qilgan. Bunda ularni rus pravoslavlardan chetraqda joylashtirish maqsadi ko‘zlangan bo‘lsa kerak.

XIX asr – XX asr boshlarida Turkiston general-gubernatorligidagi alohida etnik guruhlarning integratsiyalashuv jarayonlarini ko‘rib chiqilishi ular o‘rtasidagi madaniy va etnik o‘zaro ta’sirning chuqurlashishi (etnik guruhlar o‘rtasida o‘ziga xosligini saqlab qolgan holda), subektlar o‘rtasidagi turli aloqalar (iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy) shakllanishi va pirovardida davlat meyorlariga muvofiq “yagona makon”ni shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Hukumatning strategik yo‘nalishi ko‘chib kelganlarni mahalliy aholi bilan muloqotdan himoya qilishga qaratildi. Hukumatning nazdida buning natijasida dehqonlar mustaqilligi tebranishi, ularda tub aholining yordami va kayfiyatiga qaramligi yuzaga kelishi mumkin edi. Biroq XX asrning boshlariga kelganda vaziyat o‘zgara boshlaydi. Ko‘chib kelgan aholi o‘troqlashgandan keyingi dastlabki yillardayoq ular bilan boshqalar o‘rtasida har ikki tomon uchun ham foydali iqtisodiy va savdo aloqalari o‘rnatila boshlandi. Ayniqsa, ruslar tomonidan mahalliy aholidan yer uchastkalarini ijaraga olish odatiy hodisa edi. Ko‘chib kelgan ruslar mahalliy kambag‘al dehqonlardan ishchilarini yollagan, ba’zan yer egasi va ijarachi birgalikda dehqonchilik qilishgan. Bu esa har ikki aholi o‘rtasida asrlar mobaynida shakllangan an’anaviy qishloq xo‘jaligi ko‘nikmalariga va uning turli xil turlarining afzalliklariga asoslangan mehnat taqsimoti tizimi yuzaga kelishiga xizmat qilgan edi<sup>220</sup>.

Mahalliy musulmon muhiti ularning mentaliteti, odatlari va xulq-atvor meyorlari ko‘chib kelgan aholiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Turkistondagi general-gubernatorlik mulozimlari va bu yerga tashrif buyurgan amaldorlar ushbu vaziyatni tashvishli holat sifatida qabul qila boshlaydilar. Ular tomonidan yozib qoldirilgan

---

<sup>220</sup> Брусина О.И. Восточнославянское население в сельских районах Узбекистана проблемы адаптации и межэтнических взаимодействий // Современное развитие этнических групп в Средней Азии и Казахстана. Ч. II. – Москва, 1992. – С.72.

qaydlar yoki hisobotlarda “Islomni qabul qilish bu ta’sirning haddan tashqari ko‘rinishi bo‘lib, nisbatan kamdan-kam, ammo “zararsiz” emas” deb ta’kidlashgan edilar<sup>221</sup>.

Pravoslavlarning “mahalliy lashtirilishi”ni konfessional mazmuni ularning ijtimoiy munosabatlarning muayyan islomiy normalarini o‘zlashtirishdan iborat bo‘lgan. Xuddi shunday O‘rta Osiyodagi pravoslav xristianlar orasida tez va keng tarzda “qalin” huquqiy normalari tarqaldi. 1887 yilda Rossiyaning “Vostochnoye obozreniye” gazetasi bu hodisaga “O‘rta Osiyodagi ruslar orasida qalin” maxsus maqolasida uning katta “mashhurligi” qayd etilgan va “rus” qalinining o‘rtacha hajmi 100-150 rubl deb ko‘rsatilgan<sup>222</sup>.

1905 yilda “Turkestanskiye vedomosti” gazetasida O‘rta Osiyoning pravoslav aholisi orasida xurofotning o‘sishi qayd qilinadi<sup>223</sup>. Shunday qilib, haqiqiy diniy savodxonlik darajasi va shunga mos ravishda Turkistondagi minglab pravoslav xristianlarning konfessional ongining qat’iyligi juda past edi. Va bu holat pravoslavlikning mintaqaning boshqa e’tiqodli aholisi bilan etnokonfessional munosabatlarida rol o‘ynashi mumkin emas edi.

“1905 yilgi Turkiston o‘lkasini kolonizatsiyasi haqidagi masalaga doir” nomli hujjatda mahalliy va tub bo‘lmagan aholining o‘zaro munosabatlari tahlil qilinadi. Unda ta’kidlanishicha, ..hozirgi davrga kelib o‘lkani harbiy jihatdan egallah ishlari butunlay tugadi. Lekin rus va mahalliy millatlarning yaqinlashuvi kuzatilmasdan, eng avvalo, iqtisodiy nuqtai nazardan hammaning manfaatlariga mos keladigan vazifalar va ularning birgalikdagi yechimi hal qilinmay qolyapti. Eng jiddiy bo‘lgan ishlarga – o‘lkani iqtisodiy, fuqarolik, tinch yo‘l bilan egallahga kirishish kerak. Bunda “qancha rus manzilgohi bo‘lsa shuncha batalyon soldat” shioriga qo‘shilib

---

<sup>221</sup> Литвинов П.П. Государственно-религиозные этноконфессиональные отношения в Туркестане (1865-1917гг.) (по архивным материалам) (Часть 1) Специальность 07.00.03 - всеобщая история (новое и новейшее время) Диссертация на соискание учёной степени доктора исторических наук. – Москва, 1997. – С.202

<sup>222</sup> Литвинов П.П. Государственно-религиозные этноконфессиональные отношения в Туркестане (1865-1917гг.) (по архивным материалам) (Часть 1) Специальность 07.00.03 - всеобщая история (новое и новейшее время) Диссертация на соискание учёной степени доктора исторических наук. – Москва, 1997. – С.204

<sup>223</sup> Литвинов П.П. Государственно-религиозные этноконфессиональные отношения в Туркестане (1865-1917гг.) (по архивным материалам) (Часть 1) Специальность 07.00.03 - всеобщая история (новое и новейшее время) Диссертация на соискание учёной степени доктора исторических наук. – Москва, 1997. – С.205.

bo‘lmaydi. Ta’kidlash kerakki bunday manzilgohlarning shakllanishi mahalliy aholi mulkiy va yer holatiga hech qanday og‘riqli operatsiyalar bilan kechmasligi kerak<sup>224</sup>.

Taniqli jamoat arbobi N.P.Ostroumov Turkiston o‘lkasida ruslarning “mahalliylashuvi” sabablari haqida “Oddiy, mehribon rus odami qanday qilib muhtojlik va ba’zan tushunmovchilik tufayli noma’lum masofaga, minglab chaqirim olislarga, “Rossiya” va rus hokimiysi nomidan boshqa ruscha hech narsa yo‘q bo‘lsa, qanday qilib qirg‘izlashmasin”?.. Shunchalik ko‘maksizlikda rus odami umuman yo‘q bo‘lib ketmayotganiga ham hayron bo‘lish kerak” degan edi<sup>225</sup>.

“Yeparxiya kuzatuvchisi” I.Brizgalov 1908 yilda yozgan ediki, agar qonun pravoslav xristianlarning islomni qabul qilishiga ruxsat bersa, unda “ruhoniylar va mullalar o‘rtasidagi qarama-qarshilik mahalliy chet elliklar orasida emas, balki rus aholisi orasida bo‘ladi”. Ammo islomni ochiq qabul qilish ham Markaziy Osiyodagi “pravoslavlар ishiga” pravoslavlар tomonidan konfessiyaviy mansubligini rasman saqlab qolishi kabi zararli emas, balki ularning dunyoqarashi va turmush tarzining asta-sekin “musulmonlashuvi” bilan bog‘liq edi. Hatto 1890-yillarda pravoslavliking "o‘choqlari" dan juda uzoq bo‘lgan To‘rg‘ay viloyatida ham emas. Ko‘chmanchi ruslar orasida ularning deyarli barchasi o‘z tili va dinini “unutgani”, turmushga chiqmagani, ro‘za tutmagani, farzandlarini musulmon maktablariga o‘qish uchun yuborayotgani qayd etilgan. “Turkiston vedomosti” gazetasi ushbu faktni keltirar ekan, Markaziy Osiyoda ruslarning “musulmonlashuvi” yanada jadal davom etayotganini ta’kidlab, pravoslavliking “najot topish”ga chaqirgan. va “qadriyatlar” bilan tanishish "Islom sivilizatsiyasi ko‘p hollarda pravoslavlilik, uning marosimlari va boshqalar bilan uzilishni anglatmaydi. Bundan tashqari, u har doim ham konfessiyaviy mazmunga ega emas edi; pravoslav xristianlar iqtisodiy faoliyat, sharq me’morchiligi, xalq tabobati va boshqalarda ko‘plab foydali "mahalliy"

---

<sup>224</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат, 5020-иши, 41-варак.

<sup>225</sup> Остроумов Н. П. Исторический очерк взаимных отношений между христианством и мусульманством. – Спб, 1888. - С. 67.

ko‘nikmalarni o‘rgandilar, garchi shu tarzda ba’zida pravoslav diniylikning "parchalanishi" sodir bo‘lgan<sup>226</sup>.

Pravoslav ruhoniylarining qarshiligiga qaramay, Prjevalskiy okrugi boshlig‘i, xususan, 1910 yilda Yettisuv gubernatoriga bergen hisobotida yozganidek, rus "aholi"lari orasida "qalin" odatlari gullab-yashnashda davom etdi."Musulmonlashuv" belgilari, shuningdek, pravoslav xristianlar ko‘pincha "qavm ruhoniylariga" emas, balki mullalarga "davolanish uchun" o‘tib, ularning ustiga Qur’on o‘qishni va undan iqtiboslar yozilgan "shifobaxsh" qog‘ozni berishni so‘rashgan, turkistonlik birinchi “yeparxiya kuzatuvchisi” V. Yakovlevning guvohlik berishicha, XX asr boshlarida bunday “tashriflar” pravoslav xristianlarga 80 tiyingacha baholangan<sup>227</sup>.

XIX asrning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyoni bosib olish davrida yangi shaharlar (Verniy, Krasnovodsk, Kazalinsk, Perovsk va boshqalar) barpo etilganiga qaramay, rus aholisining muhim qismi alohida qismlar tashkil topgan eski shaharlarga joylashdi. Imperianing Yevropa qismidan kelgan muhojirlar uchun Turkiston shaharlarida alohida "yangi qismlar" paydo bo‘ldi. Eng yirik shahar Toshkentda, shuningdek, Samarcand, Ashxobod, Xo‘jand, Qo‘qon, Andijon, Marg‘ilon, Chimkent, Namangan, Chorjo‘y, Jizzax, Kattaqo‘rg‘on, Avliyoota va O‘ratepa kabi shaharlarda ham mavjud edi. Dastlab, "Yangi qism" kazarmali harbiy istehkom bo‘lgan. Biroq vaqt o‘tishi bilan bu yerga zabitlar, amaldorlar va savdogarlarning oilalari ko‘chib keldi; ko‘plab askarlar nafaqaga chiqqandan so‘ng mintaqaga joylashdilar. Ularning etnik tarkibi juda xilma-xil edi. Eng katta guruh, albatta, ruslar bo‘lgan, lekin katta diasporalar sifatida tatarlar, polyaklar, nemislar, yahudiylar va boshqa milliy jamoalar ham mavjud edi. Masalan, 1871 yilda Toshkentning “yangi qismi” aholisi (qo‘shinlarni hisobga olmaganda) 2073 kishi, shu jumladan, ruslar 1289, o‘zbeklar 318, qozoqlar 114, nemislar 110, tatarlar 80,

---

<sup>226</sup> Литвинов П.П. Государственно-религиозные этноконфессиональные отношения в Туркестане (1865-1917гг.) (по архивным материалам) (Часть 1) Специальность 07.00.03 - всеобщая история (новое и новейшее время) Диссертация на соискание учёной степени доктора исторических наук. – Москва, 1997. – С.203

<sup>227</sup> Яковлев В. А. Из церковной жизни Туркестана. Верный, 1902. – С. 91.

yahudiylar 18, polyaklar 9, finlar, 6 nafar shvedlar, shuningdek, bir nechta daniyaliklar, afg'on, boshqird va moldovanlar bor edi<sup>228</sup>.

"Yangi" shaharda yashovchi turli etnik jamoalarga mansub muhojirlar alohida bloklar yoki ko'chalarda ixcham joylashishni afzal ko'rdilar. Xususan, nemis ko'chmanchilari shaharlarning "yangi" qismlarida istiqomat qilishdi, lekin ular biron bir joyda to'planishga harakat qilishdi. Toshkentda nemis harbiy va fuqarolik amaldorlarining ixcham posyolkasi Namangan va Gogol ko'chalari bo'y lab sayr qildi. Qo'qonda ular "nemis" deb ataladigan, "yangi" qismda joylashgan edi. Kundalik hayotda ko'chmanchilar nemis hayotining elementlarini (bezatish, axloqiy ta'limotlar so'zlari yoki kashtado'zlikdagi duolar, divan va karavotlarda ko'p miqdorda kichik yostiqlar, baland patli to'shaklar, uydagi musiqa asboblari) va an'anaviy oshxonani saqlashga harakat qilishdi<sup>229</sup>.

Shunday qilib, ular o'zlarining odatiy turmush tarzi, til va madaniy muhitini saqlab qolishlari mumkin edi. E'tiqod va milliy tafovutlarga qaramay, Rossiyadan kelgan muhojirlarning musulmon O'rta Osiyodagi o'ziga xos holati ularni o'z birligini anglashga majbur qildi. Na rasmiy hujjatlarda, na zamondoshlar xotiralarida etnik ziddiyat haqida ma'lumot yo'q. "Yangi qismlar" aholisining o'ziga xos xususiyati birlik hissi edi, turli etnik guruhlar o'zlarini bir-biridan ajratishga harakat qilmadilar. Slavyan aholisining faol birlashuvi jarayoni sodir bo'ldi; ukrainlar va belaruslar o'zlarining tillari va kundalik madaniyat xususiyatlarini uzoq vaqt saqlab qolishgan bo'lsalar-da, Turkiston sharoitida o'zlarini musulmon aholisi orasida topib, ular birdamlik va umumrus g'oyasiga sodiqlikka moyil edilar. Bu jarayonlar nafaqat slavyan aholisiga xos edi. Masalan, mintaqaga kelgan rus yahudiylari "mahalliy" dindoshlar bilan emas, balki Rossiyadan kelgan muhojirlar bilan muloqot qilishni afzal ko'rdilar<sup>230</sup>. Umuman olganda mazkur jarayonlar aksariyat hollarda Rossiya imperiyasi davrida Turkistonga joylashgan tub bo'limgan xalqlarning

<sup>228</sup> История Ташкента с древнейших времен до победы февральской буржуазно-демократической революции. Ташкент, 1988. – С.144.

<sup>229</sup> Гайсина Л. Р. Этнический состав населения «Новых частей» городов русского Туркестана" Вестник Томского государственного университета, № 354, 2012. – С. 71-73.

<sup>230</sup> Гайсина Л. Р. Этнический состав населения «Новых частей» городов русского Туркестана" Вестник Томского государственного университета, № 354, 2012. – С. 71-73.

aksariyati mahalliy aholi bilan integratsiya jarayonlariga unchalik kirishmaganini ko‘rsatadi. Bunda yevropalik aholi ham mahalliy aholi vakillari ham faol tashabbus ko‘rsatishga harakat qilmaganliklarini ko‘rish mumkin.

Shuni ham ta’kidlash kerakki aksariyat yangi qismlarda shakllangan “rus madaniyati” Turkistonda bo‘lgan Sharqiy muhojirlarga ta’sir ko‘rsatdi. Ularning aksariyati rus va boshqa yevropalik ish beruvchilarda ishlagan, ma’lum malakalarga ega bo‘lgan va Yevropa aholisi bilan aloqalarni saqlab qolgan. Sharqiy muhojirlardan ma’lum bir qismi deyarli rus tilini o‘zlashtirdi. Tatar bolalar, ba’zi eronliklar, qisman Shinjon, bir oz darajada afg‘onlar va boshqa sharqiy muhojirlar nafaqat mahalliy musulmon balki yangi-usul va rus-tuzem maktablarida ta’lim oldilar. Bundan tashqari, u yerda oz sonli yahudiy bolalari tahsil olishgan. Ba’zi sharqiy muhojirlarning bolalari ham rus boshlang‘ich maktablari, gimnaziyalarda va ularga tayyorgarlik sinflarida ta’lim olishgan.

Biroq bularning barchasiga qaramay, Oktabr to‘ntarilishidan oldin sharqiy muhojirlarning ko‘pchilagini (shuningdek, mahalliy aholining) yangi kelgan rus va Yevropaning qolgan aholisi bilan etnik, kundalik va madaniy yaqinlashish jarayoni juda sekin kechdi. Tadqiqotchi B.Alimdjanovning xulosalariga ko‘ra Rossiya Turkistonidagi ijtimoiy dezintegratsiyasining asosiy sabablari quyidagilar edi: 1) hokimiyat mahalliy aholining ichki hayotiga aralashmaslik tamoyiliga amal qildi va boshqa yevropalik yangi kelganlarga bunga ruxsat bermadi; 2) mahalliy aholi yevropaliklarning tili, hayoti va madaniyatini o‘rganishga intilmagan; 3) mintaqaga yangi kelgan yevropalik aholi ham o‘z navbatida mahalliy aholi bilan umumiyligi madaniy til topishga harakat qilmagan. Eng yaxshi variant mahalliy aholini Yevropa madaniyatini shakllantirish va tarqatish orqali yevropalashtirish deb hisoblanganlar. Bu vazifani mahalliy ziyorolar vakillari – jadidlar amalga oshirgan<sup>231</sup>.

A.Matveyevning xulosalariga ko‘ra bunga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farq, kasblardagi tafovutlar, siyosiy, diniy, lingvistik, maishiy, etnik,

---

<sup>231</sup> Алимджанов Б.А. Экономическая политика Российской империи в Туркестанском генерал-губернаторстве (вторая половина XIX-начало XX вв.). диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. - Санкт-Петербург –2016. – С.50.

madaniy va boshqa to‘sinqular to‘sinqinlik qildi. Shu bilan birga, taxminan bir xil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, umumiy kasblar, lingvistik, diniy, milliy, maishiy, madaniy yaqinlik osiyolik muhojirlarning muhim qismini mahalliy aholi bilan yaqinlashishi birmuncha intensivroq kechgan edi<sup>232</sup>.

Xususan, Turkistondagi mahalliy aholi bilan assimlyatsiya va integratsiya jarayonlari Sharqiy Turkistondan ko‘chib kelgan muhojirlar orasida birmuncha iliq kechgan. Ko‘chishlar Sin imperiyasi tomonidan salbiy qabul qilinishiga qaramay Sharqiy Turkiston va uyg‘urlarning asosiy harakatlanish yo‘nalishi bo‘lmish Farg‘ona vodiysi ikki mintaqa o‘rtasidagi aloqlarda uzilib qolmagan. Mazkur aloqalar tarixida vodiyning yirik savdo va madaniy markazlari bo‘lgan Qo‘qon, Andijon, Marg‘ilon, Quva, O‘sh kabi shaharlar muhim rol o‘ynagan. Rossiyaning Qoshg‘ardagi konsuli N.Petrovskiyning hisobotlarida keltirilishicha, Qoshg‘ar va Andijonning muayyan guruh aholisi bu ikki hududda ko‘chib yurish huquqiga ega bo‘lgan. Ilgaridan mustahkam qaror topgan yaqin qo‘shnichilik munosabatlari natijasida ikki hudud o‘rtasida etnosiyosiy va etnodemografik aloqalar shakllangani ham ma’lum. Sharqiy Turkistonda vaziyatning keskinlashishiga sabab bo‘lgan shunday voqealar va hodisalar yuz berdiki, natijada, o‘z yurtini tashlab qochib ketishga majbur bo‘lgan aholi guruhlarining katta to‘lqinlari paydo bo‘ldi. Bu esa, XIX asr o‘rtalaridan XX asr 60 yillariga qadar bo‘lgan tarixiy davrni qamrab oldi<sup>233</sup>.

Darhaqiqat, yevropalik aholidan ko‘ra boshqa xalqlarda moslashuvchanlik osonroq kechganini ko‘rish mumkin. Xususan, Farg‘ona viloyatiga ko‘chib kelgan uyg‘urlar bilan mahalliy aholi o‘rtasida faol assimlyatsiya jarayonlari bo‘lib turgan. Bu avvalo, hududlarga yoyilgan holda joylashgan uyg‘urlarda kuzatilgan. Ba’zida hattoki uyg‘urlar zich bo‘lib joylashgan hududlarda ularning soni keskin tushib ketib, keyinchalik mahalliy o‘zbek aholisiga to‘liq singib ketgan holatlar ham uchrab turgan. Xususan, noma’lum muallif XIX asrda “Shahrixon shahri va uning

<sup>232</sup> Матвеев А. М. Зарубежные выходцы в Туркестане на путях в Великому Октябрю. – Ташкент: Фан, 1977. – 116 с.

<sup>233</sup> Валихонова, Г. 2021. Влияние политической ситуации в Восточном Туркестане на этнокультурные отношения народов региона. *Общество и инновации*. 2, 10/S (дек. 2021), 311–316. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss10/S-pp311-316>.

atroflarida Umarxon tomonidan asos solinishidan birmuncha vaqt oldin faqat uyg‘urlar yashaganligi, ularning soni bitta joyda 20 000 oilani tashkil etadi”, deb yozgan.

XIX asrning o‘rtalarida CH.Valixonov Shahrixonda aholining faqatgina yarmidan ko‘prog‘ini qashqarliklar tashkil qiladi, deb qayd etadi. Ma’muriy ma’lumotlarga ko‘ra qishloqdagi (bitta qishloqning o‘zida) umumiyligi 2273 kishidan bor-yo‘g‘i 304 kishini qashqarliklar tashkil qilgan. V.A.Parfentevning ma’lumotlariga ko‘ra Vodil qishlog‘ining bir qismini XIX asr o‘rtalarida Qoshg‘ardan qochib kelgan uyg‘urlar tashkil qilgan. XX asrning o‘rtalarida o‘zlarini “xina” urug‘iga mansub o‘zbeklar deb hisoblaganlar. XX asrning o‘rtalari va uchinchi choragiga kelib Farg‘ona oblastidagi avvalgi uyg‘urlar joylashgan ko‘plab hududlar haqida faqatgina toponimik ma’lumotlar guvohlik beradi, xolos<sup>234</sup>. Shubhasiz, uyg‘urlarning o‘zbeklar bilan yaqinlashish jarayonini bu xalqlarning kelib chiqishi, til, madaniyat jihatdan yaqinligi, yagona dinga e’tiqod qilishlari yanada osonlashtirgan.

Turkiston general-gubernatorligi muhoniirlarga 12 ming rubl miqdorda yordam ko‘rsatishni maqbul deb hisoblaydi. Oxir oqibat uyg‘urlar Farg‘ona vodiysining O‘sh shahri, Qorasuv volosti, Ko‘gart va O‘zgan vodiylari atroflarida yashash uchun qoldilar, qolgan qismi esa boshqa uezdlarga ko‘chib ketdilar. Shunisi e’tiborliki viloyatga kelgan 1459 nafar qoshg‘arliklardan har ikkala jinsga mansub 959 nafarining barchasi qarindoshlarining uylaridan boshpana topadi. Boisi o‘sha aholining 1/3 qismi sartlardan iborat bo‘lib, Qoshg‘ardan kelganlar ham ko‘pchilikni tashkil qilgan<sup>235</sup>.

Farg‘ona viloyatiga kelib o‘rnashgan qoshg‘arlik emigrantlar vatanida qolgan qarindoshlari va yaqinlari bilan aloqalarni yo‘qotmaganlar. Birinchi ko‘chib o‘tishlardan so‘ng Sin hukumati chegaralarni juda qattiq qo‘riqlashni boshlaydi, hattoki, ba’zi qochoqlarni qaytarib berilishiga ham erishadilar. Ayniqsa,

---

<sup>234</sup> Губаева С. Ферганская долина Этнические процессы на рубеже XIX-XX вв. – Saarbruken: LAP LAMBERT Academic Publishing GmbH & Co.KG,2012. – С.194.

<sup>235</sup> ЎзМА. И-276-фонд. 2-рўйхат, 1-иш, 76-варак.

qirg‘izlarning ko‘pchiligin shunday “jinoyatchi” deb hisoblaganlar. Biroq rus hukumati bunday deb o‘ylamagan va ularni berishni rad qilgan.

Ko‘chib kelganlar dastlabki davrlarda og‘ir moddiy va maishiy sharoitga tushib qolganlar, zaruriy moliyaviy va tibbiy yordam ko‘rsatilgan. Zarur mablag‘larga ega bo‘lmaganlarga pul yoki turli moddiy yordam shaklida ko‘maklashishga harakat qilganlar. Ba’zi joylarda ma’muriyat kerakli yerkarni ajratib bera olmaganlar (O‘sh shahri) va ko‘chib keluvchilar Farg‘ona viloyatining turli shaharlari va qishloqlari bo‘ylab kosib, batrak, hunarmand va boshqalar sifatida ish qidirib yoyilib ketganlar. Ko‘chib kelganlarga moddiy yordam ko‘rsatish uchun Farg‘ona viloyati daromadlari hisobidan ming rubl va uy qurish uchun o‘rmonlar ajratilgan<sup>236</sup>. Mahalliy aholi ham ko‘chib keluvchilarga moddiy yordam ko‘rsatishda faol bo‘lganlar, ularni moslashish jarayonlari yengilroq o‘tishlariga xizmat qilgan.

O‘rta Osiyo hududlari Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan so‘ng, ko‘chib o‘tayotganlarni yangi yerlar ochish, o‘zlashtirish maqsadida cho‘l hududlarga joylashtirgan. Uyg‘urlarning ko‘chib o‘tishidan manfaatdor bo‘lgan Rossiya hukumati platsdarm sifatida ularni chekka-ya’ni Xitoy bilan yaqin bo‘lgan chegara hududlarga joylashtirishga zo‘r berib uringan. Ularni o‘n yillar davomida soliq to‘lovlardan ozod qildi. Xo‘jaligini tiklab olishlari uchun 5-7, hatto 10 desyatinadan yer ham ajratgan. Turkiston general-gubernatorligi Yettisuv hududlariga ko‘chib o‘tgan uyg‘ur muhojirlariga 12 ming rubl yordam ko‘rsatgan.<sup>237</sup>

Lekin Farg‘ona viloyatiga ko‘chib o‘tganlarning birortasini ortga qaytib ketganligi yoki boshqa joyga ko‘chgani haqidagi ma’lumotlar manbalarda qayd qilinmagan. Ko‘chib o‘tganlar iqtisodiy jihatdan ancha og‘ir ahvolda yashagan. Ba’zi vaqtarda mahalliy hukumat ham ularni yer bilan ta’minlay olmagan. O‘sh viloyati hududiga ko‘chib o‘tganlarning (dehqonlarni) ko‘pchiligin hukumat yer bilan ta’minlay olmaganligi sababli Farg‘ona viloyatining boshqa hududlariga mardikorlik, duradgorlik va yollanma ishchi bo‘lib keta boshlagan. O‘sh uezdi

<sup>236</sup> Мамедова Э. Из истории взаимоотношений народов Туркестанского края и Синьцзяна (со второй половины XIX века – до 1917 г.): Дисс. ... канд. истор. наук. – Ташкент, 1963. – С.130.

<sup>237</sup> Валихонова Г.К. Фарғона водийси уйғурларида анъанавий ва замонавий этномаданий жараёнлар. Т.ф.б. фалсафа доктори (PhD) дисс. Автореф. – Тошкент, 2018. – Б.16.

hududida yuzaga kelayotgan ahvoldan tashvishlangan Turkiston general-gubernatorligi Farg‘ona viloyati bo‘yicha uyg‘ur qochoqlari uchun ellik ming rubl yordam puli ajratgan<sup>238</sup>.

Ta’kidlash lozimki, vodiy tomonlarga ko‘chib o‘tayotgan uyg‘urlar iloji boricha bir-biri bilan zich joylashishga harakat qilgan. Ularning ko‘pchiligi Oqbo‘ra daryosi vohasining yuqori qismlarida, Qurshob va Ko‘gart vodiysida, O‘zgan, Jalolobod va Suzoq tumanlari atroflariga o‘rnashib, o‘z qishloqlarini tashkil qilgan<sup>239</sup>. Yangi joylashgan hududlarini esa ilgari Sharqiy Turkistonda o‘zlari yashagan qishloq va mahallalar nomi bilan atagan<sup>240</sup>.

Ko‘chib o‘tayotgan uyg‘ur muhojirlari har doim ham tabiiy jihatdan qulay hududlarga joylashmagan. Bir guruh muhojirlar, odatda hunarmand, pazanda va savdogarlar shahar, shahar atroflariga joylashgan. Yangi yerlarni o‘zlashtirib, barpo etilayotgan qishloqlarga esa ko‘pincha chorvador va dehqonlar joylashgan.

Farg‘ona viloyatining Andijon, Namangan, Farg‘ona, O‘sh, Jalolobod uezdlari uyg‘ur etnik guruhi vakillari zich joylashgan hududlar hisoblanadi. Xususan, Andijon oblastining Andijon, Asaka, Shahrixon, Paxtaobod, Qo‘rg‘ontepa, Jalalquduq, Oltinko‘l tumanlarida uyg‘urlar tomonidan XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab barpo etilgan qishloq va mahallalar mavjud<sup>241</sup>. Natijada vodiyda Qashqarqishloq, Qashqarto‘pi, Qashqariy, Qashqarcha, Uyg‘urqishloq, Uyg‘urobod, Tog‘lik, Paynob, Qovul, To‘ko‘, Pushmon, Ozoq, Ortish, To‘qqizoq, Janjal kabi o‘nlab uyg‘ur qishloqlari uchraydi<sup>242</sup>.

Ko‘chib kelgan uyg‘urlar yuzaga kelgan qiyinchiliklar sharoitida mahalliy aholi bilan yaqin munosabatlarga kirishganlar. Xususan, rus posyolkalaridagi aholi bilan bilan yaqinlashish natijasida temir plug, borona va boshqa takomillashgan

<sup>238</sup> Хайназаров Б. Фарғона водийсига уйғурларнинг кўчиб келишлари тарихидан // Водийнома. 1/2016. – Б.46.

<sup>239</sup> Жалилов С. Фарғона водийси шарқий туманларининг сугорилиш тарихидан. Т.ф.н. илмий даражаси учун ёзилган диссерт. Т.1965. б-51.

<sup>240</sup> Губаева С.С. Этнический состав населения Ферганы в конце XIX – начале XX в. (по данным топонимии) Т.1983,с.86.

<sup>241</sup> Инагамов Ш.Ш. Этнический состав населения и этнографическая карта Ферганской долины в границах Узбекской ССР. Дисс. на соиск. канд.ист.наук.Т.,1955.С.84.

<sup>242</sup> Валихонова Г.К. Фарғона водийси уйғурларида анъанавий ва замонавий этномаданий жараёнлар. Т.ф.б. фалсафа доктори (PhD) дисс. Автореф. – Тошкент, 2018. – Б. 17.

qishloq xo‘jalik qurollari bilan tanishdilar va ulardan foydalana boshlaydilar. Bu esa qishloq xo‘jaligida ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmining ortishiga sabab bo‘ldi. Temirchi, zargar va duradgorlar ham fabrikalarda ishlab chiqarilgan vositalardan foydalana boshlaganlar<sup>243</sup>.

Mintaqaning boshqa xalqlari bilan kundalik aloqalarning rivojlanishi va chuqurlashishi an’anaviy madaniyat sohalarida etnik tafovutlarning o‘zaro ta’siri va yumshatilishiga olib keldi. Eng muhim, integratsiya tendensiyasini dunganlarning turar joyi va kiyimida kuzatish mumkin. Alohida panjara elementlari saqlanib qolgan. Turar-joyda bu kan - xonalardan birida mo‘ri bilan isitiladigan issiq joy, oshxona uchun alohida xona, uylangan o‘g‘illar uchun hovliga alohida chiqish joylari va boshqalarda ko‘rish mumkin.

Dungan oilaviy munosabatlari qat’iy tartibga solinadigan munosabatlar, qarindoshlik darajasi bilan belgilanadigan o‘zaro majburiyatlar bilan mustahkamlangan yaqin aloqalar bilan tavsiflanadi. Dunganlar oilasi etnik-madaniy qadriyatlarni yetkazishda, asrlar davomida to‘plangan an’anaviy bilim va ko‘nikmalarni yangi avlodlarga yetkazishda hamon asosiy rol o‘ynaydi. Dunganlarning ko‘pchiligi o‘z ona tilida gaplashadi. Shu bilan birga, Farg‘ona vodiysi va Toshkentning eski shahar qismida yashovchi aholining bir qismi o‘zbek tiliga o‘tgan<sup>244</sup>. Ular oziq-ovqatdan tashqari boshqa sohalarda an’anaviy madaniyatdan uzoqlashgan. Etnik xususiyatlarning yo‘qolishi ularning etnik o‘ziga xosligida namoyon bo‘ldi. Natijada ularning aksariyati, ko‘pincha Farg‘ona vodiysida yashaydiganlar, hozir o‘zlarini o‘zbeklar deb bilishadi. Aksariyat dunganlar - ona tillaridan tashqari, o‘zbek, rus, ba’zi hollarda qozoq, koreys kabi bir nechta tillarni bilishlari bilan ajralib turadi. Umuman olganda Markaziy Osiyo hududlariga ko‘chib o‘tgan dunganlar mahalliy xalqlar madaniyatini yanada

---

<sup>243</sup> Мамедова Э. Из истории взаимоотношений народов Туркестанского края и Синьцзяна (со второй половины XIX века – до 1917 г.): Дисс. ... канд. истор. наук. – Ташкент, 1963. – С.135.

<sup>244</sup> Маджун Мусарова, Д.С., Исламское образование у дунган Киргизстана и Казахстана: прошлое и настоящее / Д. – С. Маджун Мусарова // Ислам в современном мире: внутригосударственный и международно-политический аспекты. — 2017. Т. 13. – № 1. – С. 39-56..

boyitilishiga hissa qo'shish bilan birga o'zлari ham ko'plab madaniy yutuqlarni o'zlashtirganlar.

Bu kabi mahalliy aholi bilan yaqin etnik munosabatlarga kirishgan xalqlar qatoriga tatarlarni ham kiritish mumkin. Ular bilan til va dindagi umumiylilik, madaniyatlardagi umumiy jihatlar yaqin etnomadaniy munosabatlarga kirishishlarida muhim rol o'ynagan. 2021 yilda "Tatarskoye naseleniye Tashkenta v konse XIX – nachale XX veka. Po materialam metricheskix knig"<sup>245</sup> nomli to'plam nashr qilingan. Ushbu to'plamda Toshkentdag'i Tatar jome' masjidining 1887–1910 yillardagi metrik kitoblari e'lon qilingan. Unga ko'ra yiliga kamida 20 ta musulmon nikoh o'qilgan. Unda yana bir e'tiborli jihat qalin odatlarining ham kirib borganligi qayd qilinadi. Kalin (mahr)ning hajmi va mazmuni to'g'risidagi metrik daftarlarda qayd etilgan ma'lumotlarga asoslanib, Toshkent tatarlari uni pul bilan to'lashni afzal ko'rganligini aniqlash mumkin<sup>246</sup>. Shu bilan birga ushbu nikohlar mahalliy aholi vakillari bilan ham tuzilganini ko'plab uchratish mumkin. Umuman olganda, XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkistonda istiqomat qiluvchi tatar aholi O'rta Osiyoning yirik shahri sharoitiga ancha muvaffaqiyatli moslashgan hamda shahar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotining deyarli barcha jabhalarida faol ishtirok etgan. Umuman olganda Turkiston general-gubernatorligi davrida yashagan tub bo'limgan aholining moslashuvi turlicha bo'ldi. Rossiya imperiyasi hududlaridan kelgan yevropalik aholining bu yerga moslashuvi qiyin kechgan. Bunda tabiiy sharoitlar, til, din, madaniyat va urf-odatlardagi farqlar katta rol o'ynagan. Ayrim xristian sektalari bundan mustano bo'lgan. Ularning turli qiyinchiliklarga sabr-bardoshligi, axloqiy prinsiplarga sodiqligi tufayli mahalliy aholida ham ijobjiy taassurot qoldirganlar. Aksincha sharqiy turkistonlik muhujirlar, tatarlar va Osiyo hududlaridan kelgan eroniy (ozarbayjon), afg'onlarda esa burmuncha oson kechgan. Shu boisdan ularda adaptatsiya birmuncha oson kechib mahalliy aholi bilan integratsiya jarayonlari ko'proq kirishgan.

---

<sup>245</sup> Татарское население Ташкента в конце XIX – начале XX века. По материалам метрических книг"/ Сост.: Л.Ш. Гарипова, Ф.Г. Файзуллина, Э.Х. Кадирова, В.М. Усманов. – Казань: ИЯЛИ, 2021. – 244 с.

<sup>246</sup>

## **II bob bo‘yicha xulosalar**

Turkiston general-gubernatorligi hududiga Rossiyaning yevropa hududidan rus pravoslavlarini ko‘chirish orqali ularning jamiyatdagi ustunligini yaratish ko‘zlangan. Shu boisdan Rossiyaning yevropa qismi va boshqa Rossiya hududlarida yashagan etnik guruhlarning ko‘chib kelishlari ma’qullangan. Shu bilan birga qo‘shni hududlarda sodir bo‘lgan siyosiy beqarorliklar, iqtisodiy qiyin sharoit uyg‘ur, dungan, afg‘on, va boshqa sharqlik etnik guruhlarni Turkiston hududiga ko‘chib o‘tishga undagan. Ularning o‘lkaga ko‘chib kelishlari mustamlaka hukumati kutgan darajada mahalliy aholi ustidan total ustunlikni yaratish rejalarini amalga oshirmagan.

Turkiston general-gubernatorligi davrida yashagan tub bo‘lмаган ахолининг moslashuvi turlicha bo‘ldi. Rossiya imperiyasi hududlaridan kelgan yevropalik ахолининг bu yerga moslashuvi qiyin kechgan. Bunda tabiiy sharoitlar, til, din, madaniyat va urf-odatlardagi farqlar katta rol o‘ynagan. Rossiya imperiyasining hukmron doiralari va o‘lkadagi oliy amaldorlarning tub bo‘lмаган ахолини mahalliy xalqlarga qarshi qo‘yish, uning tiyib turishga yo‘naltirishga uringan. Ayniqsa, “Bir manzilgoh (poseleniye) – bir batalyon” shiori ostida ularni alohida tutib turishga intilishi vaziyatni yanada murakkablashtirgan. Bu esa ularning ayrim vakillarini ba’zi hollarda o‘z yurtlariga qaytib ketishlariga ham sabab bo‘lgan.

Ayrim xristian sektalari bundan mustano bo‘lgan. Ularning turli qiyinchiliklarga sabr-bardoshligi, axloqiy prinsiplarga sodiqligi tufayli mahalliy aholida ham ijobiy taassurot qoldirganlar. Ayrim hollarda ruslar va turli pravoslav sektantlari bilan iliq o‘zaro aloqalar kuzatilgan. Shu bilan birga sharqiy turkistonlik muhojirlar, tatarlar va Osiyo hududlaridan kelgan eroni (ozarbayjon), afg‘onlarda ham adaptatsiya jarayonlari birmuncha oson kechgan. Shu boisdan ular bilan mahalliy aholi o‘rtasida integratsiya jarayonlari ko‘proq kuzatilgan.

### **III BOB TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGIDAGI XALQLAR**

#### **IQTISODIY HAYOTIDAGI O'ZGARISHLAR**

##### **3.1 Turkistonda agrar masalalarining keskinlashuvi va uning mintaqasi xalqlari hayotiga ta'siri**

1867 yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgach, uning tarkibidagi Yettisuv va Sirdaryo viloyatlariga rus aholisining bir qismini ko'chirish siyosatiga yondashuv bo'yicha o'z mulohazalarini general - gubernator K.P.Kaufman va Yettisuv viloyatining harbiy gubernatori, general Kolpakovskiy birinchi bo'lib bayon etishgan. Ularning takliflari o'sha vaqtda qabul qilinmadi, lekin Yettisuv, Sirdaryo keyinchalik Farg'ona, Kaspiyorti va Samarqand viloyatlarida 1881-yilgacha ham metropoliyadan asosan dehqon aholisini ko'chirib keltirishga moyillik kuchliroq bo'lgan. Biroq, rus dehqonlari Turkistonda asosan g'alla yetishtirishga intilgani sababli ular paxtachilik rivojlangan hududlarga, masalan, Farg'ona viloyatiga, nisbatan kamroq keltirilgan.

Chunonchi, general K.P.Kaufman hukumat hamda o'z qaramog'ida bo'lgan o'lka ma'muriy organlariga o'zining xo'jalik jihatidan mustahkam Rossiyalik dehqonlarni, ko'proq pravoslav ruslarni ko'chirib keltirishga yo'l berishi borasidagi niyatini darhol bildirdi. U, shuningdek, kazaklarni Yettisuv viloyati, keyinroq esa Kaspiyorti viloyatiga ham, faqat qisman, cheklangan ko'lamda ko'chirish mumkin, deb hisoblagandi. General-gubernatorning 1860-yillar oxiri - 1870-yillar boshidagi pozitsiyasi yangi hududlarga ko'chishga ko'proq isloh qilingan Rossiya qishloqlarida arzon ish kuchini tashkil qiluvchi hamda rivojlanayotgan sanoat ishchilari safini to'ldirayotgan yersiz, qashshoq dehqonlar moyilligini bilgan va shuning uchun ularning ko'chishiga to'sqinlik qilishga harakat qilgan hukumatning pozitsiyasiga ko'p jihatdan yaqin edi.

O'sha paytdagi imperiya vaziri P.A.Valuev shu munosabat bilan ko'chirish ishiga juda ehtiyyotkorlik bilan yondashish zarurligi, "hukumat qishloq aholisining yer bilan bir bor ta'minlagach, bunday ishni davom ettirish hamda qimmatli davlat

yerlarini muvaqqat va tasodifiy ehtiyojlarini qondirish uchun beraverishga o‘zini majbur deb hisoblamasligi”ni ta’kidlagandi.<sup>247</sup>

Afsuski, o‘zboshimchalik bilan ko‘chib kelganlarning asosiy qismi aynan xonavayron bo‘lgan, qashshoqlashgan dehqonlardan iborat edi. Boz ustiga Rossiya hukumati 1861-yilgi islohotni oxiriga yetkaza olishi mushkul bo‘lib, sanoat esa yangi ish joylari yetarli miqdorda vujudga keladigan darajada ko‘p tarmoqli va rivojlangan emasdi. Natijada yuz minglab dehqonlar o‘zлари rasman jo‘natilgan Primore va janubiy Ussuriya o‘lkasiga emas, balki ortiqcha xarajatlarsiz joylashib olish mumkin, deb o‘ylagan Turkiston o‘lkasiga - jumladan, Kaspiyorti viloyatiga ham qarab intildilar. Hosilsizlikdan ko‘p azob chekayotgan Astraxan, Voronej, Orenburg, Samara va Xarkov guberniyalaridan Farg‘ona viloyatiga ko‘plab kambag‘al krestyanlar kela boshlagan. Turkiston ma’muriyatining o‘zboshimchalik bilan ko‘chib kelganlarni dastlab belgilangan joylarga jo‘natib yuborish borasidagi harakati ko‘pincha samara bermasdi. Natijada ancha murakkab vaziyat yuzaga keldi, chunki aholisi zinch joylashgan va asosan dehqonlardan iborat bo‘lgan Turkiston, xususan, Farg‘ona viloyatida mustamlakachi idoralar va ko‘chib kelgan rus dehqonlari yerlarni o‘zlashtirish bilan shug‘ullanmas, shu sababli, hatto tub aholi, shu jumladan, ko‘chmanchi aholidan ham yerlar ayovsiz tortib olingan holda ham tashkiliy ravishda ko‘chirib keltirayotgan ruslarga bo‘lib berish uchun yetarlicha yer zaxirasi mavjud emasdi. Natijada ruxsatsiz ko‘chib kelganlar tub dehqonlarning yerlarini zo‘rlik bilan tortib olgan.

Turkistonning eng katta paxtachilik mintaqasi Farg‘ona viloyatida rus dehqonlari joylashtirila boshlangach, ko‘chirib keltirilgan ruslarning sug‘orma yerlarga bo‘lgan talablari sezilarli darajada kuchaydi. Chunonchi, Farg‘ona viloyat va uezd ma’muriyatları dastlab sug‘orma yerlarni tub aholidan tortib olish va ularni ko‘chirib keltirilganlarga berish maqsadga muvofiq emas, deb hisoblashgan. Chunki rus krestyanlari bu yerlarga paxta ekishdan voz kechib, bug‘doy ekayotganliklariga bir necha bor e’tibor qaratganlar. Buning sabablari qatorida, jumladan, rus

---

<sup>247</sup> Гинзбург А.И. Русский население в Туркестане.-М.,1991. -С.20.

krestyanlari paxtachilik bilan shug‘ullanishni uddalay olmayotganliklari ko‘rsatilgan, buning oqibatida, masalan, 1888 yilda paxta ekishga ajratilgan bir desyatina yerga ishlov berishning qiymati rus dehqonlarida 85 rubldan 100 rublgacha, mahalliy dehqonlarda esa 35 rubldan 40 rublgacha bo‘lgan<sup>248</sup>. Bu jihatdan yerni paxtakor dehqonlarga ijaraga bergan ruslarning ahvoli ancha yaxshi bo‘lgan.

Bundan tashqari ko‘chirib keltirilgan rus dehqonlarining mahalliy dehqonlardan tortib olingan unumdon yerbosqicha oshkora, xo‘jasizlarcha munosabati hollari ko‘plab uchragan. Masalan, imperiya Dehqonchilik va davlat mulki vazirligi qo‘mitasi a’zosi A.A Kaufman “Farg‘ona va Sirdaryo viloyatlarida krestyanlar o‘zlarining qimmatli sug‘orma yerlarida, dalani o‘g‘itlamay, o‘sha-o‘sha donli ekinlar, asosan bug‘doy ekishmoqda... Ular o‘zlari uchun ajratib berilgan bo‘lak chegarasida ekin maydonini kengaytirmsandan, avvallari tub yerli dehqonlar ekin ekib kelgan ko‘plab bunday yerbosqicha ham qarovsiz qoldirishdi”<sup>249</sup> deb e’tirof etishga majbur bo‘lgan. Boshqacha aytganda, imperiya va mustamlakachi hukmdorlar, amaldorlarning ko‘chirib keltirilgan ruslarni Rossiyaga tashib ketiladigan paxta yetishtirish bilan faolroq band etish ularning viloyatdagi mustamlakachi kuch sifatidagi rolini namoyish etishiga ishonchlari komil edi.

Hukumat ko‘chiruvchilik amaliyotini davom ettirish zarurligini tan olib, Farg‘ona viloyatida paxta yetishtirish uchun suv bilan ta’minlangan yerbosqicha mahalliy dehqonlarni o‘zida qoldirishni maqsadga muvofiq deb hisobladilar. Farg‘ona viloyatiga ko‘chib kelganlar 4-5 desyatinadan yerga ega edi<sup>250</sup>. Turkiston general-gubernatorining 1897 yil 28 oktabridagi V.N.Kokovsevga yozgan xatida Turkiston o‘lkasiga ruslarni ko‘chirish davlat ahamiyatiga ega ekanligi, bu Rossiyadagi agrar masalani hal qilish va Turkistondagi rus hokimiyatini ham mustahkamlashda yordam berishi ta’kidlanadi<sup>251</sup>. Lekin ko‘chirish Sirdaryo, Farg‘ona va Samarqand viloyatlarida katta qiyinchiliklar bilan kechganligi, mahalliy

<sup>248</sup> ЎзМА. И-269-фонд, 1-рўйхат, 12-иш, 170 варак.

<sup>249</sup> Кауфман А.А. Переселение. Мечты и действительность. – Москва, 1910. – С.32.

<sup>250</sup> Туркестанское сельское хозяйство- Тошкент,1908, №1.-С.7-8.

<sup>251</sup> ЎзМАИ-7-фонд, 1-рўйхат, 687-иш, 50- вараклар

aholiga tegishli bo‘lgan yer maydonlarini ularning roziligesiz tortib olib bo‘lmasligi iddao qilingan. Darhaqiqat, ularni berish uchun bo‘sh yer fondlari ayniqsa, Toshkent atrofida yo‘q bo‘lgan. Shuning uchun mahalliy aholidan yerlarni sotib olish imkoniyati ham ko‘rib chiqilgan. Lekin “bunga ko‘chirilish tashkilotlarida yetarlicha mablag‘lar yo‘q. So‘nggi yillarda dehqonlarni banklarga tortilishi tufayli yerlarning narxi oshib boryapti. Ular kapitalist va mahalliy yahudiylarning qo‘liga o‘tib ketyapti<sup>252</sup> degan fikrlar bildirilgan.

1898 yilgi Andijon qo‘zg‘oloni bostirilganidan keyin vayron qilingan rus qishloqlari - Mingtepa, Tojik, Qashqar o‘rnida barpo etilgan rus qishlog‘i krestyanlari bundan mustasno edi. Bu yerga ko‘chirib keltirilgan 200 ta oilaga tub aholidan musodara etilgan 3 ming desyatinaga yaqin yer berilgan edi<sup>253</sup>.

Boshqa viloyatlar, xususan, Kaspiyorti viloyati ma’muriyati ko‘chirib keltirilgan ruslarning imtiyozli joylashtirilishiga jiddiy e’tibor berib, harbiy gubernatorlar uezd boshliqlaridan ko‘chib kelganlarga beriladigan sug‘orma yerlardan donli yoki sabzavot ekinlari emas, balki paxta yetishtirishda ko‘proq foydalanishni talab qilgan.

Farg‘ona, Samarqand viloyatlari hamda Sirdaryo viloyatining paxtakor hisoblangan Toshkent, Chimkent uezdlarida ko‘chirib keltirilgan ruslarga berilgan yer bo‘laklari maydoni kamayishi munosabati bilan, doimo buyukdavlatchilik - shovinistik ruhda ish olib borgan Turkiston ma’muriyati bu yerlarda rus krestyanlarini tub qishloq aholisi hisobiga qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rdi. Bunda mahalliy dehqonlarga hamda ko‘chmanchi aholiga solingan umumiy soliqlar emas, balki paxtakor hududlarda sug‘orma dehqonchilik sirini bilmaydigan rus krestyanlariga moddiy yordam ko‘rsatish, ularning turmush darajasini oshirish uchun belgilangan qo‘srimcha soliqlar nazarda tutilgan. Mustamlakachi amaldorlar, haqiqatga zid o‘larok, “turush farovonligi tobora oshib borayotgan tub aholi bilan ruslarning ahvoli o‘rtasidagi farq katta”<sup>254</sup> deb va buni dehqonlar shug‘ullanayotgan

<sup>252</sup> ЎзМАИ-7-фонд, 1-рўйхат, 687-иш, 50-51 вараклар

<sup>253</sup> ЎзМА.Ф.И-1-фонд, 12-рўйхат, 164-иш, 6- варак.

<sup>254</sup> ЎзМА.Ф.И-1-фонд, 12-рўйхат, 164-иш, 9-варак.

paxtachilikni g‘allachilikka nisbatan serdaromadroqligi bilan izohlashdi. Shuning uchun 1899 yilda Farg‘ona viloyatida harbiy gubernator tashabbusi bilan paxta yetishtirishda shug‘ullanayotgan barcha tub dehqonlar yangi moliyaviy iskanjaga olindi. Endi ular “paxta solig‘i” deb atalgan qo‘shimcha soliqni pul bilan to‘laydigan bo‘lishdi. Paxtachilik bilan shug‘ullanuvchi rus krestyanlariga bunday qo‘shimcha soliq solinmadi. Arxiv hujjatlarida keltirilishicha “Farg‘ona viloyatida paxta ishi shu qadar rivojlanib, oyoqqa turib oldi va aholiga shuncha foyda keltirmoqdaki, oz miqdordagi qo‘shimcha soliq unga malol kelmaydi,”<sup>255</sup>- deb ko‘rsatilgan.

Ayni mahalda mustamlakachi ma‘muriyat ko‘chirilib keltirilgan rus dehqonlarini paxta ekish bilan shug‘ullanadigan qo‘shni tub dehqonlar hisobiga moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uzoq davom eta olmasligini tushunib, ma‘muriy choralarни ham qo‘llay boshladi. Chunonchi, 1902 yilda Turkiston general - gubernatori o‘z farmoyishi bilan ko‘chirib keltirilgan ruslarga Marg‘ilon, Samarqand, Xo‘jand, Ashxabod va Toshkent uezdalarida qo‘shimcha paxta ekish uchun zarur bo‘lgan yerlarni ajratish majburiyatini yukladi. Keyinchalik ko‘chirib keltirilganlarning paxta yetishtirish bo‘yicha majburiyatları tobora oshirib borildi, biroq ular mutazam ravishda bajarilmadi... Mustamlaka ma‘muriyati, XX asr boshiga kelib ko‘chib kelgan ruslar paxta maydonlarini, shu jumladan, Farg‘ona viloyatida ham kengaytira boshlagani aniq ko‘zga tashlanib qolgan bo‘lsa-da baribir qanoatlanmadı.<sup>256</sup> Shuning uchun viloyatlar va uezdlar boshliqlari ko‘chirib keltirilgan ruslarni barcha alomatlar bo‘yicha paxtachilikka mos bo‘lgan yerlarga joylashtirmaslik uchun imkoniyatdan foydalanishdi. Masalan, Andijon uezdi boshlig‘i Farg‘ona viloyati harbiy gubernatoriga “Uchqo‘rg‘on dashtida ,... qisman tub aholi tomonidan band qilingan 18 000 desyatina yer mavjud... 1895 yildan 1898 yilgacha bu dashtda sog‘ tuproqli vodiyni sug‘orish uchun dehqonchilik vazirligi ish olib bordi; 40 000 so‘mdan ziyod mablag‘ sarflangan edi, so‘ng 1898 yil may oyida ishlar to‘xtatildi . Ayni mahalda bu yerlar paxtaga moslangan bo‘lib, yiliga uch million rublik, kamida bir million pud paxta berishi mumkin, o‘ndan bir qismi

<sup>255</sup> ЎзМА.Ф.И-1-фонд, 12-рўйхат,164-иш, 9-варак.

<sup>256</sup> ЎзМА. И-16-фонд, 1-рўйхат, 344-иш, 9-11 вараклар.

miqdorida davlat solig‘i 3 000 000 rublni tashkil qiladi”.<sup>257</sup> - deb yozgandi. Uezd boshlig‘i rus krestyanlarini asosan g‘alla, kartoshka, karam va hakozolarni ekish uchun foydalanishi mumkin bo‘lgan bu yerlarga joylashtirishga qarshi o‘z fikrini shu tariqa asoslagandi.

Qo‘shin ortidan bu yerga kelgan rossiyalik savdogarlar, tadbirkorlar viloyatda paxtaga mablag‘ sarflash foydalilagini darhol tushunib qolishdi. Kaspiyorti viloyatiga kelgan rossiyalik savdogarlar va tadbirkorlar ham paxta, pillani qayta ishslash va ulgurji sotish, shuningdek, to‘qimachilik sanoati bilan ham qisman bo‘lsada shug‘ullanishgan. Ular o‘lkada, jumladan, Kaspiyorti viloyatida qanchalik mustamlakachilarcha ish olib borganliklari to‘g‘risida sibirlik savdogarlardan birining sobiq xodimi- N.Ivanovning faoliyati guvohlik berardi. U Kazalinskda 1865 yil, yonida 3-4 ming so‘m bilan paydo bo‘lgandi. Ishni rus qo‘shinlari garnizoni uchun oziq-ovqat, yem-xashakni chayqov bahosida yetkazib berishdan hamda aroq, vino sotishdan boshlab, 8-yil ichida 100 ming so‘m kapital egasiga aylandi. 1879 yildan boshlab u paxtani ulgurji sotib olish, tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishni to‘la ravishda monopoliyaga aylantirib oldi, bir qancha shaharlarda vino zavodlarini qurdi, ko‘mir konlarini sotib oldi<sup>258</sup>. N.I. Ivanov Rossiyaning savdo-sanoat firmalari bilan bir qatorda Turkistonning deyarli barcha shaharlarida mol, asosan metropoliyada chiqarilgan manufaktura va galanteriya mollari bilan savdo qiladigan do‘konlar ochdi<sup>259</sup>.

Ta’kidlash lozimki, Turkiston o‘lkasidagi tub viloyatlar 1895 yildan ko‘chiruvchilik uchun yopiq hisoblansa ham, 1901-1903 yillarda Rossiyadan bu yerga ko‘p shaharlik kambag‘allar va krestyanlar hech qanday ruxsatsiz ko‘chib kelishdi. Birgina Farg‘ona viloyatida o‘sha yillarda 8 ta rus posyolkalari paydo bo‘ldi<sup>260</sup>.

Keyingi davrda Samarqand, Sirdaryo, Farg‘ona viloyatlariga metropoliyadan birinchi navbatda iqtisodiy baquvvat qishloq aholisini ko‘chirish ancha kengaydi.

<sup>257</sup> ЎзМА.И-19-фонд, 1-рўйхат, 28804-иш,- 380- варак.

<sup>258</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 12-рўйхат, 1772-иш, 34-35 – вараклар.

<sup>259</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 12-рўйхат, 1772- иш- 35 варак.

<sup>260</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 1-рўйхат, 75-иш, 62 – варак.

Rossiya harbiy vazirligi qoshida 1900 yilda tuzilgan maxsus komissiyasi o'lka iqtisodiyotidan, ijtimoiy imkoniyatlaridan Rossianing ichki iqtisodiy, ijtimoiy muammolarini hal etishda faolroq foydalanishga qaratilgan turli loyihalarni ishlab chiqqan edi. Shulardan biri Turkistonda paxta yetishtirishni yanada oshirish, rus aholining mavqeini mustahkamlash masalasi bilan bog'liq bo'lib, 1903 yil 10 iyunda qabul qilingan "Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand viloyatlariga, davlat yerlari hisoblangan rus qishloqlariga suqilib kirib olganlar va meshchanlarini ixtiyoriy ko'chirish qoidalari"ga asos bo'ldi<sup>261</sup>. Qonun kuchiga ega bo'lgan bu "Qoidalalar" mazkur viloyatlarda ochiqdan-ochiq buyukdavlatchilik ruhidagi agrar va ijtimoiy amaliyotga keng yo'l ochib berdi. Chunki tub aholining son boshiga faqat Toshkent va Xo'jand uezdlarida 1,1 desyatina, boshqa uezdlarda 0,5-0,7 desyatina sug'oriladigan yer to'g'ri kelgan sharoitda<sup>262</sup> Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlariga ko'chib keladigan ruslarga (har bir erkak hisobiga) 3 desyatina sug'oriladigan hamda jamoatchilik asosida foydalanish uchun keragicha va imkoniyatlarga ko'ra boshqa yerlar berilishi rejalashtirilgan edi.

Shu o'rinda keyinchalik yana gubernatorlik tarkibiga kiritilgan Yettisuv viloyatiga ham e'tibor qaratish lozim. 1905 yil 14 fevralda Yettisuv viloyatida ko'chirilish uchastkalarini tashkil qilish bo'yicha partiya va uning amaldorlar tarkibini aniqlash bo'yicha qaror chiqarilgan. Unga ko'ra viloyatning Oqmola, Yettisuv, Semipalatinsk, Uralsk va To'rg'ay hududlariga tabiiy, tarixiy va xo'jalik jihatdan statistik tadqiqotlar olib borilishi belgilandi. Uning asosiy vazifasi dasht ekspeditsiyalarini olib borish orqali ko'chirilish uchastkalarini tashkil qilish uchun ortiqcha bo'lgan qirg'iz yerlarini aniqlashdan iborat edi<sup>263</sup>. Tez orada uning 16 kishidan iborat a'zolari shakllantirilib, tadqiqot ishlariga kirishishlari belgilandi<sup>264</sup>. Shu orqali Turkistonga kelayotgan dehqonlar oqimini Yettisuv viloyatiga burish maqsad qilindi.

<sup>261</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 11-рўйхат, 906-иш, 17-18 – вараклар; Закон от 10 июня 1903 года-Спб,1903.

<sup>262</sup> Абдурахмонова Н., Рустамова Г. Колониальная система власти в Туркестане во второй половине XIX-четверти XX вв. Тошкент, "Университет",1999.-С.64.

<sup>263</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат, 5020-иш, 2-варак.

<sup>264</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат, 5020-иш, 11-варак.

Ushbu bo‘limning 1905 yil 18 avgustdagি Turkiston general- gubernatoriga bergen raportida ularning zimmasiga yuklatilgan vazifalar sekinlik bilan amalga oshirilayotgani, bunday shtat birligi bilan ulkan hajmdagi ishlarni amalga oshirish juda mushkul ekani aytiladi. Shu bilan birga, Rossiyaning Yevropa qismidagi hosilsizlik ko‘chirish harakati kuchayishiga olib kelishidan xavotir bildirilib, ba’zi hududlarda masalan, Pishpek uezdida agrar masalaning kuchli darajada keskinlashuviga olib kelganligi ta’kidlanadi. Xususan, bu yerlarda 1000 dan ortiq ko‘chib kelgan dehqonlar o‘zlariga yer uchastkalar berilishini kutib turishgan. Vaziyat qирг‘излар томонидан yer uchastkalarini qisqa muddatga ijara ga berishni rad qilishlar ortidan kuchayib ketgan. Mazkur holat esa ma’muriyatning topshiriqlari ortidan kelib chiqqan. General-leytenat Ivanov томонидан ko‘chirilish harakatlarini to‘xtatish maqsadida uezd va uchastka boshliqlariga o‘zboshimchalik bilan qирг‘из yerlariga kirib kelayotganlarga qarshi keskin choralar qabul qilinib, Yettisuv viloyatida o‘zboshimcha manzilgohlar vujudga kelmasligiga buyruq berilgan. Shunga binoan 1903 yil 4 fevraldagи Yettisuv viloyati kengashi томонидан viloyatdagи mavjud hisobga olingan ruslarga ijara ga berish belgilandi. Bu choralar esa ko‘chish harakatlari va ular томонидан ijara ga olingan yerlardan chiqarib yuborilishga umuman ta’sir qilmaydi deb, hisoblashgan. Pishpak uezdi boshlig‘ining 1903 yildagi 3080-sон buyrug‘iga ko‘ra ko‘plab qирг‘излар yerni ijara ga berganlari uchun jarima yoki qamoq jazosiga tortilgan. Masalan, 1903 yil 9 iyuldan 15 avgustiga qadar 15 nafar qирг‘из jarimaga tortildi, 2 nafari 5 sutka, 16 nafari 7 sutkaga qamoqqa olindi<sup>265</sup>.

Biroq bu holat asosan oddiy qирг‘изларга ta’sir qilib, boy tabaqa yerlarni ijara ga berishni davom ettirganlar. Ular ijara haqini oshirib va undan tashqari dehqonlardan turli majburiyatlarni talab qila boshlaydi. Bo‘lim ishlari boshlanganidan so‘ng manaplar ijara yerlari ularning ortiqcha yerlari borligiga isbot sifatida xizmat qilishidan qo‘rqib butunlay ijara ga bermay qo‘yganlar. Bu esa

---

<sup>265</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат, 5020-иш, 27-варак.

ko‘chib kelgan dehqonlarni noqulay ahvolga solib qo‘yib, kutilmagan asoratlarga olib kelishi mumkinligidan xavotirlangan<sup>266</sup>.

Yuqorida ta’kidlangan bo‘lim tomonidan ushbu vaziyatda so‘nggi uch yildagi ijara haqlari aniqlanib, ushbu mablag‘lar yerni ijaraga berganlarga emas, qirg‘iz jamoatchilik kapitalini shakllantirishga yo‘naltirilishi kerak, deb taklif bildiriladi. Shu bilan birga mavjud o‘zboshimchalik bilan shakllangan rus qishloqlarini saqlab qolgan holda bu kabi keskin chora yerlarni ijaraga berayotgan qirg‘izlarni uyg‘otib, o‘tkir agrar muammolarni bartaraf qilishga umid bildirishgan Shunlan kelib chiqib “yerlarni qisqa muddatga ijaraga berish tartibi butunlay bekor qilish taklif qilinadi. Bir paytning o‘zida boyalar uchun ijaraning mavjudligi kambag‘allarga esa bunday imkoniyatlarni yo‘qligi O‘rta Osiyonni rus elementlari asosida kolonizatsiya qilish maqsadlariga javob bermaydi”<sup>267</sup>-deb xulosa qilishgan.

Ushbu masala yuqori doiralarga olib chiqilib, muhokama qiliganidan so‘ng Senatning buyrug‘i chiqadi. Dasht viloyatlarini boshqarish to‘g‘risidagi tartibning 119-modasiga ko‘ra (1892 yilgi nashri qonunlar to‘plami t.II) Dasht o‘lkasidagi ko‘chmanchi inorodetslar<sup>268</sup> bo‘lgan yerlar davlat mulki hisoblandi. Ko‘chmanchilar uchun ortiqcha bo‘lgan yer mulklar Davlat mulki (keyinchalik dehqonchilik va davlat mulklari vazirligi) vazirligi ixtiyoriga o‘tishi belgilangan. Bunday yerlar dehqonchilik va davlat mulklari vazirligi erkin yurituvidagi yerlar hisoblandi. Shundan kelib chiqib ko‘chmanchilar tomonidan egallab olingan va ko‘chmanchilar uchun ortiq bo‘lgan yerlar davlat mulklari va dehqonchilik vazirligi yurituvida bo‘lishi kerak<sup>269</sup> deb,belgilandi. Afsuski, bu yerda xususiy mulkni daxlsizligi umuman e’tiborga olinmagan.

Bundan tashqari Turkiston o‘lkasiga rus aholisini ko‘chirish ishlari ko‘zlangan rejalaridan chiqib ketib, tartibsiz ko‘rinish olgan. Bunda esa Turkiston o‘lkasi mahalliy ma’murlari mavjud vaziyatdan kelib chiqqan holda ish ko‘rishgan.

<sup>266</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат, 5020-иш, 27-об-варак.

<sup>267</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат, 5020-иш, 27-об-варак.

<sup>268</sup> Гайритабаа Россия империясида руслардан бошқа халқларга, хусусан Шарқ халқларига ҳам берилган ном

<sup>269</sup> ЎзМА, И-7-фонд, 1-рўйхат, 5020-иш, 28-варак.

Bu holatlarda avvalo, tub bo‘lman aholining manfaatlarini ko‘zlab ish yuritilishi esa ijtimoiy vaziyatning taranglashishiga olib kelgan omillardan biri edi.

Arxiv hujjatlari orasida 1905 yilgi Turkiston o‘lkasini kolonizatsiyasi haqidagi masalaga doir noma’lum avtor tomonidan tayyorlangan tahliliy material mavjud. Unda ko‘chirish masalalari va u orqali Turkiston o‘lkasida nufusi ortib borayotgan tub bo‘lman aholining qishloq xo‘jaligiga munosabati tahlil qilinadi. Muallif “Biz dangasa deb atashga ko‘nikib qolgan mahalliy aholi o‘zining yerida rus dehqonidan ko‘ra farovonlikdan uzoqda yashamoqda. Qo‘yilgan muammolarni yechish uchun, avvalo, quyidagilarni hal qilish kerak: Mahalliy dehqon aholi qancha miqdorda suvga egalik qilishini aniqlash lozim. Qayerda qancha miqdorda sug‘orish mumkin bo‘lgan bo‘sh yerlarni aniqlash zarur. Viloyatlardagi tuproqlarning xususiyatlarini o‘rganish kerak. Aholining iqtisodiy hayotini to‘liq statistik tadqiq qilish maqsadga muvofiq<sup>270</sup>deb, mavjud vaziyatga haqqoniy baho berishga intilgan.

Agrar masalani hal qilishda yangi rus manzilgohlari, sanoat markazlarini tashkil qilish istagidan voz kechish mumkin emas edi. Muhimi manzilgohlar tasodifan paydo bo‘lib qolmasdan oldindan aniqlanib, ishlarni tashkillashtirilgan holda amalga oshirish kerak bo‘lgan. “O‘tmishda rus manzilgohlari ko‘plab xatoliklar, ko‘plab tasodiflar, rejalashtirish, tizimdan holi bo‘lgan, lekin bu birinchi qadamlar edi”<sup>271</sup>, deb bejizga e’tirof etishmagan edi.

Aslida bu yerga asrlar mobaynida ilk jamoaviy dehqonchilikdagi faqat donli xo‘jalikka va uch dalali almashlab ekishga o‘rganib, bu yerda butunlay boshqa agromadaniyat va yer sharoitlariga duch kelgan rus dehqonlari bu o‘zgarishlarni darhol qabul qila olmagan. Kelgindilar o‘zi uchun avvaldan tanish bo‘lganlardan boshlashar edi. Poselkalarni tashkil qilganlar yerbuni hovli bo‘yicha har bir dehqon uchun alohida emas balki butun poselkaga belgilashgan. Bu orqali jamoaviy yerdan foydalananishga sharoitlar yaratilgan va bu holat Turkiston uchun umuman maqbul

<sup>270</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат, 5020-иш, 42-варак.

<sup>271</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат, 5020-иш, 42 а-варак.

variant emas edi. Shu tufayli “rus ko‘chmanchilari birinchi fursatdayoq donli ekinlar foydasiga yuqori daromadli o‘simliklar madaniyatidan voz kechganlar”<sup>272</sup>.

Ta’kidlash lozimki, rus dehqoni dastlabki vaqtarda sholi madaniyati va boshqa shunga o‘xshagan ziroatchilikni uddalashga qodir emas edi. Ba’zi hollarda ko‘chib kelganlar mahalliy xo‘jalikni osonlik bilan egallaganlar. Biroq paxtachilik ko‘chib kelganlarni kamroq o‘ziga jalb qilgan. Ayrim hollardagina, jumladan, Kaspiyorti viloyatining Skobelev qishlog‘ida paxtachilik bilan shug‘ullanganlarni ko‘rish mumkin edi. Bu yerda “ba’zi xo‘jaliklarning yillik daromadi ming rubldan oshgan holatlar ham bo‘lgan”<sup>273</sup>. Shuni ham ta’kidlash kerakki ko‘chib kelganlar og‘ir qo‘l mehnatidan saqlanishga harakat qilib, uning o‘rniga yuqori hosil olish uchun juda ko‘p sug‘orishga harakat qilganlar<sup>274</sup>.

“1905 yilgi Turkiston o‘lkasini kolonizatsiyasi haqidagi masalaga” qaydnomada har bir ko‘chib kelgan rus kishisi farovonlikda yashashi va ishlashi uchun 9 desyatina haydaladigan va 1 desyatina hovli joy uchun yer ajratilishi kerak, deyilgan. Shunda u o‘z atrofidagilarga ta’sir ko‘rsatib, Rossiya imperiyasining o‘lkadagi maqsadlarini amalga oshirishi uchun sog‘lom, yuqori fikrlaydigan va to‘q kishilar sifatida mahalliy aholiga ta’sir ko‘rsatishda foydali bo‘la oladi, deb hisoblangan<sup>275</sup>.

1905 yilda bir necha o‘nlab butun Turkiston bo‘ylab tarqalib ketgan rus qishloqlari bo‘lib, aksariyat hollarda bu qishloqlar yetarli darajadagi yaroqli yerlar bilan ta’milanmagani uchun ko‘plab shikoyatlar bo‘ladi. Shu bilan birga o‘z yerlarini tashlab ketish va yana boshqa joyga ko‘chib ketishga tayyor bo‘lganlari ham ko‘plab topilgan. Masalan, Yettisuv viloyatidagi Ivanovskiy va Georgevskiy qishloqlarida ularni ushlab qolish uchun mahalliy manbalar hisobidan kanallar qurib bergenlar. Yoki Samarqand viloyatidagi dasht yerlaridagi Buyuk knyaz kanali ko‘chib kelganlar ixtiyoriga topshirilgan<sup>276</sup>. Bu kabi muammolarni oldini olish

<sup>272</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат, 5020-иш, 42 а-варак.

<sup>273</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат, 5020-иш, 43-варак.

<sup>274</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат, 5020-иш, 43-варак.

<sup>275</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат, 5020-иш, 44-варак.

<sup>276</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат, 5020-иш, 45-варак.

uchun o‘zlashtirilmagan yerlarni tadqiq qiluvchi maxsus tashkilot yoki bo‘limlar sonini ko‘paytirish va bo‘sh yerlarni aniqlashtirish uchun ekspeditsiyalar sonini ko‘paytirish taklif qilingan edi.

Ko‘chib kelganlar bilan bog‘liq muammolar yangi asr boshida aholi zich joylashgan Farg‘ona vodiysida yanada ko‘paygan. Farg‘ona viloyati harbiy gubernatorining 1905 yil 31 martdagi 5005-son Farg‘ona viloyati uezd boshliqlariga chiqargan xatida shunday yoziladi: “Menga rus krestyanlaridan viloyatdan ularga yer ajratib berish to‘g‘risida ko‘plab kelib tushayotgan murojaatlar sababli viloyatning uezd va shaharlarida yangi yerlar umidida hududda istiqomat qilayotgan krestyan va meshanlarga ularning yer ajratish to‘g‘risidagi iltimoslarini qanoatlantira olmasligimni e’lon qilishingizni so‘rayman. Qachonki viloyatda rus poselkalarinii o‘rnatish uchun yaroqli bo‘lgan bo‘sh davlat yerlari aniqlansa, ularga joyi ko‘rsatilgan holda e’lon qilinadi<sup>277</sup>.

Harbiy gubernatorga yer ajratishni so‘rab O‘sh uezdidagi Pokrovskiy qishlog‘ida 4 nafar zaxiradagi quyi amaldorlar, 4 nafar qishloqda vaqtincha yashayotgan krestyanlar, 1 nafar ayol, Pokrovskiy qishlog‘i feldsheri<sup>278</sup>, krestyanlar Mitrofan Safyanikov va Matvey Martovitskiylar, Kiyev guberniyasi Kanayevskiy uezdidan 36 ta oila (179 kishi) murojaat qilganlar<sup>279</sup>.

Shuningdek, Andijon uezdi Yassi volosti Chelan qishlog‘idan 28 nafar dehqon, Namangan uezdi Uspenskiy qishlog‘idan 2 kishi, Arim volosti Ketmontepa qishlog‘idan 9 kishi o‘sha yerda yashab turgan holatida, Andijon uezdi Ko‘gart volostidan 134 kishi, butun uezddan 116 kishi, O‘zgan volosti Adir qishlog‘idan 22 kishi yer so‘rab murojaat qilganlar<sup>280</sup>.

Shuni ta’kidlash lozimki, ko‘chib kelganlar orasida meros masalasida ham qator muammolar kelib chiqqan. Jumladan, Marg‘ilon uezdi boshlig‘ining 1904 yil 23 fevraldagi xatida 1903 yil dekabr oyida ko‘chib kelgan Dorofey Zurov vafot etganligi, uning xotini va ikki qizi qolganligi, ikkala qizi ham otasi bilan

<sup>277</sup> ЎзМА. И-19-фонд, 1-рўйхат, 28808-иш, 1-варак.

<sup>278</sup> ЎзМА. И-19-фонд, 1-рўйхат, 28808-иш, 8-варак.

<sup>279</sup> ЎзМА. И-19-фонд, 1-рўйхат, 28808-иш, 9 -варак.

<sup>280</sup> ЎзМА. И-19-фонд, 1-рўйхат, 28808-иш, 10-17 -вараклар.

yashamaganligi va kuyovlar ham qishloqqa tegishli emasligi va ko‘chirilganlar hisobiga kirmaganligi ma’lum qilinadi. Har ikkala qiz o‘zlarini merosxo‘rlar sifatida qurilgan hovli va unga tutash bo‘lgan yerlarni butunlay yoki undan ma’lum qismini berilishini so‘rashgan. Ushbu yerni meros sifatida berish mumkinmi? deb, xatda shu savolga yechimni Farg‘ona viloyati kengashidan so‘raydi<sup>281</sup>. Murojaatning mazmuniga ko‘ra marhumning qizlari kuyovlari bilan O‘rta Osiyo temiryo‘l boshqarmasida ishlagan va doimiy ushbu qishloqqa ko‘chib kelib yashash niyati yo‘q bo‘lgan. Ma’muriyat tomonidan ushbu xatga berilgan yozma javobda chiqarilgan huquqiy hujjatlardagi turli moddalarni keltirgan holda yakuniy qaror chiqarishni uezd boshlig‘ini o‘zida qoldiradi<sup>282</sup>.

Yoki Farg‘ona viloyati O‘sh uezdi Pokrovskiy rus qishlog‘ida istiqomat qilayotgan Afanasiy Kumenko tomonidan 1907 yil 12 fevralda Farg‘ona viloyati harbiy gubernatoriga yozilgan xatda uning otasi bilan birga qishloqqa ko‘chib kelganligi, onasi otasining vafotidan bir yil oldin boshqa bir kishiga turmushga chiqib ketgani, otasidan qolgan ikki ukasiga esa o‘zi g‘amxo‘rlik qilgani ma’lum qilinadi. Afanasiy Kumenko uylanganidan keyin ham ukalariga voyaga yetguncha g‘amxo‘rlik qilgani, uning ikki ukasi otasidan qolgan yerdan ulush ajratib berishni so‘rayotgani, ularning yerdan ulush so‘rashga haqqi bormi? deb murojaat qilgan. Ushbu murojaatni dala ishlari yaqinlashib qolganligi uchun tezroq ko‘rib chiqishlarini so‘raydi<sup>283</sup>. Taassufki, yer masalasida bunday muammolarni yechimi turli nizomlarda ko‘zda tutilmagan va huquqiy-meyoriy hujjatlar shoshmashosharlik bilan ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu masalalarning yechimi e’tiborga olinmagan. Ikkinchisi tomonidan bu kabi holatlar ko‘chirilganlarga ajratilgan yerlar qanchalik darajada samarali o‘zlashtirilganligi haqida savollar tug‘diradi.

Ko‘chirib keltirilganlarni qanday va qaysi yerlarga joylashtirish masalasi doimo bahsli sanalgan. Turkiston general-gubernatorligi kengashining 1906 yil 21 dekabrdagi 33-sonli jurnalidagi ma’lumotlarga ko‘ra, Sirdaryo va Yettisuv

<sup>281</sup> ЎзМА. И-19-фонд, 1-рўйхат, 28808-иш, 18 -варак.

<sup>282</sup> ЎзМА. И-19-фонд, 1-рўйхат, 28808-иш, 19-21-вараклар..

<sup>283</sup> ЎзМА. И-19-фонд, 1-рўйхат, 28808-иш, 25 -варак.

viloyatlarida mahalliy aholi e’tirozlariga sabab bo‘lmaydigan yarlarni berish maqsadga muvofiqligi,bunda avvalo bo‘sh turgan yerlar va bog‘ maydonlarini bermaslik kerakligiga urg‘u berilgan. Shuningdek, Sirdaryo viloyatida soliq to‘lab turgan deyarli 17 desyatinadan iborat 2 ta mevali bog‘ va Toshkent shahridagi 4 desyatinadan iborat ko‘rgazmali joyni bunday yer fondlarga berishdan tiyilish kerakligi, boshqarma haydaladigan sug‘orma yarlarni har bir kishiga 10 desyatinadan ortiq bermaslik, mahalliy aholi umumfoydalanadigan yerdan ham bermaslik, Turkiston o‘lkasi boshqarmasidagi Sirdaryo va Yettisuv viloyatlari bo‘yicha ishlaydigan amaldorlar butun yarlarni diqqat bilan o‘rganib chiqib, bo‘sh yarlarni aniqlashi zarurligi ta’kidlanadi<sup>284</sup>.

Shuningdek, Sirdaryo viloyatidagi ko‘chirish bo‘yicha amaldor Arsishevskiy “Turkiston o‘lkasiga ko‘chib kelgan har bir kishi uchun bog‘dorchilik va baliqchilikka qayerdan yer olish mumkin” degan savolga Turkiston o‘lkasi ruslar ko‘chirilishi uchun yopiq. Ular uchun yerlar hali o‘rganilmagan va Turkistonga ko‘chib keluvchilarga rad javobini berish qonuniy deb ataydi. E’tirozlardan keyin Turkiston o‘lkasi rostdan ham hozircha ko‘chib keluvchilar uchun yopiqligi, mavjud yeralar hali to‘liq o‘rganilmaganligi aytib o‘tiladi. Lekin gazetada berilgan Turkistonda ruslar uchun to‘sqliarni o‘rnatish qonuniy degan fikrlar unchalik to‘g‘ri emasligiga ishora qilingan. Turkiston o‘lkasiga ko‘chib keluvchilar uchun ulkan yer zaxiralariga ega degan fikrlar ham umuman to‘g‘ri emas. Chunki mahalliy iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda bunday yerdarda faqat sun’iy sug‘orish bilan ishlov berish mumkin<sup>285</sup>-deb qo‘srimcha qilingan. Ko‘chiriluvchilarni joylashtirishdan oldin general Grodekov tomonidan ilova qilingan 5530-hujjatda keltirilgan yuz minglab yerga muhtoj ko‘chiriluvchilar Turkistonda o‘zlariga yetarli sharoitga ega bo‘lishi, iddao qilingan<sup>286</sup>.

Darhaqiqat, ko‘chib kelgan rus aholisidan tashqari tub bo‘limgan boshqa xalqlar ham mavjud edi. 1905 yilgi ma’lumotlarga ko‘ra Yettisuv viloyatining yer

<sup>284</sup> ЎзМА. И-7, 1, 687, 8 варак.

<sup>285</sup> ЎзМА. И-7, 1, 687, 9 варак.

<sup>286</sup> ЎзМА. И-7, 1, 687, 11 варак.

maydoni tog‘lar, suv, qumlik va boshqalarni qo‘sib hisoblaganda 27 millon desyatinani tashkil qilgan. Undan 825 minggida Yettisuv kazak qo‘sinchilari, krestyan huquqida ko‘chib kelib o‘rnashgan taranchi va dunganlar yashar edi<sup>287</sup>.

Ko‘chib kelgan migrantlarning ijtimoiy va iqtisodiy hayoti birmuncha murakkab kechgan. Boisi uyg‘ur va dunganlar o‘zлari hosil yetishtirgan yerlari, bog‘lar, ekinzorlar, shuningdek, uy-joylarni tashlab kelishgan. Shuning uchun ular dastlabki yillarda ma’lum qiyinchiliklarni boshdan kechirgan. Ular chodir va kulbalarda yashashlari kerak edi, chunki Yettisuvda yog‘och materiallari juda qimmat bo‘lgan. Shuningdek, urug‘lik, chorva mollari, qurilish materiallari va asboblar yetishmas edi. Ko‘chmanchilarning bir qismi Ili hududiga qaytib ketadi<sup>288</sup>.

Shunday qilib, agar rus migrantlari har bir erkak jon uchun 20-25 hektar yer olgan bo‘lsa, uyg‘urlar va dunganlar 5-7 hektardan olgan.

Boshqa narsalar qatorida, ularga sun’iy sug‘orishga muhtoj bo‘lgan uchastkalar ham ajratildi. Bunday yerlar ko‘pincha toshloq va unumsiz edi va shuning uchun faqat uchdan bir qismi o‘zlashtirilgan,xolos. Natijada dungan aholisining bir qismi qashshoqlashdi. Bundan tashqari, shaharlarga ko‘chib kelganlar dastlab tayinlangan volostlarda soliq to‘lashni davom ettirdilar.

Buni ushbu hududlarda bo‘lgan yo‘lovchilar ham qayd qilishgan. Ular dunganlar istiqomat qiladigan hududlarda kazaklar bilan yonma-yon yashashini qayd qiladilar. Kazaklar Rossiya qishloq xo‘jaligi aholisining eng madaniy elementidir, lekin ular imtiyozli mavqega ega bo‘lib, dangasaligi bilan ajralib turadi va ko‘pincha mahalliy aholini ekspluatatsiya qiladi. Shuning uchun ham oxirgilar qirg‘iz va taranchilardan ular haqida yetarlicha shikoyatlar eshitishlari kerak edi<sup>289</sup>.

Ko‘pincha dehqonlar (taran so‘zining o‘zi non degan ma’noni anglatadi), yangi rus fuqarolari tezda o‘zlarining ushrlariga joylashdilar va ularni go‘zal ekin maydonlari va bog‘larga aylantirdilar. Varna va Jarkent uezdlarida sholi yetishtirildi.

<sup>287</sup> ЎзМА. И-7, 1, 687, 12-15 вараклар.

<sup>288</sup> Атантаева, Б. Ж., 2011. Приграничные факторы миграций в Центрально-азиатском регионе в конце XIX в / Б. Ж. Атантаева // Мир науки, культуры, образования. — № 5(30). — С. 286.

<sup>289</sup> Гинс Г. К. ТАРАНЧИ И ДУНГАНЕ. (Очерки из поездки по Семиречью) // Исторический вестник(историко-литературный журнал), 1911. - С.674.

Dunganlar sholichilikdan tashqari bog‘dorchilik, aravachilik bilan ham shug‘ullandilar, ularning otlari rus aravachalari bilan raqobatlashardi, tavernalarni (<<ash-xane>>) parvarishlab, mahalliy taomlarni mohirlik bilan tayyorlashgan. Taranchi qishloq xo‘jaligidan tashqari savdo-sotiq bilan ham faol ravishda shug‘ullanib kelganlar<sup>290</sup>.

Yettisuv viloyatida ko‘chib keluvchilar doimo muammo tug‘dirgan. Bosh shtab Osiy bo‘limi boshlig‘ining 1908 yil 25 fevraldagি Ministrlar sovetiga yozgan xatida Yettisuv viloyati 1899 yili Turkiston general gubernatorligi tarkibiga qo‘shib olinganiga qaramasdan hali ham dasht qonunlariga ko‘ra boshqarilganligi ta’kidlanadi. Bu yerda 25 mingdan ko‘proq o‘zboshimcha erkak ko‘chirilganlar hisobga olingan bo‘lib, ularning bir qismi yerkarni o‘zboshimchalik bilan egallab olgan bo‘lsalar, ba’zilari qirg‘izlardan yerkarni ijraga olganlar, bir qismining holati esa noaniqligicha qolgan<sup>291</sup>.

Biroq ularning viloyatda boshqa ko‘chib keluvchilar qatori turli imtiyozlarga ega bo‘lishlari yuqori amaldorlarga yoqmagan. Buni Yettisuv harbiy gubernatorligining 1910 yil 16 noyabrdagi Turkiston general gubernatorligiga yozgan xatida ham ko‘rish mumkin. Unda viloyatdagi dunganlar garchi pravoslav dinidagi rus fuqarolari bo‘lmasalar ham ushbu tamoyilga ko‘ra ko‘chib kelgan rus dehqonlari kabi imtiyozlarga egadirlar. Shu bilan birkalikda ular qirg‘izlardan yerni ijraga olib, ulardan ham daromad ko‘rib kelmoqdalar. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ularga ularga yer ajratilishida rus meshchanlarga nisbatan qo‘llanilayotgan tamoyillar ishlatiladimi yoki yo‘q? kabi masalalarga aniqlik kiritishi so‘raladi<sup>292</sup>.

Turkiston general- gubernatorligining 1910 yil 11 dekabrdagi javob xatida Dasht Nizomining 136-moddasiga asosan taranchi va dunganlar faqatgina mahalliy aholi kabi yer sotib olib, xususiy mulkka ega bo‘lishga haqli. Ularning davlat yerlaridan rus meshchanlari kabi yangi davlat hisobidan ajratiladigan yerkarga

<sup>290</sup> Гинс Г. К. ТАРАНЧИ И ДУНГАНЕ. (Очерки из поездки по Семиречью) // Исторический вестник(историко-литературный журнал), 1911. - С.676.

<sup>291</sup> И-7, 1, 687, 91 вараклар

<sup>292</sup> ЎзМА. И-1, 17-, 859-, 1-2-вараклар.

da'vogarlik qilishga haqqi yo'qligi ta'kidlanadi. Shu boisdan ularni qishloqlarda dehqonchilik asosida o'troq turmush tarziga o'tishni xohlagan rus meshchanlari toifasiga kiritib bo'lmaydi<sup>293</sup>. Bundan ko'rinish turibdiki dungan va taranchilar qanchalik qishloq xo'jaligida muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lmasin, ularga yer ajaratilishi unchalik hush ko'rilmagan. Aslida ularning dehqonchilikda erishayotgan muvaffaqiyatlari va ishlab chiqaruvchi sifatida davlatga foyda keltirayotgan bo'lishlariga qaramasdan ustunlik ko'chib kelayotgan rus meshchanlariga berilgan. Bu esa general gubernatorlik tomonidan hududning iqtisodiy rivoji uchun emas, balki imperiya manfaatlarini ustun qo'yganliklarini ko'rsatadi. Mazkur holat qishloq xo'jaligida qoloqlik va uzoq vaqtgacha rivojlanmay qolishi uchun sabab bo'lgan asosiy omillardan biri edi.

Yettisuv viloyatida keyinchalik ham ayniqsa, dunganlarga nisbatan imtiyozlardan asossiz foydalanish orqali faoliyat yuritganliklari haqida ko'plab e'tirozlar bo'ladi. Biroq vaziyatni o'rganib chiqqan viloyat ko'chirish ishlari bo'yicha boshlig'ining Yettisuv viloyati kengashiga yozgan xatida dunganlar Yettisuv viloyatida joylashtirishi maqbul ko'rilgan jihatlarga ega ekanligi ta'kidlangan. Xususan, ular Xitoyning ashaddiy dushmanlari sifatida Rossiya hukmronligiga eng sodiq va vafodor tub bo'lмаган аholi vakillari ekanligi, qolaversa, dunganlar boshqa tub bo'lмаган аholi vakillariga qaraganda juda mehnatkash va mohir dehqonlar sifatida yangi yerkarni olishga eng yaxshi da'vogarlar ekanligi ta'kidlangan<sup>294</sup>.

Bundan tashqari viloyatda xizmat qilayotgan harbiylar orasida ruslarga ajratilayotgan yerdan quruq qolishni istamay murojaat qilganlari ham ko'p bo'lgan. Andijon uezdi Bozorqo'rg'on volostida istiqomat qilayotgan Nikita Sergeyev 1906 yil fevraldag'i murojaat xatida tez orada harbiy xizmat muddati tugashi, keyinchalik shu yerda qolib, Farg'ona viloyati Andijon uezdida ajratilayotgan yerdan olib Turkiston o'lkasida doimiy yashash uchun qolmoqchi ekanligini ma'lum qiladi. U xatga o'zi bilan birga rafiqasi va 2 nafar qizidan iborat

<sup>293</sup> ЎзМА. И-1, 17-, 859-, 4-5-вараклар.

<sup>294</sup> ЎзМА. И -1-фонд., 17-рўйхат, 859-иш, 10-10 об-вараклар.

3 nafar oila a'zolari ham ro'yxatini keltiradi. Gubernatorlik tomonidan ushbu xatga ayni vaqtda yer yo'qligi va tez orada mavjud bo'lsa ma'lum qilishlari bildiriladi<sup>295</sup>.

Arxiv hujjatlari orasida mavzuga doir muhim manba uchraydi. Hujjatlar ichida Farg'ona viloyati harbiy gubernatori Chaykovskiy tomonidan ko'chib keluvchilarga berilgan e'lon mavjud. Unda Mingtepa qishlog'iga ko'chib kelganlarga 10 yil davomida ularga ajratilgan yerlarni sotish, boshqa kishilarga tasarruf qilishga berishlari hamda ijaraga berishga haqqi yo'qligi ta'kidlanadi. Hattoki belgilangan muddat o'tib bo'lgandan keyin ham ko'chirilgan dalaga ishlov berishni to'xtatsalar, yoki ijaraga bersalar uchastka qurilgan binolari bilan hech qanday to'lovatarsiz ma'muriyat ixtiyoriga o'tib ketishi va bu yerlar boshqa hududdan yer olish istagini bildirganlarga berilishi ma'lum qilinadi<sup>296</sup>.

Shu bilan birga uezd boshliqlari tomonidan yerlarning xususiyatini o'zgartirgan holda ko'chib kelgan rus aholisiga ko'proq miqdorda ajratib bergen holatlar ham uchrab turgan. Xususan, general mayor Gippiusning 1907 yil 27 apreldagi Andijon uezdi boshlig'iga yozgan xatida u boshqarayotgan hududdagi Ko'k yong'oq qishlog'ida egallab olingan joylar amalda sug'oriladigan yerlar bo'lib, u tomonidan sug'orilmaydigan yer sifatida ko'rsatilgan ma'lumot xatoligi bois tushuntirish berishi so'rالgan<sup>297</sup>.

Darhaqiqat, Sirdaryo viloyatida ham agrar sohada ko'plab muammolar yuzaga kelgan. 1907 yil 26 apreldagi Sirdaryo rayoni ko'chirilish ishlari bo'yicha boshlig'ining dokladida quyidagilar keltirilgan: Rayonda ko'chirilish ishlari ketmoqda, ko'plab yersiz dehqonlar pasportlari bilan kelmoqda. Viloyatda bo'sh yerkarni aniqlash bo'yicha statistik, gidrotexnik va agrotexnik tadqiqotlar o'tkazilishi belgilangan edi. Ular ko'zlangan natijani bermadi. Shu boisdan 200 ga yaqin yersiz ko'chib kelganlar chorasiz ahvolga tushib qoldilar. Vaqtincha chora sifatida 3 yildan ko'p bo'lмаган muddatga qirg'izlardan yer uchastkalarini ijaraga olishga ruxsat berilgan. Uezd boshlig'ining topshirig'iga ko'ra ko'chmanchilikka

<sup>295</sup> ЎзМА. И-19-фонд, 1-рўйхат, 28808-иш, 26 -варак.

<sup>296</sup> ЎзМА. И-19-фонд, 1-рўйхат, 28808-иш, 27 -варак.

<sup>297</sup> ЎзМА. И-19-фонд, 1-рўйхат, 28808-иш, 53 -варак.

moyil bo‘lganlar moddiy rag‘batlantirish evaziga yerga muddatsiz foydalanish huquqidan voz kechishi mumkinligini aniqlash vazifasi yuklatilgan<sup>298</sup>. Ma’muriyat tomonidan bunday takliflar berilishi oqibatida tub aholi sanalgan qirg‘izlar yeri astasekinlik bilan tortib olinib kelgindilarga berib yuborilgan.

O‘lkadagi rus qishloqlari aholisidan ularni yer soliqlari va turli yig‘imlardan ozod qilishni so‘rab qilingan murojaatlar kelib tushgan. Xususan, Turkiston general-gubernatorligining 1909 yil 9 iyuldagи 29 sonli majlisida Andijon va O‘sh uezdlaridagi rus ko‘chirilganlarni soliqlardan ozod qilish masalasi ko‘rib chiqiladi. Yig‘ilishda ushbu ko‘chib kelganlarga 1902 yil 8 apreldagi qonunga ko‘ra vaqtinchalik obrok to‘lovi yer solig‘iga almashtirilgani, qolaversa, ularning ixtiyoridagi yerlar haydaladigan yerlar ekanligi qayd etilgan. Yana bir e’tiborli jihat u什bu yig‘ilishda ko‘chib kelganlarga ajratilgan yerkarni sharoitga ko‘ra ijaraga berishni ham ko‘rib chiqish mumkinligi ta’kidlangan<sup>299</sup>. Bu esa ko‘chib kelganlarni yerkarni ijaraga berishlarini ta’qiqlash to‘g‘risidagi meyorlarga zid edi. Aftidan ko‘chib kelganlar yerdan yetarli darajada foydalana olmagan va oqibatda soliq to‘lashga ham qiynganlar. Shu boisdan Turkiston general-gubernatorligi kengashi davlat g‘aznasiga soliq tushumlarini kelib turishini ta’minlash uchun istisnolar qilishga harakat qilgan.

Farg‘ona viloyati harbiy gubernatorining 1903 yil hisobotida «o‘lkada rus aholisi nufuzini ko‘paytirish uchun Ko‘gart vodiysida sug‘orish ishlarini yaxshilashg uning uchun kerakli tadbirlar ishlab chiqishni” taklif qiladi<sup>300</sup>. Podsho tomonidan ushbu taklifni amalga oshirish uchun Ko‘gart vodiysida yangi yerkarni o‘zlashtirishga 3000 rub ajratildi<sup>301</sup>. Ko‘rinib turibdiki, imperator o‘lkada mustamlaka tizimini mustahkamlash, mintqa boyliklarini ko‘proq o‘zlashtirish masalalariga katga e’tibor qaratgan.

1905-1907 yillardagi rus inqilobi mag‘lubiyatga uchragandan so‘ng, quvg‘inga uchragan ko‘pgina rus dehqonlari Turkistonga qochib kela boshladi. Buni

<sup>298</sup> ЎзМА, И-19-фонд, 1-рўйхат, 28808-иш, 117 -варак.

<sup>299</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат 5073-иш, 6-варак.

<sup>300</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат 5073-иш, 3-варак.

<sup>301</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат 5073-иш, 5-варак.

oldini olish maqsadida 1907 yildan boshlab Turkiston o'lkasi ko'chib keluvchilar uchun yopib qo'yildi. Bu haqda 1908 yilgi Farg'ona viloyati hisobotida general-mayor Susanin shunday jumlalarni keltirgan edi: "Ko'p yillar mobaynida erkin rus dehqonlari O'rta Osiyoga yuzlab kela boshladi. 1907 yili Farg'ona viloyati ko'chib keluvchilar uchun yopib qo'yildi"<sup>302</sup>. Shunga qaramay, 1908 yili Andijon uezdida 8 ta rus qishlog'i barpo qilindi<sup>303</sup>.

1908 yil 19 martda imperator farmoni bilan senator graf K.K. Palen boshchiligida Turkiston general-gubernatorligini taftish qilish uchun maxsus komissiya tuzildi. Komissiya 1908 yil 13 iyuldan 1909 yil boshlarigacha faoliyat ko'rsatdi<sup>304</sup>. Senator K.K. Palen Turkistonni yangicha imperianing mustamlaka manfaatlari doirasida taftish qildi va uning xulosalari bir necha tomlarda hisobot tarzida o'z aksini topdi.

K.K.Palen "ko'plab rus aholisini ko'chirib keltirish foyda keltirmaydi. Shuning uchun bu jarayon sekin va puxta tarzda olib borilishi kerak"<sup>305</sup> degan taklifni ilgari suradi. Mahalliy aholiga yerlarni xususiy tarzda bo'lishini mustahkamlash zarur. Keyinchalik, ushbu yerlar tinch yo'l bilan ruslar tomonidan sotib olinadi. Bunda davlat tomonidan hech qanday kuch ishlatish kerak bo'lmaydi, deb ta'kidlaydi<sup>306</sup>. K.K. Palen ilgari surgan fikrlarni oradan ko'p o'tmay AZ.Krivoshein qo'llab-quvvatlaydi va imperatorga takdim etgan ma'ruzasida bu narsa o'z ifodasini topdi.

Rossiya yer tuzilishi va yer ishlari boshqaruvchisi A.V. Krivoshein Turkistonda safarda bo'lib, Nikolay II uchun ma'lumotnomma tayyorlaydi. Keyinchalik ushbu hujjat kitob holida nashr etilib, 88 sahifani tashkil etadi<sup>307</sup>.

Ushbu hujjatda A.V.Krivoshein Turkistondagi irrigatsiya ishlari ahvoliga to'xtalish bilan birga, o'lkaga ruslarni joylashtirishni kechiktirilishi sabablarini ham tahlil etadi. Va ruslashtirish juda sekin olib borilayotganligini tanqid qiladi. U o'z

<sup>302</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 12-рўйхат, 1382-иш, 9-варак.

<sup>303</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 12-рўйхат, 1588-иш, 129-варак.

<sup>304</sup> Ураков Д.Ж. Туркистонда Россия империяси маъмуриятининг расмий хисоботлари - тарихий манба сифатида (XIX аср охири - XX аср бошлари)" мавзуусидаги 07.00.09. - «Тарихнавислик, манбашунослик ва тарихий тадқикот усууллари» ихтисослиги бўйича тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2006. – Б.51.

<sup>305</sup> Пален К.К. Пересленческое дело в Туркестане. - Т., 1910. С, 24.

<sup>306</sup> Пален К.К. Переселенческое дело в Туркестане... – С. 248.

<sup>307</sup> Кривошеин А.В. Записка главноуправляющему землеустройством и земледелием о поездке в Туркестанский край в 1912 г. Приложение к всеподданнейшему докладу. - СПб., 1912.

fikrini quyidagicha ifodalagan: “... Yarim asr mobaynida bor-yo‘g‘i yuz ellik rus qo‘rg‘onining vujudga kelishi bir-butun olganda, Yevropadagi bir nechta katta davlatlarga teng keladigan Turkistonning bepoyon hududiga aholini ko‘chirib keltirish uchun zarracha xolos”<sup>308</sup>. Hisobotning oxirida A.V. Krivoshein o‘lkada rus kishilari mavqeini mustahkamlash va mintaqqa imkoniyatlaridan foydala- nishning strategik rejalarini bayon qilgan<sup>309</sup>.

Ko‘chirish ta’qiqlanishiga qaramasdan metropoliyadan aholi ko‘chib kelavergan. Masalan, Sirdaryo viloyatining Avliyoota uezdida 1906-1910 yillarda 18 ta, Chernyayev uezdida 19 ta, Toshkent uezdida 19 ta, Perovsk uezdida 3 ta yangi rus posyolkalari, Samarqand viloyatida 5 ta posyolkalar, Kaspiyorti viloyatida 10 ta posyolkalar, Farg‘ona viloyatida 12 ta posyolkalar paydo bo‘ldi<sup>310</sup>.

1910-yil 19-dekabrda qabul qilingan qonunga ko‘ra Turkistonga ko‘chirib keltirilayotgan, aksariyat hollarda o‘zboshimchalik bilan kelayotgan rus aholisi tub millatli dehqonlardan ko‘chmanchi chorvadorlardan zo‘rlik bilan tortib olish yo‘li bilan yerlik bo‘lgan. Shu bilan birga Mirzacho‘lning Xo‘jand uezdiga tegishli qismida 1913-yilda Romanov kanali ishga tushirilgach, bu yerga ko‘chib keluvchi har bir oilaga 8-10 destyatinadan sug‘oriladigan yer berilishi tez orada 6 ta rus posyolkalari tashkil topishiga imkon berdi<sup>311</sup>.

Farg‘ona viloyatida aholi nihoyatda zinch joylashganligi va su-g‘oriladigan yerlar qimmat bo‘lganligi sababli tub aholining noroziligin kuchaytirmaslik uchun ma’muriyat ruslar yerni sotib olishini joriy etishga majbur bo‘ldi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, birgina O‘s sh uezdida 1910 yilda rus krestyanlariga sotgan yerlar uchun mahalliy dehqonlar 136 ming rub olishgan<sup>312</sup>. Lekin sug‘oriladigan yerlarni, yaylovlarni zo‘rlik bilan, turli bahonalar bilan musodara qilish usullari mustamlakachilar faoliyatida ustuvor bo‘lganligi juda ko‘p manbalarda qayd etilgan.

<sup>308</sup> Кривошемн А.В. Записка главноуправляющеого... – С. 47.

<sup>309</sup> Кривошенин А.В. Записка главноуправляющеего... – С. 80-82.

<sup>310</sup> Обзор состояния Туркестанского края за 1911 года, Ташкент, Пч.1913.-С.75-76.

<sup>311</sup> Сельскохозяйственный обзор Туркестанская края за 1915 года. Ташкент, 1916. –С.22.

<sup>312</sup> Сельскохозяйственный обзор Туркестанского края 1915 года.-Ташкент-1916.-С.77.

Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasining 1910 yil 4,5 noyabr kunlaridagi dokladida Turkistonni koloniyalashtirish uchun rus ko‘chiriluvchilarining eng maqbuli to‘g‘risidagi masala ko‘rib chiqiladi.

Turkiston general-gubernatori harbiy gubernatorlar va ko‘chirilish masalasi bilan shug‘ullanuvchi kishilardan o‘lkadagi rus kolonizatsiyasini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun, shuningdek, o‘lkada rus dehqonchiliginu rejali va mustahkam rivojlantirish va uning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga xizmat qiladigan o‘zining kuzatish va xulosalarini aytishlarini so‘raydi. Ikkinchidan bosh shtab tomonidan ko‘tarilgan masala – Turkistonga kelib joylashish xohishini bildirgan staroobryadchilar qarashlari tarafдорлари va turli xil sektantlarga ruxsat ochish kerakmi masalasiga ham oydinlik kiritish kerakligi xususida to‘xtalib o‘tgan<sup>313</sup>.

Harbiy gubernatorlar va boshqa so‘ralgan shaxslar o‘lkaga rus kishilari ko‘chirilishi zarurligini tan olgan holda biroq, o‘rtacha qishloq xo‘jaligi ko‘nikmalariga ega bo‘lgan, o‘zining yerga qiziqishi va mahalliy aholiga qarshi tura olish qobiliyatlariga ega bo‘lish shartlari bilangina qabul qilish, shu bilan birga Sibirdan keladigan ko‘chiriluvchilar Turkistonni kolonizatsiyasi uchun yaroqsizligi, ular faqat g‘aznadan nafaqa olishga o‘rganib olib, yerga munosabatda umuman indeferent ekanliklarini bildirishadi. Barcha so‘ralgan shaxslar kolonizatsiyalashtirish maqsadlariga javob beradigan Turkiston o‘lkasi qo‘sishnalaridagi quyi lavozimlarda xizmat qilganlar ekanligini bildirishadi. Ular ichki guberniyalardagi qishloqlardan ko‘chib kelganlarga qaraganda mustahkam elementlarga, qat’iy intizom shakllangan va katta energiyaga egaligi, agarda ular kiritilsa harbiy xizmatdalik davridayoq mahalliy shart-sharoitlarni bilganlari holda o‘lkani mudofaa qilish zaruriyati paydo bo‘lib qolgan taqdirda zaxiradagi contingent vazifasini bajarishi mumkinligini qayd etishgan<sup>314</sup>.

Ko‘chib kelgan Rossiya krestyanlari shaharlar yaqiniga, shu shaharlarni bog‘lovchi yo‘llar bo‘ylariga, daryolar bo‘ylariga joylashib oldilar, ko‘chmanchilarning qulay yaylovlarini bosib olib, o‘zlashtirish bilan cheklandilar.

<sup>313</sup> И-7-фонд, 1-рўйхат, 5146-иш, 1 -варақ.

<sup>314</sup> И-7-фонд, 1-рўйхат, 5146-иш, 1-об -варақ.

Sug‘orma dehqonchilik mintaqalarida mahalliy dehqonlarning bo‘s sh yerlarigina emas, balki ozgina bo‘lsa-da, ortiqcha yerlari ham bo‘limgani holda hukumat minglab rus krestyanlarini joylashtirish uchun tub aholidan o‘zi dehqonchilik qiladigan yerning bir qismini yoki hammasini tortib olish yo‘lini tutdi, ko‘pincha esa bu ishni ko‘chib kelganlarning o‘zlarini ham amalga oshirar edi.

Biroq tub aholidan tortib olingan “ortiqcha” yerkirada o‘ziga to‘q krestyanlar emas, balki eng qashshoqlashgan odamlar ko‘chuvchilarni tashkil qilishdi. Yangi yerda kun ko‘rishi qiyin bo‘lganligi sababli, masalan, 1911 yilda 81 foizi, 1913 yilda esa 99 foizi o‘z yurtiga, ilgari yashagan mintaqalarga qaytib ketishdi<sup>315</sup>.

Rossiyaning strategik maqsadlari, ichki manfaatlari Turkiston va Dasht o‘lkalarning tabiiy va ishlab chiqarish boyliklaridan, arzon mehnat zaxiralaridan metropoliya sanoati manfaatlari yo‘lida iloji boricha faolroq foydalanishga intilish, 50 ming kishilik rus armiyasi, ming-minglab mustamlakachi xizmatchilar, politsiyachilar bo‘lgani holda, bu yerga yuz minglab kazaklarni, rus krestyanlarini va shahar kambag‘allarini ko‘chib kelishini ta’minlab turganligi ham bejiz emas edi.

Kaspiyorti o‘lkasida sug‘oriladigan hududlarda tashkil qilingan rus manzilgohlari joylashgan yerlar hosildor edi. Tog‘li va lalmi hududlardagi yerkirada nibatan esa bunday deb bo‘lmash edi. Hattoki ko‘plab xo‘jaliklarning o‘zida ham ichimlik suvi muammo edi. Ichimlik suvini buloqlardan yoki maxsus qazilgan korizlardan olishar edi. Bunday xo‘jaliklarda asosiy xo‘jalik turi chorvachilik bo‘lgan. Natijada ularda sut mahsulotlari bilan savdo qilish rivojlangan edi. Mang‘ishloq uezdi va Petrovskiy, Krasnovodskiy manzilgohlaridagi aholining mashg‘uloti baliq ovlash edi. Ba’zi qishloqlarda ko‘chirib keltirilganlar vinochilik, asalarichilik va izvoshchilik bilan shug‘ullanishgan. Ko‘chib kelganlar uchun rus hukumati tomonidan ovul jamoalari ixtiyoridan tortib olingan jamoa yerlaridan ajratib berilgan. Ko‘chib kelganlar asosan oziq-ovqat mahsulotlari (bug‘doy, arpa, suli, tariq) yetishtirishgan bo‘lsa, qolgan donli ekinlar (javdar bug‘doy,

---

<sup>315</sup> ЎзМА И-16-фонд, 1-рўйхат, 574-иши, 104-107, 124-128, 153-156, 247-250 – вараклар.

makkajo‘xori, jo‘xori, grechixa, guruch) va dukkakli ekinlar (mosh, no‘xat, chechevitsa) unchalik katta bo‘lman ulushda yetishtirilgan<sup>316</sup>.

1909 yildan boshlab navbatdagi “Oq oltin vasvasasi” boshlanganidan keyin rus qishloqlarida ham paxta yetishtirishga e’tibor kuchaya boshlaydi. Kaspiyorti viloyatidagi Skobelevskiy, Dmitriyevskiy rus qishloqlarida ham paxta yetishtirish bilan shug‘ullana boshlaydilar. Lekin bu boshqa viloyatlardagi paxtachilik bilan shug‘ullanadigan rus qishloqlari bilan solishtirilganda ancha kam edi. Xususan 1915 yilda Sirdaryo viloyatidiv 1097 ming desyatina, Farg‘ona 940 desyatina, Samarqand viloyatida 6865 desyatina yerda rus xo‘jaliklari shug‘ullangan bo‘lsa, Kaspiyorti viloyatida esa 442 desyatinani tashkil qilgan<sup>317</sup>.

Ta’kidlash joizki qishloq xo‘jaligi madaniyati past darajada bo‘lgan. Almashlab ekish usuli, kerakli qishloq xo‘jaligi jihozlari mavjud bo‘lmanligi, o‘g‘itlar yetishmasligi natijasida yerkarning kuchsizlanib qolishiga olib kelgan. Shu boisdan yerga ekinlar ekishda asosan oziq-ovqat mahsulotlariga e’tibor qaratilib, kuchsizlanib qolgan yerkarga ekin ekilmasdan qo‘riq yer sifatida tashlab qo‘yilgan. Shu orqali tuproqning hosildorligini qayta tiklashgan. Bu esa albatta ekstensiv xarakterga ega bo‘lib, sug‘oriladigan yerkam bo‘lgan bo‘lgan sharoitda hosildor yerkarni isrof qilinishiga olib kelgan. Ko‘chib kelganlar tomonidan ba’zida qishloq xo‘jaligi mashinalari (seyalka, o‘rim mashinasi, don sovuradigan mashina, yanchish mashinasi, don tozalash va saralash mashinasi) qo‘llanilgan bo‘lsa ham umumiyyet ta’milanganlik past darajada qolgan edi. Ayniqsa, kichik va o‘rtahol rus dehqonlarida xo‘jaligini texnika bilan ta’milanganlik darajasi past bo‘lgan.

Rus xo‘jaliklarida chorvachilikning asosiy sohalari otchilik, sut chorvachiligi, shuningdek, qo‘ychilik va cho‘chqachilik bo‘lgan. 2016 yilda Kaspiyorti viloyatidagi 29381 ko‘chib kelgan xo‘jaliklar, 1692 ta ot, 6416 yirik shoxli qoramol, 19862 ta qo‘y va echki, 893 ta cho‘chqalari bo‘lgan<sup>318</sup>.

<sup>316</sup>Фомченко А.П. Русские поселения в Туркестанском крае в конце XIX – начале XX в. (социально-экономический аспект). Ташкент, 1983. – С.81.

<sup>317</sup> Фомченко А.П. Русские поселения в Туркестанском крае в конце XIX – начале XX в. (социально-экономический аспект). Ташкент, 1983. – С.81.

<sup>318</sup> Фомченко А.П. Русские поселения в Туркестанском крае в конце XIX – начале XX в. (социально-экономический аспект). Ташкент, 1983. – С.85.

Dehqonchilik bilan birga yordamchi xo‘jalik sohalari (ov, baliq ovlash, izvoshchilik) ham mavjud bo‘lgan. Kaspiyorti viloyatining Mang‘ishloq yarimoroli, Amudaryoning quyi oqimi Orol dengizi hududlarida maxsus baliqchilik bilan shug‘ullanadigan rus qishloqlari bo‘lgan. Izvoshchilik bilan asosan qashshoq rus dehqonlari yollanma ishchi sifatida, shuningdek, maxsus savdo kontoralarida ishlaganlar.

Ko‘chib kelganlar orasida hunarmandchilik turli xil iqtisodiy rivojlanish darajasida bo‘lgan. Asosiy hollarda bu xomashyolarni o‘zining iste’moli maqsadida qayta ishslashdan iborat bo‘lgan. Mazkur soha qishloq xo‘jaligi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan.

Shuni ham ta’kidlash kerakki XX asr boshlariga kelib rus manzilgohlarida ham kapitalistik ishlab chiqarish keng tarqala boshlangan. Avvallari hunarmandchilik shahar hayotining bir qismi bo‘lgan bo‘lsa u endilikda qishloqlarda ham rivojana boshlangan. Deyarli har bir rus qishloqlarida o‘zining kosibi, tegirmonchisi, temirchisi, duradgori va boshqa zaruriy hunarmandlari bo‘lgan. Natijada rus qishloqlaridagi mayda xo‘jaliklarda ham unchalik katta miqyosda bo‘lmasa ham ishlab chiqarish munosabatlari rivojana boshlaganligi aytish kerak.

Shunday vaziyatni hisobga olgan imperiya hukumati tayyorlagan va 1914 yil 28 iyunda podsho tasdiqlagan Qonunga ko‘ra Farg‘ona viloyatiga “moddiy ta’minlangan, eng kami 1000 rub. turadigan mulkka ega nasroniylargina ko‘chishi mumkin edi”<sup>319</sup>. Lekin o‘sha yilning 1 avgustida boshlangan birinchi jahon urushi aholini ko‘chirish siyosatini keskin o‘zgartirdi.

Xulosa qilib aytganda Rossiya imperiyasi deyarli 600 ming desyatina sug‘orma yer, deyarli 2 million desyatina ishlanmaydigan lalmi yerlarni zo‘rlik bilan tortib olib, bu yerlarga Turkiston shaharlariga metropoliyadan 750 mingga<sup>320</sup> yaqin rus krestyanlari, kazaklarni va shahar kambag‘allarini ko‘chirib keltirib joylashtirishga erishdilar. Bularning barchasi Turkistonda jiddiy iqtisodiy, ijtimoiy

<sup>319</sup> Вощинин В.П. Переселение и землеустройство в Азиатской России. Сборник законов и распоряжений.- Спб. 1915.-С.123.

<sup>320</sup> Фомченко А.П. Русские поселения в Туркестанском крае в конце XIX – начале XX вв. (Социально-экономический аспект). –Т.: Фан, 1983, -С.71.

va ma’naviy o‘zgarishlarga, tub aholining hayotiga sezilarli va salbiy ta’sir qiluvchi oqibatlarga olib keldi.

Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o‘lkasini kolonizatsiya qilish, o‘lkadagi mahalliy aholi ustidan ustunlikni ta’minlash uchun qishloq xo‘jaligida ham rus aholisini ko‘paytirishga urinadi. Biroq o‘lkaga rus aholisini ko‘chirish uchun katta mablag‘lar, ulkan hajmdagi urinishlar amalga oshirilishiga qarmasdan aksariyat hollarda ko‘chirilib keltirilgan aholining katta qismi qishloq xo‘jaligida muvaffaqiyatli ish olib bormaydi. Bu esa sarflangan mablag‘lar va urinishlarning besamar ketishiga olib keladi. Ushbu holat mahalliy byudjet uchun xarajat manbaiga aylanib, o‘lkadagi ma’murlarning e’tirozlariga va u mahalliy aholi gardaniga qo‘srimcha yuk bo‘lib ortilishiga olib keladi.

Ko‘chib kelgan dehqonlar ham asosan natural xo‘jalikka asosalangan holda xo‘jalik yuritishni ma’qul ko‘radilar. Ko‘chib kelganlar avvalo, o‘zlarining iste’moli uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishga uringanlar. Shu bois ular tovar xo‘jaligi munosabatlariga kamroq tortiladilar. O‘lkada rivojlanib borayotgan paxtachilik, bog‘dorchilik va boshqa qishloq xo‘jaligi sohalarida ham asosan mahalliy aholining bandligi hisobidan amalga oshirilgan. Bu esa ortib borayotgan talabning asosan mahalliy aholi hisobidan qoplanishiga olib kelgan. Bu esa keyinchalik qishloq xo‘jaligida ham tub bo‘limgan aholi bilan mahalliy aholi o‘rtasidagi ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashuvi uchun zamin yaratgan.

### **3.2 Tub bo‘limgan aholining o‘lka iqtisodiy hayotidagi ishtiroki**

Turkistonda general-gubernatorlik tashkil qilinganidan so‘ng Rossiya imperiyasi hokimiyatining ijtimoiy-iqtisodiy sohasidagi yana bir muhim yo‘nalishi sanoat, transport, bank sohalarida islohotlarni amalga oshirishdan iborat bo‘ldi. Bu borada metropoliyaning kapitalistik iqtisodiyoti va Rossiya hokimiyatining davlatning ichki muammolarini tashqi hududlardan, qo‘shti rus bo‘limgan xalqlarning boyliklari va imkoniyatlaridan foydalanish orqali hal qilishga bo‘lgan uzoq muddatli tendensiyasi kuzatildi.

Rossiyaning siyosiy va sanoat doiralari Markaziy Osiyoning iqtisodiy imkoniyatlari va tabiiy boyliklariga uni bosib olishdan ancha oldin qiziqish bildirgan. O‘rta Osiyoning bir qator boshqa hududlari bosib olingandan so‘ng hamda mustamlaka qilish jarayonida Rossiya va G‘arbiy Yevropaning ko‘plab moliyaviy va sanoat doiralari vakillari tomonidan foydali qazilmalar konlarini geologik-qidiruv va sanoatda ekspluatatsiya qilish ishlari ancha keng rivojlandi.

Ammo mustamlaka hokimiyati tomonidan Rossiya imperiyasining ajralmas qismi deb hisoblangan Turkiston general-gubernatorligi hududida iqtisodiy siyosat boshidanoq metropoliya manfaatlariga bo‘ysundirildi. Shuning uchun mustamlaka hokimiyati Turkistonda savdo va sanoat mavqeini yetaricha kengaytirish va rus muhojirlari sonini sezilarli darajada oshirishga e’tibor qaratdi. Koloniyada sanoat korxonalarining ishlab chiqarish bazasini yaratish bilan bir qatorda mahalliy iste’mol tovarlari ishlab chiqaruvchilariga nisbatan oldindan ishlab chiqilgan maxsus cheklovchi choralar ko‘rilmagan. Lekin Turkiston va qo‘shni xonliklarga rus mollarini olib kirishni va bu hududlardan qishloq xo‘jaligi va mineral xomashyo olib chiqishni ko‘paytirish uchun rus hokimiyati xonliklar hukmdorlarini import bojlarini minimal darajaga tushirishga, keyin esa butunlay kamaytirishga majbur qildi va shuningdek, ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar manfaatlari uchun bir qator proteksionistik chora-tadbirlarni amalga oshirdi.

Shuni ta’kidlash kerakki, “koloniylar” deyarli har doim foydasiz edi va shuning uchun metropoliya koloniyalarda minimal xarajatlar bilan qayta ishslash sanoatini yaratishga intildi. Hokimiyatning eng yuqori pog‘onasida mintaqani “modernizatsiya qilish” deganda rus aholisini mintaqaga ko‘chirish va shu bilan bu jarayonlarni tezlashtirish tushunilgan. Bu qarash monarxistlar va konservatorlarning g‘oyalarini o‘zida aks ettirgan. Va liberallar esa mintaqadagi “modernizatsiya” jarayonlarini tezlashtiradigan mahalliy, rus va xorijiy sarmoyalarga umid qilishdi. Bu borada birinchi nuqtai-nazarni Turkiston general-gubernatori A.V. Samsonov 1909 yil uchun hisobotida bayon qilgan: “...Turkistonning rus mustamlakachiligini asosi asosan rus xalqini jalb qilgan holda turli sanoat va savdo-sotiqni rivojlantirish orqali uning iqtisodiy farovonligini oshirishdir. ...Rus sanoati, zavod-fabrikalar,

xususiy va davlat maktablari, o‘quv yurtlarining hududda barpo etilishi yaqin kelajakda bu o‘lkada rus xalqining o‘rni bo‘lishini va ularning mahalliy xalqlar orasida ustuvorligini ta’minlashi mumkin”<sup>321</sup>.

Shu bilan bevosita bog‘liq ravishda Rossiya imperiyasining hukmron doiralari hamda Turkiston ma’muriyati doimiy harbiy hukmronlikni ta’minlash, ishonchli rus aholisining sonini, xo‘jalik farovonligini oshirish, iqtisodiyot va mehnat zaxiralarini Rossiya manfaatlarda foydalanishning siyosiy va politsiya nazorati o‘rnatish, uning uchun pasport rejimini Turkiston tub aholisining borib-kelishi bo‘yicha vatandoshlarning parokanda bo‘lishiga sabab bo‘ladigan chekashlarni joriy etish bilan bir qatorda, Rossiya imperiyasi tarkibida bo‘lishning afzalligi va maqbulligiga asta-sekin ishontirib borish choralariga jiddiy e’tibor berdi.

Rossiya aholisining bir qismini Turkistonga olib kelish sabablari va o‘lka tub aholisining iqtisodiyoti, shu aholini soliqqa tortish tizimidagi o‘zgarishlarni aniqlash ko‘chiruvchilik manzarasini yaqqolroq aniqlash imkonini beradi. Mustamlakachi ma’muriyat o‘lkaning ko‘chmanchi hamda yarim ko‘chmanchi aholisidan olinadigan soliq va o‘lponni qisqa muddatda oshirib yubordi. Agar 1865-1867 yillarda har bir o‘tovdan olinadigan o‘lpon 1,5 rubl bo‘lgan bo‘lsa, 1868-1881 yillarda 2,75 rublga chiqdi, 1882 yilda esa 4 rubl mikdorida olina boshlandi<sup>322</sup>. Bundan tashqari ko‘chmanchilarining har bir oilasidan (aslida yagona oila bo‘lgan katta va kichik avlod oilalarini ajratgan holda) mahalliy ehtiyoj uchun (shu jumladan, ma’muriyat maoshi uchun ham) 1,25 rubl va ko‘pchiligi mutlaqo aloqador bo‘lмаган rus-tuzem maktablarini ta’minlash uchun 0,5 rubldan olinardi<sup>323</sup>. Bundan ko‘rinib turibdiki asosan tub bo‘lмаган aholi ehtiyojlari uchun mablag‘lar mahalliy aholi hisobidan qoplashga urinilgan.

Shu bilan birga mustamlakachi ma’muriyat metropolianing harbiy - siyosiy hamda iqtisodiy manfaatlari (eng avvalo, paxta yetkazib berishni ko‘paytirish)

<sup>321</sup> Алимджанов Б.А. Экономическая политика Российской империи в Туркестанском генерал-губернаторстве (вторая половина XIX-начало XX вв.). диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. - Санкт-Петербург –2016. – С.105.

<sup>322</sup> Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенной графом К.К.Паленом.Т.8,-Ташкент,1910. – С.10.

<sup>323</sup> Аминов А.М.Экономическое развитие Средней Азии (Колониальный период). –Т.: Госиздат, 1959. – С.98.

ko‘chirib keltirilgan ruslarning ushbu mustamlakalardagi Rossiyaning hukmronligini yanada mustahkamlashiga xizmat qiluvchi rasmiy hujjatlar qabul qilinishini talab etadi, deb hisoblashgan. Imperiya shu maqsadda 1881 yil 10 iyulda “Krestyanlarni bo‘sh davlat yerlariga ko‘chirish to‘g‘risida muvaqqat qoidalar”ni tasdiqlaydi<sup>324</sup>.

Ilk bor qabul qilingan bu qoidalar, bo‘sh yerlar deyarli yo‘qligiga qaramay, metropoliyadan mustamlakalarga ko‘chib keluvchilar oqimi ko‘payishiga sabab bo‘ldi. Krestyanlar qatori shahar kambag‘allari ham ko‘chib kelishi kuchaydi. Ayni mahalda o‘zboshimchalik bilan ko‘chib keluvchilar soni ham ortdi, bu esa mintaqada, ayniqsa, tub aholi uchun ijtimoiy - siyosiy vaziyatni jiddiy ravishda keskinlashtirib yubordi. Masalan, mahalliy hunarmandchilikni sindirish, dehqonlarga nisbatan zo‘ravonlik,adolatsizlik kuchaydi.

1897 yilda Turkistonda rus aholining soni 197420 kishini tashkil qilgan bo‘lsa, ulardan 95941 kishi shaharlarda, tog‘-kon posyolkalarida yashagan, 101479 kishi esa qishloq hududlarida<sup>325</sup> istiqomat qilgan. Umuman esa Turkistonda rus aholisi va tub aholi o‘rtasidagi ijtimoiy tengsizlik, ayniqsa, qishloqlarda yaqqol ko‘rinar edi. Masalan, tub aholining har bir xo‘jaligiga o‘rtacha hisobda 2,1 desyatina sug‘oriladigan yer to‘g‘ri kelsa, metropoliyadan ko‘chib kelgan aholining har bir xo‘jaligiga 4,2 desyatinanadan to‘g‘ri kelgan. Aholining son boshiga hisoblanganda esa tub aholining xo‘jaligiga 0,57 desyatina, rus aholisining xo‘jaligiga 1,84 desyatinanadan to‘g‘ri kelgan<sup>326</sup>. YA’ni rus aholisi tub aholiga nisbatan deyarli 3,5 barobar ko‘proq yerga ega bo‘lgan hamda turli soliqlardan ozod bo‘lgan yoki imtiyozlarga ega edi<sup>327</sup>.

XIX asrning oxirlariga kelib Kaspiyorti viloyatiga kelgan rossiyalik savdogarlar va tadbirkorlar ham paxta, pillani qayta ishslash va ulgurji sotish,

<sup>324</sup> ЎзМА, И-1-фонд, 10-рўйхат, 603-иш, 7-варак.

<sup>325</sup> Фомченко А.П. Русские поселения в Туркестанском крае в конце XIX – начале XX вв. (Социально-экономической аспект). – Т.Ф.1983. – С.46.

<sup>326</sup> Джамалов О.Б. Блиндер И.Б. Экономические закономерности и иремущества некапиталистического пути развития. –Т.: Фан, 1967. – С.102.

<sup>327</sup> Фоффоров Ш.С. Россия империясининг Туркистонга аҳолини кўчириш сиёсати ( XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср боши) Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент. 2003. – Б.145.

shuningdek, to‘qimachilik sanoati bilan ham qisman bo‘lsa-da, shug‘ullanishgan. Ular o‘lkada, jumladan, Kaspiyorti viloyatida qanchalik mustamlakachilarcha ish olib borganliklari to‘g‘risida sibirlik savdogarlardan birining sobiq xodimi N.Ivanovning faoliyati guvohlik beradi. U Kazalinskda 1865 yil, yonida 3-4 ming so‘m bilan paydo bo‘lgandi. Ishni rus qo‘shinlari garnizoni uchun oziq-ovqat, yem-xashakni chayqov bahosida yetkazib berishdan hamda aroq, vino sotishdan boshlab, 8 yil ichida 100 ming so‘m kapital egasiga aylandi. 1879 yildan boshlab u paxtani ulgurji sotib olish, tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishni to‘la ravishda monopoliyaga aylantirib oldi, bir qancha shaharlarda vino zavodlarini qurdi, ko‘mir konlarini sotib oldi<sup>328</sup>. N.I. Ivanov Rossiyaning savdo-sanoat firmalari bilan bir qatorda Turkistonning deyarli barcha shaharlarida mol, asosan metropoliyada chiqarilgan manufaktura va galanteriya mollari bilan savdo qiladigan do‘konlar ochdi<sup>329</sup>.

Samarqand viloyatida 1900 yilgi hisobotga ko‘ra, jami zavod, fabrikalar soni 87 ta bo‘lib, shundan 22 tasi paxta tozalash zavodlari bo‘lgan<sup>330</sup>. Viloyatda vinochilik yuqori darajada bo‘lgan. Hisobotlardagi ma’lumotlarga ko‘ra, vinochilik ishi bilan yirik rus ishbilarmonlari Filatov, Ivanov, Proxorovskiy, Gladishev, Tolochikov, Dilnin, Abramov va boshqalar shug‘ullang‘anlar<sup>331</sup>. Choy qadoqlash bilan Gubkin va Vogau firmalari faoliyat ko‘rsatgan<sup>332</sup>.

Rossiyadan ko‘chib kelgan kazaklarni, rus krestyanlarini ta’minalash maqsadida XX asr boshlarigacha mahalliy aholidan Yettisuv viloyatida 752197, Sirdaryo viloyatida 159561, Farg‘onada 9925, Samarqand viloyatida 22907, Kaspiyorti viloyatida 10318 desyatina yer tortib olindi<sup>333</sup>. Shu bilan bir qatorda Turkistonda rossiyalik sanoatchilar, savdogarlar, tadbirkorlar faoliyatini rag‘batlantiruvchi turli imtiyozlar, rus ishchilarining mehnat haqi mahalliy ishchilarnikidan 2-3 baravar ortiqligi va boshqa shart- sharoitlar shaharlarda, tog‘-

<sup>328</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 12-рўйхат, 1772-иш, 34-35-вараклар.

<sup>329</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 12-рўйхат, 1772- иш- 35 варак.

<sup>330</sup> Обзор Самаркандской области за 1900 год, - Самарканд, 1901. – С. 22.

<sup>331</sup> Обзор Самаркандской области за 1904 год. - Самарканд, 1905. – С. 24.

<sup>332</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 12-рўйхаг, 1717-иш, 27-варак.

<sup>333</sup> Пален.К.К. Материалы к характеристике народного хозяйство в Туркестане. Ч.ИI.-СПб.,1911.(Жадваллар)

kon korxonalar, temir yo‘l stansiyalari yonidagi posyolkalarda yashovchi rus aholining turmush darajasi tub aholinikidan ancha yuqori bo‘lishini ta’minlangan. Rossiyadan ko‘chib kelib 2-3 yil mobaynida qo‘nim topmasdan, to‘g‘ri kelgan ishga yollanib, zo‘rg‘a kun kechirganlar ham bo‘lgan. Masalan, Turkiston general-gubernatorining devoniga rus aholisini ko‘chirish bilan shug‘ullanuvchi boshqarma mudiri yozganidek, “o‘lkaga yer olishga da’vogarlar orasida ilgari ko‘chib kelgan yersizlar ko‘p. Ularning orasida urush qatnashchilari va Turkiston harbiy okrugining zaxirasidagi soldatlari ham bor”<sup>334</sup>. Lekin ma’muriyat har qanday choralar bilan ularni ham joylashtirish, barcha imkoniyatlarni yaratib berishi uddasidan chiqqan.

1906 yil 16 martdagi harbiy vazirlik bosh shtabining graf Sergey Yulevich Rittega yozgan xatida davlatchilik va mamlakatning ijtimoiy iqtisodiy hayotiga oid muhim va kechiktirib bo‘lmaydigan masalalarda o‘z mulohazalarini bildirgan. Xususan, Turkiston o‘lkasida quyidagi jihatlar e’tiborga olinishi zarur deb hisoblagan: Turkistonning tabiiy boyliklari va iqtisodiy ishlab chiqarish imkoniyatlari o‘zining kapitalini qulay shartlar asosida joylashtirishga joy qidirayotgan xorijliklarning diqqatini o‘ziga jalb qilmoqda. Turkiston rus kuchlarining jiddiy urinishlari asosida bosib olingan, hozirgacha rus aholisi hisobidan yashamoqda, shuning uchun o‘lkaning boyliklari faqatgina rus fuqarolari tomonidan ekspulatatsiya qilinishi kerak. Turkistonni imperiya markazi bilan bog‘laydigan temiryo‘llar tizimining rivojlanishi bilan bu muhim ahamiyat kasb etmoqda<sup>335</sup>.

O‘lkada bo‘sh sug‘oriladigan yerlarning mavjud emasligi iqtisodiyotni farovonlik darajasiga ko‘tarish va rejali kolonizatsiya qilishga to‘sqinlik qilgan. Hosildor tuproq va qulay iqlim sharoitlari Turkistonda irrigatsiya ishlari uchun oqilona sarflangan har bir rublni ortig‘i bilan qoplashi zarur, deb hisoblashgan. Shuning uchun ushbu tarmoqni rivojlantirish hukumatni oldidagi eng muhim vazifalardan biri edi. “Turkistonni rus elementlari bilan kolonizatsiya qilish mamlakat uchun siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo‘lib, uni

<sup>334</sup> ЎзМА. И-16 фонд, 1-рўйхат, 574-иш, 85-варак.

<sup>335</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 27-рўйхат, 276-иш, 1-варак.

yanada kengroq rivojlantirish uchun ko‘chirishga yaroqli bo‘lgan davlat yerlarini topish, ishlab chiqarish uchun irrigatsiya ishlarini rivojlantirish kerak”ligi doimo mustamlakachilarning diqqat-e’tiborida bo‘lgan<sup>336</sup>.

Ural kazak qo‘shinlari o‘zlarining qo‘lida yer va uralkaspiy baliqchilik sanaotini mahkam tutib u yerga na yahudiylar, na arman va na mahalliy aholini yaqinlashtirgan. Ko‘chib kelgan turli sektalar vakillari o‘zlarining mehnatkashligi, uyushqoqligi kichik savdo-sanoat rivojida nafaqat mahalliy aholi balki yahudiylar va armanlarga ham raqib bo‘la olishgan<sup>337</sup>.

Rossiya imperiyasining Kavkazorti viloyatidagi manfaatlari alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Imperiya hukumati tomonidan 1888 yil 23 iyulda tasdiqlangan “Chorjo‘y va Buxoro temir yo‘l stansiyalari yaqinidagi qishloqlarni boshqarish, obodonlashtirish va ularning xo‘jaligi to‘g‘risida qoidalar” shundan dalolat beradi<sup>338</sup>.

Bunda mahalliy hokimlar tub aholi vakillarining stansiyalar yaqinidagi qishloqlarda, umuman, temiryo‘l yaqinida yashashlariga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi, deb hisoblashar edi, vaholanki, bunday qishloqlarni obodonlashtirishga tub aholidan ham mablag‘ yig‘ib olingan.

Mazkur qoidalar joriy etilganidan keyin ancha vaqt o‘tgach, temir yo‘l poseleniyalari va harbiy garnizonlarni qurish uchun Buxoro amirligi hududining bir qismi zo‘rlik bilan tortib olinib, 1915 yil Turkiston o‘lkasi Dehqonchilik va davlat mulklari boshqarmasi Buxoro amirligidan ajratib olingan yerlarda “Buxoro temir yo‘lining Qarshi, Samsonovo va Kalif stansiyalari hududlarida ... bo‘lajak posyolkalar uchun joyni va talab etiladigan yer maydonlarini” aniq belgilab, rus poseleniyalarini barpo etish loyihasini ishlab chiqish vazifasini qo‘ydi<sup>339</sup>. Tabiiyki, Buxoro, Kaspiyorti, harbiy va Toshkent temir yo‘llari mintaqalaridagi zikr etilgan, ya’ni boshqa temir yo‘l stansiyalari hududidagi rus posyolkalari uchun ajratilgan yerlarda istiqomat qilib kelgan tub aholi o‘z yerlaridan ko‘chirilgan.

<sup>336</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 27-рўйхат, 276-иш, 1-варак.

<sup>337</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат, 5146-иш, 4-варак.

<sup>338</sup> ЎзМА. И-16-фонд, 1-рўйхат, 755-иш. 4-варак.

<sup>339</sup> ЎзМА. И-16-фонд, 1-рўйхат, 490-иш, 2-2 орка вараклар.

Biroq yuqorida aytib o'tilganidek, ko'chirib keltirilgan ruslarni ma'muriy va hatto, tabaqaviy joylashtirish bilan bog'liq muammolar yuzaga kelganida mustamlakachi ma'muriyat Kaspiyorti viloyati tub aholisi huquqlari va manfaatlarini oshkora oyoqosti qilgani holda lozim darajada tez va aniq ish olib borgan.

1870 yildan boshlab Turkistonga keladigan rus fuqarolariga xorijiy pasportlar berila boshlangan. Bu orqali ularga imtiyozli holatda bo'lishi va ularga kengroq sharoitlar yaratilishi ko'zda tutilgan. Shuningdek, rus savdogarlari va ishbilarmonlari o'lkaza jalb qilish uchun ulardan olinadigan zakot va boshqa yig'imlar bekor qilingan, shuningdek, proteksionistik siyosat olib borilib, xorijiy davlatlar tovarlarini o'lkaza olib kirilishi ta'qiqlanadi. Rus savdo-sanoat doiralari bu bilan qanoatlanmay o'zlariga yanada ko'proq imtiyozlar berilishi yoki boshqalarning imtiyozlarini bekor qilinishini so'raganlar. Hukumat ularning foydasini ko'zlab o'rta osiyolik savdogarlarga berilgan vaqtinchalik imtiyozlarni ham bekor qilgan edi<sup>340</sup>.

Yana shuningdek, Turkiston o'liasi davlatchilik va ijtimoiy iqtisodiy ehtiyojlariga oid qaydida "Turkiston boyliklarini ekspluatatsiya qilish faqatgina rus fuqarolariga taqdim qilinishi shart degan" degan jumlalar bor edi<sup>341</sup>. Hukumat tomonidan O'rta Osiyo hududlarida rus sanoati va rus savdo-sotig'ini rivojlantirishga qaratilgan doimiy g'amxo'rliги o'lkaza xorijlik va yahudiy kapitalining kirib kelishiga imkon berdi. Shuning uchun ham ko'p hollarda turli xorijlik ishbilarmonlarni Turkistonga kirib kelishi rad qilinadi. Turkiston tub aholisi mavjud sharoitga allaqachon ko'nikkanligi hisobga olinib, "Turkiston ruslar uchun" doktrinasini qo'llab-quvvatlash eng yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin-deb ta'kidlashgan<sup>342</sup>.

Rasmiy hisobotlardagi iqtisodiy ahvolga oid ma'lumotlar tahlili shuni

---

<sup>340</sup> Потапова Н.Ю. История предпринимательства в Туркестане (вторая половина XIX - нач. XX вв.). Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук по специальности 07.00.02 - История Узбекистана. – Ташкент, 2002. – С.45.

<sup>341</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 27-рўйхат, 276-иш, 2 об-варак.

<sup>342</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 27-рўйхат, 276-иш, 2 об-варак.

ko'rsatadiki, Turkiston o'lkasida tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi, kapitalistik korxonalar taraqqiyoti o'lka iqtisodiy hayotida yangi davrni boshlab bergen. Lekin, bu o'zgarishlardan rus sarmoyadorlari ko'p foyda ko'rgan.

Farg'ona viloyati paxtachilik sohasidagi ko'plab rossiyalik va boshqa tadbirkorlar uchun qiziqish maydoni bo'lib kelgan. Masalan, T.S.Morozovning taniqli kompaniyasi - "Savva Morozov, sin i K°" 1884 yilda mahalliy aholiga yuqori navli Amerika paxta chigitini tarqatish orqali mintaqaga kirib borishni boshlagan. 1887 yilda rus tadbirkorlari Boboshko, Konshin, Kudrin va Minder Amerika paxtasini mustaqil ravishda yetishtirish uchun juda katta yer uchastkalarini ijaraga oldilar. Tadbirkor Minder mahalliy ma'muriyat ko'magida 200 desyatina yerni ijaraga olishga muvaffaq bo'lgan. Mashhur tadbirkor N.N.Konshin faoliyati Farg'ona viloyatida paxta va sanoat mahsulotlari savdosi bilan shug'ullanuvchi "Tovarishestva manufaktur N. N. Konshina"(N.N. Konshin manufakturna shirkati)ning tashkil etilishi bilan bog'liq. "N.Kudrin i K°" yirik shirkat ham xuddi shu sohada shug'ullangan<sup>343</sup>.

Bunda zavodlarning texnik jihozlanishi ishlab chiqarishda hal qiluvchi rol o'ynar edi. 1897-1911 yillarda Farg'ona viloyatidagi mahalliy mulkdorlarga tegishli paxta zavodlari ko'p bo'lsa-da, ularda qariyb 2 barobar kam paxta qayta ishlangan. Bu hol mahalliy mulkdorlarning tobora kuchayib borayotgan raqobatga bardosh berishini qiyinlashtirib, rus savdo-sanoat burjuaziyasiga qaramligini oshirar edi. Rus sanoatchilari o'z zavodlariga gidravlik presslar keltirib o'rnatishgan. Bu presslar bir necha ishchining o'rnini bosgan hamda tolani bir xil hajmda taxtakachlab xaridorlar ishonchini qozongan. Rus sanoatchilarining paxta tozalash sanoatini texnik jihozlash borasidagi yuqoridagi kabi imkoniyatlari kengroq bo'lib, ular bu sohada monopolistik hukmronlik qilish mavqeni qo'lda tutib turganlar<sup>344</sup>.

---

<sup>343</sup> Потапова Н.Ю. История предпринимательства в Туркестане (вторая половина XIX - нач. XX вв.). Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук по специальности 07.00.02 - История Узбекистана. – Ташкент, 2002. – С.69.

<sup>344</sup> Мусаев Н. XIX асрнинг II ярми – XX аср бошларида Туркистанда саноат ишлаб чиқаришининг шаклланиши. – Тошкент, "IQTISOD-MOLIYA", 2008.

Toshkent shahridagi sanoat korxonalarini, ustaxonalarini va boshqa yuzaga kelishi va rivojlanishi asosan rus kapitalistlari nomi bilan bog'liq edi. 1886 yilda "Sirdaryo viloyati sharhi"da ta'kidlangandiki, "viloyatdagi zavod va fabrika sanoati kelib chiqishi va rivojlanishi o'zlarini qo'lida bo'lgan rus aholisining roli katta bo'lgan"<sup>345</sup>. Darhaqiqat, Toshkent shahrida sanoatni rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mujassam bo'lib, bu rus ishbilarmonlarining diqqatini o'ziga tortmay qolmagan edi, albatta.

Keyinchalik bu yerda bir qancha mablag'i va ko'plab sanoat korxonalarini bo'lgan kapitalistlar guruhi shakllanadi. Rus fuqarolariga tegishli bo'lgan "Savdo uylari" va turli shirkatlar paydo bo'la boshladi. Masalan, 1884 yilda savdogar I. Pervushinga yillik mahsuldorligi 102 684 rublik 5 zavod va korxona (spirt, vino zavodlari, tamaki va papiros fabrikasi, ma'danli suv tayyorlaydigan korxona) qaragan. 1886 yilda u aroq zavodiga ega bo'ldi. Keyinchalik I.A. Pervushinning zavod va mablag'lari yanada ko'paydi. 1890-yillar hujjatlarida "Pervushinlar savdo uyi" eslatiladi, 1896 yilda unga tamaki va papiros fabrikalari, spirt, spirt olish, vino zavodlari qarar edi, umumiy daromadi 231 900 rublni tashkil etardi<sup>346</sup>.

Toshkent va boshqa shaharlarda "Aka-uka Shlosberg shirkati", "Aka-uka Kraft shirkati", "Y. Davidov savdo uyi", "Katta Yaroslav Manufakturasi", "B. Alekseyev shirkati", "Moskva savdo-sanoat jamiyati", "S. Morozov savdo uyi", "Treugolnik" shirkati, «Tovarishestvo» shirkati", "Aka-uka Kamenskiy savdo uyi" kabi savdo-sanoat kompaniyalari bo'lgan. Ularning aksariyati paxta savdosi bilan shug'ullanar va o'zlarining paxta tozalash zavodlari bor edi.

Shu bila birga ko'plab rus korxonalarini nomi ostida bo'lgan firma va zavodlar boshqa millatlarga tegishli bo'lgan. Bu ko'pincha xush ko'rilmagan holat bo'lsa ham kapital oqimining katta qismi shu kabi muassasalar nazoratida bo'lgan. Shuningdek, bu ko'pchilikka ma'lum bo'lgan holatlardan edi. Rossiya Davlat Dumasining 1912 yil beshinchi sessiyasida Turkistonda yirik gidrotexnika inshootlarini amalga

<sup>345</sup> Обзор Сыр-Дарьинской области. Приложение к всеподданнейшому отчёту военного губернатора области за 1886 год. Ташкент: Типо-литография Лахтина, 1887.

<sup>346</sup> Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми-XX аср бошларида Тошкентнинг "янги шахар" кисми тарихи. Ташкент – "Fan va texnologiya" — 2004. — С.57.

oshirish uchun xususiy kapitalni jalb qilish istagini bildirdi. Xususiy kapital nafaqat rus fuqarolari, balki chet elliklarniki ham bo‘lishi kerak. Aslida, Rossiyada ishlayotgan sof rus kapitallari ham kam. Moskva, Sankt-Peterburg, Riga, Lodz, Belostok, Janubi-G‘arbiy, Boku va Donetsk viloyatlariga rus kapitalistlari xizmat ko‘rsatmaydi. Rossiyada ko‘pgina rus kompaniyalari va banklari nomi ostida rus bo‘lmagan kapitallar ishlaydi. Va buning alohida zarari yo‘q. Rossiyada yirik sanoat aynan shu yirik kapitallar bilan rivojlangan. Lekin o‘rtacha ommaviy sanoatchi ko‘p hollarda ruslardir, shuning uchun Turkistonda xorijliklar yoki rus bo‘lmagan fuqarolar O‘rta Osiyo sanoatining asosiy kuchi bo‘lishidan qo‘rqishni hojati yo‘q. Rus va xorijiy aksiyadorlik jamiyatlarining Rossiyada ochilishi shuni ko‘rsatadiki, hatto Turkistonda ham o‘rtacha rus sanoatchilari O‘rta Osiyo rus mulklaridagi daromadli korxonalarini qo‘yib yubormaydilar<sup>347</sup>. Shuning uchun o‘lkani o‘zlashtirishda yahudiy, arman va boshqa xorijliklarni Turkistondagi sanoat rivojida ishtirok etishlari ruxsat berish lozim deb hisoblangan. Faqatgina bitta shart bilanki bu kapitallarning barchasini sudxo‘rlik, siyosatchilik izlari qolmasligi va o‘rtacha rus fuqarosi - tadbirkor ham mustahkam o‘rnashishi va soni ko‘payishi uchun sharoit yaratish kerak, bu Yevropa Rossiyasining aksariyat sanoat mintaqalarida kuzatilmogda<sup>348</sup>.

Shu bilan birga, ko‘plab nemis va avstriyalik fuqarolar - savdo-sanoat firmalarining egalari va hamkorlari (Gerxard va Gey, aka-uka Kraft, aka-uka Knop, Lui Zalma, aka-uka Shlossberglar va boshqalar), soxta savdolar orqali ruscha familiyali shaxslar, shu jumladan, rus fuqarolari yordamida rus tilida o‘z korxonalarining nomini o‘zgartirganlar va hokazolar o‘z mol-mulkini xatlovga olishdan to‘liq yoki qisman qochishga muvaffaq bo‘lishdi va undan daromad olishda davom etishdi. Shunday qilib, 1915 yil may oyida “aka-uka Knoplari” savdo uyi nomi «Volokno» jamiyati deb o‘zgartirildi, Gerxard va Gey kompaniyasi «Russkoye transportnoye obshestvo» (Rossiya transport jamiyati) deb o‘zgartirildi, 1917 yil boshidan «Lui Zalma» kiyim-kechak fabrikasining egasi Petr Vaxrushev hisoblana

<sup>347</sup> Оглоблинъ В.Н. Промышленность торговли Туркестана. Из путевых заметок. – Москва, 1914. –С.75.

<sup>348</sup> Оглоблинъ В.Н. Промышленность торговли Туркестана. Из путевых заметок. – Москва, 1914. –С.76.

boshlanadi. Umuman olganda raqobatchi bo‘lgan xorijiy fuqarolar subektlariga qarshi qaratilgan turli cheklash choralar, birinchi navbatda, ishchilar, hunarmandlar va mayda burjuaziya vakillariga ta’sir ko‘rsatdi. Yirik tadbirkorlar, savdogarlar sanoat va manufakturna egalariga deyarli ta’sir ko‘rsatmagan. Bu esa rus fuqarolari nomidan turli rus bo‘limgan va chet ellik fuqarolarning Turkistonda iqtisodiy faoliyat olib borishlari uchun imkon yaratib bergen.

Arman aholisi Markaziy Osiyodagi Kavkaz xalqlari orasida birinchi ko‘chib kelganlar bo‘ldi. Bular asosan mintaqani bosib olishda qatnashgan erkaklar edi. Ular Rossiya Kavkazortisidan ham, Osiyo, Usmoniyalar imperiyasidan ham ko‘chib kelishgan. Turkiston viloyati shaharlarida armanlar tomonidan ochilgan uylar va restoranlar, do‘konlar, hammomlar, hunarmandchilik ustaxonalari va fabrikalari, vino zavodlari, mehmonxonalar, yuqori daromadli uylar paydo bo‘lgan. General-major Boris Litvinov shunday eslaydi: "rus qo‘shinlari keldi, armanlar ularga ergashib keldilar...do‘konlar ochildi; ko‘proq qo‘shinlar keldi... transport kontoralari, fabrikalar, cherkov, maktab va ... armanlar, armanlar va armanlar. Arman savdogarlari tatar savdogarlarini siqib chiqarishdi, arman tikuvchilari yahudiy tikuvchilarni, haydab chiqarishdi. Armanlar – olibsotarlar, chayqovchilar, pioxona egalari, bir so‘z bilan aytganda, alohida arman kvartallari tashkil topdi"<sup>349</sup>. Armanlarning eng katta oqimi Krasnovodsk-Samarqand temir yo‘li qurilishi munosabati bilan kuzatildi, ular stansiya va ko‘priklar, lokomotiv depolari va tosh uylar qurilishida ishchi bo‘lib ishladilar. Rossiya hukumati arman ko‘chmanchilariga juda yaxshi munosabatda bo‘ldi. Armanlarning xristian bo‘lganligi ham muhim rol o‘ynagan.

XX asr boshiga kelib mintaqada mustahkam o‘rin olgan arman savdogarlarining faoliyati yanada keng miqyosga ega bo‘ldi. Arman aholisi Kaspiyorti mintaqasining yirik shahar markazlari - Ashxobod, Marv, Krasnovodsk va Qizil-Arvatda katta hajmdagi ichki savdoni olib boradi. Shunday qilib, XX asr boshlarida S.Axnazaryants, A.Nersesyants va Ter-Mikirtychevlar meva, qand, paxta

---

<sup>349</sup> Оглоблинъ В.Н. Промышленность торговли Туркестана. Из путевых заметок. – Москва, 1914. – С. 24-25

savdosi bilan shug‘ullangan. Ter-Mikirtychevlar Ashxobod va Marvda ham sanoat tovarlari bilan savdo qilganlar. Palbandyants, Kevorkov, Ter-Sarkisov, S.Gabrielov, S. Asriyants, K. Petrosyants, G. Ter-Mesropyants, D. Ter-Oganesov, A. Ter-Teryants, aka-uka T. va A.Bunyatovlar, A.Ter-Teryants tuz va un bilan ham savdo qilgan. Ashxobodda yog‘och savdosi bilan Axnazarovlar, Orbelyants, Ter-Akopyants, M.Agabekov va boshqalar shug‘ullangan. Po‘lat, temir va quyma temirdan yasalgan metall buyumlarni Arutyunovlar, Vartapetyants va T. Mikirtychyanlar sotgan. Aka-uka Arutyunovlar ham apparat savdosi bilan shug‘ullangan. A. Nersesyants va A. Azadovlar Ashxobodda jun savdosi bilan shug‘ullanganlar. Ikkinchisi charm buyumlarni ham sotgan. Ter-Bagdasaryants Ashxobodda un mollari, Ter-Avanesov vino va aroq, Sapamyants tamaki, A.Akopov paxta va kerosin savdosi bilan shug‘ullangan. Quruq mevalar Burgayants va Atayants savdogarlari tomonidan sotilgan. Marvda Telyants oziq-ovqat savdosi bilan shug‘ullangan, galantereya buyumlarini Avanesov, Tumanyants va Bagdasarovlar sotgan; Sanoat tovarlari savdosi bilan Ter-Teryants va Pogosyants, Avetisovlar va Mikirtychevlar shug‘ullangan. Hayrapetyants va Grigoryants un omborlariga ega bo‘lib, un sotardi. Avanesov, Kocharov va Saakov tayyor ko‘ylaklar sotgan. Marvda sanab o‘tilgan savdogarlardan tashqari E. Galustov, K. Arzumanov, G. Mirzoyants, A. va I. Arutyunovlarning ham turli xalq iste’mol mollari sotiladigan do‘konlari bo‘lgan<sup>350</sup>.

Kaspiyorti viloyati iqtisodiyotidagi armanlarning pozitsiyalari haqida armanlar qo‘lida nafaqat ishlab chiqarilgan, galantereya va oziq-ovqat mahsulotlari bo‘lgan yirik do‘konlar edi... ammo hatto barcha mayda savdo, shu jumladan, ko‘kalamzorlashtirilgan do‘konlar va sandiqlardan kichik narsalarni sotish ham ularda jamlangan edi... Bu asosiy va ikkinchi darajali shaharlarda ham ko‘rinadi<sup>351</sup>.

1909 yil 13 dekabrda viloyatlardagi armanlar nima bilan shug‘ullanyapti, mulkka egami, qanaqa hujjatlari bor kabi ma’lumotlar berishni so‘rab viloyatlar

<sup>350</sup> Участие армян-переселенцев в развитии торговли в Закаспийской области (конец XIX — начало XX вв.) // <https://nashasreda.ru/uchastie-armyan-pereselencev-v-razvitiu-torgovli-v-zakaspiskoj-oblasti/>

<sup>351</sup> Обзора Закаспийской области с 1882 по 1890 год". Асхабад, 1892. – С.170.

mas'ullariga xat jo'natadi<sup>352</sup>. Shunga javoban Samarqand viloyatida Samarqand shahrida 20 nafar arman o'zining ko'chmas mulkiga ega. Samarqand uezdida 18 kishida bor, deyilgan<sup>353</sup>.

Mashg'uloti bo'yicha qilingan ro'yxatda esa asosan ijaraidan keladigan daromadlarga egalar, savdogar, prikazchik, qassob, restoran egasi, saksovul savdogari, quruq mevalar sotuvchisi, kanselyariya mahsulotlari sotuvchisi, duradgor, kiyim tikuvchi, aravakash, vinochi, non pishiruvchi, pivo zavodida ishchi, chilangar, kosib, zargar, yevropacha oshxonada oshpaz, shaxsiy magazinida sotuvchi, restoran egasi, sovun sotuvchisi, kontorachi, yengil izvoshchi, soatsoz, yuk tashiydigan izvoshchi, sartarosh kabilar bo'lgan<sup>354</sup>.

Kattaqo'rg'onda ro'yxatga olinganlarning aksariyati savdogarlik, prikazchik, mayda sotuvchi, attorlik bilan shug'ullanlar<sup>355</sup>. Yettisuv viloyatidagilari o'rmonchi, sartarosh, irrigator, duradgor, toshchi, bo'yoqchi bo'lgan<sup>356</sup>.

Kaspiyorti viloyatidagilari 1910 yil 12 aprel holatiga ko'ra savdogar, usta, baliq sanoatida, muassasalarda ishchi, kosib, duradgor, uy egasi, qora ishchi(juda kam), 803 nafari o'z uyiga ega aka uka Nazaryanlar firmasi va davlat yerlarida ishslashgan<sup>357</sup>.

Farg'ona viloyatida 1910 yil 5 maydagi xatiga ko'ra 52 nafar arman o'zining uyiga va yer maydonlariga ega bo'lgan. Ular orasida savdogar, shuningdek, hech nima bilan shug'ullanmaydiganlar ham ko'p bo'lgan. Toshchi, savdogar, o'z omborxonalariga ega bo'lganlar ham bor edi<sup>358</sup>.

Farg'ona viloyatida 589 nafari o'z uyiga ega bo'lmadan ular pivochilar, mexmonxona ishchilari, oshxona, restoran, kafe egalari, mayda tovarlar, manufakturna mahsulotlari, baqqollik, go'sht mahsulotlari, paxta, o'tin, kerosin

<sup>352</sup> ЎзМА. И-1, 17-рўйхат, 774-иш, 14 варак.

<sup>353</sup> ЎзМА. И-1, 17-рўйхат, 774-иш, 16 16 об-вараклар.

<sup>354</sup> ЎзМА. И-1, 17-рўйхат, 774-иш, 18 25 об вараклар

<sup>355</sup> ЎзМА. И-1, 17-рўйхат, 774-иш, 26 варак,

<sup>356</sup> ЎзМА. И-1, 17-рўйхат, 774-иш, 28 28 об вараклар

<sup>357</sup> ЎзМА. И-1, 17-рўйхат, 774-иш, 29 31 об вараклар

<sup>358</sup> ЎзМА. И-1, 17-рўйхат, 774-иш, 33 36 вараклар.

sotuvchisi, temirchi, duradgor, soatsoz, sartarosh, non pishiruvchi kabilarda ishlaganlar<sup>359</sup>.

Sirdaryo viloyatidagilarning aksariyatini o‘z uyi bo‘lmagan. Savdogar(juda ko‘p), ishchi, kiyim tikuvchi (ko‘p), etik tozalovchi, ishchi (kam), shippak tikuvchi, bufetchi, kosib, non pishiruvchi, qora ishchi (saksovul sotuvchi), pioxonasi bor, ofitsiant kabilar bo‘lgan<sup>360</sup>.

Hindlar uzoq vaqt davomida Turkistonga tashrif buyurishgan. Ular orasida musulmonlar ko‘p bo‘lib, ularning aksariyati savdo-sotiq bilan shug‘ullangan, ba’zilari esa O‘rta Osiyo madrasalari, asosan, Buxoro va Samarcand hujralariga “joylashib olgan”. Bu toifadagi “hindlar” O‘rta Osiyo xonliklarida hech qanday konfessiyaviy noqulaylikni his qilmaganlar. Biroq, Hindistonning Markaziy Osiyodagi mahalliy aholisi orasida taniqli qismi “arya dxarma” oqimi tarafdarlari edi. XIX asrning oxirida Turkistonga tashrif buyurgan chet ellik tadqiqotchilar hind musulmonlar va hindlarni nafaqat tashqi qiyofasi, balki kasbi bilan ham ajratish mumkinligini ta’kidlaganlar. Musulmonlar choy, ipak, kitob va boshqa narsalar savdosi bilan, hindlar esa sudxo‘rlik bilan shug‘ullanishgan<sup>361</sup>. Bu haqiqat boshqa ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan ta’kidlangan. A. Vamberining yozishicha, XIX asr o‘rtalarida Buxoro xonligida 500 ga yaqin hindlar yashagan va “ularning barchasi sudxo‘rlik bilan shug‘ullangan”<sup>362</sup>. Mahalliy yahudiylar Markaziy Osiyoda ham faol ishtirok etishganiga qaramay, hindlar “foiz” savdosida o‘zlarining “o‘rinlari”ga ega edilar va bu bilan o‘zları uchun foyda keltirmasdan qolishmas edi.

Markaziy Osiyodagi hind jamoalari dastlab Britaniya fuqarolaridan iborat edi. O‘rta Osiyo xonliklarida ularning fuqaroligi unchalik hisobga olinmagan va ularga “g‘ayridinlar” sifatida qarashgan, ammo bu musulmon muhitida taqiqlangan sudxo‘rlik bilan shug‘ullanishlariga to‘sinqilik qilmagan. Markaziy Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinganidan keyin ular odatiy “kasblari”ga moyillikni

<sup>359</sup> ЎзМА. И-1, 17-рўйхат, 774-иш, 37 40 вараклар

<sup>360</sup> ЎзМА. И-1, 17-рўйхат, 774-иш, 45 50 вараклар

<sup>361</sup> Литвинов П.П. Государственно-религиозные этноконфессиональные отношения в Туркестане (1865-19 17гг.) (по архивным материалам) (Часть 1) Специальность 07.00.03 - всеобщая история (новое и новейшее время) Диссертация на соискание учёной степени доктора исторических наук. – Москва, 1997. – С.394.

<sup>362</sup> Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. Спб. , 1865, с. 184.

saqlab qolishdi. Rossiya hukumati bir muncha vaqt unga yetarlicha e'tibor bermadi, ammo keyin milliy va konfessional omillarni e'tiborsiz qoldirib, unga qarshi kurashishga o'tdi. Ushbu kurash cheklangan natijalarga erishdi, chunki bu mintaqaning iqtisodiy hayotidagi hodisa sifatida sudxo'rlik asoslariga ta'sir qilmadi.

1877 yil 30 sentabrdagi Farg'ona viloyati O'sh uezdida istiqomat qilayotgan hindlar to'g'risidagi ma'lumotlar keltiriladi. Unda keltirilgan shaxslarning aksariyati sudxo'rlik va aholiga foiz evaziga qarz berish bilan shug'ullanishlari ma'lum bo'ladi. Ularning aksariyatini katta yer uchastkalari va keng hovlilari borligi keltirilgan. 18 nafarining esa uy joyi yo'qligi va faqat foiz evaziga pul berish bilan shug'ullanishlari qayd qilingan<sup>363</sup>.

Andijon uezdi boshlig'ining 1877 yil 8 oktabrdagi Farg'ona viloyati harbiy gubernatoriga yozgan raportida uning uezdida istiqomat qilayotgan hindlar to'g'risida ma'lumotlar beradi. Unda 73 nafar hindlarning ma'lumotlari bo'lib, ularning aksariyati yer mulki va uy joylari borligi haqida ma'lumotlar keltirilgan<sup>364</sup>.

Chust uezdi boshlig'ining 1877 yil 12 oktabrdagi Farg'ona viloyati harbiy gubernatoriga yozgan raportida esa 10 nafar hindlar borligini ma'lum qiladi. Ularning barchasi foiz evaziga pul berish bilan shug'ullanganlar<sup>365</sup>.

Namangan uezdi boshlig'ining 1877 yil 12 oktabrdagi Farg'ona viloyati harbiy gubernatoriga yozgan raportida esa 28 nafar hindlarning ro'yxati keltirilib, ularning barchasi mahalliy aholiga foiz evaziga pul berish bilan shug'ullanganlarini yozadi<sup>366</sup>.

Marg'ilon uezdi boshlig'ining 1877 yil 14 dekabrdagi Farg'ona viloyati harbiy gubernatoriga yozgan raportida esa Marg'ilon shahrida 170 nafar hindlar bo'lib, faqatgina Marg'ilon shahrida ularning hech biri yer mulkka ega bo'lmay, Shahrixon, Asaka, Aravon, Quva, Auval volostlarida yashaydiganlarining ayrimlari

---

<sup>363</sup> ЎзМА. И-19-фонд, 1-рўйхат 10560-иш, 5-8 -вараклар.

<sup>364</sup> ЎзМА. И-19-фонд, 1-рўйхат 10560-иш, 12-14 -вараклар.

<sup>365</sup> ЎзМА. И-19-фонд, 1-рўйхат 10560-иш, 16-варак.

<sup>366</sup> ЎзМА. И-19-фонд, 1-рўйхат 10560-иш, 18-19 -вараклар.

yer mulkka ega ekanliklari qayd qilingan. Bu yerda ham ularning barchasi foiz evaziga pul berish bilan shug‘ullanganlar<sup>367</sup>.

Qo‘qon uezdi boshlig‘ining 1879 yil 28 martdagি Farg‘ona viloyati harbiy gubernatoriga yozgan raportida uezdda yashovchi 61 nafar hindlarning ro‘yxati keltirilib, ularning barchasi mahalliy aholiga foiz evaziga pul berish bilan shug‘ullanganlarini yozadi<sup>368</sup>. Shu bilan birga ayrimlarining qishloqlarda kichik miqdordagi yerlari qayd qilingan.

Kaufmanning sudxo‘rlikka qarshi harakatlari sezilarli natijalarga olib keldi. Agar 1877 yilda Toshkentda 136 nafar hind yashagan bo‘lsa, 1882 yilga kelib ularning atigi 40 nafari bor edi va faqat 12 nafari yashirin sudxo‘rlik bilan shug‘ullangan<sup>369</sup>. Ushbu hindlarning aksariyati o‘z yurtiga qaytmasdan Buxoro amirligi hududlariga o‘tib faoliyatini davom ettirganlar. Chunki u yerda xuddi yahudiylargacha o‘xshab boshqa e’tiqodlilar singari soliq to‘lab, bemalol o‘z ishlarini davom ettirishlari mumkin edi<sup>370</sup>.

Mahalliy aholini hindlar tomonidan ekspluatatsiya qilinishi Turkiston general-gubernatorligi ma’muriyatiga ham xush kelmaydi. Ularning faoliyatini cheklashga qaratilgan 1877 yildagi Turkiston general-gubernatorligi tomonidan chiqarilgan sirkulyarida Toshkent shahar boshlig‘ining hindlar tomonidan yerlardan foydalananishni ta’qiqlash to‘g‘risidagi buyrug‘i ma’lumot uchun qabul qilinadi<sup>371</sup>. General-mayor Ivanov tomonidan Zarafshon okrugida o‘z hukumatining yozma roziligesiz Zarafshon okrugida yashayotgan hindlarni jinoiy javobgarlikka tortishi mumkinligi to‘g‘risida topshiriq beriladi. 1881 yil Qo‘qon uezdi boshlig‘i hindlar tomonidan ekspluatatsiya qilinishiga qarshi choralar ko‘rish bo‘yicha jinoiy ishlar qo‘zg‘atila boshlangan<sup>372</sup>. Hujjatlar shuni ko‘rsatadiki, Kaufmanning “halokatli”

<sup>367</sup> ЎзМА. И-19-фонд, 1-рўйхат 10560-иш, 21-25 -вараклар.

<sup>368</sup> ЎзМА. И-19-фонд, 1-рўйхат 10560-иш, 18-19 -вараклар.

<sup>369</sup> Литвинов П.П. Государственно-религиозные этноконфессиональные отношения в Туркестане (1865-19 17гг.) (по архивным материалам) (Часть 1) Специальность 07.00.03 - всеобщая история (новое и новейшее время) Диссертация на соискание учёной степени доктора исторических наук. – Москва, 1997. – С.396.

<sup>370</sup> Низамутдинов И. Г. Об индийском ростовщичестве и его формах в Бухарском ханстве /XIX - начало XX вв. /- Ташкентский государственный университет им. В. И. Ленина, вып. 556, Ташкент, 1978. – С. 43.

<sup>371</sup> ЎзМА. И 36-фонд, 1-рўйхат,,1375-иш, 3-варак.

<sup>372</sup> ЎзМА. И 19-фонд, 1-рўйхат,, 612-иш, 7-варак.

sirkulyaridan keyin hindular Yettisuv viloyatini “o‘zlashtirishga” va ko‘chmanchi aholi orasida “ishlashga” harakat qilishgan. Biroq, bu yerlar birinchidan, tatarlarning kuchli iqtisodiy ta’siri ostida edi. 1880 yil dekabr oyida Yettisuvda Supa Tanzinning aniq moliyaviy asosga ega bo‘lgan “sirli” qotilligidan so‘ng mintaqadagi “hind” sudxo‘rlarining faoliyati deyarli to‘xtaydi<sup>373</sup>.

1897 yili Toshkent shahrida yashayotgan hindlar ro‘yxati va Sirdaryo viloyati boshqarmasi bilan ularning mahalliy aholiga zararli ta’siri sababli turli huquqlardan mahrum qilish to‘g‘risida qarorlar chiqariladi<sup>374</sup>. Natijada o‘lkada faoliyat olib borgan ko‘plab hindlar qamoqqa olina boshlanadi<sup>375</sup>. 1897 yilgi arxiv hujjatlarida hindlarning Yaxina pristavligi va Toshkent qamoqxonalarida ularga nisbatan zo‘ravonligi yuzasidan shikoyatlari saqlanib qolgan. Shu bilan birga Toshkent shahrida yashayotgan hindlarni ularni kechirilishini so‘rab yozgan iltimosnomalari ham ko‘plab uchraydi<sup>376</sup>. Umuman mazkur ko‘rilgan choralar hindlarning Turkiston o‘lkasidagi iqtisodiy faoliyatga juda katta zarba beradi. Turkistonning aksariyat hududlarida ularning faoliyat doirasi va ta’siri keskin pasayadi.

Sharqiy Turkistondan ko‘chib kelgan aholi Turkistondagi ishlab chiqarish jarayonlarida ham faol ishtirok etganligini ta’kidlash lozim. Zero, XIX asrning oxirlarida Qoshg‘ardan uyg‘urlarning ko‘chib o‘tishlariga eng katta sabablardan biri, yollanib ishslash (koranda)ning ko‘p kuzatilganligida edi. Yollanib ishlovchilar odatda bahorda kelib, kech kuzda qaytib ketganlar. Shuning uchun rus tadqiqotchilari ularga nisbatan “sezonniki” - “mavsumiy ishchilar” degan iborani qo‘llaganlar. Farg‘onada qoshg‘arliklar turli ishlarga ko‘pincha kunlik ishlarga yollangan. Yollanib ishlovchilarning katta qismi paxta dalalarida mehnat qilganlar. Bu yerdagi daromad (Qoshg‘ardagidan ancha ko‘p bo‘lgan) mavsumiy ishchilarga butun qish davomida oilasini boqish imkonini bergen. Shu bois ular astoydil mehnat qilib, o‘zlariga ish bergen kishilarning ishonchini qozonishga harakat qilganlar. Natijada ba’zi katta yer egalari o‘zlarining ekin maydonlarini ularga ijara berib,

<sup>373</sup>

<sup>374</sup> ЎзМА. И 36-фонд, 1-рўйхат, 3691-иш, 14-варак.

<sup>375</sup> ЎзМА. И 17-фонд, 1-рўйхат, 1663(145)-иш, 5-варак.

<sup>376</sup> ЎзМА. И 1-фонд, 4-рўйхат, 328(26)-иш, 3-варак

butun mavsum davomida o‘zlarining yerida ishlatishga harakat qilgan holatlari ko‘plab uchragan. Qoshg‘arliklar mohir oshpaz bo‘lganlar, shuning uchun Farg‘ona oblastida ko‘plab oshxonalar ochishgan. 1904 yilda ularning soni 14556 kishi bo‘lgan bo‘lsa, 1913 yilda Farg‘ona oblastiga ko‘chib kelgan uyg‘urlar (qoshg‘arlik) ning soni 50094 kishini tashkil qilgan<sup>377</sup>. Bundan tashqari mavsumiy ishchilar o‘zlar bilan bu yerdan manufaktura, shakar, kerosin, temir buyumlar va boshqa narsalarni olib ketganlar. Asosiysi ular bu yerda vatanlaridan ko‘ra kamroq hukumat tayziqlariga uchraganlar<sup>378</sup>. Shu bilan birgalikda ishchi kuchiga to‘lanadigan ish haqi ham ortib bordi. Jumladan, 1900 yildan 1911 yilgacha 3.3 marta o‘sib, bir kunlik ish haqi 2 rublga yetadi<sup>379</sup>.

Ko‘plab yollanma ishchilar bu yerda butunlay qoladilar va hatto, Sharqiy Turkistondagi qarindoshlarini chaqiradilar. Farg‘ona viloyatida qolgan qoshg‘arliklarning soni anchagina edi. Faqagina 1912-1913 yillarda Xitoyga chiqqan va kirganlarning farqi 13175 nafarni tashkil qilgan.

Qoshg‘ar aholisining murakkab iqtisodiy sharoiti va qayta ishlash sanoati yo‘qligi uchun ortiqcha ishchi kuchlar mavjud bo‘lgan. O‘zlar uchun ular mehnat taklifini Farg‘onaning tog‘-kon sohasida, ayniqsa, tosh-ko‘mir konlarida topishgan.

XIX asrning oxirlarida Turkiston o‘lkasining Sirdaryo hamda Toshkent hududlariga savdo-sotiq va tabiblik ishlari bilan 5 mingdan -6,5 minggacha, Farg‘onaga esa 3-4 mingdan ortiq savdogar va tabiblar kelgan. Bunday tabib va savdogarlarni ilgaridan Farg‘onaga kelib turganligi va doimiy yashaganliklari ham ma’lum. Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy ahvolning og‘irligiga qaramay XX asrning dastlabki yillarida Turkiston (g‘arbiy) ga ko‘chib o‘tayotgan sharqiy turkistonliklarning soni yildan-yilga oshib borgan<sup>380</sup>.

Rossiya imperiyasi uchun davlatga qarshi qo‘zg‘olon ko‘nikmalariga ega bo‘lgan, yer bilan ta’minlanishga muhtoj, Manchjuriya - Xitoy mahalliy

<sup>377</sup> Акбаров Р.Г. Хозяйственные взаимоотношения и социально-экономическая жизнь населения Ферганской долины во 2-й половине XIX – начале XX века.: Дисс. ... канд. истор. наук. – Ташкент, 2003. – С.143.

<sup>378</sup> Ўша жойда – С.44.

<sup>379</sup> Ўша жойда.

<sup>380</sup> Акбаров Р.Г. Хозяйственные взаимоотношения и социально-экономическая жизнь населения Ферганской долины во 2-й половине XIX – начале XX века.: Дисс. ... канд. истор. наук. – Ташкент, 2003. – С.57.

hokimiyatlarining qonunsizligi va o‘zboshimchaliklaridan charchagan va ularga nisbatan noto‘g‘ri siyosatga toqatsiz, har qandaydir lahzada “gugurtdek alangalanib” ketishi mumkin bo‘lgan subektlarni ko‘chirish bir tomondan siyosiy, iqtisodiy va harbiy jihatdan ko‘p muammolarni keltirib chiqargan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, o‘ylangan va oqilona siyosat bilan uyg‘ur, dungan, qozoqlarning kirib kelishi sabab, soliqqa tortiladigan aholi soni qo‘sildi. Bu esa shunga mos ravishda hukumat g‘aznasiga pul tushumlarini ko‘paytirdi.

Agar Turkiston mintaqasidagi Buxoro yahudiylarining huquqiy maqomi 1868 va 1873 yillardagi Rossiya-Buxoro shartnomalari bilan belgilangan bo‘lsa, unda boshqa Osiyo davlatlari subektlari bo‘lgan O‘rta Osiyo yahudiylarining huquqiy holati biroz boshqacha edi. Rossiya qonunchiligiga ko‘ra, ular fuqarolikni qabul qilish huquqiga ham ega edilar. Biroq amalda ushbu huquqdan ular foydalana olmaydilar. Ammo Buxoro yahudiylaridan farqli o‘laroq, ular Rossiya hududida “erkin” joylashish va savdo qilish huquqiga ega emas edilar. 1886 yildan keyin va ayniqsa, 1900 yildan boshlab ularning huquqiy maqomi ko‘p jihatdan Buxoro yahudiylari maqomiga yaqinlashdi. Buxorolik va buxorolik bo‘lmagan yahudiylar “chet elliklar” ning huquqiy maqomidagi farq Kaspiyorti mintaqasida juda sezilarli edi.

O‘rta Osiyo yahudiy fuqarolarining huquqiy holati boshqacha edi. Buxoro yahudiylari 1868 va 1873 yillardagi shartnomalar asosida Rossiya hududida juda keng savdo huquqlariga ega edilar. Mintaqada Rossiya qonunchiligi bilan xon hokimiyatining o‘zboshimchaliklaridan himoyalangan Buxoro-yahudiy poytaxtining mavqeini ancha mustahkamlandi. 1886 yildagi “Turkiston holati” bu Buxoro yahudiylarini chet el subektlari sifatida “ko‘chmas mulk” sotib olish huquqidan mahrum qildi, bu ularning iqtisodiy mavqeiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi, ammo iqtisodiy kuchayish tendensiyasini yo‘q qilmadi. Hukumat ma’muriyati turli xil profilaktika choralar yordamida Buxoro-yahudiy kapitalini zaiflashtirishga harakat qildi, ammo Rossiya sanoati va savdosi manfaatlariga sezilarli zarar yetkazishdan qo‘rqib, ular bilan to‘liq “aloqalarni uzish” ga bormadi.

Shunday qilib, Turkiston o‘lkasi “mahalliy” yahudiylarining huquqiy maqomi mustamlaka tuzumi tugaguniga qadar o‘zgarishsiz qoldi va Kaufmanning 1876

yildagi aylanma buyrug‘i bilan belgilandi, bu ularga hayotda juda keng huquq va imkoniyatlar berdi.

XIX asr oxiri-XX asr boshlarida zamonaviy O‘zbekiston hududida yashagan Buxoro yahudiylari orasida yirik savdogarlar va sanoatchilarning kichik, ammo iqtisodiy jihatdan ta’sirchan qatlami paydo bo‘ldi. Ular paxta savdosida yetakchi rol o‘ynadilar, o‘sha paytda tez o‘sish davrini boshdan kechirayotgan Turkiston viloyatining paxta tozalash va paxtani qayta ishlash sanoatini rivojlantirishga katta sarmoya kiritdilar. Asta-sekin Rossiya-Markaziy Osiyo savdosining tashabbuskorlari, Xludovlar, Pudishevlar, Pervushinlar va boshqalarning rus savdogar uylari, chetga surildi. Eng yirik paxta ishlab chiqaruvchi mintaqasi Farg‘onada 20 ta bankdan faqat 2 tasi-Moskva va Voljsk-Kamskiy rus tadbirkorlari tomonidan nazorat qilingan, qolganlari esa Buxoro yahudiylari qo‘lida edi. Ikkinchisi O‘rta Osiyodagi Rossiya hududlarida juda tez boyib ketdi, chunki muslimmon hokimiyatining o‘zboshimchaliklari yo‘q edi va homiylik qonunchiligi mavjud edi. Hujjatlarda bunday boyitishning ko‘plab misollari mavjud<sup>381</sup>.

Shu bilan birga, Rossiyadan Turkiston o‘lkasi, Buxoro va Xiva xonliklariga nisbatan arzon zavod matolarining kirib kelishi yahudiy bo‘yoqchilari va to‘quvchilarining ko‘pchiligining vayron bo‘lishi va qashshoqlashishiga olib keldi; ularning aksariyati kichik savdo, shu jumladan, savdo-sotiq bilan shug‘ullanishi yoki daromad izlashi kerak edi<sup>382</sup>.

1885-1890 yillarda Toshkentda deyarli yahudiylar magazinlari bo‘lmagan bo‘lsa, keyinchalik butun savdo ishlari yahudiylarda va ularning qo‘lida shahar dehqonchiligining ham bir qismi to‘plangan. Qo‘qon va Samarqandda yana ham katta hajmdagi yerlar yahudiylar tomonidan egallab olingan. Arxiv manbalarida “yahudiylar Andijonni ham egallab olmoqdalar va Krasnovodsk hamda Orol dengizidagi shakllanayotgan Turkiston baliqchilik markazlarida ham yahudiylar paydo bo‘lmoqda, deb tashvish bildirilgan<sup>383</sup>.

<sup>381</sup> ЎзМА. И-17-фонд, 1-рўйхат 10956-иш, 41-варак.

<sup>382</sup> Гитлин Семен Исаакович Европейские евреи в русском Туркестане на рубеже XIX-XX вв // Вестник РУДН. История России. 2018. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/evropeyskie-evrei-v-russkom-turkestane-na-rubezhe-hih-hh-vv> (дата обращения: 17.09.2022).

<sup>383</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат, 5146-иш, 3-об-варак.

Turkiston general-gubernatorligi hududidagi yahudiylar garchi azaldan yashab kelgan bo‘lsalar ham keyinchalik ular safi Yevropa hududlaridan ko‘chib kelgan savdogar, hunarmand va tadbirkorlar bilan kengayib bordi. Shu boisdan Turkiston general-gubernatorligi hududlarida istiqomat qiladigan millatlar ichida o‘ziga xos o‘rin tuta boshladilar.

Turkistondagi yahudiylarning mavqeい Rossiya imperiyasining umumiy qonunchiligi bilan tartibga solingan. Qonun Turkistonga faqat ma’lum, imtiyozli yahidiy toifalari nafaqadagi quyi mansabdor shaxslar, hunarmandlar, 1-gildiya savdogarlari hamda nomzodlik va magistrlik darajasiga ega mutaxassislarga joylashishiga ruxsat bergen. Sanab o‘tilgan kasblar nisbatan yuqori malaka va ma’lumotni talab qilgan. Buning natijasida mintaqadagi yahudiylarning iqtisodiy va madaniy faolligi ularning umumiy sonidan oshdi. Ayniqsa, alohida shaharlardagi yevropalik yahudiylarning salmog‘i ortib borgan. Yevropa yahudiylarining asosiy qismini hunarmandlar va kichik korxonalar ishchilari - tikuvchilar, kosiblar, duradgorlar, metallurglar, temir yo‘lchilar va boshqalar tashkil etgan.

Rossiyadan kelgan yahudiylarning asosiy qismini tadbirkorlar, savdogarlar va sanoatchilar tashkil etgan. Lekin ularning ko‘pchiligini hunarmandlardan ajratish qiyin edi, chunki Turkistonda bir nechta istisnolardan tashqari korxonalar juda kichik edi. Yahidiy hunarmandlarining mamlakatdagi obro‘sni juda yuqori bo‘lgan. Hatto yahudiylarning alohida ko‘zga ko‘ringan hunarmandlari va ustalarini mukofotlash hollari ham bo‘lgan. Nafaqadagi oddiy Gunzburg Vernenskiy kasb-hunar mакtabida poyafzal tikishdan dars bergen va general-gubernator tomonidan “foydalilik va tartiblilik” va “maktabda o‘quvchilarning tartib va axloqiy yuksalishidagi xizmatlari uchun” kumush medal bilan taqdirlangan<sup>384</sup>.

Biroq yevropalik yahudiylar orasida mintaqaning iqtisodiy hayotida katta rol o‘ynagan yirik kapital egalari ham bo‘lgan. Shunday qilib, savdogar Grigoriy Xesin qisqa vaqt ichida yuqori sifatli, rivojlanmagan viloyatning og‘ir sharoitida, Yettisuv va Sirdaryo viloyatlari orqali Toshkentga telegraf qurdi. Yehuda Smorguner 1885

---

<sup>384</sup> Гитлин С.И. "Европейские евреи в русском Туркестане на рубеже XIX-XX вв" Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: История России, vol. 17, no. 2, 2018. – С. 296.

yil yanvar oyida Zarafshon tumanidagi Shamxor ko‘mir konini o‘zlashtirish huquqini qo‘lga kiritdi. Musa Gilelevich Flaksman Yangi Buxoroda faol tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirdi. 1890-yilda paxta tozalash zavodi, 1909-yilda neft zavodini qurdi. Rossiya imperatorlik siyosiy agentligining Buxorodagi boshlig‘i (aslida rus noibi) “har ikki korxona ham yaxshi yo‘lga qo‘yilgan va juda muvaffaqiyatli ishlayapti”, deb yozadi<sup>385</sup>.

Shunday bo‘lsa-da qator Turkiston o‘lkasidagi yangi qatlamga aylangan yahudiylar turli savdo uylari tashkil qilishib, faol iqtisodiy munosabatlarga kirishganlar. Xususan, Y. Davidov savdo 1906 yilda tashkil etilgan. “Yusuf Davidov” savdo uyining egalari 11 kishi edi: birinchi gildiya savdogari Yusuf Davidovich Davidov, ikkinchi gildiya savdogari Issahar Davidovich Davidov, birinchi gildiya savdogar Benyamin Abramovich Abramov; Yusuf Davidovaning qizlari - Yuno, Yuxanan, Sion, Raxmin; Isaxar Davidovning bolalari - Abram, Natan; va Rafael Abramovich Abramovlar. Savdo uyi tomonidan Moskvaga paxta, jun, meva va boshqalar eksport qilinardi. Aka-uka Davidovlarga Toshkent, Pskent, Namangan va Konibodomdagi 4 ta paxtachilik zavodi, Toshkentdagи pivo zavodi va omborxona tegishli bo‘lgan<sup>386</sup>. Barcha to‘sqliarga qaramay, hatto savdo-sotiqning pasayishi jarayonida ham yahudiy firmalari (Davidovlar, Boruxovlar va Isaxarovlar) paxta eksporti va manufakturani sotish bo‘yicha o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli davom ettirdilar. Faqat 1917 yildagi notinch voqealar Turkiston o‘lkasidagi yahudiy savdo uylarining tadbirkorlik faoliyatiga chek qo‘ydi.

Yahudiy mutaxassislari nafaqat sanoatni rivojlantirishda, balki temir yo‘l qurilishida ham katta rol o‘ynaydi. Ayniqsa, Toshkent-Orenburg yo‘lida Ashkenazi yahudiylari, pudratchilar, shifokorlar va huquqshunoslar sifatida katta rol o‘ynaganlar. Texnik ziyorolar qatorida yevropalik yahudiyalar ham qurilish yo‘li

---

<sup>385</sup> Рабич Р. Российские евреи в дореволюционном Туркестане: Правовое и социальное положение (1864–1914 гг.) // Евреи Средней Азии в прошлом и настоящем. Экспедиции, исследования, публикации: Сб. научн. тр. / Сост. И. Дворкин; отв. ред. Т. Д. Вышенская. СПб., 1995. – С. 134

<sup>386</sup> Алимджанов Б.А. «Крах» Торгового дома Ю. Давыдов: причины и последствия // История. Память. Люди: Материалы IX Международной научно-практической конференции. 27 сентября 2018 г., Алматы. – Алматы, 2019. –С.389.

qurilishida talabgor kishilardan bo‘lgan edilar<sup>387</sup>. Biroq, bir muncha vaqt o‘tgach, Rossiya hukumati temir yo‘llarni davlat mulkchilik shaklini o‘zgartirishga qaror qildi va birinchi navbatda yahudiylar butunlay chetlatiladi. Butun diasporaga xos bo‘lgan paradoksal vaziyat yuzaga kelib, yahudiylar ham “begonalar”ga aylantirilgan edi. Ular nafaqat davlat-ma’muriy apparatdan, balki, ma’lum darajada temir yo‘llar infratuzilmasidan chetlashtirildi<sup>388</sup>. Bu esa yahudiylarning Turkiston general-gubernatorligida istiqomat qilgan turli millatlar qatorida Rossiya imperiyasi tomonidan yurgizilgan siyosat natijasida aziyat chekkanliklarini ko‘rsatadi.

Umuman olganda yahudiylar Turkiston general-gubernatorligining iqtisodiy hayotida birmuncha faol bo‘ldilar. Ular Turkistonda sanoat ishlab chiqarilishi, yangi zavodlarning qurilishi Rossoiya imperiyasining boshqa hududlari bilan iqtisodiy aloqalar yo‘lga qo‘yilishida o‘z hissalarini qo‘shdilar. Ushbu jarayonlarda birmuncha qiyinchiliklar, to‘siqlar ham bo‘lganligini aytib o‘tish kerak. Biroq ularning say-harakatlari Turkiston o‘lkasi yangi kapitalistik munosabatlarga tortilishiga, ishlab chiqarish jarayoniga yangi texnologiyalar va ishlab chiqarish usullariga o‘tilishida muhim o‘rin tutdi.

Turkistondagi yana bir kam sonli aholi orasida tatarlar ham muhim o‘rin tutgan. Harbiylar, amaldorlar va tarjimonlardan tashqari tatarlar orasida masjid xizmatkorlari, kotiblar, do‘kondorlar, savdogarlar, sayyor savdogarlar, dallollar, paxta oluvchilar, taksi haydovchilar, o‘rmonchilar, kuyovlar, tosh ustalar, duradgorlar, temirchilar, tikuvchilar, poyafzalchilar, qalpoqchilar, shamchilar, zargarlar, novvoylar, duradgorlar va boshqalar ham bo‘lgan.

O‘rta Osiyodagi yevropalik muhojirlar mahalliy aholidan, ayniqsa, shaharlarda uzoqda bo‘lib, yangi kelgan rus aholisi bilan ko‘proq bog‘langan edi. Nemislар, polyaklar, litvaliklar, yunonlar, armanlar va boshqa yevropaliklarning rus va chet el fuqarolari Turkiston rus aholisining qarindosh ijtimoiy guruhlariga birlashdilar va ular bilan sinfiy birdamlik rishtalari bilan bog‘landilar. Biroq,

<sup>387</sup> Юхнев Н. В. Этническая территория и особенности расселения евреев-ашкенази России в конце XIX в. // Малые дисперсные группы в Европейской части СССР. М., 1985. – С.57.

<sup>388</sup> Гитлин С.И. "Европейские евреи в русском Туркестане на рубеже xix-xx вв" Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: История России, vol. 17, no. 2, 2018. – С.302

malakali ishchilarning muhim qismi (nemislar, skandinaviyalar, belgiyaliklar va boshqa ba'zi millatlar) boshqa ishchilar orasida imtiyozli mavqega ega bo'lib, nisbatan yuqori maosh oldilar.

XX asr boshlarida Turkistondagi yunon diasporasi olti yuzdan ming kishigacha edi. Ularning eng gullab-yashnaganlari va muvaffaqiyatlilari Toshkentda qo'nim topgan. Samarqandda asosan har xil turdag'i mayda ishchilar - jami yuzga yaqin kishi yashar edi. Yunonlar birinchi navbatda hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullangan. Ulardan ba'zilari bu borada katta muvaffaqiyatlarga erishdilar, ayniqsa, yunon savdogarlari, novvoyxonalar egalari va boshqalar bor edi. Bu borada Farg'ona vodiysida 1899-yilda qurilgan eng yirik grenaj zavodi sohiblari aka-uka Mandalakilar alohida ajralib turdi.

Yettisuv viloyat ma'muriyatining 1915 yil iyul oyidagi hisobotiga ko'ra, Yettisuv tumani ko'chirish bo'limining yo'l texnigi Vitaliy Vereshchinskiy ko'chirish boshqarmasi boshlig'idan harbiy asirlar yordamida yo'l ishlarini tashkil qilish bo'yicha topshiriq oldi. 1915 yil 15 iyulda Pishpek tumani harbiy boshlig'i harbiy asirlarni ko'chirish bo'limiga o'tkazish sanalarini tayinladi: 29 iyulda 100 kishidan iborat birinchi partiya, 1 avgustda, ikkinchisi 300 kishidan iborat bo'lgan<sup>389</sup>.

"Harbiy asirlarni davlat va jamoat ishlaridan foydalanish uchun berish tartibi to'g'risidagi qoidalar" ga binoan barcha harbiy asirlar kiyim-kechak va poyafzal bilan to'liq ta'minlanishi kerak edi. Joylashtirish bo'limiga ko'ra, mahbuslar partiyasi milliy tarkibi quyidagicha edi: yahudiylar – 141 nafar, ruslar – 80 nafar, ruminlar – 53 nafar, madyarlar – 48 nafar, nemislar – 38 nafar, polyaklar – 4 nafar, turklar – 6 nafar, italyaliklar – 4 nafar, cheklar – 1 nafar. Ulardan 67 kishi, hisobotlarda ko'rsatilganidek, "aqlli kasblar" – advokatlar, amaldorlar, xodimlar edi. Sakkiz kishi musiqachilar, 140 kishi – savdogarlar, pudratchilar, xizmatchilar, 75 kishi-turli mutaxassislikdagi hunarmandlar bo'lib chiqdi. 75 ta dehqon va

---

<sup>389</sup> Мендикулова, Г. М., Надежук, Е. А. Архивные документы о европейских военнопленных Первой мировой войны в Семиреченской области Туркестанского генерал-губернаторства (Case study) // Вестник архивиста. – 2018. – № 4. – С. 996–1008.

bog‘bonlar va 20 qora ishchilar bor edi<sup>390</sup>. Shunday qilib, aksariyat hollarda bu odamlar jismoniy mehnatga moslashmagan va ular bajarishi kerak bo‘lgan tuproq ishlari va yo‘l ishlariga aloqasi yo‘q edi.

Bundan ko‘rinib turibdiki Turkistonda nafaqat sobiq harbiylar yoki iste’fodagi harbiy xizmatchilar balki savdo-sotiq, vositachilik, sudxo‘rlik, yoki boshqa iqtisodiy manfaatlarni ko‘zlab kelgan tub bo‘lmagan aholi vakillari ham kelib joylashganlar. Ular o‘zлari faoliyat olib borgan hududlarni doimiy yashash manzili sifatida ko‘rmaganlar. Buni aholi ro‘yxati yoki qaydlarida oilasiz faqat o‘zлari yashaganlari, bu yerga ko‘chirib kelishga uncha oshiqmaganliklarida ham ko‘rish mumkin. Ular Turkiston o‘lkasi shahar va qishloqlarini aksariyat hollarda oson daromad manbai sifatida qarab o‘zining manfaatlari doirasida ish tutganlar.

Turkiston o‘lkasidagi muhim shaharlar, dehqonchilik uchun qulay bo‘lgan hududlar, savdo-sotiq va iqtisodiy markazlarda ruslar sonini ko‘paytirishga qilingan harakatlar oxir-oqibatda Turkistonda nafaqat ruslar, balki tub bo‘lmagan boshqa millatlar sonining ko‘payishiga ham olib kelgan. Bu holat nafaqat rus aholisi ko‘chirib kelishi rag‘batlantirilgan Yettisuv va Kaspiyorti viloyati, balki Farg‘ona, Samarqand va Sirdaryo kabi mahalliy viloyatlar deb aytilgan hududlarda ham ko‘payishiga olib kelgan. Bunda rus uchun alohida imtiyozlar berilishi, ko‘chib keluvchilarga munosib shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan intilishlardan boshqa tub bo‘lmagan xalqlar ham o‘z foydasiga ishlab olishga urindilar. Bu esa Birinchi jahon urushi arafasiga kelib Turkistonning aksariyat iqtisodiy jihatdan muhim joylarida tub bo‘lmagan aholi nufusining ko‘payishiga olib keldi.

Turkistonda mahalliy xalqlar ehtiyojlarini inkor qilib, faqatgina rus fuqarolari manfaatlarini ko‘zlagan holda olib borilgan iqtisodiy siyosat oxir-oqibatda tanazzulga olib keldi. Boisi tub aholini manfaatlarini inkor qilib, faol hamkorlikda ish olib borishga xohish yo‘qligi, ular bilan foydani bo‘lishishni istamasligi, yahudiylar(mahalliy), afg‘onlar, armanlar, eroniylar va hindlar kabi boshqa tub

---

<sup>390</sup> Мендикулова, Г. М., Надежук, Е. А. Архивные документы о европейских военнопленных Первой мировой войны в Семиреченской области Туркестанского генерал-губернаторства (Case study) // Вестник архивиста. – 2018. – № 4. – С. 996–1008.

bo‘lgan xalqlarning mahalliy aholi bilan rus fuqarolari o‘rtasida vositachi bo‘lib olishlariga olib keldi. Aksariyat hollarda ular bundan katta foyda oldilar va doimiy ravishda ushbu foydani yanada ko‘paytirish payida bo‘ldilar. Bu esa mahalliy aholini katta daromadlardan mahrum qilishi bilan birga ruslarning ham yanada o‘z iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishga to‘sinqinlik qilgan asosiy holatlardan bo‘ldi.

Ruslarning o‘lkada olib borgan iqtisodiy siyosatida xususiy mulkchilikni rivojlantirish o‘rniga mulkiy munosabatlarda rus fuqarolari manfaatlarini ko‘zlab, ularga ko‘plab imtiyozlarni taqdim qilinishi, aksariyat hollarda ushbu imtiyozlarning su’istemol qilinishi Turkistonning iqtisodiy rivojlanishiga ham to‘sinqinlik qildi. Oliy martabali rus amaldorlari tomonidan orzu qilingan o‘lkani koloniyalashtirishdagi amerikacha orzu AQShda qo‘llanilgan mulkiy va iqtisodiy munosabatlarni joriy qilinmaganligi bois amalgam oshmay qoldi.

### **III bob bo‘yicha xulosalar**

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida bo‘lib o‘tgan iqtisodiy o‘zgarishlarda tub bo‘limgan aholining ishtiroki katta bo‘ldi. Ular asosan Rossiya imperiyasining Yevropa qismidan kelgan aholi bo‘lsa ham, boshqa millatlar ham faol qatnashdilar. Ular qatorida ruslar bilan birga kelgan yevropalik aholi, xususan, nemislar, yevropalik yahudiylar, armanlar va boshqa millatlar bor edi.

Ular orasida imperianing hukmron toifasiga yaqin bo‘lganlari ham, o‘zining biznes faoliyatini yo‘lga qo‘ymoqchi bo‘lgan mayda burjuaziya vakillari ham bor edi. Ular Turkiston o‘lkasida tub aholi ustidan dominant mavqega ega bo‘lgan holda alohida imtiyoz va huquqlarga ega bo‘lishga intilganlar. Ushbu xatti-harakatlar tufayli nafaqat o‘lkadagi tub aholi, balki uzoq yillardan buyon shu yerda yashab kelayotgan tub bo‘limgan aholi vakillari ham aziyat chekdilar. Xususan, mayda hunarmandchilik, savdo-sotiq bilan shug‘ullanadigan Buxoro yahudiylarining aksarit qismi o‘z kasbini o‘zgartirib, boshqa ishlar bilan shug‘ullanishga majbur bo‘ldilar.

Bu esa Turkiston aholisining katta qismini tashkil qiladigan oddiy qatlami ijtimoiy-iqtisodiy holatining yanada yomonlashuviga sabab bo‘lgan. Natijada o‘lkadagi ruslar boshqaruvi, ularning yuritgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatiga qarshi norozilik kayfiyatlarining yanada yomonlashuviga olib kelgan asosiy omillardan biri bo‘lib qoldi.

Turkiston o‘lkasidagi muhim shaharlar, dehqonchilik uchun qulay bo‘lgan hududlar, savdo-sotiq va iqtisodiy markazlarda ruslar sonini ko‘paytirishga qilingan harakatlar oxir oqibatda Turkistonda nafaqat ruslar, balki tub bo‘lmagan boshqa millatlar sonining ko‘payishiga ham olib kelgan. Bu holat nafaqat rus aholisi ko‘chirib kelishi rag‘batlantirilgan Yettisuv va Kaspiyorti viloyati, balki Farg‘ona, Samarqand va Sirdaryo kabi mahalliy viloyatlar deb aytildigan hududlarda ham ko‘payishiga olib kelgan. Bunda rus uchun alohida imtiyozlar berilishi, ko‘chib keluvchilarga munosib shart sharoitlar yaratishga qaratilgan intilishlardan boshqa tub bo‘lmagan xalqlar ham o‘z foydasiga ishlab olishga urindilar. Bu esa Birinchi jahon urushi arafasiga kelib Turkistonning aksariyat iqtisodiy jihatdan muhim joylarida tub bo‘lmagan aholi nufusining ko‘payishiga olib keldi.

Turkistonda mahalliy xalqlar ehtiyojlarini inkor qilib, faqatgina rus fuqarolari manfaatlarini ko‘zlagan holda olib borilgan iqtisodiy siyosat oxir oqibatda tanazzulga olib keldi. Boisi tub aholini manfaatlarini inkor qilib, faol hamkorlikda ish olib borishga xohish yo‘qligi, ular bilan foydani bo‘lishishni istamasligi, yahudiylar(mahalliy), afg‘onlar, armanlar, eroniylar va hindlar kabi boshqa tub bo‘lgan xalqlarning mahalliy aholi bilan rus fuqarolari o‘rtasida vositachi bo‘lib olishlariga olib keldi. Aksariyat hollarda ular bundan katta foya oldilar va doimiy ravishda ushbu foydani yanada ko‘paytirish payida bo‘ldilar. Bu esa mahalliy aholini katta daromadlardan mahrum qilishi bilan birga ruslarning ham yanada o‘z iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishga to‘sinqlik qilgan asosiy holatlardan bo‘ldi.

Ruslarning o‘lkada olib borgan iqtisodiy siyosatida xususiy mulkchilikni rivojlantirish o‘rniga mulkiy munosabatlarda rus fuqarolari manfaatlarini ko‘zlab, ularga ko‘plab imtiyozlarni taqdim qilinishi, aksariyat hollarda ushbu imtiyozlarning su’istemol qilinishi Turkistonning iqtisodiy rivojlanishiga ham to‘sinqlik qildi. Oliy

martabali rus amaldorlari tomonidan orzu qilingan o‘lkani koloniyalashtirishdagi amerikacha orzu AQShda qo‘lanilgan mulkiy va iqtisodiy munosabatlarni joriy qilinmaganligi bois amalga oshmay qoldi.

## **IV BOB. TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGIDAGI TUB BO'LMAGAN AHOLI IJTIMOIY HAYOTIDAGI O'ZGARISHLAR**

### **4.1 Ta'lif va maorif sohalardagi o'zgarishlarda tub bo'lmagan aholining tutgan o'rni va ishtiroki masalalari**

O'rta Osiyo hududlari Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinganidan keyin aholi milliy tarkibida ham katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Xususan, Kaspiyorti viloyatiga ham Rossianing Yevropa qismidan aholi ko'chirtirib kelindi. Shuningdek, ushbu hududga siyosiy jihatdan notinch bo'lgan hududlardan armanlar, forslar, Sharqiy Turkistonliklar ko'chib kela boshladi. Ayniqsa, Kaspiyorti viloyatiga temiryo'lning kirib kelishi, savdo-sotiq aloqalarining kengayishi, aholining turli xizmatlarga ehtiyojlarining ortishi natijasida boshqa millat vakillarining ko'chib kelishlari kuchaydi. Ayniqsa, o'lka hukumati bu jarayonlarda aholining ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlariga e'tibor qaratishga majbur bo'ldi. Rossiya imperiyasining ko'chirish siyosati maktablar, kutubxonalar va boshqa madaniy muassasalarga muhtoj bo'lgan rus manzilgohlari va shaharlarining shakllanishiga olib keldi. Hukumat, o'z navbatida, mutaxassislar va vakolatli amaldorlarga shoshilinch ehtiyoj sezdi. Xalq ta'lmini tashkil etish (umumiyligi ta'lif, diniy maktablar, shuningdek, o'rta ta'lif muassasalarining ochilishi) Rossiya ma'muriyatining tub bo'lmagan aholining mavqeini mustahkamlashga qaratilgan ichki siyosatining muhim nuqtasi bo'lgan. Maktablarning birinchi asoschilari rus patologlari va ularning xotinlari edi. Rossiya maktab biznesining shakllanishida ma'lum bir rol viloyat rahbari K.Komarovaga tegishli edi. U mintaqadagi ta'lif tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydigan xususiy xayriya tashkilotining tashabbuskori edi.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida dasht mintaqasi va Turkistonning dehqon mustamlakasi, aholining tarkibini ruslar sonining ko'payishi tomon sezilarli darajada o'zgartirdi. Dehqonlarning ko'chirilishi yer va sanoat resurslari salohiyatini rivojlantirish zarurati tufayli ijtimoiy rivojlanishning turli sohalarida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Rossiyada modernizatsiya yangi

resurslarni, shu jumladan, Turkiston va dasht mintaqasini rivojlantirish va jalg qilishni talab qildi<sup>391</sup>.

Rossiya imperiyasidagi o‘zgarishlar mintaqada ta’lim tizimining shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Rossiya hukumati rus aholisini ruslashtirish jarayonlarini kuchaytirish va chekka hududlar aholisi orasida rus tilining tarqalishi uchun butun imkoniyatlarni ishga soldi. Rossiyaning XIX asr oxiri-XX asr boshlarida modernizatsiya tendensiyalarini kuchaytirish va rus muhoxijalarini mustahkamlash bo‘yicha ish olib borishi kerak bo‘lgan ta’lim tizimini qurish zaruratini keltirib chiqardi. Shu munosabat bilan Xalq ta’limi vazirligi dasht mintaqasi va Turkistonda ham rus, ham mahalliy aholi uchun maktablar tarmog‘ini erta shakllantirishdan manfaatdor edi. U shaharlardagi bir-ikki, kamroq uch va to‘rt sinfli boshlang‘ich maktablardan, boshlang‘ich ta’lim olish mumkin bo‘lgan tumanlardagi qishloq maktablaridan, o‘g‘il-qizlarning ta’limning keyingi bosqichiga o‘tishlari uchun gimnaziyalardan iborat edi. Gimnaziylar va progimnaziylar ustaviga va davlat maktablari to‘g‘risidagi Nizomga binoan ta’limning barcha diniy prinsipi e’lon qilindi. Ushbu ta’lim muassasalari xalq ta’limi vazirligi tasarrufida edi. 1866 yilda Turkistonda dastlabki rus maktablari ochildi. 1867 yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgandan so‘ng har bir shaharda, so‘ngra qishloq joylarda rus maktablari ochila boshlandi<sup>392</sup>.

Metropoliyadan ko‘chib kelgan aholi mustamlakachilikning ishonchli tayanchi bo‘lishi uchun uni nafaqat moddiy, balki madaniy ustunligini ham ta’minalash zarurligini yaxshi bilgan holda Rossiya imperiyasi va o‘lka ma’muriyati masalaga jiddiy yondashgan edilar. Bu borada qiyinchiliklar ko‘p edi, chunki metropoliyadan ko‘chib kelgan aholi, ayniqsa, kazaklar va rus krestyanlari, besavod bo‘lganligi sababli farzandlarini o‘qitish ahamiyatini tushunmagan. Rossiyaning

<sup>391</sup> Рыгалова М.В. Влияние модернизационных преобразований на развитие системы образования Степного края и Туркестана В 1880 - 1910-Е ГГ // Журнал Фронтирных Исследований . 2022. №1 (25). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-modernizatsionnyh-preobrazovaniy-na-razvitie-sistemy-obrazovaniya-stepnogo-kraya-i-turkestana-v-1880-1910-e-gg> (дата обращения: 02.06.2023).

<sup>392</sup> Рыгалова М.В. Влияние модернизационных преобразований на развитие системы образования Степного края и Туркестана В 1880 - 1910-Е ГГ // Журнал Фронтирных Исследований . 2022. №1 (25). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-modernizatsionnyh-preobrazovaniy-na-razvitie-sistemy-obrazovaniya-stepnogo-kraya-i-turkestana-v-1880-1910-e-gg> (дата обращения: 02.06.2023).

o‘zida qishloq joylarda aholi o‘z farzandlarini cherkov qoshidagi 3-4 yillik maktablarda o‘qishiga rozi bo‘lgan, shaharlarda esa aholining mulkdor, moddiy jihatdan ta’minlangan qatlamlarga mansub aholining farzandlari boshlang‘ich maktablarga va o‘rta ta’lim gimnaziyalariga ko‘proq jalb etgan.

Turkiston o‘lkasi va viloyatlarda esa Rossiyadan birinchi davrlarda ko‘chib kelgan kazaklar, rusiyabon aholi ancha vaqt mobaynida farzandlarini o‘qitish, maktablarni tashkil qilish masalalariga umuman e’tibor bermagan. Faqat 1852-1858 yillarda ayrim joylarda – jumladan, Perovsk, Kazalinsk, Sergiopol (Ayagoz), Lepinsk (Kopal), pravoslav ruhoniylari tomonidan 2-3 yillik o‘quv tashkil qilingan edi. Turkiston general-gubernatorligi tuzilganidan keyin birinchi rasmiy rus maktablari Qizil-Arvotda, Ashxobodda 1879 yilda paydo bo‘lgan. O‘lkada 1876 yilda atigi 25 ta boshlang‘ich rus maktablari bo‘lib, ularda 1074 nafar o‘quvchi bo‘lgan, ya’ni 8-11 yoshdagi barcha rus bolalarning 17 foizigina o‘qishga jalb etilgan edi<sup>393</sup>.

Rossiya hukumati, Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilishidan oldin o‘lkadagi yaxshi tashkil etilgan xalq ta’limi tizimiga qarshi, atigi 10 ta maktab bilan qarshi chiqdi. ulardan faqat ikkitasi – Kazalinsk va Perovskdagilari mahalliy aholi uchun mo‘ljallangan edi, Yettisuvdagagi boshqa sakkizta maktab esa faqat rus aholisi uchun mo‘ljallangan va ularning tuzilishiga ko‘ra qirg‘izlarga hech qanday ta’sir o‘tkaza olmagan. Kazalinsk va Perovskdagi qirg‘izlar uchun mo‘ljallangan maktablar shunday muvaffaqiyatsiz faoliyat olib bordiki, birinchi 5 yillik faoliyati davomida birorta o‘quvchi bitirmagan bo‘lsa, 1863-1870 yillarda 7 yil ichida faqat 5 nafar o‘quvchi bitirgan, xolos.

Cherkov maktablari ham xuddi shu nuqtalarda muvaffaqiyatsiz harakat qilishdi: ularning mavjudligi faqat ruhoniylarning mehnatsevarligi, shaxsiy mablag‘lari va bo‘sh vaqtiga bog‘liq edi. Bu xavfli sharoitlarga muvofiq, juda kamdan-kam hollarda mavjudlikning juda zaif belgilarini ko‘rsatdi va ko‘pincha yopiq turardi.

---

<sup>393</sup> Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865-1924 годы). – Москва: Наука, 1960.-С.109.

Kazalinskdagi maktabni qirg‘iz maktablari bilan birlashtirishga urinish umuman muvaffaqiyatga erishmadi va Perovskda rus ota-onalarining bu birlashishiga qarshilik tufayli qiyinchilik bilan erishildi.

Yettisuvdagagi maktablar birmuncha muvaffaqiyatlroq faoliyat olib bordi. Rus aholisining ko‘pligi, harbiy-xizmat xarakteri va bu aholining katta moddiy vositalari Yettisuv maktablarining Sirdaryo maktablaridan ustunligini ta’minladi. Bundan tashqari, ularda, hech bo‘lmaganda Verniydagi ikki sinf maktabida, bu maktablarga hayotiy rivojlanishni, ya’ni hunarmandchilikni dastlabki tayyorlashni berishi mumkin bo‘lgan elementlari allaqachon paydo bo‘lgan edi<sup>394</sup>.

Shu jihatdan Kaufman “mintaqaga kelib, undagi xalq ta’limi holatini bilib, men harbiy gubernatorlarga ushbu mavzuga alohida e’tibor berishi, rus xalq maktabini shakllantirishda erishish maqsadga muvofiq bo‘lgan bevosita vazifalarni taklifi bilan murojaat qildim: 1) Rus aholisi bo‘lgan barcha joylarda ochiq savodxonlik maktablari ochish; 2) ushbu mavzu bo‘yicha sarflanadigan xarajatlarga jamoatchilikni jalb qilish; 3) maktablarda hunarmandchilik mashg‘ulotlarini joriy etish; 4) maktablarni ruslardan boshqa xalqlarga bolalar uchun ham ochiq qilish; 5) imkoniyat boricha ayollar o‘rtasida ham ta’limni tarqatish”ni buyurgan edi<sup>395</sup>.

Harbiy gubernatorlar tomonidan ushbu taklifni amalga oshirish uchun ko‘rilgan choralar natijasiz qolmadi, bu mintaqada rus xalq ta’limi ishini yanada mustahkamlashga zamin hozirladi.

1867-yilda Toshkentda 25 ta o‘quvchiga mo‘ljallangan umumta’lim maktabi, Xo‘jandda 13 nafar o‘quvchiga mo‘ljallangan cherkov maktabi, Kazalinsk va Perovskaya maktablari resurslar bilan mustahkamlanib, birinchi bo‘lib 84 o‘quvchi (60 rus va 24 qirg‘iz), ikkinchisi esa 40 (20 rus va 20 qirg‘iz) o‘qitish imkoniyatini berdi.

---

<sup>394</sup> Проект всеподданнейшего отчета ген.-адъютанта К.П. фон Кауфмана I по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства: 7 нояб. 1867 - 25 марта 1881 г. / изд. Воен.-учен. ком. Гл. штаба. - С.-Петербург, 1885. – С.433.

<sup>395</sup> Проект всеподданнейшего отчета ген.-адъютанта К.П. фон Кауфмана I по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства: 7 нояб. 1867 - 25 марта 1881 г. / изд. Воен.-учен. ком. Гл. штаба. - С.-Петербург, 1885. – С.434.

Keyingi yili, 1868 yilda Kopal shahrida ayollar bo‘limi va hunarmandchilik sinflari bo‘lgan ikki sinfli cherkov maktabi ochildi. O‘sha yili ushbu maktabda 57 nafar o‘g‘il va 25 nafar qiz tahsil olayotgan edi. 1869 yilda o‘g‘il bolalar soni 65 taga yetdi.

Shu bilan birga, Yettisuv viloyatining aholi punktlarida 3 ta boshlang‘ich maktab, shu jumladan, missionerlik ta’sirida pravoslavlikni qabul qilgan mo‘g‘ullar va qalmiqlar uchun Sarkanskaya stansiyasida bitta maktab ochildi. Keyingi 1869 yilda Toshkentda badavlat ota-onalarning bolalarini o‘rta maktablarning yuqori sinflariga tayyorlamoqchi bo‘lgan maktab-pansion ochildi.

Xalq ta’limining taraqqiyoti dastlab qanchalik muvaffaqiyatli ko‘rinmasin, faqat 1867-1869 yillarda ochilgan va tashkil etilgan bu ta’lim muassasalarining soniga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, uni qoniqarli deb hisoblash mumkin emas edi.

Umumiyliz tizim va doimiy monitoringning yo‘qligi juda zararli edi. O‘qitish sust edi va bu esa shundoq ham ta’limga befarq bo‘lgan aholining o‘qishga nisbatan munosabatini ancha sovuqlashtirdi<sup>396</sup>.

Kaufmanning hisobotiga ilova tarzida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra 1879 yili Turkistonda general-gubernatorlik tomonidan moliyalashtirilgan 234 ta ta’lim muassasasi bo‘lib, unda 1857 nafar o‘g‘il bolalar va 809 nafar qizlar ta’lim olgan<sup>397</sup>.

O‘quv yurtlari Turkiston o‘lkasi o‘quv yurtlari boshqaruvi tarkibiga kirgan Sirdaryo va Yettisuv viloyatlari ko‘p millatli edi. Bu hududlarning asosiy aholisi – kazaklar, qirg‘iz va o‘zbeklardan tashqari, rus va ukrain muhojirlari ham ixcham guruhlar bo‘lib, Xitoydan ko‘chirilgan uyg‘ur va dunganlar yashagan.

Shuning uchun mahalliy tub aholi uchun mo‘ljallangan asosiy ta’lim muassasalari “rus-tuzem” maktablar edi. Bundan tashqari, ushbu maktablarda, shuningdek, gimnaziyalar va shahar maktablarida, asosan, mahalliy aholi bolalari uchun mo‘ljallangan internatlar va talabalar turar joylari mavjud edi. Alovida

---

<sup>396</sup> Проект всеподданнейшего отчета ген.-адъютанта К.П. фон Кауфмана I по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства: 7 нояб. 1867 - 25 марта 1881 г. / изд. Воен.-учен. ком. Гл. штаба. - С.-Петербург, 1885. – С.434.

<sup>397</sup> Проект всеподданнейшего отчета ген.-адъютанта К.П. фон Кауфмана I по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства: 7 нояб. 1867 - 25 марта 1881 г. / изд. Воен.-учен. ком. Гл. штаба. - С.-Петербург, 1885. – С.502-503.

ko‘chma qishloq maktablari faqat asrning oxirida ochila boshlandi. Sirdaryo viloyatining o‘troq aholi punktlarida boshlang‘ich savodxonlik maktablari ochildi.

1899 yil 20 avgustda Perovsk rus-qozoq maktabida kattalar uchun kechki kurslar ochildi. O‘quvchilarning aksariyati mayda savdogarlar edi. Ularning oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi: faqat o‘qish va yozishni o‘rganish; rus tilida bir oz hisoblashni bilish va eng muhimi buyurtma xatni olganda imzo qo‘yish, manzilni to‘g‘ri yozish va telegrammani o‘zi o‘qiy olish. Bunday kurslarga qiziqish tezda yo‘qoldi. Dars davomati yomon edi.

Yettisuv viloyatida kattalar mahalliy aholi uchun kechki kurslar faqat yigirmanchi asrning boshlarida ochila boshlandi. 1901-yil 1-martda To‘qmoq rus-mahalliy maktabi huzurida katta yoshdagi oddiy aholi uchun kechki kurslar ochildi, ularda 12 kishi o‘qirdi: 6 tatar, 5 o‘zbek va 1 dungan<sup>398</sup>.

1882 yilda Farg‘ona viloyatidagi ta’lim muassalari soni va undagi o‘quvchilar soni quyidagicha bo‘lgan. 1872 yil 31 maydagi qonunga ko‘ra ochilgan shahar erkaklar gimnaziyasi Yangi Marg‘ilonda 1 ta 57 nafar o‘quvchi, Qo‘qonda 1 ta 79 nafar o‘quvchi, Chustda yo‘q, Namanganda 1 ta 9 nafar o‘quvchi, Andijonda 1 ta 20 nafar o‘quvchi, O‘shta 1 ta 17 nafar o‘quvchi, jami viloyat bo‘yicha 5 ta 182 nafar o‘quvchilar bo‘lgan<sup>399</sup>. Viloyatda 1828 yil 8 dekabrdagi qonunga ko‘ra shahar ayollar 1 sinfli boshlang‘ich maktab Yangi Marg‘ilonda 1 ta 51 nafar o‘quvchi, Qo‘qonda 1 ta 8 nafar o‘quvchi, Chustda yo‘q, Namanganda 1 ta 15 nafar o‘quvchi, Andijonda 1 ta 9 nafar o‘quvchi, O‘shta 1 ta 17 nafar o‘quvchi, jami viloyat bo‘yicha 5 ta 100 nafar o‘quvchilar bo‘lgan<sup>400</sup>. Ushbu statistikaga ilova qilingan yozma hisobotda esa ochilgan maktablarga mahalliy aholi bolalari diniy qarashlar va mahalliy urf-odatlarga ko‘ra juda kam kirishi, faqatgina Qo‘qon shahridagi maktabga mahalliy aholi vakillarining farzandlari ko‘proq tashrif buyurayotganlari eslatib o‘tiladi<sup>401</sup>.

<sup>398</sup> Тажибаев Т. Просвещение и школы Казахстана во второй половине XIX века. [Гл.I-III.] Алма-Ата, 1962. – С.67.

<sup>399</sup> ЎзМА. И-19-фонд, 1-рўйхат, 908-иш, 106-варак.

<sup>400</sup> ЎзМА. И-19-фонд, 1-рўйхат, 908-иш, 106-варак.

<sup>401</sup> ЎзМА. И-19-фонд, 1-рўйхат, 908-иш, 107-117-вараклар.

1885-1899 yillarda Krasnovodsk-Ashxobod-Samarqand va Xovos- Andijon temir yo'llari o'tkazilishi sababli yirik stansiyalarda temir yo'l mahkamasiga qarashli maktablar ochildi. XIX asrning 70-yillarida rus- tuzem maktablarini tashkil qilish boshlandi, lekin 90-yillarning o'rtalarida ularning soni atigi 28 ga yetdi va ularda 51 rus, mahalliy aholining 650 nafar farzandlari o'qigan<sup>402</sup>.

Turkiston o'lkasidagi musulmon maktablariga Turkiston general gubernatorligi oliy amaldorlari keskin diniy fanatizmni shakllantiradigan ta'lim muassasalari sifatida qaragan. Ular islom dinining katta obro'ga ega izdoshlarini yetishtiruvchi, musulmon targ'ibotchilari sifatida ko'rilgan<sup>403</sup>. Bu xalq ta'limi tizimiga qarshi rus hukumati tomonidan o'zining tashkilotlari bilan qarshi chiqishi lozim bo'lgan. Darhaqiqat, bosib olingan o'lkada birinchi qadamlar oson bo'limgan edi. General fon Kaufmanning 1869 yili bu ishga Xalq maorif vazirligini tortishga urinishi ham muvaffaqiyatli kechmagan. 1873 yilda tub aholidagi mavjud ta'lim muassasalaridan diniy va ta'lim ishlariga aralashmaslik to'g'risida prinsiplar ishlab chiqiladi<sup>404</sup>.

Tadqiqot doirasidagi manbalarda maorif masalalari ham yaxshi yoritilgan. Tabiiyki, ma'muriyat maorifni ruslashtirish bobida imperiyaning tutgan strategik rolini qo'llab-quvvatlardi. K.P.Kaufman hisobotining oxirgi 8-bobi maorif masalalariga bag'ishlangan bo'lib, u mahalliy maktablar sonini doimiy ravishda qisqartirib borish hamda ularni tugatish bilan madrasalarda tinglovchilar soniga keskin zarba berish mumkin, deb hisoblagan, Shu bilan birga, madrasalarning mahalliy xalqlar hayotida nufuzli o'ringa ega ekanligini tan olgan holda quyidagi fikrlarni keltirib o'tgan edi: "Hozirda ham madrasalar musulmon ruhoniylar aristokratiyasi kuchini saqlab qolgan maskan bo'libgina qolmasdan, musulmon arkonlarini targ'ib qiluvchi markaz sifatida ham muhim o'ringa ega bo'lib turibdi"<sup>405</sup>.

K.P.Kaufman ruslar va mahalliy aholi bolalarini birgalikda tarbiyalash masalasini ko'tarib chiqadi. Maorif mavzusi viloyat yillik hisobotlarida ham alohida

<sup>402</sup> Ўша жойда.-С.116.

<sup>403</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 27-рўйхат, 276-иш, 5-варак.

<sup>404</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 27-рўйхат, 276-иш, 5-варак.

<sup>405</sup> Проект отчета К.П. Кауфмана. – С. 432.

sahifalarda yoritilgan. Ushbu hisobotlarda maorif haqida faqat statistik ma'lumotlar o'rin olgan bo'lsa hamki, ularni tahlili aniq xulosalarga asos bo'ladi. Masalan, Farg'ona viloyati bo'yicha 1883 yilda madrasalar - 132 ta, maktablar - 1423 ta, yevropa tipidagi maktab - 1 ta deb ko'rsatilgan<sup>406</sup>. Keyingi yillardagi hisobotlarda rus-tuzem maktablari alohida bandlarda ko'rsatilgan. Jumladan, 1887 yilda Farg'ona viloyatida 5 ta rus-tuzem maktabida 147 ta o'quvchi ta'lim olganligi ko'rsatilsa<sup>407</sup>, 1910 yilgi ilovada 18 ta rus-tuzem maktablarida 500 ga yaqin o'quvchi ta'lim olganligi ta'kidlangan<sup>408</sup>,

Ayniqsa, Sirdaryo viloyatida rus maktablari ko'pchilikni tashkil etgan. 1888 yilgi general N.I. Grodekov tomonidan yozilgan yillik hisobotda jami 36 ta ruscha ta'lim maktablari bo'lib<sub>g</sub> ulardan 12 tasi rus-tuzem tipida ekanligi ta'kidlanadi<sup>409</sup>. 1908 yilga kelib esa, viloyatdagi turli xildagi rus maktablari 92 ta bo'lib, unda 8 398 ta o'quvchi ta'lim olganligi aytib o'tiladi<sup>410</sup>. Demak, o'n yil ichida bu maktablar soni 2,5 barobar o'sgan.

Barcha shahar va boshlang'ich maktablar xalq ta'limi vazirligi tasarrufida bo'lган va tegishli tartibda ta'lim okrugining ishonchli vakiliga bo'ysungan. 1896 yil yanvar oyidan boshlab viloyat davlat maktablari inspektori lavozimi joriy etilgan. 1897 yildan boshlab Turkiston general-gubernatorligidagi aksariyat viloyat rahbarlari rus aholisi o'rtasida majburiy ta'limni joriy etishga harakat qildi. Harbiy-xalq ma'muriyatining buyrug'iga binoan barcha maktab yoshidagi bolalar (7-12 yosh) boshlang'ich maktablarda ikki yildan kam bo'lмаган holda o'qishlari kerak edi. Butunjahon ta'lim tizimini joriy etishga urinishlar o'z maqsadiga erishmadi. Biroq, rus qishloqlari maktablarida o'quvchilarning davomati sezilarli darajada yaxshilanganini inkor etmaslik kerak. Maktab yoshidagi 100 nafar bolalardan olti nafari maktablarda o'qigan. Inqilobdan oldingi davriy matbuotga ko'ra, Kaspiyortidagi bitta rus maktabidagi o'quvchilar soni 700 kishini tashkil qilgan.

<sup>406</sup> ЎзМА. И-19-фонд, 1-рўйхат, 1170-иш, 40-варак.

<sup>407</sup> Обзор ферганской области за 1887 год. Новъй Маргелан. 1889. – С. 51.

<sup>408</sup> Статистический обзор Ферганской области за 1910 год. Скобелев. 1912. – С. 183.

<sup>409</sup> ЎзМА. И-269-фонд, 1 –рўйхат, 4-иш, 4-варак.

<sup>410</sup> Обзор Сырдарьинской области за 1908 год. – Ташкент, 1910. – С. 68.

Masalan, Stavropol viloyatida bunday maktab 4500 kishini tashkil qilgan<sup>411</sup>. Bu natijalar o'sha vaqt uchun yomon emas edi, chunki Kaspiyorti mintaqasi Rossiya imperiyasining boshqa chekkalari bilan solishtirganda Rossiya tomonidan keyinroq bosib olingan.

Xalq ta'limining rivojlanishi (yevropalik aholiga nisbatan-B.X) Kaspiyorti viloyatida, ayniqsa, 1890-1897 yillarda, A.N.Kuropatkin tomonidan viloyat ma'muriyati davrida oldinga siljiy boshladi. Uning faoliyati davomida maktablar soni deyarli uch baravar ko'paydi. 1895 yilda yangi Nizom tasdiqlandi, unga ko'ra rus aholi punktlarida bir sinfli maktablar ochilishi kerak edi. Rus maktablarini saqlash xarajatlari, mablag' yetishmasligiga qaramay, 1890-1896 yillarda ularning soni ikki baravar ko'paydi. Turkmanistondagi birinchi rus maktablari Qizil-Arvatda bir sinfli maktab (ochilgan yili 1882 yil), Ashxobodda ikki sinfli maktab (1884 yil), Aleksandrovskiy fortidagi Nikolay cherkov maktabi (1888 yil), ikki sinfli maktab (1868 yil), Ashxobodda ayollar ikki sinfli maktab (1892 yil), Marv shahar ayollar maktabi (1894 yil) kabi rus va rus-tuzem maktablari ochilgan edi. Oktabr to'ntarilishining boshiga kelib Turkmanistonda 80 dan ortiq boshlang'ich ta'lim muassasalari (shu jumladan, rus va rus-tuzem maktablari) faoliyat ko'rsatgan<sup>412</sup>.

Barcha shahar va boshlang'ich maktablar Xalq ta'limi vazirligi tasarrufida bo'lib, boshqaruv tartibida Kavkaz o'quv okrugi vasiyligiga bo'ysunardi. 1896-yil 1-yanvarda viloyatda xalq maktablari inspektorlari lavozimi tashkil etildi.

Yevropa aholisi uchun mo'ljallangan boshlang'ich o'quv yurtlari tarmog'iga viloyat va xalq ma'rifat vazirligi mablag'lari bilan ta'minlangan bitta sinf va ikki sinfli bilim yurtlari, Kaspiy orti temir yo'li mablag'lari bilan ta'minlangan bilim yurtlari, xususiy bilim yurtlari, shuningdek, cherkov maktablari kiritilgan.

Rus ma'muriyati tomonidan xalq ma'rifi sohasida o'tkazilgan tadbirlar natijasida rus aholisining asosiy qismi ta'lim bilan qamrab olindi. Masalan, 1912

<sup>411</sup> Ходжакулиева Б.А. автореферат диссертации по истории, специальность ВАК РФ 07.00.02 на тему: Народное просвещение в Туркменистане в колониальный период (1881-1917 гг.). – Ашгабад, 1996 // <https://cheloveknauka.com/narodnoe-prosveschenie-v-turkmenistane-v-kolonialnyy-period-1881-1917-gg>

<sup>412</sup> Ходжакулиева Б.А. автореферат диссертации по истории, специальность ВАК РФ 07.00.02 на тему: Народное просвещение в Туркменистане в колониальный период (1881-1917 гг.). – Ашгабад, 1996 // <https://cheloveknauka.com/narodnoe-prosveschenie-v-turkmenistane-v-kolonialnyy-period-1881-1917-gg>

yilda rus aholisining 76 nafar maktab yoshidagi bolalari maktablarda tahsil olishgan. Bu, birinchi navbatda, chorizm turkman xalqini zulmatda va johillikda saqlashga intilganligi bilan izohlanadi. O‘z navbatida, yangi koloniyani boshqarishda alohida qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin emas edi<sup>413</sup>.

Ko‘rib chiqilayotgan davrda Turkmaniston xalq ma’rifat tizimi maxsus va o‘rtalari o‘quv yurtlari tomonidan taqdim etilgan. Ulardan birinchisi bog‘dorchilik va ipakchilik maktabi, ot divizioni qoshidagi rus-tuzem maktabi, Ashxobod texnik-temiryo‘l maktabi va Marv real maktabi edi.

O‘rtalim muassasalari tarmog‘i bir nechta gimnaziyalar tomonidan taqdim etilgan. Ularga Ashxobod erkaklar va ayollar gimnaziyalari, Chorjo‘y, Nikolayev progimnaziyasi, Krasnovodsk erkaklar progimnaziyasi, shuningdek, Krasnovodskdagi xususiy erkaklar progimnaziyasi va keyinchalik hukumat maqomini olgan S. Ponomareva xususiy ayollar progimnaziyasi kirgan<sup>414</sup>.

Turkman yoshlarining bir qismi kerakli ma’lumotli kadrlarni tayyorlash maqsadida shoh ma’muriyati tomonidan ochilgan rus-mahalliy maktablarda tahsil olgan. Rus-mahalliy maktablar turkman xalqi hayotida progressiv ahamiyatga ega edi. Ular Turkmanistondagi birinchi dunyoviy o‘quv yurtlari bo‘lib, turkmanlarni bilimga jalb qilishda muayyan rol o‘ynagan.

Yevropa aholisi uchun mo‘ljallangan boshlang‘ich ta’lim muassasalari tarmog‘iga viloyat va Xalq ta’limi vazirligi tomonidan moliyalashtiriladigan bir sinfli va ikki sinfli maktablar, Kaspiyorti temir yo‘li tomonidan moliyalashtirilgan maktablar, xususiy maktablar, cherkov maktablari kirdi.

Ko‘chib o‘tish davrida Turkiston ma’muriyati ta’lim, ko‘chma posyolkalarda maktablar qurishga e’tibor qaratgan. 1907 yilda Avliyoota viloyati boshlig‘ining Sirdaryo viloyati harbiy gubernatoriga bergen hisobotida qishloq joylarda maktab ta’limi tizimini isloh qilish zarurligi haqida yozilgan. Rasmiyning ta’kidlashicha, rus

<sup>413</sup> Ходжакулиева Б.А. автореферат диссертации по истории, специальность ВАК РФ 07.00.02 на тему: Народное просвещение в Туркменистане в колониальный период (1881-1917 гг.). – Ашгабад, 1996 // <https://cheloveknauka.com/narodnoe-prosveschenie-v-turkmenistane-v-kolonialnyy-period-1881-1917-gg>

<sup>414</sup> Ходжакулиева Б.А. автореферат диссертации по истории, специальность ВАК РФ 07.00.02 на тему: Народное просвещение в Туркменистане в колониальный период (1881-1917 гг.). – Ашгабад, 1996 // <https://cheloveknauka.com/narodnoe-prosveschenie-v-turkmenistane-v-kolonialnyy-period-1881-1917-gg>

qishloqlarida yoshlar matabni tugatgandan so‘ng savodxonlikni unutib, intizomsiz va tarqatib yuborilgan. Uning fikricha, bu aholining harakatsizligi, kutubxonalar va savodxonlikni yo‘qligi, spirtli ichimliklarni suiiste’mol qilish va hokazolarning natijasi edi. Viloyatning nemis qishloqlarida ta’lim boshqa tizim asosida qurilgan va yaxshi natijalarga erishgan<sup>415</sup>. Ko‘chib keluvchilarning murakkab xo‘jalik va ijtimoiy moslashuvi va dehqonchilik uchun mos yer uchastkalari bo‘lmagan shaharchalariga o‘zboshimchalik bilan o‘rnashib olganlar uchun matab, cherkovlar yetishmas edi.

Yevropa aholisi uchun mo‘ljallangan ta’lim muassasalari tarmog‘i davlat va xususiy bilim yurtlari, cherkov-ibodatxonalar tomonidan taqdim etilgan. Shuni ta’kidlash kerakki, ularning soni mahalliy aholi uchun mo‘ljallangan maktablar sonidan ancha ko‘p edi, ya’ni imperiyaning ta’lim siyosatida yangi kelgan aholini o‘qitish asosiy o‘rin egalladi.

XIX asr oxiri va XX asrning birinchi o‘n yilligida O‘rta Osiyo xalqlari tilida maktab o‘quvchilariga zamonaviy bilimlarni o‘rgatadigan o‘qituvchilar juda kam edi. Shu bilan birga, ushbu hududda ko‘plab Volga tatarlari yashagan, ularning tili mahalliy xalqlar uchun tushunarli bo‘lgan va XIX asrning so‘nggi choragida bolalarni o‘qitishda muvaffaqiyatlar bo‘lgan. Bunday sharoitda Turkistonda yangi uslubdagi maktablarning birinchi o‘qituvchilari Volga tatarlari va Qrim tatarlarining o‘qituvchilari bo‘lishdi. Turkistonning yangi uslubdagi maktablarida umumta’lim fanlari bo‘yicha asosiy darsliklar asosan tatar(qozon) tilidagi nashrlardan foydalilanilgan, chunki O‘rta Osiyo tillarida tegishli o‘quv adabiyotlari juda kam edi. Tatar tiliga "umumiyl turkiy" sifatida e’tibor, birinchi navbatda, O‘rta Osiyoni o‘z kapitalini qo‘llash maydoni deb hisoblagan tatar burjuaziysi doiralaridan kelib

---

<sup>415</sup> Цыряпкина Ю.Н. Переселенческое сообщество в Сырдарыинской области Туркестана по донесениям царской администрации начала ХХ в // Известия АлтГУ. 2015. №4 (88). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/pereselencheskoe-soobschestvo-v-syrdarinskoy-oblasti-turkestana-po-doneseniyam-tsarskoy-administratsii-nachala-xx-v> (дата обращения: 01.06.2023).

chiqqan va turkiy xalqlarning "birligi" da ular kuchli rus kapitalizmi bilan raqobatini qo'llab-quvvatlashga intilishgan<sup>416</sup>.

1908 yili Xo'jand uezdida rus aholisining holati o'rganiladi. Srestin qishlog'ida 1887 nafar aholi bo'lib, maktab yoshidagilari 144 nafar, Nikolayevskiy qishlog'ida 1898 nafar aholi, maktab yoshidagilari 22 nafar, Konno gvardeyskiy qishlog'ida 1897 nafar aholi, maktab yoshidagilari 45 nafar, Nadejdinskiy qishlog'ida 1886 nafar aholi bo'lib, maktab yoshidagilari 92 nafar, Romanovskiy qishlog'ida 1899 nafar aholi, maktab yoshidagilari 81 nafar, Obtavannoy qishlog'ida 1895 nafar aholi, maktab yoshidagilari 17 nafar, Verxnaya Volinya qishlog'ida 1897 nafar aholi, maktab yoshidagilari 50 nafar, nijniy Volinya qishlog'ida 1897 nafar aholi bo'lib, maktab yoshidagilari 72 nafarni tashkil qilgan. Bu esa rus qishloqlarida maktab yoshidagi bolalar sonida katta tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi<sup>417</sup>.

Ko'rib chiqilayotgan davrda Turkmaniston xalq ta'limi tizimi maxsus va o'rta o'quv yurtlari bilan ifodalangan. Ulardan birinchisi bog'dorchilik, bog'dorchilik va ipakchilik maktabi, otchilik diviziyasi qoshidagi rus-nazil maktabi, Ashxobod temir yo'l texnikumi va Marv real bilim yurti edi.

O'rta ta'lim muassasalari tarmog'i bir nechta gimnaziya va progimnaziyalardan iborat edi. Ashxoboddagi erkak va ayol gimnaziyalari, Chorjo'y, Nikolayev, Krasnovodsk erkaklar progimnaziysi, shuningdek, Krasnovodskdagi xususiy erkaklar progimnaziysi va keyinchalik davlat maqomini olgan S. Ponomareva nomidagi xususiy ayollar progimnaziysi shular jumlasidandir.

Turkman yoshlaringin bir qismi o'zlariga kerakli bilimli kadrlarni tayyorlash maqsadida chor ma'muriyati tomonidan ochilgan rus millatiga mansub maktablarda o'qidi. Rus-tuzem maktablar turkman xalqi hayotida progressiv ahamiyatga ega edi. Ular Turkmanistondagi birinchi dunyoviy ta'lim muassasalari bo'lib, turkmanlarni bilim bilan tanishtirishda ma'lum rol o'ynagan.

<sup>416</sup> Ходжакулиева Б.А. автореферат диссертации по истории, специальность ВАК РФ 07.00.02 на тему: Народное просвещение в Туркменистане в колониальный период (1881-1917 гг.). – Ашхабад, 1996 // <https://cheloveknauka.com/narodnoe-prosveschenie-v-turkmenistane-v-kolonialnyy-period-1881-1917-gg>

<sup>417</sup> И-18-фонд, 1-рўйхат, ед хр. 665 9-варак.

Yevropa aholisi uchun mo‘ljallangan ta’lim muassasalari tarmog‘i davlat va xususiy maktablar, paroxial ajralishlar bilan ifodalangan. Shuni ta’kidlash kerakki, ularning soni mahalliy aholi uchun mo‘ljallangan maktablar sonidan ancha ko‘p edi, ya’ni chorizmning ta’lim siyosati yangi kelgan aholini o‘qitishda asosiy o‘rinni egallagan<sup>418</sup>.

1906 yil 16 martdagi harbiy vazirlik bosh shtabining graf Sergey Yulevich Rittega yozilgan xatida davlatchilik va mamlakatning ijtimoiy iqtisodiy hayotiga Turkiston o‘lkasida e’tiborga olinishi zarur bo‘lgan masalalar qatorida ta’lim bo‘yicha ham o‘z takliflarini bildirgan. Xususan, Turkiston o‘lkasida xalq ta’limini ko‘tarish uchun boshlang‘ich rus tuzem maktablari va kasb hunar bilim yurtlari sonini ko‘paytirish zarur, deb hisoblagan<sup>419</sup>.

Rossiya ma’muriyatining xalq ta’limi sohasida amalga oshirgan tadbirlari natijasida rus aholisining asosiy qismi ta’lim bilan qamrab olindi. Masalan, 1912 yilda rus aholisining 762 nafar maktab yoshidagi bolalari maktablarda o‘qigan bo‘lsa, bu butun qayd etilgan savodli turkman bolalari soniga teng edi. Mazkur holat birinchi navbatda, chorizm turkman xalqini zulmat va jaholat ichida saqlashga intilganligi, bu esa, o‘z navbatida, yangi mustamlakani boshqarishda alohida qiyinchiliklar tug‘dira olmagani bilan bog‘liq<sup>420</sup>.

XX asr boshlariga kelib umuman ta’lim tizimida ayollar ta’lim muassasalariga ham talab ortib borgan. Bu umuman Rossiya imperiyasi, uning chekka hududlarining, shu jumladan, dasht o‘lkasi va Turkistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari bilan bog‘liq edi. Iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi nafaqat yozish va hisoblashda boshlang‘ich bilimlarni, balki yuqori, professional darajadagi ko‘nikmalarni ham talab qildi. Vaziyat o‘zgarishi munosabati bilan, masalan, Toshkentda o‘rta xotin-qizlar ta’lim muassasalarining yetishmasligi kuzatildi. 1910 yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, 300 kishiga mo‘ljallangan qizlar

<sup>418</sup> Ходжакулиева, Б.А. Народное просвещение в Туркменистане в колониальный период (1881-1917 гг.) автореферат диссертации кандидата исторических наук, специальность ВАК РФ 07.00.02 // <https://cheloveknauka.com/narodnoe-prosveschenie-v-turkmenistane-v-kolonialnyy-period-1881-1917-gg>

<sup>419</sup> И-1-фонд, 27-рўйхат, 276-иш, 1-варақ.

<sup>420</sup> Ходжакулиева, Б.А. Народное просвещение в Туркменистане в колониальный период (1881-1917 гг.) автореферат диссертации кандидата исторических наук, специальность ВАК РФ 07.00.02 // <https://cheloveknauka.com/narodnoe-prosveschenie-v-turkmenistane-v-kolonialnyy-period-1881-1917-gg>

gimnaziyasida 700 nafar qiz o‘qigan. Shu munosabat bilan 1913 yilda ikkinchi ayollar gimnaziysi ochildi<sup>421</sup>.

Rossiyada ayollar uchun professional ta’lim muassasalari asosan tijorat, hunarmandchilik, qishloq xo‘jaligi, tibbiyot va pedagogik ta’lim muassasalari bo‘lgan. Biroq, cho‘l hududi va Turkistonning o‘ziga xos xususiyati talabalarning tarkibi o‘rtasida farqni keltirib chiqargan edi. Masalan, Semipalatinsk va Sirdaryo viloyatlaridagi o‘qituvchilar seminariyalarida, Akmola viloyatidagi feldsherlik va veterinariya-feldsherlik maktablarida faqat o‘g‘il bolalar tahsil olishgan. Biroq, qizlar Kaspiyorti va Sirdaryo viloyatlaridagi temir yo‘l mакtablarining o‘quvchilari bo‘lib, o‘g‘il bolalar bilan nisbati 50 foiz va undan yuqori bo‘lgan<sup>422</sup>. Qizlar tijorat maktablarida o‘g‘il bolalar bilan bir qatorda, masalan, Farg‘ona viloyatida 1910 yilda 151 nafar o‘g‘il va 141nafar qiz tijorat sinflarida, 1912 yilda 235 nafar o‘g‘il va 148 nafar qiz<sup>423</sup>, Sirdaryo viloyatida 1913 yilda 473 nafar o‘g‘il va 40 nafar qiz o‘qishgan<sup>424</sup>.

Turkiston general-gubernatorligi hududida Rossiya imperiyasining ta’lim siyosati davlat manfaatlariga javob berdi. Shu bilan birga, ushbu hududlarda yashovchi aholining, shuningdek, ko‘chib kelgan dehqonlarning manfaatlarini hisobga olish kerak edi. Ta’limning tarqalishiga chekka hududlar aholisining Umumrossiya jarayonlariga, birinchi navbatda, XIX–XX asrlar boshlarida faol kuchayib borayotgan modernizatsiya jarayonlariga qo‘shilish darajasi bog‘liq bo‘lgan. Bu, o‘z navbatida, o‘qimishli aholini ko‘paytirishni, nafaqat ijtimoiy sohani, balki yangi faoliyat turlarini ham malakali kadrlar bilan ta’minalashni talab qildi. CHo‘l o‘lkasi va Turkistonning kasb-hunar ta’limi muassasalarining shakllanishini tahlil qilish Butunrossiya tendensiyalaridan ozgina orqada qolishni, yashash sharoitlari va aholi tarkibi bilan bog‘liq ta’lim muassasalarining ishlash

<sup>421</sup> Обзор Сыр-Дарыинской области за 1910 год. Ташкент: Тип. при канцелярии Туркест. Генерал-губернатора, 1912. – С.230.

<sup>422</sup> Рыгалова М.В. Развитие женского образования в Степном крае и Туркестане в 1880-е гг. – начале XX века // Самарский научный вестник. 2020. Т. 9, № 4. –С.243.

<sup>423</sup> Обзор Ферганской области за 1910 год. Скобелев: Тип. Ферган. обл. правления, 1912. – С.274.

<sup>424</sup> Обзор Сыр-Дарыинской области за 1913 год. Ташкент: Тип. при канцелярии Туркест. Генерал-губернатора, 1916. – С.201.

xususiyatlarini ko‘rsatadi. Bu yerda birinchi navbatda savdo va texnik maktablar, shuningdek, o‘qituvchilar malakasini oshirish uchun o‘quv muassasalari birmuncha rivojlangan edi. Bir so‘z bilan aytganda, hududning asosiy hayotiy yo‘nalishlarining ishlashi uchun kadrlar shakllantirildi.

1914 yilda Samarqand viloyatidagi ta’lim muassasalari haqidagi ma’lumotlarga ko‘ra rus ta’lim muassalarida 1 ta erkaklar gimnaziysi (Samarqand shahrida) bo‘lib, unda 383 nafar erkaklar, 1 ta ayollar gimnaziysi (Samarqand shahrida) bo‘lib, unda 437 nafar ayollar, 1 ta ayollar progimnaziysi (Samarqand shahrida) bo‘lib, unda 163 nafar ayollar, 1 ta oliy boshlang‘ich bilim yurti (Samarqand shahrida) bo‘lib, unda 179 nafar erkaklar, 1 ta bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik maktabi (Samarqand shahrida) bo‘lib, unda 65 nafar erkaklar, 26 ta cherkov qoshidagi boshlang‘ich maktablar bo‘lib, ularda 910 ayollar va 690 nafar erkaklar jami 1600 nafar, 2 ta cherkov qoshidagi boshlang‘ich maktab bo‘lib, 39 nafar erkaklar, 26 nafar ayollar, jami 65 nafar, O‘rta Osiyo temiryo‘llariga qarashli cherkov boshlang‘ich maktablari soni 5 ta bo‘lib, 367 nafar erkaklar, 282 nafar ayollar jami 649 nafar, II razryadli xususiy ta’lim muassasasi 1 ta bo‘lib, 93 nafar erkaklar, 12 nafar ayollar, jami 105 nafar, III razryadli xususiy ta’lim muassasasi 2 ta bo‘lib, 35 nafar erkaklar, 18 nafar ayollar jami 53 nafar bo‘lgan<sup>425</sup>. Ushbu ma’lumotlardan ko‘rinadiki, hududda xristianlik dinini yoyish uchun maxsus bilim yurtlarini ko‘payishi hukumat oldindan belgilagan strategik rejalarini amalga oshirish uchun qilingan ishlarni natijasi bo‘ldi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, yahudiylarning ham diniy e’tiqodlari uchun unchalik to‘sinq bo‘lmagan. Shu tufayli viloyatda rus-tuzem maktablaridan 1 ta mahalliy yahudiylar uchun bilim yurti bo‘lib, unda 28 nafar erkaklar ta’lim olganlar<sup>426</sup>. Mahalliy maktablar orasida xederi yahudiylarniki 12 ta bo‘lib, 415 nafar erkaklar, 10 nafar ayollar, jami 425 nafar o‘quvchiga bilim berilgan<sup>427</sup>. Shuningdek,

---

• <sup>425</sup> И-1-фонд, 27-рўйхат, 1216а-иш, 39-40 вараклар.  
• <sup>426</sup> И-1-фонд, 27-рўйхат, 1216а-иш, 39-40 вараклар.  
• <sup>427</sup> И-1-фонд, 27-рўйхат, 1216а-иш, 39-40 вараклар.

arman cherkovlari qoshidagi bilim yurtlari soni 1 ta bo‘lib, 39 nafar erkaklar, 25 nafar ayollar, jami 64 nafar o‘quvchilar ta’lim olganlar<sup>428</sup>.

Ma’lumki, Turkistondagi turkiy xalqlar orasida savodxonlikni yoyishda tatarlar katta rol o‘ynagan. Tatarlar o‘z tillarining boshqa turkiy tillar bilan o‘xshashligi tufayli ularni juda oson o‘zlashtirgan. Yagona din ham muhim rol o‘ynadi. Rus tilini bilish tatarlarga diplomatlar, Rossiya hukumati uchun tarjimonlar, shuningdek, savdo masalalarida vositachilar sifatida ishlashga imkon berdi. XIX asrning oxiriga kelib tatarlar Semipalatinsk, Uralsk, Petropavlovsk va boshqa shaharlar aholisining sezilarli qismini tashkil etdi.

Tatarlar musulmon urf-odatlari va an’analarni tarqatishdi, musulmon madaniyatini dashtga olib kelishdi. Shuning uchun Turkiston general-gubernatori K. P. fon Kaufman tatar ruhoniylariga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lib, ularni birinchi navbatda dasht missionerlari sifatida ko‘rdi<sup>429</sup>.

Tatarlar nafaqat madrasalarda ochilgan va o‘qitgan, balki ularni saqlab qolgan. Shunday qilib, Vyatka viloyatidan bo‘lgan Z. Tazetdinov Verniydagagi qizlar uchun mакtabda Ufa madrasalarini tugatgan tatar qizlari M. Yakupova va M. Sagdiyeva dars berishdi va tatar savdogari H. Gabdulvaliyev va uning o‘g‘illari tomonidan moddiy yordam ko‘rsatildi. 1912-1914 yillarda Pishpekdagi ayollarning yangi fangled maktabida 70 nafar qiz o‘qidi (ulardan 50 nafari tatar va 20 nafari qirg‘iz edi). Ularga Qozon va Ufada o‘qigan tatar ayollari dars berishgan. Trening asosan erkaklar maktabidagi kabi dastur bo‘yicha o‘tkazildi, qo‘srimcha mavzu tikuvchilik edi. Tatar ayollari 1903 yildan beri mahalliy ayollar uchun tashkil etilgan rus-tuzem maktablari faoliyatida ham qatnashdilar<sup>430</sup>.

Mustamlaka ma’muriyati tomonidan Turkiston o‘lkasida tatar o‘qituvchilari tomonidan maktablar tashkil etilishi va ularning mahalliy aholi farzandlariga ta’lim berishlari jiddiy xavf sifatida baholandi. Shuning uchun Turkiston o‘quv yurtlari

• <sup>428</sup> И-1-фонд, 27-рўйхат, 1216а-иш, 39-40 вараклар.  
<sup>429</sup> Насретдинова Д. М. Туркистоннинг маданий ҳаётида татар-бошкирд аёлларининг тутган ўрни (XIX аср охири - XX асрнинг биринчи чораги): тарих фан. дис . автореф . Тошкент, 2011. 29 б .

<sup>430</sup> Муртазина Л.Р. Роль татар в развитии просвещения народов Туркестана и казахских степей (конец XIX – начало XX В. ) // Вестник Томского государственного педагогического университета, № 8 (185), 2017. – С.126-130.

bo‘limining 1912-yil 25-yanvardagi 844-sonli qaroriga ko‘ra, birlamchi yangi usuldagи o‘quv yurtlarini ochish faqat xalq ta’limi muassasalari inspeksiyasining ruxsati bilan amalga oshirilishi kerak edi. Bundan tashqari, maktab o‘qituvchilar o‘quvchilar bilan bir millatga mansub bo‘lishi kerakligi ko‘rsatilgan. Bu tatar o‘qituvchilar faoliyatini cheklashning asosiy qadamlaridan biriga aylandi. Shunday qilib, yigirmanchi asrning ikkinchi o‘n yilligi boshlarida Turkiston o‘lkasida mahalliy aholi bolalarini tatar o‘qituvchilar o‘qitishi amalda yo‘q qilindi. Tatar o‘qituvchilar ishlagan maktablarda faqat tatar bolalari o‘qitilgan<sup>431</sup>.

Xulosa qilib aytganda, Rossiya imperiyasining Turkistonda ta’lim sohasida olib borgan siyosati o‘ziga xosligi bilan ajralib turgan. Mazkur o‘ziga xoslik tub bo‘limgan aholini ta’lim olishini qo‘llab-quvvatlash asnosida mahalliy xalqlarni dunyoqarashini cheklash, ruscha fikrlashni keng yoyish maqsad qilingan edi. Shunga qaramay, ba’zi ta’lim muassasalari, xususan, kasb ta’limi bilim yurtlarini ochilishi natijasida ba’zi yangi kasblarni paydo bo‘lganligi kuzatiladi.

#### **4.2 Tibbiyat sohasidagi o‘zgarishlarga tub bo‘limgan aholining ta’siri va faoliyati**

Turkiston o‘lkasiga tibbiyat ishining keng tarqalishi o‘lkada rus aholisining paydo bo‘lishi bilan ham bog‘liq bo‘lgan. Toshkent va Turkistonning boshqa shaharlarini bosib olgandan keyin rus harbiy amaldorlari, ziyolilar va ko‘chirib keltirilganlar qishloq joylarda yoki Turkiston general-gubernatorligi shaharlarining "rus qismlarida" yangi tashkil etilgan ko‘chirish punktlarida alohida anklavlarga ko‘chib o‘tdilar. Ushbu “yangi” shahar qismlarida rus aholisi uchun barcha sharoitlar – maktab, dorixona, ambulatoriya, kasalxona, teatr, park, magazinlar, muzey, kutubxona, transport va kommunikatsiya, vodoprovodlari bilan Yevropa tipidagi uylar, yoritilgan katta ko‘chalar qilingan edi. Bu holat o‘lkaga Yevropa sivilizatsiyasining kirib kelishini ko‘rsatgan. Biroq shuni ham ta’kidlash kerakki bu

<sup>431</sup> Расулов А.А., Исокбоев А.А. ТАТАРСКОЕ ПРОСВЕТИТЕЛЬСТВО И СИСТЕМА НАЦИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ТУРКЕСТАНЕ (КОНЕЦ XIX - НАЧАЛО XX ВВ.) / Историческая этнология, vol. 5, № 1, 2020. –С. 140-150.

qulayliklar faqatgina rus aholisi uchungina mo‘ljallangan bo‘lib, tub aholi uchun esa umuman mumkin emas edi<sup>432</sup>. Rus tadqiqotchilari esa ruslarning yangi tashkil etilgan aholi punktlarida uyushgan holda joylashishlarini “xavfsizlik, iqtisodiy va ma’muriy ehtiyojlar, yangi ko‘chib kelganlar urf-odatlari va an’analari hamda Islomga sodiqligi bilan ajralib turadigan mahalliy aholi yashaydigan mintaqada talab qilinganligi” bilan izohlashadi<sup>433</sup>.

Shaharlardagi "rus qismi"ga Turkiston boshqaruvchilari, ziyorilar, shifokorlar, iste’fodagi harbiylar va ularning oilalari, hunarmandlar bilan birga shifokorlar ham kirib kelgan. Mintaqqa bosib olinganidan keyin Turkistonda birinchi bo‘lib harbiy shifokorlar paydo bo‘lib, harbiy harakatlar paytida yaralangan askarlarga, shuningdek, Turkistonga yangi kelgan aholiga tibbiy yordam ko‘rsatdilar. Turkistonda birinchi tibbiy tibbiyot muassasasi 1868 yilda, O‘rta Osiyo xonliklarini qo‘sib olish bo‘yicha harbiy harakatlar boshlanganidan bir necha yil o‘tgach va Turkiston general-gubernatori tashkil etilganidan bir yil o‘tgach ochilgan. Bu 1870 yilda 415 o‘rinli ikkinchi darajali Toshkent harbiy kasalxonasiga aylantirilgan. XIX asrda harbiy kasalxona (gospital) joylashgan ko‘cha “Gospitalnoy”, deb nomlangan<sup>434</sup>.

Dastlab harbiy-tibbiy inspektor lavozimi, keyinchalik esa harbiy tibbiy boshqarma ta’sis qilingan. Turkistonga kelgan tibbiyot xizmatchilariga katta imtiyozlar taqdim qilingan. O‘lkadagi birinchi tibbiy muassasalar mutlaq rus aholisi uchun tashkil qilingan. Lekin vaqtlar o‘tishi bilan yuqumli kasalliklarning avj olishi, ayniqsa, 1898 yili Samarqand viloyati Anzob qishlog‘ida o‘lat, 1892 yili Toshkentda vabo tarqalishi ma’muriyat o‘lkada faoliyat olib borayotgan tibbiyot xodimlarining

---

<sup>432</sup> Зияева Д.Х. Медицина и здравоохранение в Средней Азии: традиции, модернизации и трансформация (конец 19 – начало XX вв.) Социальная жизнь в Центральной Азии в начале XX века. Материалы международной конференции. Самарканд. 2010. –С.5.

<sup>433</sup> Цыряпкина Ю.Н. Деятельность русских военных врачей в ходе организации медицинского дела в Ташкентском уезде Туркестана во второй половине XIX – начале XX вв. // Вестник Кемеровского государственного университета. 2017, № 1. – С.70,

<sup>434</sup> Цыряпкина Ю.Н. Деятельность русских военных врачей в ходе организации медицинского дела в Ташкентском уезде Туркестана во второй половине XIX – начале XX вв. // Вестник Кемеровского государственного университета. 2017, № 1. – С.70,

talabiga ko‘ra tub aholi uchun ham davolash ishlarini tashkil qilishga majbur bo‘ladi<sup>435436</sup>.

O‘lkada tibbiy xizmatlarni yo‘lga qo‘yilishida qator omillar, jumladan, Turkistonga Rossiya imperiyasining turli hududlaridan aholining ko‘chib kelishlari yanada qiyinlashishga sabab bo‘ladi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Sibir hududlari, Dasht o‘lkasi va Uzoq Sharq hududlariga yo‘naltirilgan 100 mingdan ortiqni tashkil etgan aholi u yerdagi iqlim sharoitiga ko‘nika olmasdan, Turkistonga ko‘chib kela boshladi. Turkistonga ko‘chib kelgan rus aholisi xoh uning ko‘chish guvohnomasi bo‘lsin, xoh u o‘zboshimchalik bilan ruxsatsiz kelgan bo‘lsin, o‘lkadagi vaziyat ularni qoniqtirmadi. Chunki bu yerda birinchidan, mahalliy aholi tomonidan asosiy yerlar o‘zlashtirilgan bo‘lgan; ikkinchidan, Turkiston o‘lkasidagi yerkarni o‘zlashtirib, ishlov berish uchun ko‘chib keluvchilarda sun’iy sug‘orish malakasi bo‘lmagan; uchinchidan, mustamlaka hukumati tomonidan aholini ko‘chirish bo‘yicha ishlab chiqilgan tartiblar amaldagi sharoitga to‘g‘ri kelmagan, mahalliy ma’muriyat esa mavjud vaziyatga qarab o‘z bilganicha ish tutgan. Natijada o‘z yeriga ega bo‘lmagan aholi og‘ir vaziyatga tushib, orqaga qaytib ketishga majbur ham bo‘ldi. Ko‘chib keluvchilarning iqtisodiy muammolariga ijtimoiy-tibbiy qiyinchilik ham qo‘shildi. Masalan, Andijon hamda O‘s shuezdlarida ishsiz muhtojlar soni ko‘paydi, shuningdek, ular orasida turli tif(ich terlama) kabi kasalliklar tarqalgan<sup>437</sup>. Shuning uchun imperiya ma’muriyatiga Turkistonga ko‘chirish oqimini to‘xtatish haqida nomalar jo‘natilgan.

1883 yildan boshlab Toshkentda "mahalliy ayollar va bolalar uchun ambulatoriya" ish boshladi, uning g‘oyasi ayol shifokorlar N. N. Gundius, A. V. Poslavskaya va YE. N.Mandelshtamga tegishli bo‘lib, ular mintaqaning avtoxton

<sup>435</sup> Зияева Д.Х. Медицина и здравоохранение в Средней Азии: традиции, модернизации и трансформация (конец 19 – начало XX вв.) Социальная жизнь в Центральной Азии в начале XX века. Материалы международной конференции. Самарканд. 2010. –С.5.

<sup>436</sup> Зияева Д.Х. Медицина и здравоохранение в Средней Азии: традиции, модернизации и трансформация (конец 19 – начало XX вв.) Социальная жизнь в Центральной Азии в начале XX века. Материалы международной конференции. Самарканд. 2010. –С.5.

<sup>437</sup> Равшанов Ш.Т. Туркистанга Россия империяси ахолиси кўчиб келишининг ижтимоий тарихи (XIX аср охири – 1917 йил) мавзусидаги 07.00.01 – Ўзбекистон тарихи ихтисослиги бўйича тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2022. – Б.20.

aholisi ayollarining dini va urf-odatlari ularga erkak shifokorlardan yordam so‘rashga imkon bermaganligini payqashdi. Ayol shifokorlar dastlabki bosqichda o‘zlarining tibbiy xizmatlarini bepul taklif qilishdi. Tatar Bibi Gafifa Nurgaliyeva kasalxonada tarjimon bo‘lib ishlagan. 1905 yildan beri ambulatoriyada 4 ta yotoq bor edi. Ularda viloyatning tub aholisining ayollarini tug‘ruq uchun qabul qilingan. Ammo bu juda kam uchraydigan holatlar bo‘lib, ayollar tug‘ruq paytida yordam so‘rab, rus shifokorlariga murojaat qilishgan<sup>438</sup>.

Ambulatoriya boshlig‘i tuman harbiy tibbiy inspektori tomonidan tanlangan ayol shifokor sifatida ishlashi mumkin edi. Bundan tashqari, lavozimga tayinlash Turkiston general-gubernatori tomonidan tasdiqlangan. Shtat jadvaliga ko‘ra, ambulatoriyada 2 ta shifokor, 1 ta ayol feldsher, 1 ta tarjimon va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlardan 1 kishi ishlagan<sup>439</sup>.

Shifokorlar davolash uchun qishloqqa borgan holatlar juda kam bo‘lgan, garchi shahar shifokorlari vaqtı-vaqtı bilan chechakka qarshi emlash va boshqalar uchun okruglarga borishga majbur bo‘lishgan.

Turkiston o‘lkasida 1880-1889 yillar, ya’ni o‘n yil davomida rossiyalik shifokorlardan tibbiy yordamga murojaat qilganlar soni quyidagicha bo‘lgan: 1889 yil – 94497 ta, 1888 yil – 72558 ta, 1887 yilda – 63205 ta, 1886 yilda – 73492 ta, 1885 yilda – 55254 ta, 1884 yilda – 42344 ta, 1883 yilda – 37211 ta, 1882 yilda – 27211 ta, 1881 yilda – 22219 ta, 1880 yilda – 20757 ta. Mahalliy aholining rossiyalik shifokorlarga murojaatlari ortib borganligi, lekin aholi soniga nisbatan ancha kamchilikni tashkil etganligini kuzatish mumkin. Masalan, 1889 yilda viloyat bo‘yicha jami 34437 nafar aholi tibbiy yordam uchun tashrif buyurishgan. Bu davrda viloyat umumiy aholisi soni 700 mingdan ortiq edi<sup>440</sup>.

---

<sup>438</sup> Цыряпкина Ю.Н. Деятельность русских военных врачей в ходе организации медицинского дела в Ташкентском уезде Туркестана во второй половине XIX – начале XX вв. // Вестник Кемеровского государственного университета. 2017, № 1. – С.71,

<sup>439</sup> Шадманова С.Б. Медицина и население Туркестана: традиции и новации (конец xix - начало XX вв. ) // Историческая этнология. 2017. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/meditsina-i-naselenie-turkestana-traditsii-i-novatsii-konets-xix-nachalo-xx-vv> (дата обращения: 20.05.2023).

<sup>440</sup> Бўтаев Ж.Ш.XIX асрнинг иккинчи ярмида Самарқанд вилоятида тиббий аҳвол (ЎЗМА ҲУЖЖАТЛАРИ АСОСИДА) // ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 2 | 2021 ISSN: 2181-1385. – Р.311.

Farg‘ona viloyati qo‘s Shinlarida kasallar orasida o‘lganlar soniga kelsak bu yerda ham o‘rtacha foiz olinadi va bu Rossiyaga qaraganda ancha kam. Bu yerda 1880 yilda 1000 ta holatda 10,3 ta, 9,0 ta 1884 yilda o‘lganlar soni, Farg‘onada esa 6 yil davomida 1000 ta holatda o‘rtacha yillik o‘lim soni atigi 3,94 tani tashkil etgan. Biz qo‘s Shinlar va mintaqalari aholisi orasida kasallik va o‘lim o‘rtasida parallellik o‘rnatalmayapmiz, chunki mahalliy aholi o‘limi va hatto aholi soni bo‘yicha statistik nashrlar juda noto‘g‘ri. Rossiyaning sobiq aholisi soni juda oz<sup>441</sup>.

1885 yilda butun aholining o‘limi haqidagi rasmiy ma’lumotlardan 1000 kishiga 21,30 kishi vafot etganini ko‘rish mumkin. Oldingi yillarda holat bo‘yicha hech narsa ma’lum emas. Rossiya aholisi yuzasidan bu ma’lumotlar aniqroq, shunday qilib, 1882 yilda (qo‘s Shinlar bundan mustasno) 31,82 ta 1000 rus aholisi vafot etdi; 1883 yilda 53,79; 1884 yilda 46,34; 1885 yilda 75,99. Agar mahalliy aholi orasida o‘lim darajasi ko‘proq yoki kamroq to‘g‘ri bo‘lsa, rus aholisining o‘limi haqida ancha og‘ir holat mavjud edi. Ular orasida mahalliy aholiga qaraganda ancha ko‘p o‘lishgan. Albatta, o‘limning eng kichik foizi kichik bolalarga nisbatan to‘g‘ri kelardi, ularning ko‘pchiligi har yozda mahalliy diareyadan vafot etgan. Tub aholining bolalari esa mahalliy noqulay iqlim sharoitlariga yaxshiroq toqat qiladilar. “Ammo umuman olganda, hozirgi vaqtida aniq statistik ma’lumotlar bo‘lmasa, har qanday ijobjiy xulosalar erta bo‘ladi”<sup>442</sup> deb ma’lumot berishgan.

Shu davrda Farg‘ona viloyatidagi tibbiy holat bo‘yicha yozilgan asarlarda haqiqiy holat bo‘yicha ko‘plab obektiv qarashlar ham mavjud. Xususan, unda qayd etilgan quyidagi ma’lumotlar diqqatga sazovor: “Farg‘onadagi shifokorlarimiz shu paytgacha yuqorida qayd etilgan mikroorganizmlarni mikroskopik tekshirish, ularning rivojlanishi va tarqalishini kuzatish imkoniga ega emas edilar. Ammo har birimiz mo‘l-ko‘l sug‘orish va iliq iqlim ta’sirida boy o‘simliklar paydo bo‘lgan joylarda ishonch hosil qilishimiz kerak edi. Bu organik moddalarning bitmas-

---

<sup>441</sup> Кушелевский В.И. Материалы для медицинской географии и санитарного описания Ферганской области. Т.III. Новый Маргелан, 1891. – С.14,

<sup>442</sup> Кушелевский В.И. Материалы для медицинской географии и санитарного описания Ферганской области. Т.III. Новый Маргелан, 1891. – С.15,

tuganmas materialini beradi, ular chirigan paytda bezgak kasalliklarining eng kuchli va xilma-xil shakllarini keltirib chiqaradi<sup>443</sup>.

XIX asrning 80-yillaridan oblastda mahalliy aholi mentalitetidan kelib chiqqan holda, ayollar va bolalar uchun mo‘ljallangan shifoxonalar ochila boshlagan. Birinchi ayollar va bolalar shifoxonasi 1887 yil Qo‘qon shahrida ochilgan bo‘lsa, 1888 yil Andijonda, 1889 yil Namanganda, 1891 yil Marg‘ilonda bunday shifoxonalar faoliyat yurita boshladi. Bu shifoxonalarda M.I. Shishova, O.I. Solnishkina, M.S. Goloshevskaya, M.K. Filippova, M.A. Geyshtor kabi rusiyabon shifokor-ayollar aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatganlar<sup>444</sup>.

Ivan Petrovich Oxangaron vodiysidagi Toshkent okrugining Tillau qishlog‘ini tanlagan, chunki bu yerda u okulist haqidagi bilimlarini amaliyotda muvaffaqiyatli qo‘llashi mumkin bo‘lgan joy edi. I.P. Sheverdin qishloq ambulatoriya kasalxonasini ochib, yoshligidan ko‘rlikdan aziyat chekayotgan va boshqa turli kasalliklardan azob chekayotgan tub aholiga tibbiy yordam ko‘rsatishga muvaffaq bo‘ldi. U o‘zbek tilini muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan va bemorlar bilan tarjimonsiz muloqot qila olgan. Ko‘z kasalliklaridan tashqari, Ivan Petrovich Sheverdin bezgak, tif, shamollashni davolash bilan shug‘ullangan, chechakka qarshi emlash muolajalari va operatsiyalarini, shu jumladan, kesar kesish amaliyoti va hokazolarni amalga oshirgan. Tibbiyot asoslarini o‘zlashtirgan Olga Alekseyevna eriga ayollarni davolashda yordam bergen<sup>445</sup>.

Samarqand viloyatida faqat mahalliy bemor ayollarni va ularning yosh bolalarini qabul qilish uchun maxsus ajratilgan ambulatoriyalar ham mavjud bo‘lgan. Mazkur shifoxonalar 1886 yildan viloyatning Samarqand va Xo‘jand shaharlarida faoliyati yo‘lga qo‘yilib, ular feldsherlar yordam beradigan ayol-shifokorlar tomonidan boshqarilgan. Samarqand va Xo‘jand shaharlarida ayol-

<sup>443</sup> Кушелевский В.И. Материалы для медицинской географии и санитарного описания Ферганской области. Т.III. Новый Маргелан, 1891. – С.35,

<sup>444</sup> Бадалов А.А. Фаргона областида согликни сақлаш тизими ва ундаги ўзгаришлар: тарихий таҳлил (XIX аср охири – XX аср бошлари) мавзусидаги 07.00.01 – Ўзбекистон тарихи тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Андижон, 2022. – Б.15.

<sup>445</sup> Цыряпкина Ю.Н. Деятельность русских военных врачей в ходе организации медицинского дела в Ташкентском уезде Туркестана во второй половине XIX – начале XX вв. // Вестник Кемеровского государственного университета. 2017, № 1. – С.72,

shifokorlari bo‘lgan maxsus ayollar va bolalar shifoxonalarining tashkil etilishi musulmon ayollarga nisbatan ratsional tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyatini yaratgan. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad yosh avlod ongida yoshlikdan rus tibbiyoti ustun va afzal degan g‘oyani singdirib borish hamda rus madaniyatini yoyish, aholi ishonchiga kirish orqali o‘z hukmronligini yanada mustahkamlash bo‘lgan<sup>446</sup>.

Viloyat harbiy gubernatorlarining hisobotlarida viloyatlarning sanitari holatiga oid ma’lumotlar ham muntazam berib borilgan. Bunda asosan xizmat ko‘rsatuvchi tibbiyot xodimlari, bemorlar soni va boshqa masalalar yoritilgan.

Jumladan, 1891 yilda Fargona viloyati bo‘yicha 5 ta vrach va 14 ta feldsherlar faoliyat ko‘rsatganligi, hamda 1495 ta kasal ularda davolanganligi, shundan 42 ta odam o‘lganligi statistik ilovada qayd etiladi<sup>447</sup>, 1907 yilgi statistik ilovada o‘sha yili 27 ta erkak vrach, 7 ayol vrach, 39 ta feldsher, 13 ta feldsher-akusherka, 15 ta farmatsevt 9862 kishiga xizmat ko‘rsatganligi ma’lum qilinadi<sup>448</sup>.

1892 yili pravoslav aholisi orasida 25 ta nikoh qayd qilinib, 150 nafar o‘g‘il bola, 156 nafar qizlar jami 306 nafar tug‘ilish qayd qilingan. Vafot etganlar esa erkaklar 316, ayollar 189, jami 505 kishi bo‘lib, kamayish 199 nafarni tashkil qilgan. Vafot etganlar aksariyati vabo epidemiyasi qurbanlari bo‘lib, Yevropa aholisidan 48 nafar, quyi darajadagi harbiylardan 71 nafar, ko‘chirilgan dehqonlar orasidan 14 ta jami 133 nafarni tashkil qilgan<sup>449</sup>.

Shu davrda tatarlar orasida ham tug‘ilish darajasi yuqori edi, lekin yomon sanitariya va tibbiy yordam tufayli chaqaloqlar o‘limi statistikasi yomonligicha qoldi. Masalan, 1901-yilda Toshkent tatar aholisining kamayishi qayd etilgan: har 50 yangi tug‘ilgan chaqaloqqa 61 ta (shu jumladan, 11 bola) o‘limi to‘g‘ri kelgan. Bolalar o‘limining sabablari orasida "yo‘tal", "oshqozon kasalligi", "tutqanoq"

<sup>446</sup> Бўтаев Ж.Ш. XIX асрнинг иккинчи ярмида Самарқанд вилоятида тиббий аҳвол (ЎЗМА ХУЖЖАТЛАРИ АСОСИДА) // ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 2 | 2021 ISSN: 2181-1385. – Р.311.

<sup>447</sup> Обзор Ферганской области за 1891 год. - Новъш Маргелан. 1893. – С. 60.

<sup>448</sup> Статистический обзор Ферганской области за 1907 год. - Скобелев. 1909. – С. 105.

<sup>449</sup> Справочная книжка Самаркандинской области на 1894 год. Выпуск II. Под редакцией и. д. Секретаря областного Статистического Комитета М.Вирского. – Самарқанд, Типография Штаба войск Самаркандинской области, 1894. – С.5.

kabilar ko‘p uchragan. Kattalar, asosan, o‘pka kasalliklari, o‘smalar, jarohatlar va boshqalardan vafot etgan<sup>450</sup>.

Sohaga mas’ul kishilar tomonidan kasallikni tarqalishining sabablari o‘rganilgan. Xususan, uylarning gigiyenik holati ham bunga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Ta’kidlanishicha, iliqlik, toza havo va yetarli yorug‘lik inson yashashi uchun eng kerakli sharoitlardir. Bu ma’noda Samarqand shahridagi deyarli barcha uylar ahvoli qoniqarsiz. Buning bir qator sabablari bor edi. 1) Samarqandning rus qismi eski qabristonlar, alohida qabrlar harbiy harakatlar natijasida bo‘shab qolgan mahalliy aholining uylarining xaroblari orasida joylashgan edi. 2) kichik istisnolarni hisobga olmaganda shahardagi uylar xom g‘ishtdan qurilgan edi. 3) Uylarning tuzilishi xom g‘ishtdan bo‘lib, poli qora pol yoki betonning yo‘qligi uchun tuproqning nosog‘lom va gigroskopik qismi xonadonlarning yashash qismiga kirib keladi. Samarqand shahrining yangi uylariga ko‘chib kelgan kishilarda revmatizm, surunkali bezgak va boshqa kasalliklar ko‘p uchragan. 1891 yilda shaharda kasallik tarqalgani uchun 69 ta quyi darajadagi harbiylar va 1 yoshgacha bo‘lgan 82 nafar yosh bolalarni hisobga olmaganda 67 nafar erkaklar va 61 nafar ayollar jami 128 kishini tashkil qilgan. Bu har ming kishiga o‘rtacha 44.1 nafarni tashkil qilgan. Toshkentda esa 1881-1890 yillarda har ming kishiga 52.7 nafarni tashkil qilgan<sup>451</sup>.

Sirdaryo viloyatining 1888 yilgi hisobotida viloyatda 2 ta rus ayol vrachi bir yilda 7 722 ta kishiga xizmat ko‘rsatganligi qayd etilsa<sup>452</sup>, 1890 yilgi hisobotda vrachlar 40 609 kishiga xizmat ko‘rsatganligi<sup>453</sup>, 1908 yili 15481 kasal ro‘yxatga olinib, ular orasidan 451 kishi vabo bilan kasallanganligi va 277 kishi shu kasal bilan o‘lganligi<sup>454</sup> ma’lum qilinadi.

Shunday holatni Kaspiyorti viloyatida ham ko‘rish mumkin edi. 1901 yildagi ma’lumotlarga ko‘ra Mang‘ishloq uezdida 4 ta rus manzilgohi, Krasnovodskiy

<sup>450</sup> Татарское население Ташкента в конце XIX – начале XX века. По материалам метрических книг / Сост.: Л.Ш. Гарипова, Ф.Г. Файзуллина, Э.Х. Кадирова, В.М. Усманов. – Казань: ИЯЛИ, 2021. – С.8.

<sup>451</sup> Справочная книжка Самаркандской области на 1894 год. Выпуск II. Под редакцией и. д. Секретаря областного Статистического Комитета М.Вирского. – Самарканд, Типография Штаба войск Самаркандской области, 1894. – С.15-16.

<sup>452</sup> ЎзМА. И-269-фонд, 1-рўйхат, 4-иш, 4-в.

<sup>453</sup> ЎзМА. И-269-фонд, 1-рўйхат, 18-иш. 4-в,

<sup>454</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 27-рўйхат, 83-иш, 8-варак.

uezdida 3 ta rus manzilgohi, Ashxobod uezdida temiryo‘l stansiyasida 13 ta rus manzilgohlari, Marv uezdidagi Penda pristavligida 2 ta rus manzilgohlar qayd qilingan<sup>455</sup>. 1901 yildagi hisobot ro‘yxatida keltirilgan aholi soni 1900 yilgiga qaraganda 309 kishiga kamaygan. Aholining bunday keskin o‘zgarishiga bezgak kasalligidan ko‘pchiligining vafot etishi va kishilarni boshqa uezdlarga ko‘chirib yuborish sabab bo‘ladi<sup>456</sup>.

Turkiston o‘lkasida uchraydigan kasalliklarning rus soldatlari va Rossiyadan ko‘chirib olib kelingan rus fuqarolari o‘rtasida ham tarqalashi amaldorlarni tashvishlantira boshladi. Ayniqsa, ular bezgak, rishta, yomon jarohat va shularga o‘xshash kasalliklar bilan og‘riy boshladilar. Harbiy boshliqlar buni ko‘rib, garnizonlarda xizmat qiluvchi vrachlarga bu kasalliklarni o‘rganish va soldatlarni ulardan holi qilishni buyurdilar. Vrachlar bu ishga kirishib, muhim natijalarga erishdilar. Masalan, Samarqand garnizonining vrachi K.M.Aframovich va Jizzax garnizonining vrachi T.Klopotovskiy rishta kasalligini tekshirib, bu kasallikni maxsus gjija (gelmint) paydo qilishini aniqladilar. Rus olimi K.I.Skiyabin yangi gelmint turini shistosoma gjijasini aniqladi<sup>457</sup>.

Shu davrda ayniqsa, sharqiy yara muammosi harbiy tibbiyat uchun juda dolzarb edi. Kasallar harbiy harakatlarga qodir emas edilar. Shunday qilib, 1885 yilda Murg‘ob daryosi vodiysida afg‘onlarning hujumini qaytargan 1204 askarning yarasi aniqlanib, ularning ba’zilarida 12-15 donadan yara bor edi. Velichkin otryadinining harbiy shifokori bu yaralarni “Penda yarasi” deb nomlagan. Pendaning aholisi ularga chalinish muqarrar deb hisoblagan va kasallikka sabot bilan chidagan. Qo‘shinlarda Penda yarasi epidemiyasi buyruq orasida sarosima uyg‘otadi. Podsho oliv qo‘mondonligi buyrug‘i bilan harbiy tibbiyat akademiyasining dotsenti A.L. Geydenreyx Murg‘ob daryosi vodiysiga yuborildi. U “Penda yarasi” monografiyasini nashr etdi, ammo bu stafilokokklarning roli haqidagi noto‘g‘ri

<sup>455</sup> Обзоръ Закаспийской области за 1901 годъ. – Асхабадъ: Типография Штаба 2-го Турк. Арм. Корп., 1902. – С.2-3.

<sup>456</sup> Обзоръ Закаспийской области за 1901 годъ. – Асхабадъ: Типография Штаба 2-го Турк. Арм. Корп., 1902. – С.7.

<sup>457</sup> Tibbiyat tarixi: Tibbiyat Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.A.Qodirov. —T.: “0 ‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2005. 159.

taxminlardan nariga o‘tmadi. Ushbu kasallikning oldini olish va davolash usullarini ishlab chiqqan shifokorga mukofot va’da qilingan. Sharqiy yaraning qo‘zg‘atuvchisini qidirish 1894 yilda P.F. Borovskiy tomonidan boshlangan. Toshkent garnizonining vrachi P.F.Borovskiy yomon jarohat (Leyshmanioz)ning qo‘zg‘atuvchisini topdi<sup>458</sup>. Bu kabi kashfiyotlar muhim amaliy ahamiyatga ega edi. O‘lkaga rus (Yevropa) vrachlarining kelishi ma’lum ma’noda ijobiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Ammo, u davrda rus podshosining Turkistonagi hokimi general-gubernator bu kashfiyotlardan foydalanib, o‘lkada tarqalgan kasalliklarni tugatishni xayoliga ham keltirmasdi. Binobarin, mustamlakachi Rossiya imperiyasidan keltirgan tibbiyoti "dengizdan bir tomchi" edi, xolos.

O‘lkada tibbiyot ilmini rivojlantirish maqsadida turli jamiyat va birlashmalar vujudga keldi. Turkistonda dastlabki ilmiy-tibbiyot jamiyati XIX asrning 90-yillari boshida paydo bo‘ldi. Dastlabki ana shunday ilmiy-tibbiyot jamiyati 1892 yilda Yangi Marg‘ilon (hozirgi Farg‘ona) shahrida tashkil qilingan “Farg‘ona tibbiyot jamiyati” hisoblanadi. O‘lkada faoliyat olib borgan Yevropa millatiga mansub tashabbuskor shifokorlar o‘lkaning tibbiyot sohasini o‘rganishga harakat qildilar va salmoqli ilmiy natijalarga erishdilar. 1890 yil 31 dekabrda Turkiston harbiy qismi 15-batalyonni bosh vrachi, tibbiyot fanlari doktori D.Lebedev, Orenburg kazak armiyasi 6-polki bosh vrachi Dobromislov, Marg‘ilon harbiy lazareti vrachi N. Kushelovlar muallifligida Farg‘ona viloyati harbiy gubernatori nomiga iltimosnama yozib jo‘natilgan. Ushbu iltimosnomada Turkiston o‘lkasining ilmiy-tadqiqot markazlaridan uzoqligi sababli tibbiyot, ayniqla, sanitariya-epidemiologiya sohasiga doir masalalar, jumladan, o‘lka aholisi o‘rtasida epidemik kasalliklarning kelib chiqish sabablari, o‘lkada bunday kasalliklar tarqalishining oldini olish bo‘yicha zaruriy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va nihoyat, viloyat aholisi o‘rtasida ko‘p uchraydigan kasalliklar va ularning kelib chiqish sabablari, davolash usullarini

---

<sup>458</sup> Белова-Рахимова Л.В., Баткаева Н.В. ПРОФЕССОР ПЁТР ФОКИЧ БОРОВСКИЙ (1863—1932) И ЕГО ОКРУЖЕНИЕ (к 150-летию со дня рождения и 115-летию открытия возбудителя кожного лейшманиоза) // Вестник последипломного медицинского образования, 2014.-N 3.-C.40-45  
<http://elib.fesmu.ru/elib/Article.aspx?id=304046>

ilmiy tadqiq etish zaruratidan kelib chiqib, o'lkadagi shifokorlar o'rtasida o'zaro yaqin aloqalar o'rnatish kerakligi ta'kidlangan<sup>459</sup>.

Farg'ona tibbiyot jamiyati 1892 yilda – vabo epidemiyasi davrida ochilganligi sababli dastlabki yillarda ushbu jamiyatning butun faoliyati epidemiyaga qarshi kurashish masalalariga qaratilgan bo'lib, shu yilda o'tkazilgan deyarli barcha yig'ilishlarida epidemiya bilan bog'liq muammolar muhokama qilinib, aniq yechimlar taklif qilingan. Jumladan, vaboga qarshi dastlabki kurash choralarini tashkil etish, vaboga chalinganlarni izolyatsiya qilish uchun alohida baraklar qurish va ularni maxsus anjomlar bilan jihozlash, shaharni uchastkalarga bo'lish va ularga vrachlarni taqsimlash masalalari batafsil ko'rib chiqilgan<sup>460</sup>.

I.I.Korolkovning ruslashtirish dasturida rus ayol-vrach va akusherklaridan unumli foydalanib, ruscha turmush tarzini mahalliy ayollar ongiga singdirnsh masalalariga alohida urg'u berilgandi. Shuning uchun mazkur bandlarda ba'zan rus ayol vrachlari faoliyati alohida ko'rsatilgan. Jumladan, 1908 yilgi Farg'ona viloyati hisobotida «rus ayol shifokorlaridan mahalliy aholi xotin-qizlari mammunlar, 14 tadan ortiq rus shifokorlari 9 312 ta kasal mahalliy ayollarga xizmat ko'rsatdi»<sup>461</sup> - deb xabar berilgan.

1908 yilda Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on uezdi Fedorovskiy rus posyolkasida jami 297 nafar kishi bo'lib, qishloqda 27 nafar chaqaloq tug'ilgan bo'lsa 14 nafari vafot etgan. Qishloqdagi asosiy kasallik sifatida malyariya ko'rsatilgan. Ambulator feldsherlik punktida vrach yordamini olgan shaxslar soni 65 nafarni olgan<sup>462</sup>. Viloyatda faoliyat olib borgan tibbiyot xodimlarining soni keyingi yillarda ham ko'payib borgan. 1900 yili 7 ta vrach, 12 ta feldsherlar 7 862 kishiga xizmat ko'rsatgan bo'lsa<sup>463</sup>, 1910 yili 9 ta vrach, 15 ta feldsher 9 275 kishini davolaganligi<sup>464</sup> qayd etiladi.

<sup>459</sup> Бадалов А. “Фарғона тиббиёт жамияти” ва унинг фаолияти (XIX аср охири – XX аср бошлари) Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 2 (2021). – Б.276.

<sup>460</sup> Бадалов А. “Фарғона тиббиёт жамияти” ва унинг фаолияти (XIX аср охири – XX аср бошлари) Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 2 (2021). – Б.277.

<sup>461</sup> ЎзМА. 1 жамгарма, 12-рўйхат, 1382-ити 12-в,

<sup>462</sup> И-18-фонд, 1-рўйхат, ед хр. 6665, 5-варақ.

<sup>463</sup> Обзор Самаркандской области за 1900 год. ■ Самарканд. 1901. – С. 26.

<sup>3</sup> Обзор Самаркандской области яа 1910 год. - Самарканд. 1912. – С. 24.

Doktor A.L.Shvarsning Turkiston tabiblar va vrachlar uyushmasida qilgan dokladida rus vrachlari duch kelayotgan qiyinchiliklar haqida gapiradi. Unda ayniqsa, vabo epidemiyalari paytida mahalliy aholining mayitni islom dini odatlariga ko‘ra ko‘mishga urinishlari, dezinfeksiya qilishga ko‘nmaganliklari katta qiyinchiliklarni keltirib chiqorganini qayd qiladi. Shuningdek, A.L.Shvars mahalliy tabiblarning teri ostisinishlari va chiqishlaridagi muvaffaqiyatlarini ham alohida ta’kidlaydi. Vaqtincha harakatlanmasligi uchun taxtalar qo‘yishi, massaj foydalanishi kabi usullari bilan yevropa tibbiyotidan ham oldinda ekanligi ta’kidlanadi<sup>465</sup>. Lekin ushbu sohalarda mahalliy tabiblar bilan hamkorlik qilishga urinishlar haqida hech qanday ma’lumotlar keltirmagan.

Shuni ham ta’kidlash kerakki Turkistondagi katta shaharlarning mahalliy aholi yashaydigan qismlarida yashaydigan joylardagi kasalxonalarda ham ko‘pincha yevropalik yoki tub bo‘lmagan aholiga xizmat ko‘rsatilgan. Masalan, Toshkent shahrining eski shahar qismida 1906 yilda 223 nafar bemor statsionar tarzda davolangan. Ular orasida ruslar – 100 nafar, yahudiylar – 19 nafar, tatarlar – 9 nafar, nemislar – 7 nafar va armanlar – 3 nafar, mahalliy ayollar va bolalar esa bor yo‘g‘i 85 nafarni tashkil qilgan<sup>466</sup>. Shuningdek, shaharning mahalliy qismidagi umumiyligi kasallardan tug‘ruqxonan bo‘limi xizmatlaridan faqat 40% va qabul bo‘limidan 34% mahalliy aholi qolganlaridan esa shaharning rus qismi aholisi foydalangan<sup>467</sup>.

A.L.Shvars Toshkent shahrining mahalliy qismida ko‘pchilik vrachlik xizmatidan foydalanayotgan bo‘lsa ham juda sekinlik bilan rivojlanyapti. Biz 50 yil ichida qiyosan olganda juda kam ish qildik. Sekinlikning sabablari avvalo, mablag‘lar yetishmasligi, mahalliy aholining johilligi va fanatizmidir<sup>468</sup>, deb hisoblagan.

<sup>465</sup> Тимаев К.А. Успехи русской медицины среди туземцев Туркестанский курьер (ТК). 1909, №172-173. – С.87.

<sup>466</sup> Тимаев К.А. Успехи русской медицины среди туземцев Туркестанский курьер (ТК). 1909, №172-173. – С.89.

<sup>467</sup> Тимаев К.А. Успехи русской медицины среди туземцев Туркестанский курьер (ТК). 1909, №172-173. – С.89.

<sup>468</sup> Тимаев К.А. Успехи русской медицины среди туземцев Туркестанский курьер (ТК). 1909, №172-173. – С.89.

Tahlil qilingan davrda Turkistonda xususiy tibbiyot rivojiana boshladi. 1908 yilda Toshkentda shifokor A.N.Predtechenskaya tomonidan 5 o‘rinli, agar kerak bo‘lsa, u 12 tagacha kengaytirilishi mumkin bo‘lgan birinchi xususiy ayollar shifoxonasi ochildi,. Yil davomida unda 220 nafar ayol davolandi, yarmiga yaqini tug‘ruqdagi ayollar bo‘lib, ulardan kasalxonada 8 kun qolish uchun 25 dan 40 rublgacha to‘lov olindi. Statsionar bemorlar kuniga 3 rubl to‘lashgan. XX asr boshlarida Toshkentda doya Kovaleva va shifokor M.I. Gorenstejn 4 o‘rinli xususiy ginekologik shifoxona va 6 o‘rinli tug‘ruqxona ochdi. Ulardan ba’zilari haftaning ma’lum kunlarida kambag‘allarga bepul xizmatlar ko‘rsatdilar. "Turkiston Vedomosti" gazetasida seshanba va juma kunlari A.Z.Xavinaning stomatologiya kabinetida tishlarni bepul davolash mumkinligi haqidagi e’lonni o‘qishingiz mumkin. 1911 yil ma’lumotlariga ko‘ra, Toshkentda 48 nafar shifokor bo‘lib, ulardan 30 nafari xususiy tibbiy xizmat ko‘rsatgan<sup>469</sup>. A.L.Shvars o‘zining ma’ruzasida zudlik bilan amalga oshirish kerak bo‘lgan choralar sifatida Toshkent shahrining mahalliy qismidagi statsionar davolash joyini kengaytirish, boshqacha so‘z bilan aytganda markaziy kasalxonaga aylantirish, keyin tug‘ruqxona tashkil qilish kerakligini ta’kidlaydi<sup>470</sup>.

1909 yil Toshkentda taniqli yahudiy vrachi M.I.Slonimning ukasi Sulaymon Ilich xususiy fizioterapiya klinikasini ochdi, unda bemorlarga turli xil muolajalar – massaj, terapevtik loy, mineral suvlar, sharqona davolash usullari qo‘llanilgan. Toshkentdagi boshqa shifoxonalarda ko‘plab shifokorlar – turli ixtisoslikdagi yevropalik yahudiylar ishlagan. Masalan, Toshkentning Eski shahar qismida A. L.Shvarsning erkaklar ambulatoriyasi bor edi, u musulmon aholiga yordam ko‘rsatdi. Stomatoglarning aksariyati yahudiy edi. Masalan, Toshkent xayriya jamiyatining stomatologi V. M. Zelmanovich har dushanba, chorshanba va shanba

<sup>469</sup> Шадманова С.Б. Медицина и население Туркестана: традиции и новации (конец XIX - начало XX вв.) // Историческая этнология. 2017. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/meditsina-i-naselenie-turkestana-traditsii-i-novatsii-konets-xix-nachalo-xx-vv> (дата обращения: 20.05.2023).

<sup>470</sup> Тимаев К.А. Успехи русской медицины среди туземцев Туркестанский курьер (ТК). 1909, №172-173. – С.92.

kunlari kambag‘al bemorlarni bepul qabul qilar edi. O‘rta Osiyoning boshqa shaharlarida ham ko‘plab yahudiy shifokorlari bo‘lgan.

Ulardan biri Muso Ilich Slonim (1875-1945) bo‘lib, ko‘p yillar Turkistonda ishlagan shifokordan hisoblanadi. U Toshkentda, matbaachi oilasida tug‘ilgan. Moisey Ilich Slonim 1893 yilda erkaklar gimnaziyasini tugatib, o‘sha yili Qozon universitetining tibbiyat fakultetiga o‘qishga kirishga muvaffaq bo‘ldi. Uni tugatgandan so‘ng, 1899 yilda u Toshkentga qaytib keldi va u yerda tropik ekspeditsiyada shifokor sifatida qabul qilindi. Slonim Bardanko‘l qishlog‘iga yuborildi, u yerda bir yarim oy ichida u 2,3 mingga yaqin bemorni, shu jumladan, bezgakdan aziyat chekayotgan deyarli 1,4 ming bemorni qabul qildi.

Ekspeditsiyada o‘zini yaxshi ko‘rsatgan Slonim Yankel Berkovich Magnetshteyn bosh shifokor bo‘lgan Toshkent shahar kasalxonasiga ko‘chib o‘tdi. M.I. Slonim ham Yevropa, ham musulmon aholisi orasida mashhurlikka erishib, kambag‘allarga bepul retseptlar yozar va ba’zan ularga sotib olish uchun pul ham bergen. Rus ma’murlari tomonidan mintaqada yahudiylarga nisbatan ishonchsizlik kayfiyati kuchaygach, M. I. Slonimning ahvoli yanada murakkablashdi. Xavfsizlik bo‘limi uni "siyosiy ishonchsizlikda" gumon qilindi va 1908 yildan 1910 yilgacha davom etgan kuzatuv o‘rnataladi. 1913 yilda shahar dumasining intilishlariga qaramay, ular ketishga majbur bo‘lgan bo‘lsa-da, kichik tibbiyat xodimlaridan minnatdorchilik tilaklarini olib turishadi.

1913 yilning 1 apreliida Qo‘qonda CH.Y.Norvillo va N.S.Kachxoyev tomonidan 10 ta doimiy joyga ega bo‘lgan birinchi xususiy shifoxona ochilgan. Shifoxona Ustaviga ko‘ra kasalxona jarrohlik, ichki kasalliklar, ayollar kasalliklari va asab kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarga zamonaviy ilmiy talablarga javob beradigan davolash va parvarish qilish imkoniyatini yaratish maqsadida tashkil etilgan. O‘sha davr matbuotida xususiy shifoxonalarning faoliyati yoritib borilgan. Chunonchi, “Sadoi Farg‘ona” gazetasida Qo‘qondagi CH.YU Norvillo va N.S. Kachxoyevlarning xususiy shifoxonasidan tashqari ayol shifokor YE.S. Masterkova, shifokorlar Chernoborodov va Broynshteynlarning xususiy shifoxonalari bemorlarni

ikki mahal: ertalabki soat 9 dan soat 12 gacha, kechqurun soat 17 dan soat 19 gacha qabul qilishlari haqida xabarlar ham berilgan<sup>471</sup>.

Ambulatoriya poliklinikalari asosan Turkiston viloyati shaharlarida ochilgan, qishloq aholisi tibbiy yordamisiz qolgan. Masalan, XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Samarqand viloyatida atigi 11 ta, Sirdaryo viloyatida 15 ta ambulatoriya mavjud edi. Aksariyat shifokorlar tomonidan mahalliy tillarni bilmaslik va tarjimonlarning yetishmasligi aholiga tibbiy yordam ko‘rsatishni murakkablashtirdi. Buni 3 yil 1914 sentabrda "Sadoi Farg‘ona" gazetasida chop etilgan maqola tasdiqlaydi, unda mahalliy aholi shifokorlari bilan bog‘lanmaslikning sabablaridan biri til muammo si ekanligi aytilgan. Bemorlar o‘z holatlarini imo-ishoralar bilan tushuntirishdi, lekin shifokorlarning so‘zlarini tushunishmadi va tasodifiy dori-darmonlarni qabul qilishdi. Ushbu maqolaning noma’lum muallifi Turkiston aholisiga tibbiy yordam ko‘rsatish uchun hatto yuzlab musulmon shifokorlar ham yetarli emasligini yozgan<sup>472</sup>.

Sirdaryo Ko‘chirish Boshqarmasi hududida 1915 yilga kelib 15 ta vrachlik va feldsherlik xizmat ko‘rsatish markazlari ko‘chib kelgan aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatgan. Bu xizmatlardan mahalliy aholi ham foydalanganligi ta’kidlanadi. Ushbu markazlar asosan Turkistonga ko‘chib kelganlarning vaqtincha yashash joyi hisoblangan baraklar yaqinida joylashgan edi. 1915 yilda jami 52513 nafar aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatilgan. Toshkent shahrida tibbiy markazlar sifatli bo‘lgan. Ko‘chib kelganlar bu yerda tibbiy nazoratdan o‘tib, asosan, Samarqand va Farg‘ona viloyatlari uezdlariga jo‘natilgan<sup>473</sup>.

Turkistonda tub bo‘lmagan aholi azaldan tibbiyot sohasida faoliyat olib borgan, ko‘plab tabiblar ish olib borgan bo‘lsa ham general gubernatorlik davrida u

---

<sup>471</sup> Суворов В.В. Медицинская помощь как фактор культурного и политического влияния в оценках отечественной публицистики рубежа XIX – начала XX века // Bulletin of Medical Internet Conferences (ISSN 2224-6150) 2017. Volume 7. Issue 3. – С.647.

<sup>472</sup> Бадалов А.А. Фаргона обlastida soglikni saqlash tizimi va undagi ўзгаришлар: tarixiy taxlil (XIX asr oxiri – XX asr bo‘shlari) mavzusidagi 07.00.01 – Ўзбекистон тарихи тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Андижон, 2022. – Б.17.

<sup>473</sup> Равшанов Ш.Т. Туркестонга Россия империяси аҳолиси кўчиб келишининг ижтимоий тарихи (XIX asr oxiri – 1917 yill) mavzusidagi 07.00.01 – Ўзбекистон тарихи ихтисослиги бўйича тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2022. – Б.20.

alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Dastlab rus qo'shinlarining harbiy ehtiyojlari sabab o'lkaga tibbiyat usullari kirib keldi. Rus qo'shinlarining turli hududlar bo'yab joylashtirilishi va keyinchalik turli millatlarning Turkistonga ko'chib kelishlari fuqarolik tibbiyotiga ham tarqala boshlangan. Bunda ko'chib kelgan tub bo'limgan xalqlarning o'lka iqlim va tabiiy sharoitlariga moslashishlari qiyin kechganligi, turli kasalliklarni qiyin o'tkazganliklari, buning ortidan o'lim hodisalarining ko'payishi kabi muammolar aslida o'lkaga zamonaviy tibbiyat usullarining kirib kelishi uchun o'tkir ehtiyoj tug'dirgan.

Dastlabki davrlarda Turkiston general-gubernatorligining amaldorlari tomonidan ushbu muammolarni inkor qilinishiga qaramasdan, ko'chib kelgan aholi murojaatlarining ko'payishi, aksariyat harbiylar va xizmatchilar orasida kasalliklarning avj olishi tibbiyat sohasiga e'tibor qaratishga majbur bo'lganlar. Mavjud muammolarni faqat ko'chib kelgan rus fuqarolari davolatishga e'tibor qaratish orqali hal qilishga urinishlar muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Bunda ko'plab Rossiya imperiyasi hududlaridan ko'chib kelgan shifokorlarning qayta-qayta so'rovlari va qistovlari ortidan mahalliy aholi orasida tibbiy tadqiqotlar o'tkazilishga rozilik berilgan. Bunda kasalliklarning mahalliy xususiyatlari va profilaktikasini aniqlashga urinish muhim o'rin tutgan. Shundan keyingina zamonaviy tibbiyat imkoniyatlaridan mahalliy aholi orasida ham qo'llashga kirishila boshlangan.

Turkiston viloyati shifokorlari va tibbiyat xodimlari ko'p ishlarni amalga oshirdilar, ko'pincha eng zarur yordamni ko'rsatdilar. Bunda ayrim rus, yahudiy, tatar va boshqa millatlarga mansub vrachlarinnig fidokorona mehnatlari, o'z xizmat vazifalariga chuqur mas'uliyat bilan yondashishlarini ham e'tirof etib o'tish joiz. Ularning tashabbuslari va shaxsiy namuna ko'rsatib bergenlaridan keyingina zamonaviy tibbiy xizmatlardan mahalliy aholi vakillari ham foydalana boshladi.

Turkistondagi shaharlarning mahalliy aholi yashaydigan qismlarida mahalliy aholi foydalanishi uchun ochilgan tibbiyat muassasalaridan ham asosan yevropalik aholi foydalangan. Garchi mahalliy aholining ayrim hollarda joxilligi, mutaassibligi boisdan foydalanishni xohlamagan bo'lsalar ham to'g'ri tushuntirishlardan keyin

murojaat qilganlar soni ko‘paygan. Ko‘pincha ayrim jonkuyar shifokorlarning buni mahalliy aholi ichida targ‘ib qilganliklari tufayli erishilgan.

Biroq, Rossiya imperiyasi hukumati Turkiston general-gubernatorligida tibbiy xizmatni keng aholi orasida rivojlantirish uchun yetarli mablag‘ ajratmadni va natijada tahlil qilingan davrda tibbiy yordamning butun tizimi ommaviy xarakterga ega bo‘lmadi. Natijada o‘lkadagi yangidan yo‘lga qo‘yilgan tibbiy xizmat nafaqat tub aholi ham balki tub bo‘lman aholi toifasining ehtiyojlarini ham to‘la qondira olmadi. Oktabr to‘ntarilishidan keyin tibbiyot muassasalarining Turkiston general-gubernatoriligi tomonidan moliyalashtirilishiga qaramligi, kam sonli xususiy tibbiyot muassasalarining burjuaziya qoldiqlari sifatida qabul qilinishi o‘lkadagi tibbiy xizmatga berilgan katta zarba bo‘ldi.

#### **4.3 Tub bo‘lman aholining ijtimoiy hayotida diniy e’tiqodlar**

Turkiston general-gubernatorligi tashkil topgan dastlabki kunlardanoq, hukumat oldidagi bosh masalalardan biri islam diniga qanday munosabatda bo‘lish edi. Turli tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, metropoliya ko‘p sonli nufuzga ega islam dini bilan munosabatda dastlab “ehtiyotkorona” yo‘l tutdi. Shunga qaramay, asosiy maqsad uni o‘lkadagi mavqeini zaiflashtirish hamda o‘zga dinga e’tiqod qiluvchilarni sonini ko‘paytirishga qaratildi. Jumladan, Turkiston ma’muriyatni butun mustamlaka davrida uzoqni ko‘zlovchi niyatlarda vaqf mulkini, ayniqsa, vaqf yerini musodara etish, qisqartirish choralarini ko‘rdi. Vaqf mulkini tashkil etuvchi yerdan, savdo do‘konlaridan, bog‘lardan, tegirmonlardan va hokazolardan olinadigan daromad hisobidan madrasalar, maktablar, katta bo‘lman qishloqlarda esa masjidlar ham ta’milanardi. Zero, yuzaki qaraganda, mustamlakachi ma’muriyatning Rossiyadan ko‘chirib keltirilganlar manfaatlari yo‘lida amalga oshirilgandek bo‘lib ko‘ringan bu choralar, aslida islam ta’sirini kamaytirish, muslimon muassasalari rolini zaiflashtirish siyosatining tarkibiy va eng asosiy qismi bo‘lib qoldi. Vaqf mulkining tortib olinishi, uning miqdori zo‘rlik bilan kamaytirib

borilishi mahalliy dehqonlar orasida yersizlar va ishsizlar sonini oshib borishiga olib keldi.

O‘lkani taftish qilgan imperiya senatori F.K. Girs ham bu sohada ehtiyotkorlik bilan ish yuritishni taklif etadi. Chunki, vaqf yerlariga keskin siyosat yurgizishni o‘sha vaqtagi Turkiston Arxiyepiskopi birmuncha qoralab o‘tgan edi<sup>474</sup>. Senator o‘z hisobotida vaqf yerlari bo‘yicha qator takliflarni beradi. Chunonchi<sub>g</sub> u diniy vaqf yerlarini davlat va boshqa soliqlardan ozod etishni, aholi yashamaydigan bo‘sh vaqf yerlari egalari ixtiyorida qolishini, aholi yashaydigan vaqf yerlari esa ularda ishlaydigan kishilar ixtiyoriga berilishini, bu yerlardan tushadigan daromadni diniy tashkilotlarga o‘tkazish zarurligini ta’kidlaydi. Xususiy vaqf yerlari vasiyat qilingan kishilar mulki hisoblansa-da<sub>g</sub> ulardan ham soliq olish kerak, deb ta’kidlaydi. Vaqf yerlarini nazorat qilib turish uchun Yangi Marg‘ilon, Samarqand, Toshkentda vaqf tashkilotlari tuzishni taklif qiladi, uning tarkibida harbiy gubernator tavsiya qilgan tashkilot raisi va 4 ta mutavalli bo‘lishi kerak, deb hisoblaydi<sup>475</sup>. Afsuski, bu takliflar Turkiston ma’muriyati tomonidan to‘liq e’tiborga olinmay, faqatgina ayrim o‘zgarishlar qilindi, xolos.

Turkiston general-gubernatorligining dastlabki yillari haqida tayyorlangan rasmiy hujjatlarda tub bo‘lмаган aholining qaysi dinlarga e’tiqod qilishi masalasi ham doimo e’tiborda bo‘lgan.

Kaufman hisobotlarida aholining diniy tarkibi bo‘yicha “to‘g‘ri ro‘yxatga olinmaganligi uchun, faqat juda taxminiy raqamlar bilan aniqlanishi mumkin” deb ma’lumotlar beriladi. Unga ko‘ra qo‘sishnlarni hisobga olgan holda, pravoslav va boshqa nasroniy konfessiyalarga mansub shaxslar soni 100 mingdan 120 minggacha, yahudiylar taxminan 15000 jon, butparastlar 75000 nafargacha yashagan. Mintaqaning musulmon aholisi, shu jumladan, barcha qirg‘izlar, ular orasida islomda ildiz otmagan shamanizm juda rivojlangan bo‘lib, 3 000 000 nafarga yetadi<sup>476</sup>. Bu yerdagi so‘nggi ma’lumotlar jiddiy e’tiroz tug‘diradi. Chunki qirg‘izlar

<sup>474</sup> Гирс Ф.К. Кўрсатилган асар, Б. 348.

<sup>475</sup> Гирс Ф.К. Кўрсагялган асар. Б. 349.

<sup>476</sup> Проект всеподданнейшего отчёта генерал-адъютанта К.П. фон-Кауфмана I по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства. 7 ноября 1867 - 25 марта 1881 г. – Санкт-Петербург: Военная Типография, 1885. – С. 30.

ancha oldin musulmonchilikni qabul qilgan bo‘lib, faqatgina ularni urf-odatlari va marosimlarida ko‘chmanchilarga xos bo‘lgan shomonlik belgilari mavjud bo‘lgan.

Arxiv manbalari orasida ayrim viloyat yoki uezdlardagi dinga e’tiqod qiluvchilar to‘g‘risida ham ma’lumotlar berib borilgan. Jumladan, 1882 yilda Yangi Marg‘ilon aholisining e’tiqodi bo‘yicha shahar politsmeystri bergan ma’lumotga ko‘ra pravoslavlар 1385 nafar, katoliklar 29 nafar, lyuteran yevangeliyachilar 28 nafar, musulmonlar 1504 nafar, yahudiylar 57 nafar, jami aholi 3003 nafar bo‘lgan<sup>477</sup>.

1886-yilda Turkistonga ko‘chirish to‘g‘risidagi tasdiqlangan qoidalar bu hududga turli nasroniy yo‘nalishlari vakillarini joylashtirishni rasman rag‘batlantirmadi. Hududga ko‘chib keluvchilarni joylashtirish jarayoni aniq tartibga solinganiga qaramay, 1880-1890 yillarda. sektantlar, qadimgi imonlilar, nemislar Turkistonga cheklangan miqyosda kelgan holda, asosan, Kaspiyorti va Yettisuv viloyatlarida joylashgan. Sirdaryo, Farg‘ona va Samarqandda ham mazhabchilarning paydo bo‘lishi ko‘pincha ayrim mazhab jamoalari vakillari o‘rnashish chog‘ida o‘zlarining diniy mansubligini ochiq e’lon qilmaganliklari, Turkiston ma’muriyati vakillarining o‘ziga xos xususiyatlarni ko‘chmanchilarning diniy va marosim hayotini tushunmaganliklari tufayli bo‘lgan. Mazhabviy jamoalar vakillari uzoq va tabiiy hamda iqlimiq qiyinchiliklar tufayli pravoslav ko‘chmanchilar joylashishga intilmagan Kaspiyorti mintaqasida ko‘proq istiqomat qilishdi. Turkistonning bunday siyrak aholi punktlarida hokimiyat idoralari mazhab va eski dindor xonadonlarining mustamlakachilik salohiyati va iqtisodiy barqarorligini hisobga olishga majbur bo‘ldi.

Andijon qo‘zg‘olonidan keyin yangi general-gubernator S.M. Duxovskoy zulmkor va xalqni doimiy bo‘yin egishga majbur qiladigan hujjat tayyorladi va uni yuqori amaldorlardan tasdiqlab berishini so‘radi. Ushbu hujjat “Islam v Turkestane” nomli gubernator ma’ruzanosmasida o‘z ifodasini topdi<sup>478</sup>.

Ushbu hujjatda dastlab islomning nufuziga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Unda

<sup>477</sup> ЎзМА И-19-фонд, 1-рўйхат, 12012-иш, 6-варак.

<sup>478</sup> ЎзМАИ-1-фонд, 25-рўйхат, 72-иш, 1-варак.

Shariat, So‘fizm, pan-islomizmning mohiyatini tushuntirishga harakat qilinadi. O‘lka aholisi to‘liq islomga e’tiqod qilishini “agarda Turkistonda musulmonlar 14 million kishini tashkil etishini hisobga olsak, u holda biz ular bilan uzoq vaqtgacha hisoblashishga majburmiz”<sup>479</sup> - degan jumlalar bilan ifodalaydi.

Duxovskoy, shuningdek, islomning jamiyatdagi nufuzini pasaytirish uchun “... xalqning ma’naviy-ruhiy holatiga kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi madrasalar ishlariga faol darajada aralashish, musulmonlarni birlashtirishga qodir bo‘lgan musulmon diniy boshqaruviga yo‘l qo‘ymaslik, jami musulmon o‘quv yurtlarini ro‘yxatdan o‘tkazish va oila, nikoh ishlarini hal qilish huquqini rus ma’muriyatiga berish”<sup>480</sup> - kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim, deb hisoblaydi.

Turkiston general gubernatorligi tomonidan 1900 yilgacha o‘lka aholisini haj qilishlari uchun rasman ruxsat berilmagan. Bunga Saudiya Arabistonidan epidemiologik vaziyat bahona qilib ko‘rsatilgan. Keyinchalik tijorat maqsadlarini ko‘zlab, Turkiston aholisining hajga borishlari uchun ruxsat berila boshlangan.

XX asr boshlaridan Eron va Kavkaz hududlaridan Farg‘ona vodiysiga shia musulmonlari kirib kelishlari kuchayadi. Ular asosan O‘rta osiyo temir yo‘lida qora ishchi sifatida ishlaganlar. 1910 yilda ularning soni bor yo‘g‘i 30 kishi bo‘lgan bo‘lsa, 1915 yilga kelib ularning soni 500 nafardan oshib ketadi. Ularning aksariyatini Eron fuqarolari va bir qismini rus fuqarolari tashkil qilgan. Ular soni ko‘payganidan keyin o‘zlariga alohida masjid va uning yonida qabriston qurishga yer sotib olish uchun Farg‘ona viloyati ma’murlariga ariza xatini yozadilar. Ariza yozganlarning ism familiyalarining aksariyati ozarbayjoncha va kavzkazcha bo‘lgan. Ular nafaqat o‘zlarini namoz o‘qish uchun balki bolalariga ham diniy ta’lim berish maqsadida masjid hamda qabriston bo‘lishlarini xohlaganlar<sup>481</sup>. Ular shu maqsadda Qo‘qon shahriga tegishli hududdan 2 ta yer uchastkasini sotib olishni xohlaganlar. O‘lka ma’muriyati tomonidan eroniy shialarning aksariyat qismi bu

<sup>479</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 25-рўйхат, 72-иш, 1-варак.

<sup>480</sup> Ўша жойда. 9-варак.

<sup>481</sup> ЎзМА. И-19-фонд, 1-рўйхат, 26576-иш, 34 -варак.

yerga vaqtincha ko'chib kelganlari, ro'yxatda turmasliklari sabab ushbu masalani doimiy ravishda orqaga surib kelgan.

Markaziy Osiyo bosib olingandan keyin mustamlaka qilish jarayonida hukumat, albatta, pravoslav "elementi"ga ustunlik berdi. Biroq, mintaqadagi pravoslavlari bilan birgalikda, unda Rossiya hukumati tashkil etilgan birinchi kunlardan boshlab, boshqa nasroniy konfessiyalarining vakillari ham kirib kela boshlagan. Ularning aksariyati bu yerga hukumatning irodasi bilan harbiy xizmatchilar, fuqarolik amaldorlari, surgunlar va boshqalar sifatida kelgan. Ko'pchilik Turkistonga o'z xohish-irodasi bilan, qonuniy ravishda - biznes, ilmiy, madaniy va hokazo maqsadlarda kelgan. "Pravoslav bo'limgan" nasroniy larning muhim qismi Markaziy Osiyoga Rossianing "ichki" viloyatlarida 1890-yillarning boshlarida ocharchilik yoki turk armanlari kabi chet elda shafqatsiz ta'qiblar kabi qiyin hayot sharoitlari tufayli kelgan. Mintaqaning erkin ko'chish uchun "yopiqligi"ga qaramay, Turkiston ma'muriyati "mehmonlarni" qabul qilishga majbur bo'ldi, albatta, hukumatning ruxsatisiz. Migratsiya oqimlarida ko'pincha" ishonchsiz" bo'lgan turli sekta vakilari bor edi. Albatta, ularning ko'pchiligi o'z tashabbusi bilan Turkiston viloyatiga kirib, o'z vatanidagi qashshoqlik va diniy zulmdan qochishga harakat qilib, Markaziy Osiyoga ko'chish yo'lidagi huquqiy to'siqlarni turli yo'llar bilan chetlab o'tdilar. Ammo ko'plab "ishonchsiz" xristianlar mintaqaga nafaqat hukumatning ta'qibi bilan, balki o'zlarining o'ylab topgan bahonalari bilan ham kelishdi. Masalan, Ural kazaklari-staroobryadchiklar, molokanlar yoki shtundistlar shular jumlasidandir. Yuqoridaq holatlar natijasida o'tgan asrning oxiriga kelib Turkiston pravoslav bo'limgan nasroniy konfessiyalarining juda keng doirasiga ega bo'ldi, ularning har biriga hukumat ko'plab parametrlarni hisobga olgan holda boshqacha munosabatda bo'ldi. Biroq, har qanday holatda ham, ularning mavjudligi haqiqati bilan Turkistondagi diniy siyosatda hisobga olishga majbur bo'ldi.

Ko'p hollarda Rossiya Turkistoniga ko'chib o'tgan diniy jamoalar markaziy hokimiylarning siyosatiga rozi bo'limgan va umuman olganda mahalliy boshqaruvga tayanch vazifasini o'tmagan, aksincha, ko'p hollarda bunga qarshilik

qilgan. Turkistondagi diniy jamoalar tarixi bo‘yicha taniqli tadqiqotchi Litvinov yozganidek, mintaqadagi ko‘chib kelganlar o‘rtasida ham birdamlik yo‘q edi. Katolik va arman-grigoryanlar Kaspiyorti hududida millatchilik, umumiy dushman - rus davlatchiligi va pravoslav cherkoviga qarshi turish maqsadlarida bir-birlari bilan hamkorlik qilishgan. Nemis adventistlari Sirdaryo viloyati, Avliyoota uezdidagi lyuteran nemislari bilan doimo keskin to‘qnashuvda bo‘lgan. Rus staroobryadlari rus baptistlari, shtundistlari, adventistlari va boshqalarga nisbatan juda salbiy munosabatda bo‘lib, ularni G‘arb ta’sirini tarqatuvchilari deb bilishgan<sup>482</sup>.

Shu boisdan barcha tub rus kishilarini o‘lkaga kirib mustahkam joylashishi, deqhonchilik, savdo va sanoat sohalarida yaxshi mavqega ega bo‘lishlari uchun barcha choralarini ko‘rish, ular hech qanday to‘siqlarga uchramasliklari uchun barcha yordamlarni berish kerakligi uqtiriladi. Garchi sektantlar harbiy xizmatdan bo‘yin tovlasalar ham ularning mavjud bo‘lishi 6 millionlik mahalliy aholi qarshisida tura oladigan ruslar qatalamini shakllantirishi kerak<sup>483</sup>- bo‘lgan.

Bu kabi holatlar kuzatilayotgan bir paytda bu yerda rus kolonizaiyasi ta’sirini kengaytirish zarur edi. Boisi shu paytda 6 millionlik musulmon aholisi orasida Afg‘oniston, Buxoro, Eron va Turkiya, hattoki Xitoyda milliy o‘zlikni anglash rivojlanib borayotgan bir paytda panislomistik targ‘ibot ishlari avj olgan. Shu jihatdan “Bu sharoitda har bir mehnatkash hushyor tub rus kishisi diniy qarashlaridan qat’iy nazar bu yerda quchoq ochib kutib olinishi shart. Boisi ularning o‘lkaga kelishlari hamma munosabatlarda xohlangan ishdir”<sup>484</sup>-bejizga ta’kidlamagan edilar.

Shunday fikrlar Turkiston general-gubernatorligi Kengashidagi Moliya vazirligidan doimiy a’zo bo‘lgan shaxs tomonidan ham aytilgan. Xususan, u “o‘lkani kolonizaiya qilishni davlat mudofaasi g‘oyasi bilan uyg‘unlashtirish kerak.

---

<sup>482</sup> Литвинов -41

<sup>483</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат, 5146-иши, 3 -варак.

<sup>484</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат, 5146-иши, 4 -варак.

Chunki tez orada musulonlarning xristianlarga qarshi bosimiga duch kelamiz. Bunday xatarni biz kuchli, hushyor va ogoh bo‘lganda bartaraf qilamiz”, deydi<sup>485</sup>.

Turkistonga ko‘chirish qoidalari XX asr boshlarida qayta ko‘rib chiqildi. 1903-yilda “Ixtiyoriy ko‘chirish qoidalari...”ning yangi tahriri nashr etildi, unda 1886-yildagi Turkiston o‘lkasi boshqaruvi to‘g‘risidagi Nizomning tegishli moddalarini bekor qilindi.

Yangi tahrirdagi 1-moddaga ko‘ra, “Yevropa Rossiyasining tub rus aholisiga mansub qishloq aholisi va pravoslav dinidagi filistlar”ga Sirdaryo, Farg‘ona va Samarqand viloyatlariga ko‘chirishga ruxsat berildi. Xuddi shu qonunda Turkiston harbiy okrugi qo‘sishlarining quyi saflari ham nasroniy diniy konfessiyalardan biriga mansub bo‘lsa, ko‘chmanchilar bilan bir xil asoslarda Turkistonda qolishi mumkinligi ko‘rsatilgan edi. 1906 yilda "Davlat yerlariga ko‘chirish qoidalari" ning yangi tahriri nashr etildi, unga ko‘ra aholining bir xil toifalariga ko‘chirishga ruxsat berildi. Shu bilan birga, eski dindorlar va mazhab jamoalari vakillariga hokimiyat bilan kelishilgan holda ko‘chirishga ruxsat berildi. Ichki ishlar vazirligida general-gubernatorning iltimosnomasi ko‘rib chiqilgandan so‘ng, sektantlar, eski dindorlar, boshqa nasroniy konfessiyalari vakillarini ko‘chirishga ruxsat berildi. Umuman olganda, ko‘chmanchilarni joylashtirish qoidalari yanada qat’iy tartibga solish va imperator hokimiyatining mazhabviy jamoalar vakillariga nisbatan ehtiyyotkor munosabati ularning mintaqaga kelishiga to‘sinqilik qilmadi. Imperator hokimiyatni o‘rnatilganiga qaramay, Turkistonda mazhab va eski dindorlarni mintaqaga joylashtirish masalalarida yagona yo‘nalish yo‘q edi, bundan tashqari imperator va Turkiston amaldorlarining eski dindorlar va mazhabchilarga nisbatan tutgan pozitsiyalarida ziddiyatlar mavjud edi.

Turkistonda yetarlicha mustahkam mavqega ega bo‘lmagan Rossiya imperiyasi konfessional-bir xil jamoaga tayangan holda, hukmron din – pravoslavlikka ega bo‘lgan ko‘chiruvchilar jamoasini birlashtirishga intildi. Ushbu mantiqdan kelib chiqqan holda turli mazhab jamoalari va molokanlar mintaqada

---

<sup>485</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат, 5146-иши, 6-об-варак.

"zararli" unsur sifatida ko‘rilgan. Turkistonga turli mazhabchilarning kirib kelishi Turkiston yeparxiyasi ma’muriyatini xavotirga soldi. Turkiston yepiskopi Arkadiyning Muqaddas Sinodga qilgan shikoyatidan so‘ng “Turkiston o‘lkasining tub aholi punktlariga qishloq aholisini ixtiyoriy ravishda ko‘chirish qoidalari” loyihasini ishlab chiqish boshlandi<sup>486</sup>.

1897 yilgi aholini ro‘yxatga olish bo‘yicha statistik ma’lumotlarga ko‘ra Turkiston viloyatidagi katoliklar soni Yettisuvda 226, Sirdaryo 2956, Farg‘ona 1590, Samarqand 1664, Kaspiyortida 4767 kishi bo‘lgan. 1911 yil ma’lumotlariga ko‘ra esa Yettisuvda 360, Sirdaryo 3500, Farg‘ona 1030, Samarqand 686, Kaspiyortida 2300 kishi bo‘lgan. 1913 yilda aholining umumiyligi soniga nisbatan Yettisuvda 0,02 %, Sirdaryoda 0,19 %, Farg‘onada 0,1 %, Samarqandda 0,18%, Kaspiyortida 1,23% ni tashkil qilgan<sup>487</sup>.

Ayniqsa, Ashxobod shahridagi katoliklarning mavqeい alohida ahamiyat kasb etgan. Boshqa hududlarda katolik cherkovlari qurishga unchalik ro‘yxushlik berilmagan bo‘lsa ham Ashxoboddagi katolik cherkovi qurib bitkazildi. U shaharning eng yaxshi bezaklaridan biri bo‘lib xizmat qiladigan yengil va oqlangan bino bo‘lib, uni o‘rab turgan kichik, past binolari fonida ayniqsa keskin ajralib turadi”, deb qayd qilingan<sup>488</sup>.

1901 yilda Kaspiyorti viloyatiga ko‘chib kelgan aholining diniy tarkibi ham rang-barang bo‘lib, katta qismi pravoslavlar, molokan va boshqa mazxablar, protestantlar, arman-grigoryanlar, katoliklar, muslimonlar, yahudiylar va boshqa e’tiqoddagilardan iborat bo‘lgan. pravoslavlar barcha uezdlarda ko‘pchilikni tashkil qilgan bo‘lsa, molokan va boshqa mazxabdagilar Mang‘ishloq uezdida 4 nafar, Kranovodsk uezdida 12 nafar, Ashxobod uezdida 786 nafar, Tajan uezdida 17 nafarni tashkil qilgan. Protestantlar Krasnovodsk uezdida 30 nafar, Ashxobod uezdida 481 nafar, Tajan uezdida 259 nafar, Marv uezdida 33 nafarni tashkil qilgan. Arman grigoryanlar Mang‘ishloq uezdida 60 nafar, Kranovodsk uezdida 993 nafar,

<sup>486</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат, 5146-иши, 6-об-варак.

<sup>487</sup> Любимов П.П. Религии и вероисповедный состав населения Азиатской России, Пг., 1914, 0,44-45;

<sup>488</sup> Обзора Закаспийской области за 1905 год Асхабад, 1907, с. 193.

Ashxobod uezdida 4694 nafar, Tajan uezdida 93 nafar, Marv uezdida 829 nafarni tashkil qilgan. Katoliklar Mang‘ishloq uezdida 8 nafar, Kranovodsk uezdida 237 nafar, Ashxobod uezdida 643 nafar, Marv uezdida 53 nafarni tashkil qilgan. Shuningdek, musulmonlar ham ko‘chib kelganlarning salmoqli qismini (20 mingga yaqin) tashkil qilib, ularning aksariyati Kranovodsk, Ashxobod va Marv uezdlarida istiqomat qilgan. Shu bilan birga yahudiylar ham 600 nafarga yaqin miqdorda edi<sup>489</sup>.

XX asr boshlariga qadar katoliklar o‘z cherkovlarining ochilishiga erisha olmadilar. Faqat 1902 yilda davlat Turkiston viloyatidagi Rim-katolik cherkovlari uchun yer ajratgan va bu lavozimga Yustinas Bonaventura Pranaytis tayinlangan. Biroq, unga xizmatni lotin tilida bajarish sharti qo‘yildi. Katoliklar orasida surgun qilingan polyaklar ko‘p bo‘lganligi sababli, hokimiyat ularning aloqalarini har tomonlama cheklashga va ularning birlashishiga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qilgan<sup>490</sup>.

Toshkent-Orenburg temir yo‘li qurilishi boshlanishi bilan mintaqada katoliklar soni ko‘paydi, ammo hokimiyat katolik jamoasini qonuniylashtirishga shoshilmadi. Hukumat katoliklar uchun cherkov qurishga yer va mablag‘ ajratishni istamagan. Katoliklarining say-harakatlari tufayli kreditlar, qarzlar, xayr-ehsonlar evaziga 1906 yilda Toshkentdagi Salar daryosi bo‘yida yer sotib olindi va cherkovning bir qismi qurildi, u darhol ishlay boshladi. Biroq, mablag‘ yetishmasligi va qurilish ishchilari tufayli qurilish to‘xtatildi.

Birinchi Jahon urushi davrida avstriyaliklar, vengerlar va polyaklar Turkistonga kela boshlagan paytda o‘lkadagi katoliklar soni keskin oshdi. Kurat Pranaitis rasmiylarga cherkov qurilishi uchun harbiy asirlarni jalb qilishga ruxsat berish to‘g‘risida iltimos bilan murojaat qildi. Mahbuslar orasida ko‘plab yuqori malakali mutaxassislar - me’morlar, muhandislar, quruvchilar, haykaltaroshlar bor

---

<sup>489</sup> Обзоръ Закаспийской области за 1901 годъ. – Асхабадъ: Типография Штаба 2-го Турк. Арм. Корп., 1902. – С.10-11.

<sup>490</sup> Зияева Д.Х. Неисламские религии в Туркестане во второй половине XIX – начале XX в. // [https://www.academia.edu/12448029/Неисламские\\_религии\\_в\\_Туркестане\\_во\\_второй\\_половине\\_XIX\\_начале\\_XX\\_в](https://www.academia.edu/12448029/Неисламские_религии_в_Туркестане_во_второй_половине_XIX_начале_XX_в)

edi. Ular yordamida cherkov loyihasi qayta ko'rib chiqildi va qurilish ishlari boshlandi. Cherkov juda katta edi va 25 metr balandlikda qurilgan<sup>491</sup>.

Shuni ta'kidlash lozimki, o'lkaga ba'zi diniy sektalarning kirib kelishlari uncha xushlanmagan. Xristianlikning pravoslavlik mazhabidan boshqa yo'naliшlariga mansub kishilarni bir muncha tabiiy sharoiti og'irroq hududlarga joylashtirishga harakat qilingan. Noqulay yerbosqicha joylashtirilgan nasroniyalar sektalarining muxlislari - mennonitlar, baptistlar va boshqalar tub aholi bilan ancha chiqishib yashasa-da, harbiy majburiyatdan ozod qilish, e'tiqod erkinligini kafolatlash va hokazo talablar bilan mustamlakachi ma'muriyatga ancha tashvish keltirishgan. Biroq, asosan nemislardan iborat bo'lgan mennonitlar ommasi Amerikaga jo'nab ketib, keyin Rossiyaga qaytib kelishga majbur bo'lganligi uchun ularning talablari rad etilgandi.

Shunday bo'lsada, imperiya hukumati mennonitlarga (nemislarning bir diniy ayirmachi oqimi) joylashishda ancha yengil sharoit yaratib berilishini va'da qilib Farg'ona viloyatiga ko'chishni taklif qilgan. Shundan keyin, 1879-1882 yillarda yuzlab nemis oilalari bu o'lkaga ko'chib kela boshladи<sup>492</sup>.

Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasining 1910 yili viloyat statistika qo'mitalari tomonidan chop qilingan sharhlariga ko'ra Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand va Yettisuv viloyatlaridagi aholining e'tiqodiga ko'ra miqdori bo'yicha ma'lumotlarni taqdim qiladi. Unga ko'ra Sirdaryo viloyati bo'yicha Toshkent shahrida 42492 nafar pravoslavlар, 159 nafar staroobryadchiklar va sektantlar, 4102 nafar rim katoliklari, Toshkent uezdi bo'yicha 8281 nafar pravoslavlар, 421 nafar staroobryadchiklar va sektantlar, 34 nafar rim katoliklari bo'lgan. Chimkent uezdida bo'lsa 21581 nafar pravoslavlар, 85 nafar staroobryadchiklar va sektantlar, 215 nafar rim katoliklari bo'lgan. Avliyoota uezdida 22754 nafar pravoslavlар, 278 nafar

<sup>491</sup> Зияева Д.Х. Неисламские религии в Туркестане во второй половине XIX – начале XX в. // [https://www.academia.edu/12448029/Неисламские\\_религии\\_в\\_Туркестане\\_во\\_второй\\_половине\\_XIX\\_начале\\_XX\\_в](https://www.academia.edu/12448029/Неисламские_религии_в_Туркестане_во_второй_половине_XIX_начале_XX_в)

<sup>492</sup> Гентшке В.Л. Меннониты в Туркестане: конец XIX – начало XX вв. (по материалам Центрального государственного архива Республики Узбекистан) // Российское государство, общество и этнические немцы : основные этапы и характер взаимоотношений (XVIII–XXI вв.) : материалы XI международной научной конференции. Москва, 1-3 ноября 2006 г. / Под ред. А.А. Германа. – С. 169.-

staroobryadchiklar va sektantlar, 106 nafar rim katoliklari bo‘lgan. Perovskiy uezdida 5557 nafar pravoslavlар, 174 nafar staroobryadchiklar va sektantlar, 165 nafar rim katoliklari bo‘lgan. Kazalinsk uezdida bo‘lsa 4688 nafar pravoslavlар, 1909 nafar staroobryadchiklar va sektantlar, 47 nafar rim katoliklari bo‘lgan<sup>493</sup>. Bundan ko‘rinib turibdiki garchi Rossiya hukumati tomonidan o‘lkaga ko‘proq rus pravoslavlарini ko‘chirib keltirishga qilgan urinishlariga qaramasdan pravoslavdan boshqa mazhabdagilar ham ko‘plab ko‘chib kelib, nafaqat Kaspiyorti va Yettisuv balki mahalliy viloyatlarga ham ko‘plab ko‘chib kelib joylashgan.

Turkistonga bu toifadagi muhojirlarning joylashishini qonuniy mexanizmlar bilan cheklagan Turkiston rasmiylari ko‘pincha o‘troq bo‘lgan mazhablar va staroobryadchiklar himoyachisi sifatida harakat qilganlar. 1910 yil 31 avgustda Kaspiyorti o‘lkasi boshlig‘ining Turkiston general-gubernatorligiga mazhablar yashaydigan qishloqlarning iqtisodiy salohiyati to‘g‘risidagi kuzatishlar bayon etilgan hisoboti yorqin misol bo‘la oladi. Turkistonlik amaldor ularning “mustamlakachilik salohiyati”ga jiddiy e’tiborga loyiq ekanini ta’kidladi: “Diniy ta’qiblar tufayli ular birdamlik, matonat, chidamlilik va katta samaradorlikni rivojlantirdilar, bu esa nisbatan hushyorligi tufayli ko‘chmanchilar uchun qimmatli fazilatlardir. Ularning diniy e’tiqodlari podshoh va Vatan oldidagi muqaddas burchlarini bajarishga ta’sir qilmaydi”<sup>494</sup>.

1910 yilda general gubernator kengashida pravoslavlardan boshqa sekta vakillarini Turkistonga kirib kelishi masalasi yana bir bor ko‘rib chiqilgan. Mazkur masala bo‘yicha harbiy gubernatorlar va amaldorlar staroobryadchilar kolonizatsion elementlari bilan pravoslavlardan ko‘ra birmuncha afzalliklarga egaligi ta’kidlanadi. Biroq ayrim amaldorlarning rus sektantlarini o‘lkaga kiritish bo‘yicha turli xil qarashlari bo‘lib, ularni joylashtirishga qarshi chiqib. pravoslav dini manfaatlarini qo‘llab-quvvatlash, uni hukmron mavqega ko‘tarish uchun faqat pravoslavlarni kiritish kerak deydi. Boshqa gubernator va amaldorlar esa starobryadchiklar va turli

<sup>493</sup> ЎзМА. И-1-фонд, 6-рўйхат, 528-иш, 224 -варак.

<sup>494</sup> Литвинов П.П. Государственно-религиозные этноконфессиональные отношения в Туркестане (1865-1917гг.) (по архивным материалам) (Часть 1) Специальность 07.00.03 - всеобщая история (новое и новейшее время) Диссертация на соискание учёной степени доктора исторических наук. – Москва, 1997. – С.205.

sektantlarni kiritish kerak, faqat ularning nisbati pravoslavlarga nisbatan 10 foizdan oshmasin degan takliflarni bildirishgan<sup>495</sup>.

Shuningdek, o‘lkaga kirgizilgan sektant va staroobryadchilar ustidan kuzatishlar ularning foydasiga ishlagan. Ular mustahkam diniy uyushma sifatida ruhiy ma’naviy tarbiya va jamoa a’zolari intizomi ajoyib, hushyorligi, mehnatkashligi, xo‘jalik ishlariga ustaligi, mahalliy aholi bilan munosabatlardan tiyilishi, kamtar va g‘amxo‘rligi bor. Ularning qo‘liga tushgan yerlar umuman boshqa millatlarga ijaraga o‘tmaydi. Ularning jamoasi davlat g‘amxo‘rligi va uning nafaqalariga umuman muhtoj emas, deb o‘ylashgan.

Shuni ta’kidlash lozimki, hukumat turli sektantlarni islomga munosabatini ham o‘rganishgan ko‘rinadi. Chunki bu haqdagi fikr va qarashlar arxiv hujjatlarida aks etgan. Jumladan, bu haqda:” shu bilan birga sektantlarni islomning agressiv harakatlanishiga qarshi kurashlarini aytmasdan bo‘lmaydi. Sektantlar musulmonlar bilan munosabatlarda ongli va qat’iy xristianlar sifatida namoyon bo‘ladi, pravoslavlarda doimiy ravishda kuzatiladigan o‘z qizini pul evaziga musulmonlarga xotinlikka berish uchramaydi. Sektantlar va starobryadchiklar esa o‘zlarining uyushqoqligi, e’tiqodida qat’iyligi, mehnatkashligi bilan mahalliy aholi tasavvurida muvaffaqiyatli pravoslav qiyofasini uyg‘ota oladi va bu rus fuqaroligi va rus madaniyati tasavvurini mustahkamlashda yordam beradi<sup>496</sup>-deb xulosa qilishgan.

Hukumat mayda sektalarga ham e’tibor qaratishgan edi. Molokanlar, baptistlar, duxoborlar, shtundistlar, xlistlar kabi ratsionalistik sektalar antimilitiaristik ruh bilan qoplangan degan fikrlar aytiladi. Biroq eng antimilitar ruhga ega bo‘lgan ingliz kvakerlari bo‘lgan. Shunga o‘xshagan holat Rossiyaga majburan ko‘chirilgan gernguterovlar keyinchalik mennonitlarda ham bo‘lib, bunday misolni Turkistonga ko‘chirilgan mennonitlar haqida ham aytish mumkin. General-gubernatorlikning fikricha “Ularning fanatistik holati musulmon ommasi bo‘lgan Turkistonda portlab, qiyin daqiqalarda qaysi sektaga mansub bo‘lishidan qat’iy nazar ular o‘zlarining va rus manfaatlarining himoyasiga do‘stona turadi, yoki

<sup>495</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат, 5146-иши, 2 -варак.

<sup>496</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат, 5146-иши, 4 -варак.

fanatlashgan musulmonlarga shafqat qilmaydi. Shu boisdan molokan, baptist, duxobor va boshqalardan kamroq xavfsirash kerak”<sup>497</sup>. Shulardan kelib chiqqan holda general-gubernatorligi kengashi 1910 yil 4, 5 noyabr kunlari general-gubernatorlik kanselyariyasi tomonidan dokladdan xulosa qilgan holda mintaqadagi bo’sh davlat yerlariga umumiy pravoslavlар va zararli deb topilmaganlardan tashqari qaysi diniy sekta bo‘lishidan qat’iy nazar ularning tarafdorlarini kiritishni maqbul deb topadi<sup>498</sup>. Shu orqali turli sektantlarni ham mahalliy musulmon aholiga qarshi qo‘yish rejalashtirilgan edi.

Yettisuv viloyati ko‘chirish ishlari bo‘yicha boshlig‘ining 1912 yil 10 fevraldagи Turkiston general-gubernatoriga yozgan xatida Yettisuv viloyatida harbiy xizmatni o‘tayotgan quyi lavozimdagи rim katolik e’tiqodiga mansub harbiylar xizmat muddati tugaganidan keyin viloyatda qolish istagani bildirib, ko‘chirilish uchastkalariga kiritishni iltimos qilganligini yozadi. Ko‘chirilish bo‘yicha qoidalarda kelayotgan shaxs tub rus bo‘lishi ko‘rsatilgan bo‘lsa ham qolgan e’tiqodlar uchun alohida shartlar ko‘rsatilmagan edi. Shu boisdan “rim katolik e’tiqodiga mansub bo‘lgan quyi lavozimdagи zaxiradagilarning Yettisuv viloyatida ko‘chirish uchastkalarida qolishlari uchun ruxsat berishlarini” so‘raydi<sup>499</sup>. Biroq Turkiston o‘lkasi yer ishlari va davlat mulklari boshqarmasining boshlig‘i tomonidan 1912 yil 24 fevraldagи xatida ularning Yettisuvda qolishlari uchun hech qanday asos yo‘q deb topiladi<sup>500</sup>.

Ichki ishlar vazirligining 1912 yil 10 maydagи Turkiston general gubernatorligiga yozgan xatida Turkiston yepiskopining shu yili 4 fevralida Turkistonga sektantlarni (molokan va baptistlar) kiritilishidan tashvishlanib, ularning fanatizmligi va uyushqoqligini hisobga olgan holda tarqoq bir-biridan uzoqda joylashgan rus qishloqlarida o‘lkadagi pravoslav aholisiga salbiy ta’sir ko‘rsatishidan tashvishda ekanligini ma’lum qilgan. Ko‘chirilish qoidalarining 5-bandiga ko‘ra ko‘chuvchi sektantlarning faqat Turkistonning uchta viloyatiga

<sup>497</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат, 5146-иш, 5 -варак.

<sup>498</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат, 5146-иш, 6 -варак.

<sup>499</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат, 5146-иш, 9-10-вараклар.

<sup>500</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат, 5146-иш, 12-варак.

(Sirdaryo, Farg‘ona va Samarqand viloyatlari) kirishi ta’qiqlanib, Kaspiyorti va Yettisuv viloyatlariga kiritish masalasi ochiq qolishi tashvishli holat ekanini eslatib, ushbu viloyatlarga ham sektantlarni kiritmaslik masalasini taklif etgan. Turkiston o‘lkasiga sektantlar oqimining kuchayotganligini hisobga olib, tegishli choralar ko‘rilishini so‘raydi<sup>501</sup>.

Shundan keyin turli sektantlarga qarshi choralar ko‘rilish boshlanadi. Farg‘ona viloyati harbiy gubernatorining Turkiston o‘lkasi yer ishlari va davlat mulklari qo‘mitasiga yozgan xatida ko‘rsatilishicha turli sektantlarni chiqarib yuborish bo‘yicha qonun loyihasi tayyorlanadi va ushbu loyiha bo‘yicha fikrlar so‘raladi<sup>502</sup>.

Biroq Turkiston general-gubernatorlik kengashining 1913 yil 24 yanvardagi 2-qarori bilan turli sektantlarni Turkistondan chiqarib yuborish maqbul emas, deb topiladi. Hamda belgilangan qoidalarni buzgan sekta a’zolariga qonunda belgilangan jazo choralarini ko‘rilishi belgilanadi<sup>503</sup>.

Turkiston mintaqasidagi Islom-xristian munosabatlaridagi asosiy muammolardan biri pravoslav dindorlarning musulmon diniga o‘tishi edi. Turkiston yepiskopi Dmitriy 1912 yilda general-gubernator Samsonovga musulmon ruhoniylari pravoslavlar orasida o‘z dinini yoyish bilan ongli va maqsadli shug‘ullanganliklari va Yettisuv viloyatining To‘qmoq shahrida islom dinidagi iymonini mustahkamlash uchun dinni yangi qabul qilganlarga yuborilgan maxsus "markaz" borligini yozgan<sup>504</sup>.

Hujjalarda To‘qmoq yoki Turkiston viloyatining boshqa joylarida bunday "markaz" mavjudligi haqida hech qanday tasdiq yo‘q. Biroq, musulmonlarning "yashash joyida" pravoslav bilan tegishli ishlar bo‘lib turgan. "Kaspiyorti sharhi" gazetasida deyarli har bir qishloqda bunday sotqinlarning ikkitasi yoki uchtasi borligi haqida yozib o‘tilgan. Musulmonlar o‘z diniga kirganlarni bajonidil qo‘llab-quvvatlaydilar: ular yer berishadi, inventarizatsiya sotib olishadi." Agar biz

<sup>501</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат, 5146-иш, 28-29-вараклар.

<sup>502</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат, 5146-иш, 54-варак.

<sup>503</sup> ЎзМА. И-7-фонд, 1-рўйхат, 5146-иш, 60-62 -вараклар.

<sup>504</sup> ЎзМА. И-2287-фонд, 1-рўйхат, 100-иш, 28-варак.

prozelitizm har qanday mazhabga xos ekanligini hisobga olmasak, unda pravoslavlarni "yo'ldan ozdirish" orqali Islom "hukmron e'tiqodga qarshi chiqdi" deb taxmin qilishimiz mumkin."Ammo hamma narsa, ehtimol, sodda edi. Hujjatlar shuni ko'rsatadiki, ko'pincha Masihiylarning o'zлari va ongli ravishda turli holatlar tufayli ular uchun yangi imonga intilishgan. Podshohning 1905 yil 17 apreldagi "Diniy bag'rikenglik tamoyillarini mustahkamlash to'g'risida" gi farmonida o'z dinidan qaytgan murtadlarni 8-10 yillik og'ir mehnat jazosi bilan chora ko'rish tahdid qilingan edi. "Murtad"lar bunday hollarda o'zlarini hech qanday tarzda oshkor qilmasdan, musulmon muhitida "aralashib ketishga " harakat qilishdi. Shuning uchun bunday faktlar, qoida tariqasida, tasodifan aniqlandi. Shunday qilib, 1898 yilda Andijon qo'zg'oloni holatlarini o'rganayotganda Andijon okrugi va Farg'ona viloyati Kensol-Karaygir volosti qirg'izlari orasida ikkita pravoslav "Murtad" topildi. Ma'lum bo'lishicha, ulardan biri N. Yakushev musulmonlar bilan uzoq muddatli savdo aloqalari tufayli Islomni qabul qilgan, ikkinchisi S.Voshkin harbiy xizmatni o'tashni istamaganligi sababli qabul qilgan. Ta'sir qilish vaqtida ikkalasi ham musulmon muhiti bilan uzoq vaqtdan beri "birga o'sgan" - ularning qirg'iz xotinlari va ulardan bir nechta bolalari bor edi.

1902 yilda "maxfiy" tamg'ali hujjatga ko'ra, "sartcha" kiyingan, sochini oldirgan va masjidda qatnashgan Y.Mileshkin hibsga olingan. Politsiya Mileshkin ilgari Farg'ona ma'muriyatida xizmatchi bo'lib xizmat qilganini va mastligi uchun ishdan bo'shatilganini va Islomni qabul qilganidan keyin yangi dindorlari nomidan "kichik pora" uchun turli iltimosnomalar tuzganini aniqlagan<sup>505</sup>. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, pravoslav nasroniyarlarning Islomni qabul qilishining barcha oshkor qilingan holatlari general-gubernatorlarning shaxsiy nazorati ostida tekshirilgan va shuning uchun ular bilan bog'liq hujjatlardagi "murtad" pravoslavlarning haqiqiy motivlarni hukm qilishga imkon beradigan faktlarning to'liq bayonoti mavjud emas.

<sup>505</sup> ЎЗМА, И-19-фонд, 1-рўйхат, 7682-иши, 18-варак.

Rossiya imператорining 1905 yil 17 apreldagi farmoni pravoslavlarni Islomni qabul qilishni taqiqladi, ammo amalda "fitnachilarini" jinoiy javobgarlikdan ozod qildi. Musulmon ruhoniylari bundan foydalanib, nasroniylar, shu jumladan, pravoslav aholisi orasida missionerlik ishini ko‘paytirdilar, deyish uchun hech qanday sabab yo‘q. Biroq, Farmon chiqarilgandan keyin pravoslavlarning Islomni qabul qilishlari soni tobora ko‘payib bora boshladi. 1908 yilda cherkov gazetasi “mahalliy pravoslavlarning Islomga kirishi Turkiston viloyati uchun juda dahshatli hodisa. Islomga qarshi kurashda ijobiy choralarining yo‘qligi, shuningdek, rus pravoslav aholisining undan zararli ta’sirini cheklash choralar bu ta’sirni kelajakda shubhasiz muvaffaqiyatni ta’minlaydi”-deb yozgan edi<sup>506</sup>.

Pravoslav nasroniylarning Islomni qabul qilishi bilan bog‘liq hujjatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, musulmon ruhoniylarini ular bilan bevosita aloqasi yo‘q edi. Birinchidan, ularga XIX asr oxiri-XX asr boshlarida aholining pravoslav dindorligining umumiylashtirishini yordam berdi. "Markaziy" Rossiyada pravoslavlikdan umidsizlik odamlarni mazhabparastlikka yoki ateizm va diniy nigelizmga olib keldi. Turkiston viloyatida biroz boshqacha tanlovga ega edilar. Pravoslav dinidan ko‘ngli qolgan, ammo umumiylashtirishni qadriyatlariga sodiq qolganlar mazhabparastlikka murojaat qilishdi. Ulardan hafsalasi pir bo‘lganlar ham nasroniylikdan ketishdi, ammo ba’zilari buni o‘zlari uchun ma’lum bir foyda bilan qildilar va Islomni qabul qildilar.

Mavjud hujjatlarga qaraganda, Islomni qabul qilishning yarmidan ko‘pi musulmonlarga uylanish kabi o‘zlari uchun bunday "foyda" izlayotgan pravoslav ayollar tomonidan qilingan. Islomni qabul qilgan erkaklar soni kamroq, ammo motivatsiyasi jihatidan xilma-xil edi. Eng keng tarqalgan moddiy sabablarga ko‘ra o‘tish edi. P.P.Litvinov ba’zi pravoslav xristianlar Islomning "jozibali" an’analari-ko‘pincha ko‘pxotinlilik tufayli musulmon bo‘lishganini qayd qiladi<sup>507</sup>. Biroq Turkiston general- gubernatorligi tomonidan bu kabi holatlar juda tashvishli holat

<sup>506</sup> Литвинов П.П. Государственно-религиозные этноконфессиональные отношения в Туркестане (1865-1917гг.) (по архивным материалам) (Часть 1) Специальность 07.00.03 - всеобщая история (новое и новейшее время) Диссертация на соискание учёной степени доктора исторических наук. – Москва, 1997. – С.131.

<sup>507</sup> ЎзМА. И-17-фонд, 1-рўйхат, 2083-иши, 9-варақ.

sifatida qabul qilingan. Rossiya imperiyasi markaziy idoralari, Turkistondagi rus pravoslav cherkovi va Turkistondagi mutaassib pravoslav amaldorlarining qat'iy qarshiligiga qaramasdan xristianlikning boshqa sektantlarining kirib kelishlariga ruxsat berish masalasi ko'rib chiqila boshlanishiga turtki bo'lgan.

Turkiston o'lkasidagi shaharlar va qishloqlarida yashaydigan armanlar haqida ma'lumotlar to'planadi. Ushbu to'plangan ma'lumotlar Astaraxandagi Arman grigoryan duxovniy kanststoriyasiga jo'natiladi<sup>508</sup>.

Davlat cherkovining Turkistondagi boshqa pravoslav bo'limgan konfessiyalar bilan munosabatlari noaniq bo'lib, "e'tiqodsizlar" - yahudiylar va hindlarga nisbatan munosabatda pravoslav cherkovi ikkinchisiga mutlaqo e'tibor bermadi, bu ularning soni va tarqalishini hisobga olgan holda tabiiy edi. Yahudiylarga kelsak, u O'rta Osiyoning "mahalliy" va "chet el fuqarolari" bilan deyarli hech qanday ijobiy aloqada bo'limgan, ularning bosh ravvinlari SH.Tajer bilan turli "protokol" tadbirlarida qisqa muddatli uchrashuvlar bundan mustasno. Hujjatlarga qaraganda, Turkiston o'lkasidagi pravoslav cherkovi Markaziy Osiyo yahudiylarini "mahalliy" aholining bir qismi deb hisoblagan va ular bilan ehtiyyot bo'lish kerak edi<sup>509</sup>.

Hujjatlar shuni ko'rsatadiki, Turkiston ma'muriyati Markaziy Osiyo yahudiylari jamoalarining ichki diniy hayotiga aralashmagan, biroq "ravvinlar", "Talmud-hakunlar", "bilimdon yahudiylar" va boshqalar deb nomlangan ularning "ruhiy" rahbarlarini saylashga ta'sir o'tkazishga harakat qilgan. Ta'sir yalpi aralashuv xarakteriga ega emas edi, chunki saylangan shaxslarning roziligi va shunga mos ravishda ularning funksional vazifalarini bajarishga imkon berish Turkiston hokimiyatining vakolatiga kirgan. Hatto diniy jamoa har doim asosan buxorolik subektlardan iborat bo'lgan Kattaqo'rg'onda ham "mahalliy" yahudiy odatda "ravvin" etib saylangan. Uzoq vaqt davomida O'rta Osiyo yahudiylari, millatidan qat'iy nazar, diniy jamoalarni birlashtirib, umumiyl "ma'naviy"

<sup>508</sup>ЎзМА. И-1-фонд, 17-рўйхат, 774-иш, 13 варак.

<sup>509</sup> Литвинов П.П. Государственно-религиозные этноконфессиональные отношения в Туркестане (1865-1917 гг.) (по архивным материалам) (Часть 1) Специальность 07.00.03 - всеобщая история (новое и новейшее время) Диссертация на соискание учёной степени доктора исторических наук. – Москва, 1997. – С.215.

rahbarlarni sayladilar. Ammo 1907 yilda, Sirdaryo viloyatining "mahalliy" yahudiylari general-gubernator Grodekovga Markaziy Osiyo yahudiylari-chet el fuqarolaridan alohida ravvinni saylash uchun ruxsat so'rab murojaat qilishdi. Ruxsat olindi va shundan keyin, agar xohlasa, "mahalliy" yahudiylar ma'muriyatning bu boradagi fikriga murojaat qilmasdan o'zlarining "ma'naviy" rahbarlarini saylashlari mumkin edi<sup>510</sup>. Ko'rinishidan, Turkiston hokimiyatining Sirdaryo "mahalliy" yahudiylarining "separatizmi" bilan hech qanday aloqasi yo'q edi. Chunki ularning tajribasi viloyatda keng tarqalmagan, ma'muriyat buni hech qanday tarzda talab qilmagan. Markaziy Osiyo yahudiylarining mahalliy diniy jamoalari vakillari hukumat ma'muriyati bilan aloqalarida Markaziy Osiyo yahudiylari jamoasining asosiy vakili bo'lgan "mahalliy Yahudiylarning bosh ravvini" deb nomlangan mintaqaviy konfessiya hamjamiyatining rahbarini sayladilar. Ko'p yillar davomida bu lavozimda faqat O'rta Osiyo yahudiylari-Rossiya fuqarolari bo'lgan.

O'rta Osiyo yahudiylarining o'zlarining liturgik muassasalari -ibodatxonalari mavjud edi. Hujjatlar shuni ko'rsatadiki, rasmiylar O'rta Osiyo yahudiylarining liturgiya institutlarining ochilishiga to'sqinlik qilmagan. Ular o'zları yashagan deyarli barcha aholi punktlarida - Toshkent, Samarqand, Kattaqo'rg'on, eski Marg'ilon, Turkiston, Kazalinsk, Ashxobod, Marv, To'htabozor va boshqalarda faoliyat yuritgan. Eng muhimi-O'rta Osiyo yahudiylarining 5 ta ibodat muassasasi Samarqandda joylashgan bo'lib, u yerda Turkistonda ularning eng katta jamoasi bo'lgan, turli ma'lumotlarga ko'ra, 8 dan ikki ming kishigacha bo'lgan. Markaziy Osiyo yahudiylarining liturgik muassasalarini ochish masalasida hokimiyatning liberalizmi asosan ularning diniy hayoti ustidan doimiy nazorat qilish istagi bilan izohlandi. 1914 yil fevral oyida Turkiston general-gubernatori Samsonov hatto mahalliy hokimiyat organlariga "mahalliy yahudiylarning yashirin ibodatlari" monitoringini kuchaytirish, "ibodat qiluvchilar" ning professional a'zolari, ularning "ruhiy" ustozlari va hokazolarni to'plash bo'yicha ko'rsatma bergen maxsus buyruq chiqardi. Ushbu topshiriq mahalliy ma'muriyat tomonidan yahudiylarga qarshi diniy

---

<sup>510</sup> ЎзМА. И-18-фонд, 1-рўйхат, 5201-иш, 1-варак.

ta'qiblarga olib kelishi mumkinligidan havotirlanib, Samsonov 1914 yil 10 fevralda "tushuntirish" xatini chiqardi. Unda mahalliy hokimiyatni o'zboshimchalik harakatlaridan ogohlantirdi va yahudiylarning "ibodat zallari"ni "qonuniylashtirish" ni ehtiyojkorlik bilan amalga oshirishni tavsiya qildi va e'tiqod qiluvchilarga ochiq ibodat xizmatlarining barcha afzalliklarini tushuntirishni buyurdi<sup>511</sup>.

Ta'kidlash lozimki, Turkiston ma'muriyati O'rta Osiyo yahudiylarining diniy hayotiga faqat o'ta zarur hollarda bevosita aralashdi. Umuman olganda, Markaziy Osiyo yahudiylari diniy jamoasining hukumat boshqaruvi bilan munosabatlari silliq va yaxshi edi, deyish mumkin.

Turkiston ma'muriyati dastlab hindlarning diniy hayotiga deyarli hech qanday qiziqish bildirmadi. Hind "ibodatxonalari", qoida tariqasida, hindlarning o'zlar egalik qilgan karvonsaroylarning maxsus xonalarida joylashgan edi. Ularning ichki bezaklari diniy an'analarga to'g'ri keldi. Qo'qonda hind ibodatxonasiga Vishnu xudosi tasvirlangan rasm o'rnatildi. Ulardan biri Benaresdan olib kelingan<sup>512</sup>.

Hokimiyat, ayniqsa, sanitariya xizmatlari orasida ba'zi tashvishlar hindlarning ibodat muassasalarida "muqaddas" sigirlarni saqlash odati bilan bog'liq edi. Turkiston ma'muriyatini tashvishga solayotgan yana bir muammo hindlarning marhumning jasadlarini kuydirish marosimi bo'lgan. Turkiston hukumati dastlab "murdani yoqish" marosimini faqat ularning ruxsati bilan bajarish to'g'risida buyruq chiqardi. Shuning uchun, har bir bunday holatda, hindlarning diniy jamoalari viloyat hokimiga tegishli iltimosnomalarni topshirishlari kerak edi, ular faqat krematsiyaga ruxsat berishlari mumkin edi. Ba'zida tuman ma'muriyati bunday iltimosnomalarni viloyat rahbariyatiga o'z vaqtida topshirish bilan biroz kechiktirildi. XX asr boshlarida. Andijonlik hindlar Farg'ona gubernatoriga telegramma yuborishdi: unda "biz kuydirish uchun ruxsat kutmoqdamiz. Dafn qonunlariga ko'ra, biz uchinchi kun ovqatlanmadik"-deb yozilgan edi. Krematsiya marosimini o'tkazish uchun mahalliy hokimiyat organlari okrug ma'muriyati, politsiya, tibbiyot bo'limi va boshqalar

<sup>511</sup> Литвинов П.П. Государственно-религиозные этноконфессиональные отношения в Туркестане (1865-1917гг.) (по архивным материалам) (Часть 1) Специальность 07.00.03 - всеобщая история (новое и новейшее время) Диссертация на соискание учёной степени доктора исторических наук. – Москва, 1997. – С.368

<sup>512</sup> Дмитриев Г. Л. Этнографические сведения об индийских выходцах в Средней Азии. . . – С.211.

vakillaridan maxsus komissiyalar tuzdilar. Marosim yakunida komissiyalar tegishli "aktlar"ni tuzdilar, keyin ular viloyat Kengashlariga yuborildi<sup>513</sup>.

Umuman olganda Rossiya imperiyasining Turkistonda musulmon dini mavqeini pasaytirish, ularning monopol ustunligini susaytirish maqsadida o'lkaga pravoslav e'tiqodidagi kishilarni ko'chirib keltirish unchalik muvaffaqiyatli amalga oshirilmadi. Biroq bundan xristianlikning boshqa mazhablari va turli sekta a'zolari unumli foydalanib, Turkistonga kelib o'mashdilar. Rossiya imperiyasi markaziy idoralari va Turkiston general-gubernatorligi amaldorlarining qarshiligiga qaramasdan turli xristianlik diniy oqimlari vakillari nafaqat Kaspiyorti va Yettisuv, balki Farg'ona, Sirdaryo, ayniqsa, Samarqand viloyatida ko'pchilik bo'lib oldilar. Buni Samarqand harbiy gubernatorining 1914 yildagi hisobotida Samarqand viloyati statistika qo'mitasi aholining e'tiqodi bo'yicha keltirgan ma'lumotlarda ham ko'rish mumkin. Unga ko'ra Samarqand shahrida pravoslavlarning soni erkaklar 6154 nafar, ayollar 6639 nafar, jami 12793 nafar, raskolniklar va sektantlarning soni erkaklar 32 nafar, ayollar 25 nafar, jami 57 nafar, protestantlarning soni erkaklar 68 nafar, ayollar 18 nafar, jami 86 nafar, rim katoliklarining soni erkaklar 246 nafar, ayollar 193 nafar, jami 457 nafar, Arman grigoryanlarning soni erkaklar 497 nafar, ayollar 511 nafar, jami 1008 nafar, yahudiylarning soni erkaklar 6603 nafar, ayollar 6345 nafar, jami 12948 nafar, majusiytlarning soni erkaklar 6 nafar, ayollar 2 nafar, jami 8 nafarni tashkil qilgan. Qiyoslash uchun Musulmonlarning soni erkaklar 41863 nafar, ayollar 33888, jami 75751 nafar bo'lgan. Umumiyligi aholi soni erkaklar 55487 nafar, ayollar 47621 nafar, jami 103108 nafar bo'lgan<sup>514</sup>. Umuman bunday faktlar Panjikent, Kattaqo'rg'on, Jizzax va Xo'jand uezdlari uchun ham tayyorlangan bo'lib, unda g'ayri dinlar to'g'risida batafsил statistik ma'lumotlar berilgan.

Ushbu statistik ma'lumotlardan ko'rish mumkinki o'lkadagi rus amaldaorlarining yirik shaharlardan nomusulmon e'tiqodidagi kishilar sonini ko'paytirish bo'yicha rejalarini jadallik bilan amalga oshirilgan. Samarqand

<sup>513</sup> Дмитриев Г. Л. Этнографические сведения об индийских выходцах в Средней Азии. – С. 216.

<sup>514</sup> ЎзМА И-1-фонд, 27-рўйхат, 1216а-иш, 3 варак.

viloyatining katta kichik shaharlari, muhim dehqonchilik hududlarida musulmon bo‘lмаган е‘тиqoddagi kishilarning nufusi ko‘payib borgan.

1914 yilda Samarqand viloyati shaharlarining aholisining tabaqalar tarkibi bo‘yicha pravoslav ruhoniylari bo‘yicha ham ma’lumotlar keltirilgan. Unga ko‘ra umumiy viloyat bo‘yicha erkaklar 32 nafar, ayollar 38 nafar, ikkala jins 70 nafardan iborat edi<sup>515</sup>.

Umuman ko‘rish mumkinki Turkiston general-gubernatorligi ham aholining e‘tiqodi bo‘yicha yuzaga kelgan murakkab vaziyatni tushunib yetgan. Uni darhol tuzatish maqsadida o‘lkaga ko‘plab ruhoniylarni jalg qilib, ularga tegishli sharoitlar yaratishga harakat qilganlar. Biroq birmuncha og‘ir iqtisodiy vaziyat, ijtimoiy hayotdagi muammolarning hal qilinmaganligi, pravoslav aholisi orasida kuchli diniy targ‘ibot orqali mustahkam tayanch yaratish rejasini amalga oshirishga imkon bermagan. Ayniqsa, pravoslav dunyosini mahalliy musulmon aholisiga qarshi qo‘yish orqali tub bo‘lмаган aholining yetakechi mavqeini yaratishni uddasidan chiqa olmadilar. Bundan xristianlikning boshqa yo‘nalish va mazxablari, yahudiylar, hindlar hamda boshqa din vakillari o‘zлari uchun sharoit yaratib oldilar.

Garchi Rossiya imperiyasining Turkistonda musulmon dinining hokimiyatga ta’sirini kamaytirishga erishgan bo‘lsa ham aholiga ta’sirini susaytira olmadi. Aksincha, islom dini o‘lkaning tub musulmon aholisi orasida yanada mustahkam o‘rin oldi. Buni tushunib yetgan Turkiston general- gubernatorligi amaldorlari XX asrning boshlariga kelib musulmon aholisini g‘azabini keltirish mumkin bo‘lgan o‘zgarishlardan o‘zlarini tiyilishga majbur bo‘lgan. Buni Kavkaz hududlaridan ko‘chib kelganlar uchun shialar masjidlari va qabristonlari, yahudiylar uchun ibodatxonalar yoki boshqa tub bo‘lмаган aholi uchun diniy talablari borasida ehtiyyotkorlik bilan yondashuvida ham ko‘rish mumkin.

---

<sup>515</sup> ЎзМА И-1-фонд, 27-рўйхат, 1216а-иш, 4 варак.

#### **IV bob bo‘yicha xulosalar**

Rossiya imperiyasining Turkistonda ta’lim sohasida olib borgan siyosati o‘ziga xosligi bilan ajralib turgan. Mazkur o‘ziga xoslik tub bo‘limgan aholini ta’lim olishini qo‘llab-quvvatlash asnosida mahalliy xalqlarni dunyoqarashini cheklash, ruscha fikrlashni keng yoyish maqsad qilingan edi. Shunga qaramay, ba’zi ta’lim muassasalari, xususan, kasb ta’limi bilim yurtlarini ochilishi natijasida ba’zi yangi kasblarni paydo bo‘lganligi kuzatiladi.

Turkiston viloyati shifokorlari va tibbiyat xodimlari ko‘p ishlarni amalga oshirdilar, ko‘pincha eng zarur yordamni ko‘rsatdilar. Bunda ayrim rus, yahudiy, tatar va boshqa millatlarga mansub vrachlarning fidokorona mehnatlari, o‘z xizmat vazifalariga chuqur mas’uliyat bilan yondashishlarini ham e’tirof etib o‘tish joiz. Ularning tashabbuslari va shaxsiy namuna ko‘rsatib bergenlaridan keyingina zamonaviy tibbiy xizmatlardan mahalliy aholi vakillari ham foydalana boshladi.

Turkistondagi shaharlarning mahalliy aholi yashaydigan qismlarida mahalliy aholi foydalanishi uchun ochilgan tibbiyat muassasalaridan ham asosan yevropalik aholi foydalangan. Garchi mahalliy aholining ayrim hollarda johilligi, mutaassibligi boisdan foydalanishni xohlamagan bo‘lsalar ham to‘g‘ri tushuntirishlardan keyin murojaat qilganlar soni ko‘paygan. Ko‘pincha ayrim jonkuyar shifokorlarning buni mahalliy aholi ichida targ‘ib qilganliklari tufayli erishilgan.

Biroq, Rossiya imperiyasi hukumati Turkiston general- gubernatorligida tibbiy xizmatni keng aholi orasida rivojlantirish uchun yetarli mablag‘ ajratmadni va natijada tahlil qilingan davrda tibbiy yordamning butun tizimi ommaviy xarakterga ega bo‘lmadi. Natijada o‘lkadagi yangidan yo‘lga qo‘yilgan tibbiy xizmat nafaqat tub aholi ham balki tub bo‘limgan aholi toifasining ehtiyojlarini ham to‘la qondira olmadi. Oktabr to‘ntarilishidan keyin tibbiyat muassasalarining Turkiston general-gubernatorligi tomonidan moliyalashtirilishiga qaramligi, kam sonli xususiy tibbiyat muassasalarining burjuaziya qoldiqlari sifatida qabul qilinishi o‘lkadagi tibbiy xizmatga berilgan katta zarba bo‘ldi.

Rossiya imperiyasining Turkistonda musulmon dinining hokimiyatga ta'sirini kamaytirishga erishgan bo'lsa ham aholiga ta'sirini susaytira olmadi. Aksincha, islom dini o'lkaning tub musulmon aholisi orasida yanada mustahkam o'rinni oldi. Buni tushunib yetgan Turkiston general- gubernatorligi amaldorlari XX asrning boshlariga kelib musulmon aholisini g'azabini keltirish mumkin bo'lgan o'zgarishlardan o'zlarini tiyilishga majbur bo'lgan. Buni Kavkaz hududlaridan ko'chib kelganlar uchun shialar masjidlari va qabristonlari, yahudiylar uchun ibodatxonalar yoki boshqa tub bo'limgan aholi uchun diniy talablari borasida ehtiyyotkorlik bilan yondashgan.

## XULOSA

Rossiya imperiyasining Turkistonga ko‘chirish siyosati Rossiya qishloq xo‘jaligi anklavini tashkil etishga qaratilgan bo‘lib, u harbiy kontingentlar bilan bir qatorda “Turkistondagi rus avtokratiyasining tayanchiga” aylandi va iqtisodiyotning rivojlanishiga hissa qo‘shdi. Ko‘chirish siyosatini amalga oshirish tamoyillari Turkistondagi ruslarning alohida ijtimoiy-madaniy xususiyatlarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatdi, bu ularni mintaqaning avtoxton aholisining asosiy qismidan ajratib turdi.

Rossiya ma’muriyati ko‘chmanchilarni iqtisodiy va maishiy nuqtai nazardan mahalliy aholi bilan aloqa qilishdan himoya qilishga intildi, shaharlarning "rus qismlari" va yangi ko‘chirish posyolkalarini yaratdi. Turkiston harbiy-xalq hukumati pravoslav ruslarni ko‘chirishga hissa qo‘shdi. Shu bilan birga, inqilobdan oldingi Turkistonda O‘rta Osiyodagi rus jamiyatining murakkab xarakterga ega bo‘lgan muhim xususiyatlari yuzaga keldi, shuning uchun ham rus ma’muriyati ko‘chmanchilarni birlashtirishda qiyinchiliklarga duch keldi.

Turkiston general-gubernatorligi hududiga Rossianing yevropa hududidan rus pravoslavlarini ko‘chirish orqali ularning jamiyatdagi ustunligini yaratish ko‘zlangan bo‘lsa ham, afg‘on, uyg‘ur, dungan va boshqa sharqlik etnik guruhlar, ayrim hollarda ruslar va turli pravoslav sektantlari bilan iliq o‘zaro aloqalar kuzatilgan. Faqatgina Rossiya imperiyasining hukmron doiralari va o‘lkadagi oliy amaldorlarning tub bo‘lmagan aholini mahalliy xalqlarga qarshi qo‘yish, uning tiyib turishga yo‘naltirishga urinishi keng integratsion jarayonlarga imkon bermagan.

O‘lkadagi XIX asrning oxirlarida agrar masalalarda iqtisodiy qonunlarni buzib, garchi norentabel bo‘lsa-da aksar hollarda ko‘chib kelgan yevropalik aholi foydasiga siyosiy qarorlar chiqarilishi, ayrim hollarda mahalliy aholi vakillariga tegishli ortiqcha yer maydonlarini olib qo‘yilishi, o‘lkadagi yer-suv munosabatlari borasida vaziyatning keskinlashishi, jamiyatning ichida zo‘riqishlarga olib kelib, pirovardida XX asrning boshlarida xalq noroziliklari, g‘alayonlariga olib kelgan.

Turkiston general-gubernatorligi hududidagi iqtisodiy munosabatlarga rus,

arman, yahudiy, nemis va boshqa yevropalik millatlarning rus kapitalistlari niqobi ostida kirib kelishi, barcha sohalarda yetakchi mavqega ega bo‘lishi, nafaqat mahalliy aholi qatori mahalliy yahudiylar, eroniylar, afg‘onlar, uyg‘urlar kabi boshqa millatlarning ham iqtisodiy ahvoliga salbiy ta’sir qilib, ularning aksariyati yollanma ishchi, xizmat ko‘rsatish sohalarida kichik xizmatchi yo‘nalishidagi kasblarda faoliyat yuritishga majbur bo‘lgan.

Rossiya imperiyasining Turkistonda ta’lim sohasida olib borgan siyosati tub bo‘lmanan aholini ta’lim olishini qo‘llab-quvvatlash asnosida mahalliy xalqlarni dunyoqarashini cheklash, ruscha fikrlashni keng yoyish maqsad qilinganligiga qaramay, ba’zi ta’lim muassasalari, xususan, kasb ta’limi bilim yurtlarini ochilishi natijasida ba’zi yangi zamonaviy kasblarni paydo bo‘lishiga imkon yaratgan.

O‘lkadagi zamonaviy tibbiyot sohasidagi o‘zgarishlarga avvalo, rus harbiylari bilan birga kelgan va o‘lkaga vaqtincha yoki uzoq muddat yashash uchun ko‘chib kelgan yevropalik millatlar orasida o‘lim holatlarining ko‘payishi, mahalliy sharoitga ko‘nika olmasligi natijasida kelib chiqqan kasalliklar asosiy turtki bo‘lib, turli kasalxonalar va tibbiy muassasalari shakllanganligi biroq, katta shaharlardagi mahalliy aholi uchun mo‘ljallangan kasalxonalarda ham asosan tub bo‘lmanan aholi vakillariga xizmat ko‘rsatgan.

Rossiya imperiyasining Turkistonda musulmon dinining hokimiyatga ta’sirini kamaytirishga erishgan bo‘lsa ham aholiga ta’sirini susaytira olmadi. Aksincha, islom dini o‘lkaning tub musulmon aholisi orasida yanada mustahkam o‘rin oldi. Bunga o‘lkadagi birmuncha og‘ir iqtisodiy vaziyat, ijtimoiy hayotdagi muammolarning hal qilinmaganligi sabab bo‘lib, pravoslav aholisi orasida kuchli diniy targ‘ibot orqali mustahkam tayanch yaratish rejasini amalga oshirishga imkon bermagan. Bundan xristianlikning boshqa yo‘nalish va mazxablari, yahudiylar, hindlar hamda boshqa din vakillari o‘zлari uchun sharoit yaratib oldilar.

Umuman olganda Turkiston general-gubernatorligi davrida amaldorlar va ularning yaqinlari, Turkistonni bosib olishda qatnashgan va keyinchalik iste’foga chiqib shu yerda qolib ketganlar, Yevropa va Osiyoning turli hududlaridan o‘z xohishi bilan yaxshi sharoit ilinjida ko‘chib kelganlar, maxsus farmoyishlar asosida

ko‘chirilganlar, ish yoki boshpana izlab kelgan muhajirlar, o‘lkada foyda olishni ko‘zlab kelgan kapitalistlar, Birinchi jahon urushida asir tushganlar tub bo‘lman aholining asosini tashkil qilgan. Natijada ular xar xil etnik guruhlar, turli diniy konfessiyalar vakillari, ijtimoiy guruhlar va iqtisodiy qatlamlardan iborat bo‘lgan.

Tub bo‘lman aholi Rossiya imperiyasining Turkistonidagi siyosati natijasida mahalliy aholidan alohida qonuniy mavqega va imtiyozlarga ega bo‘lganlar. Bu esa ularni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan mahalliy aholidan ajralib turishiga olib kelgan. Ayni paytda ko‘chirilgan yoki ko‘chib kelgan aholi ularning bir qismini aks ettiradi, xolos. Shu boisdan Turkistonidagi mahalliy xalqlarga mansub bo‘lman aholiga nisbatan tub bo‘lman aholi sifatida yondashish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda quyidagi **taklif va tavsiyalar** ilgari surildi:

Turkiston general-gubernatorligidagi tub bo‘lman aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga bag‘ishlangan kitob albom chop ettirish;

Oliy o‘quv yurtlarining 70220301–Tarix (yo‘nalishlar va faoliyat turi bo‘yicha) magistratura mutaxassisligi talabalari uchun “Turkiston general-gubernatorligi tub bo‘lman xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti” nomli maxsus kurs tashkil etish;

“O‘zbekiston tarixi” telekanali bilan hamkorlikda Turkiston general-gubernatorligidagi tub bo‘lman xalqlar hayotiga bag‘ishlangan turkum ko‘rsatuvlari tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar**

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституяси (1992 йил 8 декабрда қабул қилинган). –Тошкент: “Ўзбекистон”, 1992. – 48 б.
2. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз (ўзбек ва рус т.). –Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – 56 б.
3. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Том 1. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.
4. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги билан фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Том 2. –Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 508 б.
5. Каримов И. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 80 б.
6. Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсаг‘асида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 328 б.
7. Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 32 б.
8. Каримов И. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 440 б.

### **II. E’lon qilingan hujjatlar va materiallar to‘plamlari**

1. Военный обзор Закаспийской области. – Асхабад. 1896. – 131 с.
2. Всеобщая перепис населения Российской империи 1897 г. Т.LXXXII. Закаспийская область. - СПб., 1904;
3. Всеобщая перепис населения Российской империи 1897 г. Т. LXXXIX. Ферганская область. - СПб., 1904;

4. Всеобщая перепись населения Российской империи 1897 г. Т.LXXXIII.  
Самаркандская область. - СПб., 1905;
5. Всеобщая перепись населения Российской империи 1897 г. Т.LXXXV.  
Семиреченская область. - СПб., 1905; Т.LXXXVI. Сырдарыинская  
область. СПб., - 1905.;
6. Военно-статистическое описание Туркестанского военного округа. –  
Ташкент, 1910-1914. – 51 с.
7. Гаврилов Н.А. Переселенческое дело в Туркестанском крае (области  
Сыр-Дарьинская, Самаркандская и Ферганская): Отчет о служебной  
поездке в Туркестан осенью 1910 г. чиновника особых поручений при  
переселенч. упр. Н. Гаврилова – СПб.: Тип. Ф. Вайсберга и П.  
Гершунина, 1911. – 94 с.:ил., карт., табл.
8. Гирс Ф.К. Отчет о состоянии Туркестанского края. – СПб.1883; Вирский  
М. Поземельно-податные работы Самаркандского уезда / Справочная  
книжка Самаркандской области. Вып.IV. Самарканд, 1896.;
9. К вопросу о русской колонизации Туркестанского края. Отчет Члена  
Ученого Комитета М-ва З. и Г.И. А. А. Кауфмана по командировке летом  
1903 г. СПб., 1903. 205 с.
- 10.Кривошеин, А.В. Записка главноуправляющего землеустройством и  
земледелия о поездке в Туркестанский край в 1912 г/А.В.Кривошеин. -  
Полтава, 1912. - 90 с.
- 11.Материалы для статистики Туркестанского края. Ежегодник / Под ред.  
Н.А. Маева. Издание Туркестанского Статистического Комитета. Вып.  
III. СПб., 1874.
- 12.Обзор Самаркандской области за 1887 - 1909 гг., Самарканд-Ташкент,  
1888 – 1912/
- 13.Обзор Сыр-Дарьинской области за 1885 - 1914 гг. - Ташкент, 1886 –  
1916/
- 14.Обзор Ферганской области за 1884 - 1913 гг. - Новый Маргелан  
(Скобелев), 1889 - 1916.

- 15.Обзор Закаспийской области за 1912-1914 гг. – Асхабад: Издание областного статистического комитета, 1916. –185 с.
- 16.Отчет о состоянии Туркестанского края, составленным сенатором тайным советником Гирсом, командированшим для ревизии края по высочайшему повелению. В 2-х частях - Ч. 1. Администрация. Управление краем; Ч. 2. Суд. Финансы - СПб., 1888;
- 17.Отчет директора лесного департамента, представленный Министру земледелия и государственных имуществ по поездке в 1900 г. в Туркестанский край. – СПб.: Б.и., 1901. – 35 с.
- 18.Отчет капитана Давлетшина по командировке в Туркестанский край и степные области для ознакомления с деятельностью народных судов. – СПб.: тип. М.М. Стасюлевича, 1901. – 106 с. ;
- 19.Отчет о служебной поездке военного министра в Туркестанский военный округ в 1901 году. – СПб.: Б.и., 1902. – 15 с.
- 20.Отчет Туркестанской учительской семинарии за 25 лет ее существования (30 августа 1879;30 августа 1904 гг.), Составител Н.П.Остроумов. СПб.1905.219 с.
- 21.Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенный по высочайшему повелению сенатором гофмейстером графом К. К. Паленом. Выпуск I – XVIII – СПб. 1909 – 1910.
- 22.Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенныи по вмсочайшему повелению сенатором гофмейстером графом К.К. Паленом. Вшп. 1-18. - СПб, 1909 – 1910
- 23.Отчет Переселенческому управлению по командировке летом 1909 г. в Семиречье. – СПб.: Б.и., 1910. – 42 с.
- 24.Половцев А.А. Отчет чиновника особых поручений при МВД, командированного в 1896-97 гг. для собирания сведений о положении переселенческого дела в Туркестанском крае. – СПб.: Б.и.,1898. – 82 с.;
- 25.Первая Всеобщая перепись населения Российской империи, 1897 г. СПб., 1905. Т. LXXXVI: Сыр-Даргинская область. 207 с.

- 26.Переселенческое дело в Туркестане. Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенной по Высочайшему повелению Сенатором Гофмейстером графом К.К. Паленом. СПб., 1910. 430 с.
- 27.Пален К.К. Материалы к характеристике переселенческого хозяйства в Туркестане. - Приложение к отчету по ревизии Туркестанского края. Ч. 1. Отд. 4. – СПб. 1911/
- 28.Романовский Д.И. Заметки по среднеазиатскому вопросу. – СПб. 1868/
- 29.Северсов Н.А. О русских поселениях к югу и к западу от Иссык-Куля // Материалы для статистики Туркестанского края. Вып. 4. СПб., 1876.

### **III. Архив һужжатлари ва материаллари Ўзбекистон миллий архиви**

1. И-1-фонд – Туркистон генерал-губернатори маҳкамаси.
2. И-7-фонд – Туркистон ўлкасидаги ер ишлари ва давлат мулклари бошқармаси.
3. И-17-фонд – Сирдарё вилоят бошқармаси.
4. И-18-фонд – Самарқанд вилоят бошқармаси.
5. И-19-фонд – Фарғ‘она вилоят бошқармаси.
6. И-36-фонд – Тошкент шаҳар бошлиг‘и бошқармаси (“Управление начальника города Ташкента”).
7. И-37-фонд – Тошкент шаҳар бошқармаси.
8. И-47-фонд – Туркистон ўлкаси ўқув муассасалари бошқармаси.
9. И-276-фонд – Фарғ‘она области ҳарбий губернатори девонхонаси
- 10.И-717-фонд – Туркистон генерал-губернатори Кенгаши

### **Даврий матбуот**

1. Дингельштедт Н. Наша колонизация Средней Азии. Русские поселки в Средней Азии // Вестник Европы. Т. VI. Кн. 11. 1892.
2. Казанский К. Женщина-врач на Востоке / Новости. 1885, №218.
3. Намор Г. Медицинская помощь в Бухаре / Туркестанские ведомости. 1910, №48.

4. Скрыплев П. Экономические положение переселенцев, водворившихся в Туркестане. К вопросу о колонизации Туркестанского края / Новое время. 1910, №12201.
5. Тимаев К.А. Успехи русской медицины среди туземцев / Туркестанский курьер (ТК). 1909, №172-173.
6. Трегубое А.Л. Переселенческое дело в Семипалатинской и Семиреченской областях. Впечатления и заметки от поездки летом 1909 г. // Вопросы колонизации. 1910. № 6.
7. Ёвшев Н. Туркистанда тижорат ва зироат // Садои Туркистон. 1914, 13 июнь
8. Ёвшев Н. Саёхат парчалари // Садои Туркистон, 1914, 10 июнь.
9. Ёвшев Н. Туркистанда тижорат ва зироат // Садои Туркистон, 1914, 13 июнь.
10. Юлин Г. В лечебнице для туземцев / ТК. 1909, № 174.
11. Чимкентском уезде, Сыр-Дарынской области / Вопросы колонизации. [1909], №4.

### **Хотиралар ва эсдаликлар**

1. Аҳмад Закий Валидий Тўғ‘он. Хотиралар. Туркистанда мустақиллик ва озодлик учун курашлар тарихи. Таржимон, илмий таҳрир муаллифи ва нашрга тайёрловчи: М.Абдураҳмонов. – Тошкент: Истиқлол нури, 2014. – 612 б.
2. Ахмад Дониш. История Мангитской династии. Душанбе, 1967.
3. Ахмад Дониш. Путешествие из Бухары в Петербург. Избранное. Душанбе, 1960.
4. Бобровников Н.А. Русско-туземные училища, мектебы и медресе в Средней Азии. Путевые заметки. СПб., 1913.
5. Вощинин В.П. Очерки нового Туркестана : свет и тени русской колонизации / - СПб. : Б. и., 1914. - 86 с. : ил.
6. Мирза Шемс-Бухари. О некоторых событиях в Бухаре, Коканде и Кашгаре. Перевод В.В.Григорьева. Казань, 1861/

7. Мирза Абдалазим Сами. Тарих-и Салатин-и Мангитийа (История мангытских государей). Издание текста, перевод, предисловие, примечания Л.М.Епифановой. М., 1962/
8. Салих Мухаммад Новая история Ташкента. В переложении Я.Гулямова. Ташкент, 1954/
9. Кенисарин А. Султаны Кенисара и Садык. Ташкент, 1889.
- 10.Григорьев В.Н. Переселение крестьян Рязанской губернии. – М.: Редакция журнала “Русская мысль”. 1885, – 21 с.
- 11.Остроумов Н. П. К истории народного образования в Туркестанском крае. К.П. фон-Кауфман (1867 – 1881). – Т. 1895/
- 12.Остроумов Н. П. Константин Петрович фон Кауфман, устроитель Туркестанского края. Личные воспоминания. – Т. 1899.
- 13.Федоров Г.П. Моя служба в Туркестанском крае./Исторический вестник. Том 133. – 1913, № 9, Том 134, № 10.
- 14.Мустафин А. Николай Иванович Гродеков (1883 – 1913). Воспоминания, заметки. /Исторический вестник. Том 142 – 1915/
- 15.Лыкошин Н.С. Полжизни в Туркестане. – Пг. 1916.
- 16.Мунаввар Қори Абдурашидхонов. Хотираларимдан (Жадидчилик тарихидан лавҳалар). Нашрга тайёрловчи: С. Холбоев. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 128 б.
- 17.Наливкина М.В., Наливкин В.П. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. Казань, 1886.;
- 18.Остроумов Н.П. Исторический очерк народного образования в городах и укреплениях Сыр-Дарьинской линии и Туркестанской области до учреждения Туркестанского генерал-губернаторства. С 1860 г. по 1867 г. Ташкент, 1881.
- 19.Бродовский М.И. Колониальное значение наших среднеазиатских владений для внутренних губерний. М., 1891.; Остроумов Н.П. К истории народного образования в Туркестанском крае. Личные воспоминания. Ташкент, 1895.

20. Остроумов Н.П. Константин Петрович фон Кауфман устроител Туркестанского края. Личные воспоминания (1877-1881). Ташкент, 1899.
21. Шкапский О.А. Переселенцы и аграрный вопрос в Семиреченской области // Вопросы колонизации. 1907. № 1.; Гейер И.И. Вес Русский Туркестан. Ташкент, 1908.
22. Юферев В. Основания наделения землею переселенцев в Туркестанском крае // Вопросы колонизации. 1910. № 7.1. Законодательные акты; Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. Ташкент, 1912.
23. Гинс Г.К. Вопросы колонизации Азиатской России и «выставка по переселенческому делу». – СПб.: тип. Ф. Вайсберга и П. Гершунина, 1912. – 50 с.
24. Бобровников Н.А. Русско-туземные училища, мектебы и медресе Средней Азии. Путевые заметки. – СПб., 1913. – 348 с.

#### **IV Илмий адабиётлар (монография, илмий мақола ва илмий түпламлар)**

1. Абаза К.К. Завоевание Туркестана. СПб., 1902, - 310 с.
2. Азадаев Ф. Ташкент во второй половине XIX века. Очерки социально-экономической и политической истории. Ташкент, 1959.
3. Алимова Д.А. Народное образование в Туркестане в конце XIX – начале XX вв: от традиции к модернизации// Средняя Азия. Традиции и современность. – М. 2011. – С. 154-177.
4. Аминов А.М., Бабаходжаев А.Х. Экономические и политические последствия присоединения Средней Азии к России. Ташкент, 1966.
5. Аминов Б. Формирование населения голодной степи (конец XIX- 60-е гг. XX в.). – Ташкент, 1970.
6. Ахмеджанов Г.А. Российская империя в Центральной Азии. - Т.: Фан, 1995.

7. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. – Ленинград: Издательство Академии наук СССР, 1927. – 253 с.
8. Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865-1924 гг.). М., 1960.
9. Бенбуудий М. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1997. - 232 б.
- 10.Бобоматов Т. М.Репрессивные органы как инструмент колониальной политики сарской России в Туркестане (1865-1917 гг.) - Ташкент, 2006.
- 11.Бобровников Н.А. Русско-туземные училища, мектебы и медресе Средней Азии. Путевые заметки. - СПб., 1913.
- 12.Вексельман, М.И. Российский монополистический и иностранный капитал в Средней Азии (конец XIX-начало XX в.)/М.И.Вексельман.- Тошкент, Фан, 1987. - 143 с.
- 13.Верещагин П.Л. Переселенческая политика саризма в Сырдарьинской области (конец XIX–начало XX вв). – Ашхабад, 1973. –148 с.
- 14.Вощинин В.П. Очерки нового Туркестана. Свет и тени русской колонизации. СПб.,1914. - 86 с.
- 15.Галузо П.Г. Вооружение русских переселенцев в Средней Азии // Коммунистическая мысль. Кн. 1, 2. М., 1926.
- 16.Гейер И.И. Вес русский Туркестан / Издал С.Р. Конопка. - Ташкент, 1908.
- 17.Галузо П. Г. Туркестан - колония (Очерк истории Туркестана от завоевания русскими до революции 1917 г.). М., 1929.
- 18.Гинзбург А.И. Русское население в Туркестане (конец XIX - начало XX века). М., 1991. 192 с.
- 19.Губаева С. С. Этнический состав населения Ферганы в конце XIX - начале XX в. : (По данным топонимии) / С. – С. Губаева. - Ташкент : Фан, 1983. - 105 с.
- 20.Граменинский С.М. К вопросу об инородческом образовании в России. — Ташкент, 1908.

- 21.Демидов А.П. Экономические очерки хлопководства, хлопковой торговли и сромътш-ленности Туркестана. - М.; Госиздат. 1926.
- 22.Джон А. А.-Поселение, усадьба и жилище дунган Средней Азии и Казахстана (конес XIX-XX вв.) 1986.
- 23.Демидов А.П. Экономические очерки хлопководства, хлопковой торговли и сромътш-ленности Туркестана. - М.; Госиздат. 1926.
- 24.Дорошенко Т.И. Формирование польской диаспоры в Туркестане в XIX - нач. ХХ вв // Вестник науки и образования. 2020. №10-1 (88).
- 25.Дорошенко Т.И. Положение военнопленных в Туркестане в годы Первой мировой войны // Вестник науки и образования. 2021. №10-1 (113).
- 26.Зелькина Е. Очерки по аграрному вопросу в Средней Азии. – Москва, 1930.
- 27.Зиёева Д. Туркистон миллий озодлик наракати (Мустабид тузумга қарши 1916 йил ва 1918-1924 йиллардаги ҳалқ курашлари тарихшунослиги). – Тошкент: Г‘афур Г‘улом нашриёти, 2000. - 176 б.
- 28.Зияева Д.Х. Ислам в Туркестане: традиции и трансформации в условиях колониализма // Вестник КазНПУ им. Абая, серия «Исторические и социально-политические науки», № 3 (26), 2010. – С. 10-14.
- 29.Иноятова Д.М. Опыт развития традиционных народных немецких школ в Туркестане // Вестник науки и образования. 2021. №17-2 (120).
- 30.Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми - XX аср бошларида Тошкентнинг «янги шаҳар» қисми тарихи. - Т.: Фан ва технология, 2004.
- 31.Исхаков Ф. Национальная политика саризма в Туркестане (1867-1917). Ташкент, 1997.
- 32.Кабиров М.Н. Переселение Илийских уйголов Семиречье, Алма-Ата, Илим; 1951.
- 33.Канода Н.И. Переселенческие посёлки в Закаспийской области (конес XIX–начало XX вв.). –Ашхабад, 1973. –148 с.

34. Колемасова Н.Х. Эволюция христианского сектантства в регионе традиционного распространения ислама. Ташкент, 1981.
35. Кривошеин А. Записка главноуправляющего землеустройством и земледелием о поездке в Туркестанский край в 1912 г. // Вопросы колонизации, 1913, № 12, с. 297-365.
36. Лыкошин Н.С. Полжизни в Туркестане. Очерки быта туземного населения. — Петроград, 1916.
37. Кронгард Т.К. Население Киргизии в последней трети XIX начале XX века. Фрунзе: Илим, 1989.
38. Лаврентьев В. Капитализм в Туркестане (Буржуазная колонизация Средней Азии). — Ленинград, Изд-во Коммунистической Академии, 1930. - 160 с.
39. Лаврентьев В. Туркестан – колония: (Очерк истории колониальной политики русского саризма в Средней Азии). — 2-е изд., испр. и доп. Ташкент: гос. изд-во УЗССР, 1935. — 222 с.
40. Махмудов О.А. Призраки и страхи колониальных властей Туркестана: мусульманское «духовенство» в восстании 1916 г. // Сивилизационно-культурные аспекты взаимоотношений Махмудов О.А. России и народов Сентральной Азии в начале XX столетия (1916 год: уроки общей трагедии) Сборник докладов Международной научно-практической конференции. г. Москва, 18 сентября 2015 г. М., 2016. – С. 93-113.
41. Махмудов О.А. Участие местного населения в восстании 1916 года: представления и репрезентации российских колониальных чиновников // Международное научное совещание «Переосмысление восстания 1916 года в Сентральной Азии»: сб. статей. — Бишкек: Нео Принт, 2017. – С. 89-96.
42. Makhdumov A. The "virtual reality" of colonial Turkestan: how Russian officials viewed and represented the participation of the Local population in the 1916 revolt // The Central Asian Revolt of 1916. A collapsing empire in the age of war and revolution Edited by Alexander Morrison, Cloé Drieu and

Aminat Chokobaev. Manchester: Manchester University Press, 2019. P. 95-125.;

- 43.Махмудов О.А. Мусульманский фактор и «духовенство» в туркестанских событиях 1916 года: рол и значение глазами российских чиновников // Изучение 1916 года: деполитизация и гуманизация знаний о Восстании в Средней Азии / Ред. Александр Моррисон и Аминат Чокобаева. Бишкек: Maxprint, 2020. – С. 92-116.;
- 44.Махмудов О.А. Восстание 1916 г. в «коренных областях» Туркестанского генерал-губернаторства: представления и репрезентации русских колониальных чиновников // O'zbekiston tarixi. 2020. № 4. – С. 98-115.
- 45.Махмудова Н.Б. Развития административного управления, социально-экономических и культурных процессов в колониальном Туркестане в начале XX века (по материалам ревизии сенатора К.К.Палена). – Ташкент: Фан, 2015. – 200 с.
- 46.Муртазаева Р. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва баг'рикенглик. –Тошкент: Университет, 2007. – 184 б.
- 47.Муртазаева Р.Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва толерантлик /5A 120301 – Ўзбекистон тарихи мутахассислиги магистрантлари учун дарслик. – Тошкент, 2019. – 294 б.
- 48.Мусаев Н.У. Туркистанда капиталистик ишлаб чиқариш муносабатларининг вужудга келиши (XIX асрнинг охири– XX аср бошлари). Тошкент, 1995. –106 бет.
- 49.Мунаввардори Абдурашидхонов. Танланган асарлар. Нашрға тайёрловчи ва сўз боши муаллифи С.Аҳмедов. –Тошкент: Маънавият, 2003. –314 б.
- 50.Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шоҳидлиги ва сабоqlари (1865 - 1990 й.). Лойина раҳбари ва маъсул муҳаррир Д.Алимова. – Тошкент: Шарқ, 2000. - 432 б.

- 51.Муртазаева Р.Н. ва б. Ўзбекистон тарихи (Маъruzалар матни). – Тошкент: 2000. - 164 б.
- 52.Мусаев Н.У. XIX аср II-ярми – XX аср бошларида Туркистанда саноат ишлаб чиқаришнинг шаклланиши. Т.: IQTISODIYOT-MOLIYA, 2008. – 165 б.
- 53.Насретдинова Д.М. Татарские женщины в социальной жизни Туркестана // Историческая этнология. 2020. №3.
- 54.Остроумов Н.П. К истории народного образования в Туркестанском крае. Личные воспоминания. - Ташкент, 1895.
55. Очерк развития народного образования в Туркестанском крае / Сост. Инспектор народных училищ Туркестанского края 1-го района С. Граменинский. - Ташкент, 1896.
- 56.Пазлиддинович Ж.Х., Бегалиевич Б.Р., Жўрабек Ю. Чор Россиясининг Туркистонга аҳолини кўчириш сиёсатида ер билан бод‘лиқ муаммоларнинг ҳал этилиши // Ijtimoiy fanlarda innovasiya Onlayn ilmiy jurnal, 2022 2(11), 54–59.
- 57.Перепелизына Л.А. Влияние русской культуры на культуру народов Средней Азии. Ташкент, 1960.
- 58.Расулов А.Н., Исокбоев А.А. Татарское просветительство и система национального образования в туркестане (конец XIX - начало XX вв.) // Историческая этнология. 2020. №1.
- 59.Рахимджанова Н.Q. Туркистан анъанавий табобати тарихидан (XIX аср охири – XX аср боши) // Scientific progress. 2020. №1.
- 60.Рысколов Т. Революция и коренное население Туркестана. Сборник статей, докладов, речей и тезисов с предисловием автора. Часть I. 1917 - 1919 гг. – Ташкент: Узбекгосиздат, 1925. – 218 с.
- 61.Рысколов Т.Р. Восстание туземцев Средней Азии в 1916 г. – Кзыл-Орда.: Гос. изд-во КССР, 1927. – 124 с.
- 62.Саипова К. История Народного комиссариата по национальным делам ТАССР (1918 – 1924 гг.). – Ташкент, 2013. – 103 с.

- 63.Сафаров Г.И. Колониальная революция (опыт Туркестана). - М. 1921.
- 64.Самарқанд тарихи. Икки томлик. Иккинчи том. Масъул муҳаррир: И.М.Мўминов. –Тошкент: “Фан”, 1970. – 496 б.
- 65.Сафаров Г.И. Колониальная революция (опыт Туркестана). – Москва, 1921.
- 66.Смесова Е.А. Русские духовно-культурные учреждения В Туркестане.(во второй половине XIX -начале XX вв.) -2012.
- 67.Собиров Н., Эгамназаров А. Фарғ‘она водийсининг ижтимоий– иқтисадий ривожланишида немис ишбилиармонларининг ниссаси (XIX аср охири – XX аср бошлари). – Ташкент: “Фалсафа ва ҳуқуқ”, 2012. – 164 б.
- 68.Тарих шоҳидлиги ва сабоqlари. Чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши. Лойина раҳбари ва масъул муҳаррир: Д.А. Алимова. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 464 б.
- 69.Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии. -СПб., 1906.
70. Терентьев М.А. Туркестан и туркестаны. Вестник Европы. - СПб., 1875, кн.IX. - С.65-112.
- 71.Турсунова Г. Сирдарё вилоятига метрополиядан кўчириб келтирилган аҳолининг миллий таркиби (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари ) // Марказий Осиё тарихи ва маданияти, 2023 1(1), 400–404.
- 72.Турсунбаев А. Б. Из истории крестьянского переселения в Казахстан. — Алма-Ата, 1950.
- 73.Tursunova G.B. Rossiya Imperiyasining Sirdaryo viloyatiga aholini ko‘chirish siyosati.(XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlari) // Archive of Conferences2020, 9(1), 198-200.
- 74.Фомченко А. П. Русское население в Туркестанском крае в конце XIX - начале XX вв. Социально-экономический аспект. Ташкент: Фан, 1983.
- 75.Христианское сектантство в Узбекистане.Ташкент,1986.

- 76.Шарова П. Переселенческая политика саризма в Средней Азии // Исторические записки. 1940. № 8. – С. 3-36.
- 77.Шмидт Р.З. Среднеазиатская железная дорога и ее влияние на социально-экономическую жизнь Туркестанского края. 1880-1914 гг. – Ташкент.1965. – 23 с.
- 78.Эргашев Б.Х. Из истории становления и развития общественно-политических идей джадидизма, идеология младобухарцев.-1993.
- 79.Юсупов Х. Переселение дунган на территорию Киргизии и Казахстана. Фрунзе: Киргосиздат, 1961.
- 80.Ямzin И. Л., Вощинин В. И. Учение о колонизации и переселениях. — М. ; Л., 1926.
- 81.Ярматов О.Ш. XIX-XX аср бошларида Туркистанда яшаган һинд фуқароларининг савдо фаолияти тарихидан // Имом Бухорий сабоqlари. Самарқанд.2020. №2.-Б.55.
- 82.G‘аффоров Ш. Тарих ва тақдир: Россия империясидан Туркистонга кўчирилғанлар (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари).–Т.Фан. 2006.–224 б.
- 83.Найитов Ж.Ш. Россия империясининг кўчириш сиёсати ва немис-меннонитлар тақдири ( XIX аср охири – XX аср бошлари) // Илмий хабарнома - Научный вестник. 2018, 1. 65-68.
- 84.Найитов Ж.Ш. Туркистанда янги экин навларини тарқалиши ва улардаги ўзгаришлар (XIX аср охири–XX аср бошлари). – Бухоро: Дурдана нашриёти, 2018. – 212 б.

### **Хорижий адабиётлар**

1. Абашин С.Н. Национализмы в Средней Азии в поисках идентичности. — СПб., 2007.;
2. Абашин С. Советский кишлак. Между колониализмом и модернизацией. –Москва: Новое литературное обозрение, 2015. – 720 с.

3. Арапов Д.Ю. «Необходимо... заняться образованием края» (Саттар-хан Абдулгафаров о задачах русской политики в Средней Азии) // Вестник Евразии. 2004. №1.
4. Адаптация русских в Узбекистане (некоторые проблемы изучения) /Новое в этнографии. Вып. I. М., 1989.
5. Аминов И.И. Коренное население Закаспийской области на государственной и военной службе Российской империи (1881-1917 гг.) // Lex Russica. 2018. №4 (137).
6. Арсланов Р.А., Климашин А.Л. Периодические издания России рубежа XIX-XX вв. о социокультурной адаптации русских переселенцев в Средней Азии // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: История России. 2017. Т. 16. № 3. – С. 347-364.
7. Атушева С. Переселенческая политика сарской России» и,кризис традиционного казахского общества: Мысль. 2000: № 4. – С. 70 -72.
8. Аюпов Т.М. Некоторые аспекты формирования башкирской диаспоры Киргизии в дореволюционный период // Известия АлтГУ. 2019. №2 (106).
9. Баранцева Н.А. Переселение в Енисейскую губернию во второй половине XIX – начале XX века: этносоциальные и демографические аспекты // Вестник Челябинского государственного университета. – Челябинск, 2009. № 38 (176). История. Вып. 37. – 3 с.;
- 10.Батырбаева Ш. Д. Этнодемографическая ситуация в Российской империи в контексте укрепления Российской государственности на рубеже xix - xx вв. (на примере Кыргызстана) // Гуманитарий: актуальные проблемы гуманитарной науки и образования. 2012. №1.
- 11.Бартенева И.В. Переселенческая политика Российской империи в Туркестане во второй половине XIX века // Вестник Кыргызско-Российского Славянского Университета. 2008. Т. 8. № 7. – С. 64-69.

- 12.Бартенева И.Ю. Переселенческое движение в Кыргызстан: во второй половине XIX - начале XX века. Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Бишкек, 2010. – 199 с.
- 13.Бельбаева А. А. Переселенческая политика саризма в Казахстане в конце XIX начале XX веков // Вестник КазГУ. Серия историческая. 1998. № 10. – С. 78 – 82.
- 14.Брежнева С.Н.. "Русские переселенцы в Туркестане: проблемы взаимоотношения с местным населением" *Via in tempore. История. Политология*, vol. 37. № 1 (222), 2016. - С. 113-117.
- 15.Брежнева С.Н. Отражение идеи аккультуразии в переселенческой политике Российской империи в Туркестане на рубеже XIX–XX вв. // Вестник РУДН. Серия: ИСТОРИЯ РОССИИ. 8 Vol. 17 № 3 608–638.
- 16.Брежнева С.Н. Толерантность по-русски: из истории проведения религиозной политики российской империей в Туркестане // Народы и религии Евразии. 2015. №8.
- 17.Брежнева Светлана Николаевна Народы Туркестана в составе Российской империи // Российские регионы: взгляд в будущее. 2017. №1.
- 18.Брусила О.И. Восточнославянское население в сельских районах Узбекистана. Проблемы адаптации и межэтнических взаимодействий / Современное развитие этнических групп Средней Азии и Казахстана. Ч.2. М., 1992.
- 19.Брусила О.И. Славяне в Средней Азии. Этнические и социальные процессы. Конец XIX - конец XX века. М. : Восточная литература РАН, 2001. 240 с.
- 20.Волков И.В. Религиозные аспекты переселенческой политики саризма в Туркестанском крае: 1867-1917. Бишкек: Илим, 2007.
- 21.Волков И.В. Конфессиональные особенности интеграционных процессов в Туркестане (1910-1916 гг.) // Власть. 2009. №4.
- 22.Волков И.В. Миссионерская деятельность православной Серкви на национальных окраинах Российской империи (на примере Туркестана

- второй половины XIX - начала XX в.) // Вестник РУДН. История России. 2010. №1.
23. Волков И.В. Деятельность военной администрации по управлению русским Туркестаном // Власть. 2010. №5.
24. Волков И.В. Система этноконфессиональных отношений в Русском Туркестане как основа межсилиизационного сотрудничества в Средней Азии // Исламоведение. 2016. №2.
25. Волков И.В. Власть и мусульманская школа в Русском Туркестане (1867-1881 гг.) // Власть. 2017. №1.
26. Волков И.В. Социальная политика сарской власти в Русском Туркестане: сфера здравоохранения // Власть. 2019. №1.
27. Галстян М.С., Гайсина Л.Р. Армянская община Русского Туркестана и развитие промыслов в Закаспийской области (последняя трет XIX – начало XX в.) // Исторический журнал: научные исследования. 2017. №4.
28. Галстян М.С. Армянская община Русского Туркестана и становление хлопковой отрасли в Средней Азии // Экономическая история. 2018. №2 (41).
29. Гинзбург А.И. Русское население в Средней Азии // Современное развитие этнических групп Средней Азии и Казахстана. Ч.2. М., 1992.
30. Губаева С. Ферганская долина. Этнические процессы на рубеже XIX-XX вв. LAP Lambert Academic Publishing, 2012.
31. Гибадуллина Э.М. Татарские городские общины южного казахстана во второй половине XIX - начале XX в.: социально-экономический аспект // ИКНСП. 2017. №7.
32. Гитлин С.И. Европейские евреи в русском Туркестане на рубеже XIX-XX вв // Вестник Российской университета дружбы народов. Серия: История России. - 2018. - Т. 17. - №2. - С. 296-319.
33. Гитлин С.И. Европейские евреи в русском Туркестане на рубеже xix-xx вв // Вестник РУДН. История России. 2018. №2.

- 34.Динашева Лазат Сарсенбековна, Юсуп Жахангир Хабиб Народное образование в южных областях Казахстана (вторая половина XIX начало XX вв. ) // Universum: общественные науки. 2015. №4 (14).
- 35.Закирова М.Х. Образ имперской россии в просветительской политике Туркестанского края на рубеже XIX-XX вв. (на примере деятельности Туркестанского отдела Русского географического общества) // РСМ. 2021. №2 (111).
- 36.Исабаева Н. Аграрная политика Российской империи в Северном Кыргызстане во второй половине XIX начале XX в.: Автореф. дисс. .канд. ист. наук. Бишкек, 2006.
- 37.Каганович А. Друзья поневоле: Россия и бухарские евреи, 1800-1917 / науч. Ред. Миллер. А. - М. : новое литературное обозрение, 2016. - 526 с.
- 38.Кальмина Л.В. Евреи в самодержавной России: на пути к статусу «Имперской нации» // Известия Иркутского государственного университета. Серия: История. 2021.
- 39.Кененсариев Т.К. Переселенческий вопрос в политике сарского правительства второй половины XIX начала XX в. (На материалах Киргизии) // Ошол эле китеpte. Бишкек, 1999.
- 40.Коломейсева О.А. "Проект всеподданнейшего отчета К. П. Кауфмана как исторический источник по развитию Туркестанского края конца XIX - начала XX века" Преподавател XXI век. № 3-2, 2018. - С. 273-284.
- 41.Котюкова Т.В. Проблемы российской переселенческой политики в Туркестан в начале XX в. // Военно-исторический журнал. 2010. № 2. – С. 58-64; № 3. – С. 54-57.
- 42.Котюкова Т. В. О вкладе выходцев из стран Западной, Сентральной и северной Европы в научное изучение русского Туркестана в конце XIX – НАЧАЛЕ XX в. // Известия Коми УрО РАН. 2010. №4 (4).
- 43.Кузнесов Д.В.. "Колонизационная и землеустроительная политика самодержавия в Степном крае в период проведения Столыпинской

- агарной реформы (част 1)" Вестник Омского государственного аграрного университета. № 1 (25), 2017. - С. 149-158.
- 44.Литвинов П.П Государство и ислам в Русском Туркестане (1865-1917): (по архивным материалам). – Елес, 1998. – 319 с.
- 45.Литвинов К.А. Россия — многонациональная империя. Возникновение. История. Распад. — М., 2000.
- 46.Литвиненко П.В. Переход Евреев в ислам в дореволюционной Средней Азии // Исламоведение. 2022. №2 (52).
- 47.Логашова Б.-Р. Белуджи в Туркменистане / Современное развитие этнических групп Средней Азии и Казахстана. Ч.2. - М., 1992.
- 48.Лысенко Ю.А., Лысенко М.Ф. Правовое положение мусульман центральноазиатских окраин Российской империи и «Мусульманский вопрос» в системе администрирования региона (вторая половина XIX - начало XX в. ) // Известия АлтГУ. 2016. №2 (90).
- 49.Мадуанов С. Взаимоотношения казахов с другими соседними народами Средней Азии в XVIII начале XX вв. (политические и социально-экономические аспекты). Алматы: Билим, 1995.
- 50.Маразыков Н.К. Садыкова Максатай Токторовна основные факторы особенностей становления строительства жилищ южных киргизов // Бюллетен науки и практики. 2021. №2. ва бошq.
- 51.Мендикулова, Г. М., Надежук, Е. А. Архивные документы о европейских военнопленных Первой мировой войны в Семиреченской области Туркестанского генерал-губернаторства (Case study) // Вестник архивиста. – 2018. – № 4. – С. 996–1008.
- 52.Мийманбаева, Ф.Н. Из истории образования старожильческих переселенческих хозяйств [Текст] / Ф.Н. Мийманбаева // Вестник Казахского Национального педагогического университета имени Абая. Серия: Исторические и социально-политические науки. — 2016. — № 3 (50). — С. 79-82.

- 53.Озмител Е.Е. Православие в Киргизии. XIX-XX вв. Исторический очерк.  
Бишкек: КРСУ, 2003.
- 54.Панченко А.Б., Стafeев О.Н. Инородческий вопрос в дискурсах  
Российской империи: между потребностями государства и  
представителями общества // Вестн. Том. гос. ун-та. 2018. №436.
- 55.Рагимова П. Ф. Особенности национальной политики Российской  
империи в конце XIX -начале XX века // Среднерусский вестник  
общественных наук. 2014. №5 (35).
- 56.Солодова Г.С. Управление Туркестанским краем - некоторые принципы  
установления российского влияния // Вестн. Том. гос. ун-та. Философия.  
Социология. Политология. 2019. №51.
- 57.Сумарокова О.Л. Туркестанская Учительская Семинария // CETERIS  
PARIBUS. 2015. №2.
- 58.Сумарокова, О.Л. Первые учебники русского языка для русско-  
туземных школ Туркестанского края / О. Л. Сумарокова // Новая наука:  
Опыт, традиции, инновации. – 2015. – № 1. – С. 66-71.
- 59.Сумарокова О.Л. К вопросу о лингвистической подготовке  
административных служащих Туркестанского края // Власть. 2016. №2.
- 60.Тарасова Елена Владимировна. "Влияние переселенческого движения  
на земельные отношения в Степном крае и Туркестане в конце XIX  
начале XX в" Известия Алтайского государственного университета, vol.  
2. № 4 (80), 2013. - С. 203-206.
- 61.Тарасова Е.В. Население степных окраин Российской империи накануне  
революции 1917 г // Известия АлтГУ. 2015. №4 (88).
- 62.Тихонов А. К. К политике правительства Российской империи в  
отношении неправославных исповеданий во второй половине XIX -  
начале XX в. (обзор источников) // Вестник Санкт-Петербургского  
университета. История. 2004. №3-4.

63. Тумайкина В.В. Вопрос о китайских эмигрантах, пришедших на территорию Семиречья во второй половине XIX в // Известия АлтГУ. 2008. №4-5.
64. Хамитбаева Н.С. "Татарское население Ташкента в конце XIX - начале XX в" Из истории и культуры народов Среднего Поволжья, № 7, 2017. - С. 127-140.
65. Хелимский Е.И. Массовые источники по истории крестьян-переселенцев в Средней Азии в конце XIX начале XX в. – Бишкек, 1996.
66. Сыряпкина Ю.Н. Деятельность русских военных врачей в ходе организации медицинского дела в Ташкентском уезде Туркестана во второй половине XIX – начале XX вв // Вестник КемГУ. 2017. №1 (69).
67. Сыряпкина Юлия Николаевна. "Русские переселенцы в Туркестане в конце XIX - начале XX в. : основные социокультурные характеристики" Вестник Томского государственного университета. № 411, 2016. - С. 183-187.
68. Avasov E. A. Immigration policy of tsarism in the Ferghana valley // Bulletin of National Academy of sciences of the republic of Kazakhstan. Volume 2, Number 354 (2015), 269 – 274.
69. Beatrice Penati. Land and Water in Tsarist and Early Soviet Central Asia. Locked // <https://doi.org/10.1093/acrefore/9780190277727.013.320>  
Published online: 26 March 2019.
70. Brower Daniel. Turkestan and the Fate of the Russian Empire. – London; New York: Routledge Curzon, 2003. – 184 p.
71. Carrere Encausse H. Islam and the Russian Empire: Reform and Revolution in Central Asia. – London, 1988. – 300 p.
72. Donne Le J. The Russian Empire and the world, 1700-1917. – New-York, Oxford : Oxford University Press, 1997. –394 p.
73. Horde and Russian colonialism in the nineteenth century. Ruchmond, Surrey. 2001.

- 74.John Whitman. Turkestan Cotton in Imperial Russia // The American Slavic and East European Review. Vol. 15, No. 2 (Apr., 1956). - C. 190-205.
- 75.Morrison A. The Pahlen Commission and the restoration of rectitude in colonial Transcaspia, 1908 – 1909// Enqueter dans les societes coloniales, monograph issue of Monde(s). Histoire, Espaces, Relations. – №.4. – 2013. – P.45 – 64.
- 76.Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1997. – 300 p.
- 77.Khalid A. « Culture and Power in Colonial Turkestan », Cahiers d'Asie centrale, 17/18 | 2009, 413-447.
- 78.Morrison A. Russian Rule in Samarkand 1868-1910: A Comparison with British India. – Oxford and New York: Oxford University Press, 2008. – 395 p.
- 79.Morrison A. Peasant Settlers and the ‘Civilising Mission’ in Russian Turkestan, 1865–1917 // The Journal of Imperial and Commonwealth History. December 2014 43(3):1-31.DOI: 10.1080/03086534.2014.941166.
- 80.Morrison A. Introduction: Killing the Cotton Canard and Getting rid of the Great Game: rewriting the Russian conquest of Central Asia, 1814-1895// Special Issue: The Russian Conquest of Central Asia Central Asian Survey. – №.2 – 2014. – P.131–142.
- 81.Muriel J. Diamond in the rough: The state, entrepreneurs and Turkestan's hidden resources in late imperial Russia // Extending the borders of Russian history. Budapest, 2003. P. 183-196.
- 82.Rakovska-Harmstone T. Russian and Nationalizm in Central Asia. Baltimore, 1970.
- 83.Raeff M. Patterns of Russian Imperial Policy Towards the Nationality Problems. N.Y.- Lnd. 1971.P. 28-30.
- 84.Tillet R. The Great Friendship: Soviet historians on the Non-Russian nationalities. – Chapel Hill, 1969. – 280 p.

## **Диссертация ва авторефератлар**

1. Абдурахимова Н.А. Колониальная система власти в Туркестане (вторая половина XIX- начало XX вв.): Диссертация на соискания ученой степени доктора исторических наук. – Ташкент, 1994.
2. Алимджанов Б.А. Экономическая политика Российской империи в туркестанском генерал-губернаторстве (вторая половина XIX-начало XX вв.): дисс. ... канд. ист. наук. – Санкт-Петербург 2016. – 376 с.
3. Базарбаев А. XIX аср охири–XX аср бошларида Мирзачўлда аграр муносабатлардаги ўзгаришлар. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. – Тошкент, 2018.
4. Дворкина Е. Национально-колониальная политика самодержавия в первые годы сарского владычества в Туркестане (1967-1981 гг.) Дис. .канд.ист.наук Ташкент, 1943.
5. Жабборов М.Р. Освещение истории Ферганской области в Туркестанском сборнике» (конец XIX - начала XX вв.): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. - Т., 2000.
6. Жўраев Х.П. “Туркистонга кўчирилган аҳолининг ижтимоий ва иқтисодий haёти (XIX аср охири – XX аср бошлари)” мавзусидаги 07.00.01 – Ўзбекистон тарихи ихтисослиги бўйича тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Фарғ‘она 2022;
7. Каримова Р.Б. Художественные ремесла и промыслы уйгуров Средней Азии и Казахстана (конец XIX-XX в.) Автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. ист. наук (07.00.07). – Ленинград, 1989. – 21 с.
8. Курахмедов А.Э. Экономическая и культурная жизнь Самаркандинской области второй половине XIX–начале XX в (по материалам Туркестанского сборника) Автореф. дисс...канд...ист.наук. – Ташкент, 2001.
9. Махкамова, Н.Р. Социальная структура общества на территории Узбекистана: традиции и трансформации (конец XIX в. – 30-е годы XX в.) : дисс. ... док. ист. наук. – Т., 2009. – 323 с.

- 10.Махмудов М. Становление и развитие медицины и здравоохранение в Средней Азии (1865–1924 гг.): Дис./ М. Махмудов.- Т., 1991.- 243 с.
- 11.Маттиев У.Б. XIX аср ўрталари – XX аср бошларида Туркистанда афғ‘он фуқаролари тарихи. Тарих фанлари бўйича фалсафа фанлари доктори диссертацияси автореферати. - Самарқанд.2022.;
- 12.Махмудова Н.Б. XX аср бошида Туркистанда маъмурий бошқарув тизими ва ижтимоий–иқтисодий ахвол (сенатор К.К. Паленнинг тафтиш материаллари асосида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. - Тошкент, 2018;
- 13.Мусаев Н.У. Формирование и развитие промышленного производства в Туркестане (конес, XIX–начале XX). Автореф. дис... на соиск. док.ист.наук.–Ташкент, 2009
- 14.Потапова Н.Ю. История предпринимательства в Туркестане (вторая половина XIX - начала XX вв.): Автореф. дис. ... канд. ист. наук. - Т., 2002.
- 15.Пуговкина О.Б. История Туркестана в наследии русской историографии середины XIX–начала XX вв. (Политические и экономические аспекты) Автореферат. дис...канд...ист.наук. - Ташкент, 2006;
- 16.Рахимов Б.Э. “Туркистон генерал-губернаторлигига Каспийорти вилоятининг тутган ўрни” мавзусидаги 07.00.01 – Ўзбекистон тарихи тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2022. – 50 б.;
- 17.Саипова К.Д. История национальных меньшинств в Узбекистане в 1917–1990 годах. Диссертация на соискание ученой степени доктора исторических наук (DSc). – Ташкент, 2021. – 242 с.
- 18.Сугуралиева Ф.У. История становления, эволюции и деятельности хозяйственных государственных колониального Туркестана (1867–1917гг.) Автореф. дисс. канд. ист. наук. –Ташкент, 2006.

19. Суюнова О. Туркистанда 1916 йилги миллий-озодлик кураши (Сирдарё вилояти мисолида). Тарих фанлари номзоди .дисс. автореф. – Тошкент, 1997.
20. Тайронов, Ё.Р. Общественно политическая деятельность туркестанских предпринимателей в начале XX века : автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Т., 2011. – 27 с.
21. Ураков Д.Ж. Официальные отчеты Российской администрации в Туркестане как исторический источник (конец XIX в.-начало XX в.). Автореф. дисс...канд...ист.наук. – Ташкент, 2005
22. Усаров У.А. “Россия империясининг Туркистон ўлкасидаги ер-сув муносабатларига оид сиёсати” мавзусидаги 07.00.01 – Ўзбекистон тарихи тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2021. – 51 б.
23. Хайитов Ш.Ж. Туркистанда янги экин навларининг тарқалиши ва улардаги ўзгаришлар (XIX аср охири–XX аср бошлари) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Андижон, 2020.
24. Хамраева Т.Р. Создание статистической службы в Туркестане и её деятельность конец XIX–начало XX вв. (на примере Ферганской области). Автореф. дисс...канд...ист.наук. – Ташкент, 2012;
25. Шодмонова С.Б. Вопросы социально-экономического и культурного положения Туркестана на страницах периодической печати (1870–1917 г.г.). Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора исторических наук. – Ташкент, 2011
26. Элова Д.Д. “XIX аср охири -XX аср бошларида Туркистонга янги техникалар тарқалишининг ижтимоий-иқтисодий ва маданий-майорий ҳаётга таъсири” мавзусидаги 07.00.01 – Ўзбекистон тарихи тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2022. – 56 б.;

27. Эргашев Б.Э. Туркистон генерал-губернаторлиги маҳкамасининг иш юритиши фаолияти (тарихий-манбавий таҳлил) мавзусидаги 07.00.01 – Ўзбекистон тарихи тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2018.
28. Ярматов О.Ш. “Туркистондаги һинд фуқаролари тарихи (XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошлари)” мавзусидаги 07.00.01 – Ўзбекистон тарихи тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2023. – 49 б.

## **IX.Интернет материаллари**

1. Зияева Д.Х. Неисламские религии в Туркестане во второй половине XIX – начале XX в. // [https://www.academia.edu/12448029/Неисламские\\_религии\\_в\\_Туркестане\\_во\\_второй\\_половине\\_XIX\\_начале\\_XX\\_в](https://www.academia.edu/12448029/Неисламские_религии_в_Туркестане_во_второй_половине_XIX_начале_XX_в)
2. Ziyaeva Dono H. The cultural life in the cities of Turkestan (at the end of 19 th and the beginning of 20 th Century) // [https://www.academia.edu/16076347/Education\\_and\\_culture\\_in\\_Turkestan](https://www.academia.edu/16076347/Education_and_culture_in_Turkestan)
3. Зияева Д.Х. Русские духовно-культурные и благотворительные общества в городах Туркестана // [https://www.academia.edu/16259910/Русские\\_духовно\\_культурные\\_и\\_благотворительные\\_общества\\_в\\_городах\\_Туркестана](https://www.academia.edu/16259910/Русские_духовно_культурные_и_благотворительные_общества_в_городах_Туркестана);
4. Зияева Д.Х. Из истории медицины и здравоохранения в Туркестане // [https://www.academia.edu/19056895/Из\\_истории\\_медицины\\_и\\_здравоохранения\\_в\\_Туркестане](https://www.academia.edu/19056895/Из_истории_медицины_и_здравоохранения_в_Туркестане)
5. Зияева Д.Х. Городская культура в Туркестане в консе – начале XX вв.: традиции и транформации // [https://www.academia.edu/12448081/Городская\\_культура\\_в\\_Туркестане\\_в\\_консе\\_начале\\_XX\\_вв\\_традиции\\_и\\_транформации](https://www.academia.edu/12448081/Городская_культура_в_Туркестане_в_консе_начале_XX_вв_традиции_и_транформации)
6. Зияева Д.Х. Народные театры Туркестана в консе 19-начале 20 вв.: традиции и трансформации //

[https://www.academia.edu/19056729/Народные\\_театры\\_Туркестана\\_в\\_ко\\_нсе\\_19\\_начале\\_20вв\\_традиции\\_и\\_трансформация](https://www.academia.edu/19056729/Народные_театры_Туркестана_в_ко_нсе_19_начале_20вв_традиции_и_трансформация)

7. Мухамедов Ш.Б. История русского Туркестана: правда и вымысел. Взгляд историка из XXI века // Метаморфозы истории. 2013. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/istoriya-russkogo-turkestana-pravda-i-vymysel-vzglyad-istorika-iz-xxi-veka> (дата обращения: 04.10.2022).
  8. Мухамедов Ш.Б.. Учебное дело в русском Туркестане: организазия краевого управления и первые шаги // Метаморфозы истории. 2017. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/uchebnoe-delo-v-russkom-turkestane-organizatsiya-kraevogo-upravleniya-i-perve-shagi> (дата обращения: 04.10.2022)
  9. Мухамедов Ш.Б. Учебное дело в русском Туркестане: В. П. Наливкин и "туземные" мактабы и медресе // Метаморфозы истории. 2018. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/uchebnoe-delo-v-russkom-turkestane-v-p-nalivkin-i-tuzemne-maktaby-i-medrese> (дата обращения: 04.10.2022)
- 10.[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
- 11.<http://diss.natlib.uz/>
- 12.<https://www.academia.edu/>
- 13.<https://www.prlib.ru/>
- 14.<https://www.researchgate.net/>
- 15.<https://www.dissercat.com/>
- 16.<https://cyberleninka.ru/>
- 17.<http://www.demoscope.ru/>
- 18.<https://shosh.uz/>